

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

S. JUMAYEVA

**MUTOLAA
MADANIYATI VA
IFODALI O‘QISH**

*O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan
5350600 - Kutubxona-axborot faoliyati (kutubxonachilik va bibliografiya)
yo‘nalishi talabalari uchun o‘quv qo‘llanma sifatida
tavsiya etilgan*

‘Nasaf’ NMIU
2021

UO‘K 894.375:020(075)

KBK 78

J – 87

Jumayeva, Salima.

Salima Jumayeva/Mutolaa madaniyati va ifodali o‘qish/o‘quv qo‘llanma.
– Qarshi: Nasaf NMIU. 2021, 180 bet.

ISBN 978-9943-18-314-8

KBK 78

Yangi davr yangi darsliklar yaratishni kun tartibiga dolzarb masala qilib qo‘ydi. Ayniqsa, iqtidorli talabalar, kitobxon yoshlar bilan ishlash, ularga mutolaa madaniyati sirlarini chuqurroq o‘rgatish, badiiy asar mohiyatini teranroq anglashlarini ta‘minlashga zarurat uyg‘otdi. Ushbu o‘quv qo‘llanma “Mutolaa madaniyati va ifodali o‘qish” fanidan yaratilgan bo‘lib, unda o‘rganish bo‘yicha 5350600 - Kutubxona-axborot faoliyati (kutubxonachilik va bibliografiya) ta‘lim yo‘nalishi talabalari uchun mo‘ljallangan. Qo‘llanma bugungi kun talablaridan kelib chiqqan holda bo‘lajak kutubxona-axborot faoliyati xodimlarini kitobxonlik, mutolaa madaniyati va ifodali o‘qish san‘ati bilan bog‘liq nazariy va amaliy jarayonlardan xabardor qilish, shuningdek, ularning sohaga oid bilim, ko‘nikma va malakalarini takomillashtirishni nazarda tutadi.

Qo‘llanmadan oliy o‘quv yurtlarining kutubxonachilik, bibliografiya va filologiya mutaxassisligi buyicha ta‘lim olayotgan talabalar, magistrlar, adabiyot o‘qituvchilari hamda mutolaa madaniyati va notiqlik san‘ati masalalari bilan qiziquvchilar ham foydalanishlari mumkin.

В настоящее время поставила на повестку дня вопрос создания новых учебников. Появилось необходимость работы талантливым учениками, в частности, с юными читателями, обучать их секретам культуры чтения, давать им более глубокое понимание сути художественного произведения. Учебник основан на предмете “Культура чтения и выразительное чтение”, который предназначен для студентов специальности 5350600 - Библиотечно-информационная деятельность (Библиотека и библиография). Пособие предназначено для информирования будущих библиотечно – информационных сотрудников о теоретических и практических процессах, связанных с чтением, культурой чтения и искусством выразительного чтения, а также об их знаниях и навыках в этой области и улучшении их навыков.

Пособие предназначено для студентов, специалистов библиотечного дела, библиографии и филологии, магистры, учителя литературы, а также всем, кто интересуется культурой чтения и публичными выступлениями.

The new era has put new textbooks on the agenda. Talented students, in particular, need to work with young readers, to teach them the secrets of the culture of reading, to give them a deeper understanding of the essence of the work of art. This textbook is based on the subject “Reading culture and expressive reading”, which is designed for students majoring in 5350600 - Library and Information Activities (library and bibliography). The manual is aimed at informing future library and information staff about the theoretical and practical processes related to reading, reading culture and the art of expressive reading, as well as their knowledge and skills in the field and improving their skills.

The guide can be used by university students majoring in librarianship, bibliography and philology, masters, literature teachers and those who are interested in problems of reading culture and public speaking.

Mas’ul muharrir

Nafas SHODMONOV

Filologiya fanlari doktori

Taqrizchilar

Boynazar YO‘LDOSHEV,

Qarshi davlat universiteti professori,
filologiya fanlari doktori

Rahimboy JUMANIYOZOV,

“Notiqlik san’ati akademiyasi” ta’lim
muassasasi rahbari. Filologiya fanlari nomzodi, dotsent

© S.Jumayeva, 2021-yil

© “Nasaf” NMIU, 2021-yil

ISBN 978-9943-18-314-8

Kimning qanday o‘qishi unung shunday tushunishidir. O‘qishdan maqsad - uqish, mutolaadan maqsad mushohadadir. Mushohadasiz mutolaa – tashxissiz muolaja.

R. JUMANIYOZOV

SO‘ZBOSHI

“Mutolaa madaniyati va ifodali o‘qish” fani talabalarning kitobxonlik madaniyatini shakllantirishda, badiiy asarning g‘oyaviy mazmunini chuqur anglashda, poetik xususiyatlarini teran tahlil qilishda beqiyos ahamiyat kasb etadi. Barcha janrdagi asarlar bir xilda o‘qilmaganidek, hamma ham ifodali o‘qiy olish qobiliyatiga ega emas. Shundan kelib chiqib, talabalarga mutolaa madaniyatining nazariy va amaliy masalalari haqida ma’lumot berish, unga bog‘liq ravishda nutq texnikasi, badiiy matn tanlash hamda uni ifodali o‘qish borasidagi bilim va ko‘nikmalarini shakllantirish ham dolzarb masaladir.

“Kitob bu ma’naviyat, ma’naviyat – bu kitobdir”¹. Zero, insoniyat zuryodining irodasini mustahkamlovchi, ma’naviy dunyosini boyituvchi, ongu tafakkurini charxlovchi qudratli vosita – kitobdir. “Kitob bo‘lmasa, kitobdan yog‘ilib turgan ziyo bo‘lmasa, inson taraqqiyotining hozirgi yorug‘ cho‘qqisiga yetmas edi”, – deb yozgan edi buyuk o‘zbek adiblaridan biri G‘afur G‘ulom. Inson axloqiy komillik, yuksak bilimdonlik sari intilar ekan, yetuklikka eltuvchi muhim omillardan biri bo‘lgan badiiy adabiyotga doimo oshufta bo‘ladi. Jahon adabiyotining eng sara asarlarini, milliy so‘z san’atimizning yorqin namunalarini muntazam mutolaa qilib borish ana shunday ko‘lamdor mehnatni kutadi. Buning uchun ba’zi oddiy kitobxonlar singari adabiy asarlarga shunchaki qiziquvchanlik bilan emas, balki uning nazariy qonun-qoidalarini biluvchi, ijod mahsulini baholay oluvchi, ibratli tomonlarini hayotga tadbiq etuvchi, izlanuvchanlikda ajralib turuvchi zukko o‘quvchi sifatida murojaat qilish lozim. Cho‘lpon yozganidek: “Hech to‘xtamasdan harakat qilib

¹“Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida”gi PQ-3271-sonli Qaror.//Xalq so‘zi, 2017 yil 13 sentabr.

turgan vujudimizga, tanimizga suv, havo naqadar zarur bo'lsa, maishat yo'lida har xil qaro kirlar ila xiralangan ruhimiz uchun shul qadar adabiyot kerakdir. Adabiyot yashasa, millat yashar: adabiyoti gullamagan va adabiyotining taraqqiysiga cholishmagan va adiblar yetishtirmagan millat oxiri bir kun hissiyotidan, o'ydin fikran mahrum qolib, sekin-sekin inqiroz bo'lur. Buni inkor qilib bo'lmas" ("Adabiyot nadur?" maqolasidan). Ichki olamimizni hech narsa badiiy adabiyotchilik benazir boyita olmaydi. Ruhiyatimizni hech narsa kitobchalik, o'qish-o'rganish mehnatchilik muvozanatga, to'g'ri yo'lga sola olmaydi. Shu boisdan ham intellektual rivojlanish bosqichida kitobxonlik madaniyatining o'rin beqiyosdir.

"Mutolaa madaniyati va ifodali o'qish" fani talabalarni badiiy asar mohiyatini teran anglash, tahlil qilish, yozuvchi yoki shoir g'oyaviy-badiiy niyatini ilg'ash, mumtoz asarlar matni ustida ishlash hamda ularni sharhlab o'qishda zarur bo'lgan bilimlar bilan qurollantiradi. Shuningdek, o'zbek adabiyotini tarixiy va nazariy poetika, jahon adabiyoti kontekstida tushunadigan, og'zaki va yozma nutqi ravon, barmoq va aruz vaznidagi she'rlarni ifodali o'qiy oladigan, mutolaa madaniyati va notqlik san'ati bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarni egallagan, zamonaviy ta'lim texnologiyalarini chuqur o'zlashtirgan, davr talablariga javob beradigan yuksak malakali pedagog kadrlar va ilmiy xodimlar tayyorlashni ko'zda tutadi.

Muallif qo'llanmani yanada mukammallashtirib borish, xususan, uni boyitish, davom ettirish, adabiy-ijtimoiy sohada o'ziga xos ahamiyat kasb etayotgan ma'lumotlar bilan saralab to'ldirish yo'lida Sizning fikr-mulohazalaringizga suyanadi, inobatga oladi.

KIRISH. “MUTOLAA MADANIYATI” FANINING PREDMETI

Reja:

1. Mutolaa madaniyati fani o‘zining qadim ildizlariga egaligi, uning manbalari, adabiyot materiallari ekanligi.

2. Badiiy asardagi matn kompozitsion qismlar so‘z, jumla, tovush va matn semantikasi fanning asosiy predmeti bo‘lib xizmat qilishi.

3. Mutolaa madaniyatining kitobga qiziqishni, odamlarning adabiyotlar bilan kengroq tanishish rag‘batini oshirish, kitob bilan ishlashda maxsus bilimga ega bo‘lish, axborot manbalaridan to‘liq foydalanishga yordam beruvchi ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishni taqozo etishi.

4. Kitobni tanlash, uni tez o‘qish, avaylab saqlash, shaxsiy kutubxona tashkil etish, o‘qilgan kitoblarni boshqalarga tavsiya eta olish ham mutolaa madaniyati shartlari ekanligi.

Tayanch so‘z va iboralar: Mutolaa madaniyati, badiiy adabiyot, badiiy matn, so‘z, jumla, tovush, matn semantikasi, ifodali o‘qish, madaniy nutq, kitob, kitobxonlik, kitobga qiziqish, kitob bilan ishlash, kitobni tanlash, ko‘nikma va malaka, kitobni tez o‘qish, avaylab saqlash, boshqalarga tavsiya eta olish, shaxsiy kutubxona, axborot manbalari, mutolaa madaniyati shartlari.

ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh.M. Adabiyot va san‘at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma‘naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir (O‘zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi ma‘ruza) // O‘zbekiston adabiyoti va san‘ati, 2017 yil, 4 avgust.

2. Mirziyoyev Sh.M. O‘qituvchi va murabbiylar – yangi O‘zbekistonni barpo etishda katta kuch, tayanch va suyanchimizdir! (“O‘qituvchi va murabbiylar kuni”ga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi)// Xalq so‘zi, 2020 yil 1 oktabr.

3. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q. – Toshkent: O‘zbekiston. 1998.

4. “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida”gi PQ-3271-sonli Qaror.//Xalq so‘zi, 2017 yil 13 sentabr.

5. Fitrat A. Eng eski turk adabiyotining namunalari. –Toshkent-Samarqand, 1927.

6. Mahmudov N. O‘qituvchi nutqi madaniyati. –T.: O‘zbekiston Milliy kutubxonasi, 2007.

7. Bekmirzayev N. Notiqlik san’ati asoslari. –Toshkent: O‘qituvchi, 2008.

8. Normatov U. Tafakkur yog‘dusi. –T.: Fikr-media, 2005.

9. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. –T.: Xalq merosi, 2004.

1. Mutolaa madaniyati fani o‘zining qadim ildizlariga egaligi, uning manbalari, adabiyot materiallari ekanligi. Ma’lumki, O‘rta Osiyo xalqlari, jumladan o‘zbek xalqi uzoq asrlar davomida dunyo fani va madaniyati taraqqiyotiga o‘z hissasini qo‘shib kelgan. “Tarixga nazar solsak, Buyuk ipak yo‘lining chorrahasida joylashgan ona zaminimiz azaldan yuksak sivilizatsiya va madaniyat o‘choqlaridan biri bo‘lganini ko‘ramiz. Xalqimizning boy ilmiy-madaniy merosi, toshga muhrlangan qadimiy yozuvlar, bebaho me’moriy obidalar, nodir qo‘lyozmalar, turli osori atiqalar davlatchilik tariximizning uch ming yillik teran ildizlaridan dalolat beradi.”² Zero, O‘zbekiston deb ataluvchi hudud, ya’ni bizning Vatanimiz nafaqat Sharq, balki umumjahon sivilizatsiyasi beshiklaridan biri bo‘lganini butun jahon tan olmoqda. Bu qadimiy va tabarruk tuproqdan buyuk allomalar, fozilu fuzalolar, olimu ulamolar, siyosatchilar, sarkardalar yetishib chiqqan. Diniy va dunyoviy ilmlarning asoslari mana shu zaminda yaratilgan, sayqal topgan... Beshafqat davr sinovlaridan omon qolgan, eng qadimgi toshyozuvlar, bitiklardan tortib, bugun kutubxonalarimiz xazinasida saqlanayotgan 20 mingdan ortiq qo‘lyozma, ularda mujassamlashgan tarix, adabiyot, san’at, siyosat, axloq, falsafa, tibbiyot, matematika, fizika, kimyo, astronomiya, me’morchilik, dehqonchilikka oid o‘n minglab asarlar bizning beqiyos ma’naviy boyligimiz, iftixorimizdir. Bunchalik katta merosga ega bo‘lgan xalq dunyoda kam topiladi”³. Shu ma’noda, mutolaa

²Mirziyoyev Sh.M. O‘qituvchi va murabbiylar – yangi O‘zbekistonni barpo etishda katta kuch, tayanch va suyanchimizdir! (“O‘qituvchi va murabbiylar kuni”ga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi) // Xalq so‘zi, 30-sentabr, 2020 yil.

³Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q. – Toshkent: O‘zbekiston.1998.126-bet.

madaniyati fani ham ajdodlarimizning ilgʻor falsafiy qarashlari, davr uchun yetakchi boʻlgan fan sohalarining yutuqlari bilan uzviy bogʻliq faoliyatlarda yuzaga kelgan, deyishga toʻla haqlimiz.

Sohaga oid maʼlumotlar madaniyatimiz tarixiga doir manbalarda oʻz aksini topgan. Xususan, Oʻrxun-Enasoy yodgorliklari, Mahmud Qoshgʻariyning “Devonu lugʻotit turk”, Abu Abdullo al-Xorazmiyning “Mafatix al-ulum”, Yusuf Xos Hojibning “Qutadgʻu bilig”, Ahmad Yugnakiyning “Hibat-ul haqoyiq”, Nosiruddin Burhonuddin Rabgʻuziyning “Qisasi Rabgʻuziy”, Xondamirning “Makorim ul-axloq”, shuningdek, Alisher Navoiy hamda Zahiriddin Muhammad Bobur kabi ulugʻ mutafakkirlar asarlarida uchraydi. Jumladan, Oʻrxun-Enasoy yodgorliklari turkiy qavmlarning jahon xalqlari orasida eng qadimiy va yetuk madaniyatga ega boʻlganligidan dalolat beradi. Uning ham tarixiy, ham siyosiy, ham madaniy jihatdan beqiyos darajada qimmatli manba ekanligi dunyoning yirik mutaxassislari tomonidan allaqachon oʻz isbotini topgan.

Maʼlumki, turkiy tilga oid yozma yodgorliklarning eng qadimiysi hisoblangan “Alp Er Toʻnga” dostonidagi ayrim parchalar xalqimiz tarixidan soʻz yuritadi. Bu doston xususida birinchilardan boʻlib maxsus tadqiqotlar olib borgan olim professor Abdurauf Fitrat Alp Er Toʻngaga bagʻishlangan 400 satrli marsiya, Alpning tangʻuklar bilan olib borgan jangiga oid 32 satrli sheʼr, qish va yoz manzaralariga bagʻishlangan 86 satrli sherʼiy misralarni adabiy manbalarning eng qadimgi namunalari deb baholagan⁴.

Dostonda hikoya qilinishicha, Alp Er Toʻngani Eron shohi Kayxusrav ziyofat paytida mayga zahar qoʻshib berib oʻldiradi. Oʻlimi muqarrarligini sezgan Alp sadoqatli yorini eslaydi va yaqin odamlaridan iltijo qiladi:

Turkon xotun huzuriga
Mendan yetkur vido qoʻshigʻin.
Aytgin: menga qilgan xizmatni
Qilar tobugʻchi endi unga...

Turon malikasining sevikli yori Alpni eslab chekkan musibatlarini esa quyidagi satrlarda ifodalanadi:

⁴ Fitrat A. Eng eski turk adabiyotining namunalari. – Toshkent-Samarqand, 1927.

Ketdi ko‘zimning nuri,
Ketdi tanimning ruhi.
Qaydan topay sevganim?
Qoldi cheki yo‘q qayg‘u...

Iztirobga to‘liq samimiy satrlar Turon Sharqida ma‘lum darajada badiiy ijodning yuksakligini isbotlaydi. Shu o‘rinda xalq og‘zaki ijodining ilk tajribalari badiiy so‘z san‘atining ravnaqi va yozma adabiyotning shakllanishi uchun boy manba bo‘lib xizmat qilganligini ta’kidlash joizdir.

Yana bir misol. “Qisasi Rabg‘uziy” asari muqaddimasida muallif shunday yozadi: “Payg‘ambarlar qissalariga g‘oyat rag‘batim bor. Tekma yerda, tekma kim ersa-da, bo‘linur ba‘zisi mustaqim bor, ba‘zisi nomustaqim. Bir angasi muqarrar va bir angasi mubattar bor. Bir ozining so‘zlari kesuk bor, bir ozining maqsudlari o‘ksuk. Emdi saning zimmangdin chiqg‘an, qalamungdan oqg‘an, kitobatma saning, ibratma saning bo‘lub, “Qisasul Anbiyo” bo‘lsa, o‘qumoqg‘a keraklig, o‘rganmoqqa yarog‘lig‘ bo‘lg‘ay erdi, teb iltimos yanglig‘ ishorat bo‘ldi ersa nechama o‘zumni ul ishga loyiq, ul amalga muvofiq ermasin teb, bu og‘ir ishga o‘g‘radimiz (kirishdik, qo‘l urdik).”

Shuningdek, nutq odobi hamda ta‘lim-tarbiyaga oid adabiy-ma‘rifiy manbalar ham qadimiy davrlardan beri asrlar sadosi, uzoq o‘tmish bilan hamnafaslik hissini uyg‘otuvchi mangu chaqiriq va zamonlararo ko‘prik vazifasini o‘tib kelmoqda. Ushbu asarlarning saqlanishi va yashab kelishida oilaviy kitobxonliklar, bir til jamoasi doirasida amal qilingan an‘anaviy qissaxonliklar jarayoni muhim o‘rin tutgan.

Sharqda, ayniqsa, nutqiy odob meyorlari haqida yozilgan adabiyotlarni mutolaa qilish muhim tarbiyaviy ahamiyat kasb etgan. Hikmatni oltin, deb bilgan dono xalqimiz bunday asarlarning inson kamolotidagi g‘oyat yuksak o‘rnini to‘g‘ri ilg‘aganlar. Birgina misol, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asarining o‘z davrida chinliklar “Adab-ul-muluk” – “Hukmdorlar odobi”, mochinliklar “Oyin-ul-mamlakat” – “Mamlakatning tartib usuli”, sharqliklar “Zain-ul-umaro” – “Amirlar ziynati”, eronliklar “Shohnomai turkiy”, turonliklar “Qutadg‘u bilig”, ba‘zilar “Pandnomai muluk” – “Hukmdorlar pandnomasi” degan e’tiroflar ila qo‘lma-qo‘l bo‘lganligi tarixiy haqiqat.

Yusuf Xos Hojib o‘z zamonasining donishmandi, turli ilmlardan bahs yuritishga qodir olim va fozil kishisi, faylasufi edi. Shuning uchun ham u o‘z asarida ilm-fan, bilim-zakovat, ma’rifat targ‘ibotchisi sifatida namoyon bo‘ladi. U kishilarni tinmay ilm olishga, bu ilmni amalda tadbqiq qilishga undaydi. U ilm ahlini qadrlashga chaqiradi:

O‘quv qayda bo‘lsa, ulug‘lik bo‘lar,
Bilim kimda bo‘lsa, buyuklik o‘lar.
Bilimsiz kishilar bo‘lar ko‘r misol,
Bilimsiz, bilimdan kelib hissa ol.
Hamma xayrli ishlar bilim nafidur
Bilim hatto osmon sari yo‘l ochur.

Xulosa qilib aytganda, adabiy manbalar mutolaa madaniyati fanining asosiy obyekti bo‘lib, bu soha insonni fikrlar, tuyg‘ular va tasavvurlar olamiga kirib borish asosida shakllandi. Binobarin, badiiy adabiyot mutolaa madaniyati fani bilan yaxlitlik kasb etadi. Chunki mutolaa jarayoni ijtimoiy-ma’naviy faoliyat turi sifatida badiiy ijod bilan uzviy aloqada yashaydi, bir-birini to‘ldiradi, boyitadi, bir-biriga yangilik beradi, xulosalarini asoslaydi va tasdiqlaydi. Shuningdek, badiiy adabiyotning jamiyat ma’naviy hayotdagi yuksak o‘rni, o‘ziga xos xususiyatlari, ijodkorlarning hayoti va ijodiy faoliyatini o‘rganish hamda keng targ‘ib etishda ham ahamiyati beqiyosdir.

Mutolaa ilmining bugungi qiyofasini kashf etish qadimdan qolgan an’anadir. Albatta, bu an’ana yangicha ilmiy tafakkurga, navbatdagi bosqich harakatidagi estetika talablariga javob berishi uchun sohada hozirgacha erishilgan yutuqlar, tajribalar, saboqlar umumlashtirilishi lozim. Va ularning cho‘qqisida turib badiiy o‘qishning sir-u asrori, mutolaa texnologiyasining o‘ziga xos jihatlari haqida mushohada yuritish maqsadga muvofiqdir.

2. Badiiy asardagi matn kompozitsion qismlar so‘z, jumla, tovush va matn semantikasi fanning asosiy predmeti bo‘lib xizmat qilishi. Tilshunoslikda faol iste’molda bo‘lgan “matn tilshunos uchun muayyan xususiyatlar majmuiga ega bo‘lgan, tabiiy (milliy) tilni qo‘llash aktidir”⁵. Lingvistik ta’limotda matnning mantiqiy aloqadorigi va shakliy tugallanganligi asosiy xususiyat sanaladi. Shuning uchun ham unga “ma’no aloqadorligi asosida birlashgan verbal (so‘z) belgi

⁵Xalizev V.Ye. Teoriya literaturi. Izd. 4. M.: Visshaya shkola, 2005. -S.254.

birliklarining tizimi, uning asosiy xususiyati bog‘liqlik va yaxlitlikdir” deb ta’rif beriladi⁶. Matn tilshunosligi deb nomlanuvchi til ilmi matnni shakllantirilgan nutq sifatida qabul qilib, uning ma’noviy va shakliy qurilishiga ahamiyat qaratadi. S.Valerning yozishicha, matn lingvistik namuna sifatida uch ma’noviy jihatni qamrab oladi:

- 1) chiziqli (sintaktik ma’no) → nima haqda (xabar);
- 2) referension (semantik ma’no) → nima bilan (aloqa vositasi);
- 3) utilitar (pragmatik ma’no) → nimani (tavsiya etilayotgan reallik, mavzu bo‘lishi mumkin) gapiradi.

Shu jihatdan matn vositasida uch savolga javob olinadi:

- 1) matn nima haqda gapiradi (matn mazmunidagi xabar);
 - 2) matn nima bilan gapiradi – til (aloqa vositasi);
 - 3) nimani gapiradi (tavsiya etayotgan reallik konsepsiyasi).
- Tilshunos matndagi fikrlash tarzi, mantiqdagi “sillologizm”dan ko‘ra unga grammatik ko‘rinishdagi gaplar, konstruksiyalangan leksik va stilistik birliklar jihatidan qaraydi. Sof lisoniy munosabat – bu belgining belgiga va til tizimi doirasidagi belgilarga yoki matnga munosabatidir.

So‘z san’ati bo‘lmish badiiy asar matnini tushunish, o‘zlashtirish usullarining anglanishi mutolaa jarayonining asosini tashkil etadi. Mutolaa jarayonida o‘quvchining yozma nutq orqali asar muallifi, obrazlari bilan muloqati yuzaga keladi. Demak, matnning og‘zaki va yozma turlaridan qat’i nazar adabiyotshunos uchun dastlab badiiy va nobadiiy matn farqlanishi zarur. Badiiy matnda obraz (timsol) asosiy faoliyat vositasi va harakat quroli hisoblanadi, nobadiiy matnda esa konsept – tushuncha, masala, muammo va boshqa jihatlar bu vazifani bajarishi mumkin. Har qanday verbal (so‘z yordamida hosil qilingan) matn o‘zining

- A) kommunikativ – xabar berish,
- B) evristik – ma’lumot to‘plash,
- V) konseptual - matn yuboruvchining nuqtai nazari;
- G) emotsional - his ko‘chirish belgilariga ega.

Badiiy matn esa bulardan tashqari estetik, ijtimoiy, axloqiy vazifalarni ham o‘z zimmasiga oladi. Badiiy matnda nutq birliklari xabar berish, ma’lumot (axborot) tarqatish, fikr qo‘zg‘otish bilan

⁶Bolshoy ensiklopedichesky slovar: Yazikoznaniye / Pod red. V.N.Yarsevoy. M.: BRE (Bolshaya Rossiyskaya ensiklopediya), 1998. S. 507.

cheklanmaydi, balki uning zimmasiga badiiy “yuk” ortilishi va estetik vazifani bajarishga safarbar etilishi lozim. Soʻzlar asosida shakllantirilgan matnda soʻzning oʻrni qatʼiy, maʼnoli va ifodaviy boʻlmogʻi lozim. Adabiyotshunos uchun matnning ifodaviyligi, yaʼni sanʼat asari sifatida muayyan fikr va tuygʻularni ifodalovchi vosita, oʻz oʻrnida tadqiqot obyekti boʻlishi mumkin⁷.

Badiiy matn uni oʻrab turgan nutq faoliyati va nutqdan tashqaridagi jarayondan chegaralangan. Matnning muayyan mazmundorlik (maʼno qatori)ning nutqda (ogʻzaki va yozma) ifodalanishi adabiyotshunos uchun muhim sanaladi. Adabiy - badiiy matn (nutqdan tashqari) “makon”i tarkibiga yozuvchi tomonidan ifoda qilingan gʻoya, konsepsiya, maʼno va boshqa badiiy mazmun jihatlarini ham kiritish mumkin. Bu jihatdan “matn” va “asar” soʻzlari sinonim boʻlishi, badiiy matn esa badiiy asarga tenglashadi. Matn va asarning umumiy jihati shundaki, har ikkisi ham muallif fikr va tuygʻularini tilda moddiylashtirib koʻrsatadi. “Asar matnning muloqot tizimiga kiruvchi sotsial vazifadorligi, muallif – kitobxon ikki tomonlama muloqotining natijasidir. Shuning uchun ham badiiy asar tahlili koʻp tomonlama yondoshuv (sotsiologik, biografik, ijodiy-genetik)ni talab qiladi”⁸. Y.Lotmanning yozishicha, “matn va badiiy asarning bir tushuncha ekanini qatʼiy rad etish lozim. Matn badiiy asarning komponentlaridan biri xolos”. Bunda badiiy asar matnga nisbatan kengroq tushuncha ekani maʼlum boʻladi. Biroq har qanday badiiy asarda estetik maqsad matn orqali amalga oshiriladi.

Yuqoridagilardan ayon boʻladiki, “Badiiy asar” tushunchasi maʼlum moddiy vositalar yordamida aks ettirilgan har qanday matnni qamrab oladi. Bunda “Matn” “Kontekst”ning namoyon boʻlish va mavjudlik shakli sifatida, subyekt (inson, jamiyat)ning ijtimoiy axborot mazmuniga nisbatan munosabatining umumiy ifodasi sifatida, kontekst va matnning dialektik birligi, yaʼni “Til” belgilar sistemasi vositalari bilan aks ettirilgan kontekst, bunday aks ettirish jarayoni va uning oraliq mahsuli “Asar” sifatida tushuniladi.

Adabiyot oʻz sanʼatining barcha unsurlarini oʻz ichiga oladi, boʻlak sanʼatlarning har biriga ayrim ravishda berilgan hamma

⁷Valérie Susana et Corroyer Grégory. Philosophie du langage de la communication. Ed.: Université Paris, 2001 pour la Revue Formules.

⁸ Borev Y. Slovar terminov tekstologii i geneticheskoy kritiki. M., 2011. S.140.

vositalardan birvara qay va to'la suratda foydalanadi. Shu sababdan ham adabiyotning maydonidan chiqib ketadigan bironta hodisa, voqea, ruhiy holat, xatti – harakat, kechinma bo'lmaydi va ularning hammasi so'z vositasida ta'riflanadi, ochiladi, jonlantiriladi.

So'z atamasi adabiyotlarda turlicha mundarija bilan qo'llaniladi, jumladan tilshunoslikda leksemaning o'z turkumi nuqtayi nazaridan biror sintaktik vazifada kelish darajasida grammatik shakllangan ko'rinishi so'z deyiladi. Bitiklarda “Dunyoning ibtidosiyu intihosi – so'z”, degan hikmatlarga duch kelamiz. Ana endi shu so'z badiiylashganda, adib Oybek aytganidek, “... har bir so'z, uzukka qadalgan qimmatli tosh kabi porlaydi, har bir misrada katta mazmun barq urib turadi. So'z chertib olinadi, ohangi, ifoda kuchi, bo'yog'i va boshqa hislatlari bilan hissiy qudratga ham ega bo'ladi.”

Badiiylik (obrazlilik)ni yuzaga chiqarishga qurbi yetmaydigan, holat va kayfiyatni ifoda qila olmaydigan so'zning o'zi yo'q, faqat uni topa bilish, o'z o'rnida qo'llay bilish lozim. Bunday mahoratga ega ijodkor “...butun bahorni atigi chigitdek keldigan g'o'ra ichiga qamab bera biladi. Adabiyot – so'z san'atidir, so'z-la tirikdir, so'z-la butundir, so'z-la yangi-yangi olamlarni kashf etuvchi, yaratuvchidir”.(A.Qahhor)

Badiiy matnda har bir so'z shakl-shamoyil, rang-bo'yoq, maza, salmoq va ohangga ega bo'lgani kabi jumla ham o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Fransuz adabiyotshunosi Rolan Bart talqiniga ko'ra, katta-kichikligiga qaramay, har qanday matn oxir-oqibatda jumladir. Bitta jumlada til qoidalari qanday namoyon bo'lsa, butun boshli bir asarda ham ana shu qoidalar amal qiladi. Chunki xikoya ulkan jumla bo'lgani kabi, jo'mla ham kichik hikoyadir. Har qanday matndagi singari badiiy asardagi matnda ham subyekt-obyekt hamda yordamchi – muxolif munosabatlari mavjud. Hikoyachi matnni beradi, tinglovchi oladi. Bunda bir obraz subyektga yordam beradi, boshqasi esa halakit qiladi. Shuningdek, matndagi ifodalanayotgan, ifodalanagan hamda asl narsa o'rtasidagi munosabat ham muhim va murakkabdir.

Ingliz dramaturgi Ben Jonson (1573-1637) “Qaydlar yoki kuzatishlar” nomli asarida yozuvchilarga qarata “Yaxshi yozish uchun uchta shartni bajarish lozim, deb uqtiradi, ya'ni, eng yaxshi adiblarni

o‘qish, eng yaxshi notiqlarni tinglash, ko‘p mashq qilish”⁹. B.Jonson shakl va mazmun birligini, ularning munosabatida mazmunning yetakchiligini ta’kidlaydi. Unga ko‘ra, nutq mavjudotlar orasida faqat insongagina in’om etilgan ustunlikdirki, uning yordamida inson o‘z aqlining yuksakligini namoyon eta oladi. Har qanday nutqda so‘z va ma’no bamisoli jismu tandeek yaxlit birlikni tashkil qiladi. Ma’no so‘zning joni, usiz so‘z o‘likdir. Shunga ko‘ra, “muallif avval mazmunni o‘ylab topib, so‘ng shunga mos so‘zlarni tanlashi va bu asno har ikkisining salmog‘ini tekshirib borishi darkor”. B.Jonsonga ko‘ra, mazmun (ma’no) ijodkor tajribasi, uning inson hayoti va faoliyatini, shuningdek, san’atlar va gumanitar fanlarni bilishi asosida tug‘iladi. Ayni shu mazmunni ifodalash uchun so‘zlarni saralash, “so‘zlayotgan personaj obrazi yoki so‘z borayotgan predmetga muvofiq” so‘zlarni tanlab olish kerak. So‘zdan to‘g‘ri foydalanilsagina nutq nafosatli bo‘ladi. U badiiy nutq haqidagi fikrlarini antik yozuvchi va ritorlarga tayangan holda shunday tahlil qiladi: Masalan, bo‘shliq hosil qilmagan holda bironta so‘zini olib tashlab bo‘lmaydigan jumlani aniq va siqiq (Tatsit); oz so‘z bilan ko‘p ma’no ifodalagan jumlani (Lakonik), ma’noni qisman ifodalab, o‘quvchidan idrok qilish va to‘ldirishni talab etadigan jumlani qisqa (Svetoniy) deyiladi. B.Jonson yana bir o‘rinda “ravon va batafsil, biroq ortiqchaliksiz yozmoq kerak”,¹⁰ deydi.

Har bir jumla muayyan bir tushunchani ifodalaydi. Jumla tuzishda bo‘laklarning aloqasi mustahkam, bamisoli tugun qilib bog‘langanday bo‘lishi lozim. Xuddi to‘g‘ri qirrali toshlar devorda bir-birini loysiz ham tutib turgani kabi to‘g‘ri bog‘langan so‘zlar ham o‘zaro shunday jipslashadi. Jumlaning o‘ta uzun yoki o‘ta qisqa bo‘lishi ma’qul emas: o‘ta qisqa jumlaning xotirga ilashishi qiyin, o‘ta uzun jumlaning xotirda qolishi ham. Tushunchaning umumlashtirish xususiyatlari ham so‘z va jumlada o‘z ifodasini topadi, chunki tushuncha so‘z va jumla ma’nosining yadrosini tashkil qiladi.

Matn semantikasi ham fanning asosiy predmeti bo‘lib xizmat qiladi. Nutqiy ma’noni anglash uchun ba’zan ancha keng matn bilan tanishish zurrur bo‘ladi. Bunday hollarda nutqiy ma’no o‘ta individual,

⁹Quronov D. G‘arb adabiy-tanqidiy tafakkuri tarixi ocherklari. – T: Akademiya edy,2008,30-bet.

¹⁰Quronov D. G‘arb adabiy-tanqidiy tafakkuri tarixi ocherklari. – T: Akademiya edy, 2008,31-bet.

shartli bo‘ladi, keng izohni talab qiladi. Masalan, mana bu nutqiy ma’noni muallif o‘zi istagancha tushuntirish uchun qanchalik keng kontekst to‘zgani o‘z-o‘zidan ko‘rinib turibdi:

- Biz hozir muhokama qilayotgan illatlarni Zulfiqorov undirib, Zulfiqorov o‘stirgani yo‘q! – dedi Saida. – Bu illatlarning chuqur ildizlari o‘zimizda bo‘lgan; qay sabab bilan bo‘lmasin, kolxozimizda vujudga kelgan “ob-havo sharoiti” uni ko‘kartirgan, ayrim hollarda g‘ovlatib yuborgan. Biz hozir bu illatlarning g‘ovlab ketgan joyini ko‘rib turibmiz. Bu “ob-havo sharoiti”, bir tomondan, illatni ko‘kartirgan, o‘stirgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, odamlarni shu illatlarga ko‘niktirgan, ularni payqamaydigan qilib qo‘ygan. Hammadan mana shu yomon!

“Kolxozda ob-havo sharoiti” degan gap Qalandarovga tegib ketdi (Abdulla Qahhor).

Ayni o‘rinda, matndagi ifoda – ma’no (qadriyatga va haqiqatga bo‘lgan bahoni o‘z ichiga olgan) yaxlit mohiyatga ega bo‘lgan nutqiy muloqot birligi sifatida ijtimoiy, axloqiy, estetik vazifalarni o‘z zimmasiga olgan. Zero, “Sinchalak” povestining nega shunday nomlanishini anglash uchun ushbu asarni o‘qib chiqish lozim. Bunda qush atamasi voyaga yetgan qizga ko‘chiriladi, avval salbiy tavsifdek beriladi, keyin ijobiyga aylanadi, oxiri “gap jussada emas, o‘z ishining to‘g‘riligiga ishonchda, iroda kuchida, ko‘pchilikka suyanib ish tutishda” degan mazmun kelib chiqadi. Bunda matn hal etuvchi o‘rin tutadi. Shunday talabga javob beradigan matn badiiy asardagi voqelikning mazmun jihatidagi mavjud imkoniyatni davom ettirishi mumkin.

3. Mutolaa madaniyatining kitobga qiziqishni, odamlarning adabiyotlar bilan kengroq tanishish rag‘batini oshirish, kitob bilan ishlashda maxsus bilimga ega bo‘lish, axborot manbalaridan to‘liq foydalanishga yordam beruvchi ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishni taqozo etishi.

Insoniyat zuryodining irodasini mustahkamlovchi, ma’naviy dunyosini boyituvchi, ongu tafakkurini charxlovchi qudratli vosita – kitobdir. “Kitob bo‘lmasa, kitobdan yog‘ilib turgan ziyo bo‘lmasa, inson taraqqiyotining hozirgi yorug‘ cho‘qqisiga yetmas edi”, – deb yozgan edi G‘afur G‘ulom. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti

Sh.M.Mirziyoyev: “Kitob bu ma’naviyat, ma’naviyat – bu kitobdir”, – deya qayd etadi.

Kitobxonlik milliy ma’naviyatimizning tarkibiy qismi hisoblanadi. Arastu hakimdan Abu Ali Ibn Sinoga, Aflotundan – Abu Rayhon Beruniygacha, Jaloliddin Rumiyan – Alisher Navoiygacha, Sohibqiron Amir Temurdan – Muhammadsharif Gulxaniygacha yuzlab, minglab mutafakkirlarning shakllanishi, dunyoga tanilishi, zamonlar oshsa-da ahamiyati yo‘qolmaydigan tadqiqotu kashfiyotlar faqat va faqat kitob mutolaasi orqali yuz berdi. Ularning bugungi avlod tomonidan chuqur o‘rganilishi, ular ilmiy-ma’rifiy bisotiga bot-bot murojaat qilishning sababi ham mutafakkirlarimiz tomonidan yaratilgan kitoblar tufaylidir. Bu haqda ko‘hna Sharqning donishmand allomasi Muhammad Jabalrudiy shunday satrlarni qayd etgan: “Ey aziz! Kishi uchun kitobdan azizroq va yoqimliroq suhbatdosh yo‘qdir. Kitob fasohat, balog‘atda, latofatda tengi yo‘q, munofiqlikdan holi hamrohdrir. Yolg‘izlikda va g‘amli ayyomlarda munis ulfatdir. Unda na nifoq boru, na gina. U shunday hamdamki, so‘zlarida yolg‘on va xato bo‘lmaydi. Suhbatidan esa kishiga malollik yetmaydi. U o‘z do‘stining dilini og‘ritmaydi. Yuragini esa siqmaydi. U shunday rafiqdirki, kishi orqasidan g‘iybat qilib yurmaydi. Uning suhbatidan senga shunday fayzli foydalar yetadiki, bunday foydani odamlardan topa olmaysan. Aksincha, aksar odamlar suhbatidan kishiga zarar yetadi. Kitobdek do‘st ichida barcha ilmu hilm mujassamdirki, u kishilarni o‘tmishdan va kelajakdan ogoh qilib turadi. Shuning uchun ham “Kitob aql qal’asidir”, deganlar”.¹¹

Adabiyotlarda “Kitob”, “Kitobxonlik” kabi qator tushunchalar quyidagi ta’riflar bilan izohlanadi:

Kitob [arabcha yozilgan, muqovalangan asar]1.Ma’lum matnli varaqlardan iborat, muqovalangan, hajmi 48 sahifadan kam bo‘lmagan bosma (qadim qo‘lyozma ham) asar.2.Umuman, ma’lum shaxs, voqea-hodisaga oid tugal, odatda nashr etishga (kitob bo‘lishga) mo‘ljallangan asar.

Kitobot [arab. Yozuv; yozuvli lavha] eskicha – Yozish, ko‘chirib yozish, yozuv.

Kitobxon[kitob – forsha.O‘quvchi, o‘qiydigan] Kitob o‘quvchi.

¹¹Mashriqzamin-hikmat bo‘stoni. /To‘plam. –Toshkent: Ma’naviyat, 1997. 39-bet.

Kutubxona yoki axborot resurs markazi kitoblar qo'yilgan joy, xona. Zamonaviy texnika vositalari, axborotlar bilan ta'minlangan, mutolaa qilish uchun barcha shart-sharoitlar yaratib berilgan dargoh.

Kitobxonlik – Kitobxonlik, birgalikda kitob o'qish demak.

Yangi davr bugungi kun tartibiga kitobxonlik masalasiga yangicha yondoshuv muammosini qo'yimoqda. “Ayni vaqtda, madaniyat sohasida jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish, yoshlarimizni haqiqiy san'atni anglashga o'rgatish, ularning estetik olamini sog'lom asosda shakllantirish bo'yicha oldimizda muhim vazifalar turibdi”¹². Bu zarurat, avvalo, kitobxonlik masalasiga alohida e'tibor qaratishga undaydi. Chunki, har qanday davlatning kuch-qudrati o'z fuqarolarining savodxonligi, ongliligi bilan o'lchanadi. Shu ma'noda, “Mutolaa madaniyati”, “Kitobxonlik madaniyati”, “O'qish madaniyati” kabi atamalar bilan qo'llanilib kelinayotgan ijtimoiy hodisalar jamiyat a'zolarining bilimdonlik va onglilik darajasini belgilaydi.

Mutolaa madaniyati kitob o'qishdan ko'ra kengroq tushunchani anglatadi. Mutola madaniyatini ta'lim tizimlari orqali maxsus shakllantiradigan, ixtisoslashgan ma'lumotni inson hayoti davomida turli manbaalar - kitoblar (badiiy, ilmiy, o'quv, qomusiy), ommaviy axborot vositalari (gazeta, jurnal, televideniya, radio va shu kabilar), zamonaviy axborot texnologiyalari (internet, elektron gazeta, jurnal, qo'llanma va hokazolar), shuningdek, subyekt bilan bevosita muloqotga kirishuvchi shaxslar (oilalar, a'zolari,...) orqali ega bo'linadigan turli yo'nalish va shakldagi umumiy ma'lumotdan farqlash lozim bo'ladi.

Axborot olish madaniyati esa badiiy adabiyotlarni to'g'ri tanlash, undan estetik zavq olish, shuningdek, ilmiy adabiyotlar, barcha turdagi resurslar bilan ishlash, ma'lumot-bibliografiya va barcha turdagi axborot materiallaridan o'zini qiziqtirgan ma'lumotlarni qidirib topish, cheksiz axborot oqimlari orasidan kerakli, muhim bo'lgan ma'lumotlarni o'z kasbiy malakasini oshirishda axborot-kutubxona muassasasidan to'g'ri foydalanish yo'llarini o'rganish kabilar kiradi. Axborot olish madaniyatini to'liq egallagan shaxsga nisbatan esa kitobxon atamasini qo'llash o'rinlidir.

¹² Mirziyoyev Sh.M. Adabiyot va san'at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma'naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir (O'zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi ma'ruza) // O'zbekiston adabiyoti va san'ati, 2017 yil, 4 avgust.

Kitobxonlik madaniyati – o‘qilgan kitoblar soni bilan belgilanmaydi, balki u tushunib o‘qish, aniqrog‘i maqsadli o‘qish jarayonini anglatadi. Aytish mumkinki, kitobxonning yozuvchi aytmoqchi bo‘lgan fikrini nechog‘li uqishi, ya’ni asar “tili”ga tushunishi kitobxonlik madaniyati va darajasini ko‘rsatadi.

O‘qishlar har xil bo‘ladi, – deb yozgan taniqli adib Asqad Muxtor, – birov ermak uchun o‘qiydi, birov hordiq chiqarish uchun; birov o‘qiyotgan kitobini ilmiy tahlil qilish uchun, ya’ni – burch yuzasidan. Birov bo‘lak mashg‘ulot bo‘lmaganidan, vaqt o‘tkazish uchun, birov nimanidir bilib olish uchun, birov asardagi voqeaga, qahramonlarning taqdiriga qiziqib o‘qiydi. Shuning uchun, atrofimizga qarasangiz, har xil kitobxonni ko‘rasiz: kimdir metroda, tiqilinchda kitobga tikilgan, kimdir navbatda turganda, birov xiyobonda, qosh qorayib qolgan bo‘lsa ham kitob varag‘idan ko‘z uzolmaydi. Kimdir divanda chalqancha yotib, kimdir ish stolida jiddiy o‘tirib, qo‘liga qalam olib o‘qimoqda... Kitobxonlar ham, o‘qishlar ham har xil. Har kimning o‘z o‘qishi bor... O‘qish – mehnat. Lekin mehnat degan bilan zavqsiz, hayajonsiz o‘qish emas, albatta. Hassos kitobxon... kitobdagi ruhiy olamda yashaydi... Men tanlab o‘qish yo‘lini afzal ko‘raman...

Kitobxonlik madaniyatini shakllantirishda quyidagi omillarga e’tibor qaratish lozim:

- O‘qishga, estetik zavq olishga mayl, havas, ishtiyoqni uyg‘otish;
- O‘qilgan kitoblar vositasida fikrlash tarzini shakllantirish;
- Mavjud kitobxonlik malakalarini takomillashtirish.

Kitobxonlik madaniyatini tarbiyalash asosan o‘qish, o‘qitish va rivojlanish muntazam amalga oshiriladigan ta’lim jarayonida amalga oshiriladi. Egallangan bilimlar esa o‘quvchilarning dunyoqarashi va kasbiy mahoratini izchil shakllantirib borishni ta’minlaydi.

4. Kitobni tanlash, uni tez o‘qish, avaylab saqlash, shaxsiy kutubxona tashkil etish, o‘qilgan kitoblarni boshqalarga tavsiya eta olish ham mutolaa madaniyati shartlari ekanligi. Intellektual rivojlanishda kitob asosiy o‘rinni egallaydi. Chunki kishining o‘zini o‘zi tarbiyalashida kitob ham bilim manbai, ham o‘zigimizni ko‘rish, taqqoslash, taqlid qilish, munozara yuritish, bahslashishda ma’lum darajada ko‘zgu vazifasini o‘taydi. Inson muhit, tabiat bilan munosabatda bo‘lar ekan, to‘g‘ri yo‘l izlagan paytda suygan kitobiga, ruhiyatiga yaqin bo‘lgan qahramonlari kechinmasiga murojaat qiladi.

Akademik D.S. Lixachev kitobning ulkan ta'sir kuchi haqida to'xtalarkan, – "U kishini ziyoli qiladi, unda go'zallik tuyg'usinigina emas, hayotni, uning butun murakkabliklarini tushuntirish kabi qimmatli tuyg'uni rivojlantiradi, boshqa davrlar va boshqa xalqlarni tushunishda yo'l boshchilik qiladi, sizga kishilarning qalbini ochib beradi. Bir so'z bilan aytganda, sizni donishmand qiladi" – deb yozgan edi.

Bugungi kunda butun dunyo axborot asrida yashamoqda. Har kuni juda ko'plab miqdorda kitoblar, jurnallar, almanaxlar, to'plamlar, gazetalar bosilib chiqmoqda. Buning ustiga kino, teatr, radio, televideniya va internet tarmoqlari benihoya darajada xabar va yangiliklar berib turmoqda. Chor-atrofni o'rab turgan muhit ham katta axborot vositasiga ega. Mana shular orasidan inson o'ziga keraklisini ajratib olmog'i lozim. Bu esa kitobxonlik madaniyati qanday va qay darajada shakllanganiga bog'liq.

Kitobxonlik madaniyati kitobxondan ma'lum tayyorgarlik va saviyani talab qiladi. Bu jarayonning mohiyati kitobni shunchaki varaqlash va undan umumiy foydalana bilishdan to'ijodiy o'qish, kitobga oshno bo'lib, uni chuqur tahlil qilishgacha boradi. Bu muammo juda keng qamrovli va bag'oyat murakkab jarayon bo'lib, taxminan quyidagi holatlarni o'z ichiga oladi:

1. Kitob tanlay olish;
2. Kitobni qanday o'qishni bilish;
3. Kitob o'qiganda nimalarga e'tibor berish va nimalarni esda saqlab qolish;
4. Kerakli ma'lumotlarni qayerdan, qanday, qaysi vositalardan foydalanib topish;
5. Olingan bilimni yoki xabarni qanday yetkazib berish;
6. Qayta o'qish - kitobxonlik ko'nikmasini odatlantirish;
7. Kutubxona kartotekalari bilan ishlay bilish;
8. Kitobni tez va sekin o'qishni farqlay olish;
9. Kitobni o'qib, uning fusunkor olamiga kira bilish;
10. Kitobni mustaqil o'qiy bilish.
11. "Yoshlarga o'qilishi kerak bo'lgan 100 ta asar" ro'yxatini tuzish, unda milliy va jahon adabiyotining nodir durdona asarlarini o'qishni tavsiya etish kabilar.

Kitob mutolaasi madaniyatiga kitob harid qilish va kutubxonani muntazam boyitib borishga alohida e'tibor bilan qarash, kitob saqlash odobi, o'qish jarayoni, o'qiganni o'ziga va hayotga tatbiq eta bilish kabilar ham kiradi. Shuningdek, har bir kitobsevarning shaxsiy kutubxonasidagi kitoblarni tartib bilan joylashtirish, yuzlab, hatto minglab kitoblar orasidan kerakli, zarur nashrni osonlik bilan topa olish sirlaridan voqif bo'lishi ham lozim.

Insonda kitob o'qish madaniyatini shakllantirish, kitobga mehr qo'yish, unga faol munosabatda bo'lish ko'nikmasi mutolaa jarayonida amalga oshadi. Mutolaa madaniyatiga oid tarbiyani dastavval oiladan boshlash kerak. Bolaga kitob bilan muomala qilish, kutubxonadan foydalanish, o'qish san'ati, kitobxonlik va kitobsevarlik ko'nikmasini shakllantirish, kitob ustida ishlashni o'rgatish uchun ota-onalarning o'zi o'qish madaniyatidan ozmi-ko'pmi xabardor bo'lmog'i lozim. Agar xonadonda zarur adabiyotlardan iborat kutubxona bo'lsa, bunday oilada bola yoshligidanoq kitobga oshno bo'ladi, o'qish madaniyatini egallab boradi. Mutolaa san'atiga oshno bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, kitob barchamizni ezgulikka undaydigan, oldimizda turgan muammolarni hal etishga yordam beradigan qudratli kuchdir. Shuning uchun ham yurtimizda kitob bilan oshno bo'lgan, kitobni suygan, kitob yozgan, kitobni muqaddas bilib, qorachig'idek asraganlarni ziyoli deb ataganlar. Ziyo – Nur tarqatuvchi. U o'zining butun faoliyati bilan jamiyatni nurlantiradi, ma'naviy-ijtimoiy barqarorlikni ta'minlaydi.

MAVZUNI MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR:

1. “Mutolaa madaniyati” fanining predmeti, maqsadi va vazifasi nimalardan iborat?
2. “Mutolaa madaniyati” ma'naviyat va ma'rifatning ko'zgusi sanaladi, degan fikrni qanday izohlaysiz?
3. Badiiy asar matni qanday semantik xususiyatga ega?
4. “Mutolaa madaniyati” fanining asar mohiyatini teran tushunish, tahlil qilishdagi ahamiyatini izohlang.
5. Kitobxonlik madaniyati tushunchasi nimalardan iborat?
6. Mutolaa madaniyatining kitobga qiziqishni uyg'otishda yordam beruvchi ko'nikma va malakalar nimalardan iborat?

7. Kitob bilan ishlashda maxsus bilimga ega bo'lish deganda nimalarga e'tiborli bo'lish taqozo etiladi?

8. Kitobni tanlash, uni tez o'qish, avaylab saqlash, shaxsiy kutubxona tashkil etish masalalari bilan shug'ullanish qanday mashg'ulot sanaladi?

MUTOLAA VA VOIZLIKNING SHARQ VA G'ARB MADANIY TAFAKKURIDA TUTGAN O'RNI

Reja:

1. Mutolaa arabcha "mutolaa" - o'qish, o'qib-o'rganish ma'nolarini anglatishi, voizlik esa Sharq va G'arbda boshqa-boshqa tushunchalar o'laroq talqin qilinishi.

2. Ritorika tushunchasi asosida nutq va notqlik mazmunining ifodalanishi. Bunda asosan nutqdagi marom e'tiborga olinishi.

3. Va'z va voizlikning sharqona pand-nasihat - didaktikasiga asoslanishi.

Tayanch so'z va iboralar: Mutolaa, ritorika, nutqdagi marom, va'z va voizlik, va'zxonlik, qissaxonlik, qiroat talabi, notqlik, ifodali o'qish, madaniy nutq, madaniy tafakkur, ommaviy ma'ruzalar, o'qish-o'qitishda nutq madaniyati, sharqona pand-nasihat, didaktika, talqin.

ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh. M. Adabiyot va san'at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma'naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir (O'zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi ma'ruza) // O'zbekiston adabiyoti va san'ati, 2017 yil, 4 avgust.

2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. –T.: Ma'naviyat, 2008.

3. Arastu. Poetika. Axloqi kabir. Ritorika. –T.: Yangi asr avlodi, 2011.

4. Abu Homid G'azzoliy. Til ofatlari–T.: Toshkent islom universiteti, 2011.

5. Jumaniyozov R. Nutqiy mahorat. -T.: Adolat nashriyoti, 2005.

6. Bekmirzayev N. Notqlik san'ati asoslari. –Toshkent: O'qituvchi, 2008.

7. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. –T.: Xalq merosi, 2004.
8. Quronov D. G‘arb adabiy-tanqidiy tafakkuri tarixi ocherklari. –T.: Akademiya edy. 2008.
9. 6. Karnegi D. Nutq so‘zlash san’ati. –T.: Adabiyot uchqunlari, 2018.

1. Mutolaa arabcha “mutolaa” – o‘qish, o‘qib-o‘rganish ma’nolarini anglatishi, voizlik esa Sharq va G‘arbda boshqa-boshqa tushunchalar o‘laroq talqin qilinishi. Mutolaa qilish deganda kitobxonning yozma nutq orqali asar muallifi, obrazlari bilan muloqati tushuniladi. Mutolaa tufayli kitobxon badiiy matnda aks etgan voqea-hodisadan xabardor bo‘ladi. Mutolaa – arabcha “mutolaa” - o‘qish, o‘qib-o‘rganish kabi ma’nolarni anglatadi. Shunga ko‘ra, mutolaa madaniyati juda keng ma’nodagi tushuncha bo‘lib, kitobga qiziqish va uni sevish, adabiyot bilan kengroq tanishib, kitob bilan ishlash haqidagi maxsus bilimlarga ega bo‘lish, shuningdek, kitobdan to‘liq ravishda foydala bilishda yordam beruvchi bir qator ko‘nikmalarni o‘z ichiga oladi.

O‘ziga xos o‘qish yo‘li va uslubini o‘z ichiga olgan bu san’at mutolaa qoidalarini bilan turli xalqlarda turlicha ko‘rinishlarda mavjud bo‘lgan. Yevropada nazmni nasrga, nasrni nazmga moyil qilib o‘qish usulida ham mutolaa madaniyatining ayrim qirralari mavjud bo‘lgan. Sharq madaniyati tarixida kitobxonlik hamda mutolaa madaniyati o‘ziga xos mavqega ega soha sifatida e’zozlangan. Bu soha, Sharqda, jumladan, Movarounnahrda notiqlik, voizlik, ya’ni va’zxonlik “Qur’on”ni targ‘ib qilish bilan mushtarak holda rivoj topgan. Oddiy so‘zlashuv uslubini va ohangidan farq qilgan holda musiqiylikka moyilligi bilan ajralib turuvchi qiroatxonlik ham aslida mutolaa madaniyatining yuksak cho‘qqilaridan biri sanaladi. Qiroatxonlik so‘zlash bilan qo‘shiq orasidagi ohang asosida o‘qiladi. Qiroatxonlik – ta’sirchan, ifodali o‘qish san’ati. Aslida, qissaxonlik ham uning bir ko‘rinishi.

Manbalarda arabiy qiroat talabi, mavjud qoidalar bilan o‘qiluvchi “Qur’on” tilovati, kitobxonlik hamda mutolaa madaniyati, so‘zning ahamiyati, ma’nosi va undan o‘rinli foydalanish borasida ko‘p ibratli fikrlar aytilgan. Bu tushunchalar juda qadimdan olimu ulamolarning diqqatini tortgan. Musulmon Sharqi, jumladan, o‘zbek xalqi ham

qadimdan soʻzga chechan, badiiy didli kishilarni qadrlab kelgan. Bu davrda voizlik sanʼati har tomonlama rivoj topgan. Markaziy Osiyo xalqlari IX-XV asrlarda dunyo madaniyati taraqqiyotining eng oldingi, yetakchi saflarida turish darajasiga koʻtarila olgan. Oʻrta asrlar fani, madaniyati Xorazmiy, Fargʻoniy, Forobiy, Ibn Sino, Beruniy, Qoshgʻariy, Jomiy, Navoiy, Bobur kabi ulugʻ siymolarning nomlari bilan xarakterlanadi. Bu mutafakkirlar yashagan davr musulmon Sharqi tarixida Uygʻonish davri deb ataladi. Adabiyot-sanʼat, fan va umuman, madaniyatimizning targʻibotchilari boʻlgan bu kabi yetuk allomalar ayni vaqtda voizlik sanʼatini ham keng miqyosda rivojlantirishga hissa qoʻshdilar. Bu davrda fan va madaniyat targʻibotchilari – koʻplab voizlar yetishib chiqdi.

Sharqda xos notiqlarni voizlar deb ataganlar. Voizlik – jamoat oldida nutq soʻzlash, notiqlik sanʼati; ilmiy-siyosiy maʼruza, bahs, munozara, targʻibot va tashviqotning asosiy vositasi sifatida keng ijtimoiy mavqega ega boʻlgan sanʼat hisoblanadi. Qadimda Sharq mamlakatlarida hukmdor shaxsan oʻzi jamoat oldiga chiqib, oʻz siyosati, xalqaro ahvol va boshqalar haqida nutq soʻzlagan. El oldiga chiqish, ayniqsa Juma namozi, Hayit, Navroʻz kunlari hamda mamlakatlar oʻrtasida olib borilayotgan urushlar, yigʻinlarda odat tusiga kirgan. 9-asrga kelib, bu muhim vazifa xushovoz, taʼsirchan gapiradigan, ishontira olish qobiliyatiga ega maxsus kishilar – voizlarga topshirilgan. Ularning vaʼz matnlari odatda chiroyli va badiiy yuksak saviyada boʻlgan. Nutq matnlarining aksariyati nasriy sheʼr va hatto sheʼriy shakllarda yozilgan. Voizlar kitobxonlik hamda mutolaa madaniyati masalalariga jiddiy eʼtibor berish bilan birga tilga, lugʻatga, grammatikaga va mantiqshunoslikka oid sohalarni ham puxta egallashga erishganlar. Shu tariqa, voizlik sanʼati vujudga kelgan. Uning rivojlanish jarayonida dabirlik (davlat ahamiyatidagi yozishmalarni insho etish va oʻqib berish), xatiblik (diniy, siyosiy mayldagi notiqlik), muzakkirlik (diniy-axloqiy masalalarni sharhlab berish) kabi tarmoqlari shakllangan. Voizlik sanʼati nutq matnlari, tinglovchilarning bilimi, ijtimoiy mavqei va boshqa xususiyatlarga koʻra turli maqom (qism)larga boʻlingan: sultoniyot (yuqori tabaqa uchun), xutubu jihodiya (jangovar nutqlar), gʻaribona maqom (oddiy xalq uchun) va boshqalar.

Ijtimoiy va badiiy jihatdan muhimligi tufayli bu soha asrlar davomida rivojlana bordi. Jumladan, voizlik san'atini o'rgatuvchi maxsus soha – kalom ilmi, balog'a ilmi yuzaga keldi. Bu san'at turi o'tmishda katta ijtimoiy qudrat kasb eta bordi. Keyinchalik notiqlik va suhandonlik san'ati rivojida ham muhim rol o'ynagan.

G'arbda esa voizlik ritorika san'ati deyilgan. Ritorika umumfal-safiy qarashlarga, qoidalariga asoslangan og'zaki nutq san'ati bo'lib, grekcha – Rhetorike so'zidan olingan. Ritorika keng ma'noda nutq va notiqlik haqidagi fan hisoblanadi. Miloddan avvalgi 5-4 asrlarda Yunonistonda yuzaga kelib, miloddan avvalgi 3-2-asrlarda tizimli fan shaklini olgan. Miloddan avvalgi 1-asrda esa Rimda keng tarqalgan.

Sitsiliya oroli ritorikaning asl vatani hisoblanadi. U joylarda V asr o'rtalariga kelib demokratiyaning yo'lga qo'yilishi, notiqlikning taraqqiyoti uchun omil bo'ldi. Bu yerda Gorgiy ismi bilan tanilgan sofist taxminan 427 yilda o'z shahri Leontina uchun harbiy yordam so'rab maxsus elchi sifatida Afinaga keladi va xalq majlisida so'zlagan nutqi bilan Afina yoshlarida juda kuchli taassurot qoldiradi. Shundan keyin davlat rahbarlari taklifi bilan Gorgiy Afinaga butunlay ko'chib keladi va shu yerda ritorika maktabi ochadi. U o'z shogirdlariga so'z san'ati va boshqa fanlarni o'rgatish bilan birga voizlik bilan ham shug'ullanadi. Gorgiy asosan mifologik ma'ruzalarda tantanali nutq so'zlagan, uning nomi bilan bizga qadar "Yelena" va "Palimed" sarlavhali ikkita yozma asar yetib kelgan. Gorgiyning e'tirof etishicha, notiqning eng muhim vazifasi tinglovchini ishontira olish, uni maftun etish va o'ziga nisbatan iliq munosabat tug'dirishdan iborat. Maftun etishning asosiy vositasi sifatida yozuvchi birinchi o'ringa uslubni qo'yadi va shu maqsad bilan o'z asarlarida go'zal uslub namunalarini namoyish qiladi. Darhaqiqat, notiqning bizga qadar yetib kelgan asarlarida tantanali epitelar (jonlantirish), metaforalar (o'xshatish), majoziy ifodalar nihoyatda ko'p uchraydi. Shuning uchun bo'lsa kerak qadimgi yunonlar Gorgiyning usulini "jimjimador uslub" deb ataganlar.

Ritorika – mantiq, axloq, siyosat va huquqshunoslik fanlari doirasida taraqqiy etgan. Xususan, sud ishlarida o'rnatilgan tartib-qoidalar notiqlik san'atining yuksalishiga katta bir turtki bo'lgan. Chunki sud jarayonida da'vogar ham, himoyalalanuvchi ham har biri o'z manfaatini himoya qilish uchun kurashadi. Sud hukmining qaysi

tomon foydasiga hal bo'lishi esa ko'pincha sudlanuvchi shaxs yoki da'vogarning notqlik mahoratiga bog'liq edi. Qay tomon o'zining mantiqiy, asosli dalil va ma'lumotlari bilan sud hay'atini ishontira olsa, hukm o'shaning foydasiga chiqarilar edi. Lekin hamma sudlanuvchi yoki da'vogarlar ham yetuk notiq bo'lgan raqiblarining tazyiqiga dosh berishlari qiyin edi. Shuning uchun ham antik sud tizimining qoidalariga ko'ra bunday kishilarga u yoki bu kishi nomidan so'zlovchi notiqlardan yordamchi olishga ruxsat berilardi. Sud jarayonida boshqa birov manfaatini ko'zlab, nutq so'zlovchi ana shu toifadagi notiqlarga sinegorlar deyilib, ularning nutqi sinegoriya deb atalardi. Bulardan tashqari, notqlik san'atining rivoji adabiy tilning shakllanishiga, "Ritorika" ilmining vujudga kelishiga sabab bo'ldi. Rimdagi barcha shoirlar shu maktabdan, ya'ni ritorika maktabidan ta'lim olganlar.

Anglashiladiki, voizlik va notqlik san'ati Sharq va G'arbda boshqa-boshqa tushunchalar o'laroq talqin qilinadi. Biroq Sharq va G'arb mutafakkirlarining nutq talqinlari va notqlik san'ati asoslari bo'yicha ilgari surgan ilmiy qarashlari jahon notqligi nazariyasi fanining shakllanishi hamda taraqqiy etishida ulkan ahamiyat kasb etadi.

2.Ritorika tushunchasi asosida nutq va notqlik mazmunining ifodalanishi. Bunda asosan nutqdagi marom e'tiborga olinishi. Ritorika san'ati nutq va notqlik haqidagi fan hisoblanadi. Ritorika – (gr.rhetor-“notiq”) murojaat (ritorik nido, ritorik xitob, ritorik g'azab, ritorik undov va h.) – poetik figuralardan biri bo'lib, unda personajlarning quvonch, hayrat, nafrat, iltimos, buyruq kabi yuzlab hissyotlarining ko'tarinki, tantanali, kulgili, kesatqli, g'azabli (g'oyaning talabiga mos tarzda) ifodasi mujassamlashgandir. Ritorikaga berilgan ta'riflarda “chiroyli so'zlash san'ati” yoki “o'z nutqini to'g'ri ifoda etishning texnik qobiliyati”, degan ma'no ham ifodalanadi. Ushbu fan turli xil bilim sohalarida (tabiiy, siyosiy va ta'lim hamda narratologiya¹³) ishlatiladigan tilni o'rganadi va tizimlashtiradi, har bir sohada aloqa o'rnatish uchun qo'yilgan ham kommunikativ, ham estetik maqsadlarga erishish imkonini beradi.

¹³Narratologiya (fransuzcha- narratologie) rivoyat, hikoya tuzilishi va ularning inson idrokiga ta'sir etish yo'llari o'rganiladi.

Ritorika tushunchasida nutqiy marom alohida ahamiyat kasb etadi. Nutqiy marom (og‘zaki va yozma), paralingvistik (tovush ohangi, gap tezligi, ovoz tembri), kinetik (xatti-harakat, mimika, harakatning boshqa shakllari) vositalar tarzida amalga oshiriladi. Notiqlar tomonidan yaratilgan matnlar nasriy va poetik ijod namunasi bo‘lib, Aristotel, Demosten, Sitseron kabi ijodkor notiqlarning nomi jahonga mashhur bo‘lgan. Jumladan, Aristotel “Ritorika” asarida notiqlik san’ati bilan bog‘liq holda qo‘yilgan masalalar adabiyotshunoslikka ham bevosita aloqadordirligi haqida so‘z yuritadi. Notiqlik san’atida dalillash yo‘llari haqida bildirilgan fikrlar yoki inson fe‘l-atvori, his-tuyg‘ularining u egallagan mavqei, yosh xususiyatlari, muayyan hayotiy holat kabi omillarga bog‘liqligining misollar bilan ochib berilgani – bular badiiy ijodda ham, badiiy asarni o‘qishda ham, tahlil qilishda ham birdek ahamiyatlidir. Asarda badiiy til, uslub masalalariga ancha keng o‘rin berilgan bo‘lib, muallif bu yo‘nalishda ritorika fani erishgan yutuqlarni umumlashtirishga intiladi hamda ilk bor til normalarini ishlab chiqadi. Shuningdek, Aristotel ritorika tushunchasi asosida nutqdagi marom e‘tiborga olinishi lozimligini ilmiy asoslaydi.

Faylasuf va yozuvchi Mixail Psellning (1018-1079) falsafa, ilohiyot masalalariga bag‘ishlangan asarlarida adabiyot va san’atga doir qimmatli fikrlar bildirilgan. Bu jihatdan, ayniqsa, uning turli kishilarga yo‘llagan maktublari ahamiyatlidir. Maktublaridan birini u “Sening iltimosingni bajarib, ushbu maktubda ritorik g‘oyalar haqidagi mo‘jaz darslikni yuboryapman” (shunga ko‘ra, maktub “Ritorik g‘oyalar sharhi” nomi bilan yuritiladi) degan so‘zlar bilan boshlaydi. Maktub didaktik xarakterda bo‘lib, unda ritorika, nutq turlari va uning o‘ziga xosligi, irod qilish yo‘llari, ularga qo‘yiladigan talablar haqida ma’lumot beriladi. M.Psellning uqtirishicha, “... yaxshi nutq qurish uchun yaxshi so‘zlarni tanlashning o‘zi kamlik qiladi, zero, haqiqiy go‘zallik tanlashda emas, ularni eng maqbo‘l tarzda joylashtirishdadir.”¹⁴ Yozuvchilik tajribasidan kelib chiqib, M.Psell o‘z qarashlarini obrazli ifodalashga, turli tamsillar orqali yorqinroq tushuntirishga intiladi. Masalan, quruvchi bir nechta xodani ajratib olganining o‘zi uyning go‘zal bo‘lishi uchun kifoya deb

¹⁴Quronov D. G‘arb adabiy-tanqidiy tafakkuri tarixi ocherklari. –T.:Akademiya edy, 2008.16-bet.

o‘ylamaganidek, notiq(yozuvchi) ham so‘z tanlashning o‘zi kifoya deb o‘ylamasligi kerak, deydi. Yoki boshqa bir maktubida jumla va so‘zlarni joylashtirishni zargar (bezakchi) ishiga qiyoslaydi: “... zargar ixtiyoridagi turli hajm, kattalik, shaffoflikdagi toshlarni did bilan joylashtirishi lozim, shundagina bu toshlarning bari o‘z imkoniyatini namoyon qila oladi - uyg‘unlikda yaxlit bir go‘zallik hosil qiladi. Aks holda, agar bu toshlar didsiz, betartib joylashtirilsa, ular yakka holicha ega bo‘lgan go‘zalligi va qimmatini ham namoyon etolmaydi. Shunga monand, so‘zlarni did bilan joylashtirish san’atidan mosuvo bo‘lsa, notiqning chiroyli so‘zlar izlashidan naf kamdir”¹⁵.

M.Psell notiq mahoratini belgilovchi muhim jihat sifatida nutqning ifoda etilayotgan mazmunga mosligini e’tirof etadi. Jumladan, uning fikricha, ilohiyotchi Grigoriy nutqlarining asosiy fazilati nutq mazmuniga mos so‘z, ohang, ritm-marom tanlay olishidadir. Unga ko‘ra, Grigoriy nasihat qilganida “sokin va bir tekis sizib oqayotgan zaytun moyiga”, dushmanlari bilan bahsda esa “dovul yoxud bo‘lutlar orasida chaqnagan yashinga” o‘xshaydi: birinchi holda uning ritmi sokin va xushohang, ikkinchisida keskin va shiddatli. Muhimi, Grigoriy hech bir o‘rinda falsafiy mazmunni nazardan qochirmaydi, ya’ni, har ikki holda ham mazmun yetakchilik qiladi. Demak, Grigoriy uchun nutq – fikrni ifodalash vositasi, shuning uchun ham vosita birinchi planga chiqmaydi, ayni shu narsa, Psell fikricha, uning muvaffaqiyatini ta’minlagan bosh omildir.

Maktubda yana asarning nutqiy tarkibida nutqning turli ko‘rinishlari almashinib turishi kerak, deb uqtiriladi. Psell jimjimador, balandparvoz, sun’iy shirador nutqni xushlamaydi, uning fikricha, bunday nutq kichik hajmli asarlar yozishdagina ishlatilishi mumkin. Katta hajmli (“nutq turli burilishlardan o‘tadigan”, ya’ni mazmunning o‘zi ham o‘zgarib turadigan) asarlarda esa nutq goh shirador, goh jiddiy, goh shiddatli, goh sokin - xullas, ifodalanayotgan mazmun (yoki tasvir predmetiga mos) o‘zgarib turishi lozim.

3. Va’z va voizlikning sharqona pand-nasihat - didaktikasiga asoslanishi. Notqlik – o‘tmish so‘z san’atining eng ommaviy janrlaridan bo‘lib, bu san’at Sharqda voizlik deb atalgan. Sharqda nutq - va’z, notiq - voiz deb yuritilgan. “Voizlik”–arabcha “va’z” so‘zidan

¹⁵ Quronov D. G‘arb adabiy-tanqidiy tafakkuri tarixi ocherklari. –T.: Akademiya edy, 2008.16-bet.

(“da’vat”, “xitob” ma’nosida) olingan bo‘lib, islomda odamlarni ezgulikka va yaxshilikka chaqiruvchi, jamoat oldida nutq so‘zlovchi shaxsni anglatadi. Musulmon Sharqi voizligining asosiy yo‘nalishi Qur’oni karim suralari, Muhammad (s.a.v)ning faoliyati va ko‘rsatmalarini ifodalovchi hadislar, hikmatli hikoyalar hamda odobnoma ruknidagi va’zlar bilan uyg‘unlashib ketadi.

Nafaqat Sharq, balki butun dunyo tib ilmida o‘ziga munosib taxt yaratgan ulug‘ bobo‘liz Ibn Sino inson hayvondan aqli va tili bilan farq qilishini, uning uchun insonning eng barkamoli-oqil va so‘zga chechani ekanligini aytadi. Turkiy so‘z xazinasiga tillo sandiq yasagan bobo‘liz Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asarida “Odobning boshi tildir” degan maqol bor. Ulug‘ alloma Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” dostonida “til ardami” (til odobi) haqida bir qancha go‘zal hikmatlar mavjud:

“So‘zingga ehtiyot bo‘l, boshing ketmasin

Tilingga ehtiyot bo‘l, tishing sinmasin”

“Bilib so‘zlasa, so‘z donolik sanaladi,

Nodoning so‘zi o‘z boshini yeydi.”

“Aql ko‘rki so‘zdir va til ko‘rki so‘z,

Kishi ko‘rki yuzdir, bu yuz ko‘rki ko‘z.”

“Tug‘ilgan o‘ladi, ko‘r, nom-nishonsizqoladi,

So‘zingni ezgu so‘zla, o‘zing abad o‘lmaysan.”

Shuning uchun ham qadimdan Sharqda notiqlik, voizlikning asosiy vositasi til, nutq bo‘lsa, yana bir asosi nutq egasining axloqi, ma’naviy-ma’rifiy kamoloti deb qaralgan. Tariximizda go‘zal nutq, nutq odobi, ona tilining qudrati kabi masalalar hamisha allomalarimiz diqqat markazida bo‘lib kelgan.

Ma’lumki, X-XII asrlar adabiyotimizning yuksalish davri sifatida e’tirof etiladi. Bu davrida turkiy tilda asarlar yaratildi. Qoraxoniylar davrida bu jarayon yana ham yaqqolroq namoyon bo‘ldi. Pandnoma ruhdagi asarlar yuzaga keldi. Ahmad Yugnakiy ana shu davrga mansub shoirlardan biri bo‘lib, uning “Hibatul haqoyiq” – “Haqiqatlar armug‘oni” asari esa didaktik xarakterda. Shoir inson hayotida avvalo, ilmning ahamiyati yuksakligini qayd etadi. Turli o‘xshatishlar orqali ilm va ilimli kishilarni ulug‘laydi. Ya’ni, bilimli kishini qimmatli dinor, bilimli xotin – er o‘rnida, ilmlining oti abadiy, u o‘lsa ham nomi o‘chmaydi, bilimlarning biri bilimsizning mingiga teng, ilmsiz

esa, yemishsiz meva, bilimsiz erkak – xotin kishidir, ilmsiz iliksiz suyak, ilmsiz tirik bo‘lsa ham o‘lik o‘rnida:

Biliklik biringa biliksiz mingin,
Tengakli tengadi bilikning tengin.
So‘ngakka yiliktak eranga bilik,
Eran ko‘rki-aql, so‘ngakning yilik...

Adib ta‘kidicha, bilimli kerakli so‘zni biladi, keraksiz so‘zni aytmaydi. Bilimsiz esa nima deganini bilmaydi. Tili boshini yeydi:

Biliklik keraklik so‘zin so‘zlayur,
Keraksiz so‘zini ko‘mib kizlayur.
Biliksiz na aysa ayur uqmayin,
Aning o‘z tili o‘z boshini yeyur...

Shoir til xususida ham ibratli fikrlarini bayon qiladi. Tili bo‘sh kishi boshini yeydi. O‘q yarasi bitadi. Til yarasi tuzalmaydi. Ahmoqning qoni tili tufayli to‘kiladi. To‘g‘ri so‘z asal, yolg‘on so‘z sarimsoq piyoz, chin so‘z shifo, yolg‘on so‘z kasal kabidir, to‘g‘ri gapirish, sir bermaslik muhim:

Og‘iz-til bezagi ko‘ni so‘z turur,
Ko‘ni so‘zla so‘zni, dilingni beza.

Ahmad Yugnakiy saxovatni ulug‘laydi, baxillikni qoralaydi:

Yimishsiz yig‘ochtak karamsiz kishi,
Yimishsiz yig‘ochni kesib o‘rtagil.

Shoir kamtarlik, sabr-qanoatni odob bezagi, u kishini ulug‘likka yetaklaydi, deydi:

Ulug‘likka tegsang, yangilma o‘zung,
Qali kiysang atlas, unutma bo‘zung.

Musulmon Sharqida Qur‘oni karim suralari, hadislar, hikmatli hikoyalar, odob-axloq, din, mantiq, notiqlik va davlat ishlariga bag‘ishlangan asarlari bilan tanilgan Imom Abu Homid G‘azzoliy “Ihyoulum ad-din” asarida voizlik san‘ati va so‘z qudratiga oid g‘oyat qimmatli fikrlar bildiradi. Xususan, so‘z aytmak va va‘z-nasihat qilmoq maromi to‘g‘risidagi ibratli fikrlar bayonida “... va‘z-nasihatni chiroyli so‘zlar bilan ta’sirchan qilish, haddan oshmasdan va maqsaddan uzoqlashmasdan eslatmalar berish takallufga kirmaydi. Chunki, va‘z-nasihat va eslatmalardan ko‘zlangan maqsad qalblarni uyg‘otish, zavq qo‘zg‘ash, tiyish va kashfdir. Albatta, latif so‘zlar

bunga munosibdir. ”¹⁶ deb uqtiradi. Shu bilan birga, alloma voiz mahoratini xiralashtiruvchi salbiy jihat “... Aljirash va vaysaqilik bilan gapni chuqurlashtirishga, jummalarni qofiyalab, gap orasida baytlar keltirish va shu bilan soʻzga chechanligini koʻrsatishga, voizlik daʼvosidagi soʻzamollarda boʻlganidek, gapni uzundan-uzoq “muqaddima”- larga zoʻr berish...”¹⁷ ni keskin qoralaydi.

Oʻz zamonasining tengsiz voizi, buyuk olim, benazir faylasuflaridan biri Husayn Voiz Koshifiy “Futuvvatnomayi sultoniyy” asarida shunday deydi: “Nar zabon tigʻi haq gʻuzorlikda noqildur ango tez-tez tigʻ zaboni birla saz bermak kerak” yoki “Har vaqtiki soʻzlar aytursizlar yaxshi soʻzdin boʻlakni ayt mangizlar va koʻp soʻzlamak koʻngilni qaro qilur, xor aylar” yoki “Mumkin ersa, yaxshi soʻz qil oshkor, yaxshi soʻzdin xoʻb yoʻqtur yodgor”, “Nasihatni shirin soʻzu muloyimlik birla ibtido qilgay, chunki bu zamonda yumshoqlik va xushhoʻvlik koʻrguzmayin nasihat korga kelmas”. Koshifiy bunday kishilarni hech bir soʻzida qadr-qimmatini yoʻq, ogʻzidan nima chiqayotganini bilmaydigan kishilardir, deb baholaydi. Ular soʻzga eʼtiborsiz kimsalardir. Bu kimsalar junun sheriga ittifoqchi sanaladi.

Ulugʻ shoir Alisher Navoiy chiroyli muomalaning qudrati, madaniyati hamda shirin soʻzlikning ahamiyati haqida purhikmat fikrlar bayon qilganki, ular bugungi kunimiz uchun ham ahamiyatini yoʻqotgan emas. “Til shirinligi - koʻngilga yoqimlidir, muloyimlik esa foydali. Shirin soʻz sof koʻngillar uchun asal kabi totlidir”, -deydi hazrat Navoiy. Aksincha, voizning elga safsata soʻzlashi uning gʻofilligidandir. Yomon, bemaʼni, qoʻpol soʻz kishini ranjitadi, uyqusini keltiradi:

Fasona boisi gʻaflatdur elga voizdin,
Nedinki keltirur afsonavash kalom uyqu ¹⁸

Alisher Navoiy insonning odob-axloqini belgilaydigan omilardan biri uning nutqi ekanligini alohida eʼtirof etadi:

Soʻz zohir etar zamir ishi koʻprigidin,
Til muxbir rur koʻngil pinhon emgagidin,
Fahm ayla kishi holini soʻz demagidin,
Kim berdi xabar hadisi koʻnglidagidin. ¹⁹

¹⁶ Abu Homid Gʻazzoliy. Til ofatlari. – Toshkent: “Toshkent islom universiteti”, 2011. 26-bet.

¹⁷ Abu Homid Gʻazzoliy. Til ofatlari. – Toshkent: “Toshkent islom universiteti”, 2011. 27-bet.

¹⁸ Alisher Navoiy. Shohbaytlar. – Toshkent: Fan, 2007. 102- bet.

¹⁹ Alisher Navoiy. “Nazm-ul javohir”. - T.: Gʻ. Gʻulom nashriyoti, 1981. 41-bet.

Oz gapirmoq – hikmatga sabab;
Oz yemoq – sog‘likka sabab.
Og‘ziga kelganni demoq – nodonning ishi;
Oldiga kelganni yemoq – hayvonning ishi.²⁰

XX asr boshlarida kelib, Sharq mutafakkirlarining nutq odobi haqidagi qarashlari Mahmudxo‘ja Behbudiy (1815-1919), Abdulla Avloniy (1878-1934), Abdurauf Fitrat (1886-1938), Ashurali Zohiriy (1885-1937) kabi bir qator ma‘rifat darg‘alari tomonidan yanada rivojlantirildi. Ular ona tilimiz muhofazasi va taraqqiyoti, sofligi va nafosati, nafis nutq sezgisi haqida ilmiy qarashlarni ilgari surdilar.

Xulosa qilib aytganda, Sharq mutafakkirlari so‘zga odob bilan yondashish, mantiqli so‘zlashni o‘rganish, nutqning ichki va tashqi ko‘rinishiga (shakl va mazmuniga) birday e‘tibor berish, ravon va ta’sirchan nutq tuza bilish, til boyliklarini o‘rinli va maqsadga muvofiqishlatish vazifalarini qo‘yadilar. So‘z qudrati haqidagi ibratli fikrlar bayonida sharqona pand-nasihat qoidalariga amal qilish lozimligini uqtiradilar.

MAVZUNI MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR:

1. Mutolaa atamasining lug‘aviy izohi haqida tushuncha bering.
2. Voizlikning Sharq va G‘arb madaniy tafakkurida tutgan o‘rni haqida referat tayyorlang.
3. Ritorika haqidagi ta’limot qayerda shakllangan?
4. Sharqda voizlik masalalari bilan shug‘ullangan mutafakkirlardan kimlarni bilasiz?
5. Va’z nima? Voiz deb kimlarga aytiladi?
6. Va’z va voizlikning sharqona pand-nasihat - didaktikasiga asoslanishida qanday omillar yetakchilik qiladi?
7. Imom Abu Homid G‘azzoliy “Ihyoulum ad-din” asarida so‘z aytmak va va’z-nasihat qilmoq maromi to‘g‘risida qanday fikrlarni ilgari suradi. Bu qoidalar nimalardan iborat?
8. Husayn Voiz Koshifiy “Futuvvatnomayi sultoniyy” asarida so‘zga e‘tiborsiz kimsalarni nimaga o‘xshatadi?
9. Alisher Navoiyning voizlarga munosabati va notiqlik san’atiga oid fikrlarini tahlil qiling.

²⁰ Alisher Navoiy. “Mahbub-ul-qulub”. - T.:G‘.G‘ulom nashriyoti,1983. 83-bet.

MUTOLAA MADANIYATI MAZMUNI

Reja:

1. Mutolaa madaniyati va ifodali o‘qish. Adabiy turlar va janrlar.
2. Epik asarlarda badiiy nutq masalasi. Qahramon etikasi va notiqlikaro munosabat haqida.
3. Personaj nutqida muallif axloqiy qarashlarining aks etishi.
4. Liro-epik asarlarni mutolaa qilishda ritmning o‘rni.
5. Epik asarlarni mutolaa qilishda ritmli nasr – sa’jning o‘rni. Sa’jli o‘qish notiqlik madaniyatini rivojlantiruvchi muhim omil sifatida.
6. Dramatik asarlarda notiqlik va deklorativ bayonning ahamiyati.
7. Aruz alifbosi. Aruz vazni nazariyasi.
8. Badiiy asar mutolaasi. Badiiy asar mutolaasiga qo‘yiladigan talablar.

Tayanch so‘z va iboralar: adabiy turlar va janrlar, badiiy nutq, muallif nutqi, personaj nutqi, ritm, lirika, liro-epik asarlar, doston, masal, ballada, epik tur, sa’j, sa’jli o‘qish, roman, doston, qissa, povest, poema, ballada, masal, latifa, hikoya, drama, she’r o‘lchovi, aruz alifbosi, aruz vazni, mantiq, mutolaa.

ADABIYOTLAR:

1. Bekmirzayev N. Notiqlik san’ati asoslari. –Toshkent: O‘qituvchi, 2008.
2. Jirmunskiy V.M. Ritmiko-sintakticheskiy parallelizm kak osnova drevnetyurkskogo narodnogo stixa.// Voprosi yazikoznaniya. – Moskva: 1964. – №4. – S.3-24.
3. Inomxo‘jayev S., Zunnunov A. Ifodali o‘qish asoslari. –T.: O‘qituvchi, 1978.
4. Mahmudov N. O‘qituvchi nutqi madaniyati. –T.: O‘zbekiston Milliy kutubxonasi, 2007.
5. Mamajonov S. Lirik olam, epik ko‘lam. –T.: Fan, 1979.
6. Sarimoqov B. O‘zbek adabiyotida sa’j. . –T.: Fan. 1984.
7. To‘ychiyev U. O‘zbek poeziyasida aruz sistemasi. – Toshkent: Fan, 1985.
8. To‘xliyev B. Ifodali o‘qish. . – Toshkent: Bayoz, 2008.
9. Umurov H.. Adabiyot nazariyasi. Samarqand, SamDU nashri, 2001.
10. Umurov H. Adabiyotshunoslik nazariyasi. . –T.: Xalq merosi, 2004.

1. Mutolaa madaniyati va ifodali o‘qish. Adabiy turlar va janrlar. Mutolaa madaniyati kitob o‘qishdan ko‘ra kengroq tushunchani anglatdi. Mazkur fan o‘z tushunchasi doirasiga ijtimoiy guruhlar, uyushmalar va alohida individlarning umumiy ma’lumot olishga yo‘naltirilgan jarayon, xulq-atvor va faoliyatlari mazmuni hamda tarkibiy tizimlarida yuz beruvcha o‘zgarishlar majmuini ifodalovchi bilimlar, meyorlar, ijtimoiy hodisalar va boshqa atributlarni ham qamrab oladi. Ayni paytda mutolaa madaniyatini ta’lim tizimlari orqali maxsus shakllantiradigan, ixtisoslashgan ma’lumotni inson hayoti davomida turli manbalar – kitoblar, ommaviy axborot vositalari, zamonaviy axborot texnologiyalari, shuningdek, subyekt bilan bevosita muloqotga kirishuvchi shaxslar orqali ega bo‘linadigan turli yo‘nalish va shakldagi umumiy ma’lumotdan farqlash lozim bo‘ladi. Mutolaa madaniyatida matn mohiyatini anglashga, ifodali o‘qishda esa matn mazmunini yetkazishga daxldor texnik va nazariy vositalarni bilish hamda unga amal qilish har doim ahamiyatlidir.

Ifodali o‘qish oldiga qo‘yiladigan asosiy vazifalar tinglovchiga asarning g‘oyaviy mazmuni, qahramonlarning ichki hissiyotlarini yetkazishdir. Aniqrog‘i, “Ifodali o‘qish adabiy asarni tushunarli va ta’sirchan o‘qish demakdir. Bu o‘qish san’ati yod olingan matnni ifodali o‘qishni ham o‘z ichiga oladi. Ifodali o‘qishda fikrlarni yanada silliq, aniq, go‘zal shaklda talqin etish uchun emotsional vositalardan unumli foydalaniladi. Ifodali o‘qishning badiiy emotsional bo‘lishi uchun o‘quvchi-ijrochi asar mazmuni, g‘oyaviy-badiiy jihatlar haqida tasavvurga ega bo‘lishi lozim”²¹.

Ifodali o‘qishning o‘ziga xos xususiyati shundaki, u insonda tuyg‘u va kayfiyatlar hosil qiladi, ya’ni, voqelikning his-tuyg‘uli qiyofasini yaratadi. Ifodali o‘qish jarayonida asar voqealari “jonlanadi”, qahramonlar “tilga kiradi”. O‘quvchi bir vaqtning o‘zida ham muallif, ham obraz yaratuvchi, ham ijrochi sifatida namoyon bo‘ladi. Demak, ifodali o‘quvchi ma’lum darajada aktyorlik san’atidan ham xabardor bo‘lishi lozim.

Ifodali nutq san’atini o‘rganishning muhim vositalardan biri badiiy asarlarni ko‘proq mutolaa qilishdir. Asarning mazmun-mohiyati,

²¹ Inomxo‘jayev S., A.ZunnunovA. Ifodali o‘qish asoslari. - Toshkent: O‘qituvchi, 1978. 58-bet.

qahramonlar xarakter xususiyati, maqsad va intilishlari chuqur o'rganilgandagina og'zaki talqinda asar ruhiga mos ohang va intonatsiya paydo bo'ladi. Badiiy asarlarni mutolaa qilish o'quvchining dunyoqarashini kengaytirish barobarida adabiy tilni puxta o'zlashtirishga, ifodali o'qish san'atini egallashga yaqindan yordam beradi.

Adabiyotning barcha tur va janrlaridagi badiiy asarlar fanning o'rganish obyekti bo'lib xizmat qiladi. Ifodali o'qish deganda, faqat lirik turga mansub asarlarga emas, balki nasriy va dramatik turdagi asarlarni o'qish ham nazarda tutiladi. Badiiy asarlarni ifodali o'qish ijrochidan alohida iqtidor va mahoratni talab qiladi. Zero, adabiy asarning badiiy xususiyatlari, unda ilgari surilgan g'oyalar, muallif dunyoqarashi kabi muhimmasalalarni aniqlashda ifodali o'qish alohida ahamiyat kasb etadi.

Ifodali o'qishning o'ziga xos xususiyatlarini mukammal va puxta o'zlashtirgan kishining nutqi ravon, shirali bo'lib, o'z fikrini tinglovchilarga to'g'ri va izchil yetkaza oladi. Ta'kidlash joizki, badiiy asarlarning hammasi ham bir xilda o'qilavermaydi. Adabiy asarlarni ifodali o'qishda ularning tur va janr xususiyatlari alohida ahamiyatga ega. Asarning tur va janri uni tahlil qilishga oid metod va usullarning belgilanishiga asos bo'ladi. Taniqli metodist M.A.Rubnikovanning qayd etishicha, "Metodik usullarni asar tabiati taqazo qiladi. Balladani reja asosida tahlil qilish mumkin, Biroq lirik she'rni rejalashtirish maqsadga muvofiq bo'lmaydi. Kichkina hikoya to'liq hajmda o'qiladi va tahlil qilinadi. Romandan alohida, yetakchi boblarni ajratib olamiz, ulardan birini sinfda, boshqasini uyda, uchinchisini sinchiklab tahlil qilamiz va matnga yaqin holda qayta hikoyalaymiz, to'rtinchi, beshinchi, oltinchilarini tezroq tarzda tahlil qilib qisqacha qayta hikoya qilamiz, yettinchi va sakkizinchi boblarning parchalari alohida o'quvchilarning badiiy o'qishlari shaklida beriladi, epilogni sinfda o'qituvchining o'zi aytib beradi. Topishmoqlarning javobi topiladi va yod olinadi, maqollar izohlanadi hamda hayotiy misollar bilan dalillanadi, masal esa unda ko'zda tutilgan xulosa nazarda tutilgan holda tahlil qilinadi".

Bularning barchasi adabiy asar tahlilida uning tur va janr xususiyatlari alohida ahamiyat kasb etishini ko'rsatib turadi. Prof. Q.Yo'ldoshevning yozishicha, "Turli adabiy asarlar bilan ish yuritilganda tahlil usullari mutlaqo o'zgarib ketmaydi, lekin

o'quvchining asarga yondashishi, munosabat tarzi o'zgaradi". Buning juda katta nazariy va amaliy ahamiyati bor. Zero, asarlarni tur va janr xususiyatlariga ko'ra o'qish, o'rganish san'atdan lazzatlanish, asarni uning badiiy butunligi hamda takrorlanmas mohiyatini his etish qobiliyatni rivojlantirishni nazarda tutadi.

Adabiy asarning badiiy estetik mohiyati uning kompozitsiyasini, ya'ni undagi turli-tuman qahramonlar, bir-biriga o'xshamaydigan sahnalar, alohida joy, manzara, vaziyat tasvirlari, monolog, dialoglar, o'y-xayol, tush va boshqa turli komponentlarning murakkab tartibini o'rganish, sharhlash orqali o'zlashtiriladi. Bu jarayonda adabiy o'qish alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki adabiy o'qishda matnning asl mohiyatini anglash osonroq kechadi. Uning o'zak muammolari o'quvchining ko'z oldida tezda gavdalanadi. Adabiy o'qishda dastlabki urg'u tushishi lozim bo'lgan o'rinlar ajratiladi, ular o'quvchilarning ongiga ham, tuyg'ulariga ham kuchli ta'sir ko'rsatadi.

Badiiy asarlar shunchalik rang-barang, ular "nima bilan nimani va qanday aks ettirishi" (Aristotel)ga qarab, asosan uch turga bo'linadi. Bular: *epos*, *lirika*, *drama* hisoblanadi.

Davrning muhim ko'rinishlarini (*nima to'g'risida*), chuqur tahlil qilib, uning ko'pchilik e'tiborini jalb etadigan g'oya va muammolarini o'rta qo'yish (nimani gapirish) va shu asosda tug'ilgan ko'ngildagi fikrlarni aniq va yangi obrazlar vositasida ifodalash (*qanday tasvirlash*) – yaxlit, bir butun jarayon ("Bo'lishi mumkin bo'lgan" olamni yaratish)dir.

Uchala tur ham bitta asos – hayotdan oziqlansalar-da, uchchalasi ham bo'lishi mumkin bo'lgan olamni kashf etsa-da, ayni paytda, ularning har birining o'ziga xosligini ta'minlovchi predmeti ham bor. *Eposniki* – voqea, *lirikaniki* – ruhiy kechinma, *dramaniki* – harakatdir. Eposdagi qahramon – voqea, dramaning qahramoni – inson shaxsi, lirikaning qahramoni insonning ichki tuyg'ularidir. Shu sabab, bugungi kunda "liro-epik tur" (she'riy roman, doston, ballada, masal, oda)ni, "tarixiy-badiiy tur" (ocherk, reportaj, kundalik)ni ixtiro qilish asossiz, chunki ularning "o'zlarigagina" tegishli bo'lgan – predmetlari (narsaning belgilari) yo'q. V.Belinskiy "Poeziyaning hamma turlari... faqat uchta, bundan ortiq bo'lishi mumkin emas" – deydi. Badiiy asarni vujudga keltiruvchi barcha vositalar – xarakter,

syujet, konflikt, badiiy til kabi unsurlar turfa xil xususiyatlar kasb etadi.

Ushbu farqli xususiyatlar va qonun-qoidalarini istagancha davom ettirish mumkin. Har bir tur hayotning u yoki bu tomonini yorqin va batafsil ifoda etadi. Adabiy turlar bir-birlarini to'ldirib yashaydilar. Ularning har biri ham inson ruhining turlicha holatini aks ettiruvchidir.

Adabiy janr esa (fr. Genre –tur, jins) – adabiyot rivoji jarayonida yuzaga kelgan asarlarning tasvirlash yo'llari, kompozitsion qurilishi, bayon usullari, badiiy vositalar, hayotiy hodisalarni qamrash ko'lami va miqyosiga ko'ra ko'rinishlari hisoblanadi. Janrlarning o'xshash va farqli tomonlarini hisobga olgan holda, ularni turlarga ajratish va tur ichida o'ziga xos o'zgarmas qonuniyatlarini yoritish zarur bo'ladi. Jumladan, epik turga oid janrlar haqida gap ketganda, voqealarni hikoya qilishdek ustivorlik asosiga qurilgan barcha asarlarning jami epik turni vujudga keltirganligini qayd etish lozim. Epos, doston, ballada, masal, ertak, hikoya, qissa, povest, roman, ocherk, felyeton, esse, mif, rivoyat, afsona, sayohatnoma, muhabbatnoma, safarnoma, "hamsa", hikmatli so'z, ertak, marsiya, madhiya, matal, aforizm kabi janrlar epik ijodning mulki sanaladi.

2.Epik asarlarda badiiy nutq masalasi. Hayotiy ko'lamning kengligi, murakkab insoniy taqdir, qahramonlar ruhiyatidagi sanoqsiz tovlanishlar voqealar asnosida idrok etilishi lozim bo'lgan epik asarlar mutolaasi ham o'ziga xos tarzda amalga oshiriladi. Epik asarlar mutolaasida personajlarning kechinmalari, qahramonlar ruhiyatidagi kayfiyatlar ifodasi, tuyg'ularning paydo bo'lish jarayoni, ularning ildizlariga e'tibor qaratiladi. Shu sababli epik asarlar mutolaasi ko'lamdor, ko'p bosqichli bo'ladi. Epiklikning eng asosiy belgisi: voqeabandlik va tasvirda tafsilot mavjudligidir. Qaysi janrda bo'lishiga qaramay, epik turga mansub asarlarda personajlar asosan voqealar qo'ynida tasvirlanadi va ularning tabiatlari hodisalar tasviri asnosida namoyon bo'la boradi.

Epik asarda dramadagi singari makon va zamonda sodir bo'lgan voqealar aks ettiriladi. Epik asarning o'ziga xosligini ta'minlaydigan asosiy jihat unda bayonning tashkiliy o'rni muhimligidan iboratdir. Nutq egasi, so'zlovchi yoki bayonchi go'yo oldin bo'lib o'tgan voqeani hikoya qilib berayotganday bo'ladi va ayni vaqtda yo'l-

yo‘lakay turli holatlarni, personajlar qiyofasini tasvirlaydi, ba‘zan izohlaydi.

Epik asarlarning, odatda, hajman yirikligi, ko‘pincha, lirik asarlar singari bir zarb bilan o‘qib chiqib bo‘lmasligi, uning ta’sir ko‘rsatishi ham serqatlam ekanligi e’tiborga olinishi lozim. Bu xil asarda tuyg‘ular oqimi bir tarafga yo‘nalgan bo‘lmaydi. Unda to‘qnashuvlar, his-hayajonlar, olqish-u qarg‘ishlar, ma’qullash-u inkorlar g‘oyat sertarmoqli bo‘ladi. Lirik asarlarda muallif hissiyotini yashirib o‘tirmaydi, butun asar faqat tuyg‘ular junbushiga quriladi, kechinmalar qanchalik kuchli va ularning ifodasi qanchalik yorqin bo‘lsa, lirik asarlardan chiqadigan badiiy ma’no ham shunchalik salmoqli bo‘ladi.

Gap epik asarlar mutolaasi ustida borar ekan, ularda “har qanday hissiyot voqealar qa’riga berkitilgan” bo‘lishiga e’tibor berish zarurati paydo bo‘ladi. Chunki qahramonlarni hayotiy voqealar og‘ushida ko‘rsatish xususiyati epik asarlarda insoniy kechinmalarni tasvirlar jarayoniga joylash imkonini beradi va o‘quvchidan bu sezimlarni ilg‘ab olish talab qilinadi. Shuningdek, epik asar o‘qilayotganda personajlarning gap-so‘zlari, qiliqlari, fikrlari ularning xarakter mantig‘iga muvofiq kelishi yoki kelmasligi muammosi kitobxonning e’tibor markazida turishi lozim. Zero, mutolaa jarayonida nasriy til jozibasini, turli-tuman badiiy vositalar tufayli tug‘ilgan estetik mo‘jizalarni payqaydigan va shundan lazzatlanadigan, hamda shu lazzatning manbaini tushunib va tushuntirib berish kishi ma’naviy yuksalishida beqiyos ahamiyat kasb etadi. Epik asarlarda, odatda, voqealar bayoni yetakchi o‘rinni egallaydi. Unda mullif nutqi, personajlar nutqi, jonli so‘zlashuv nutqi, adabiy va badiiy til, badiiy tilning o‘ziga xos xususiyatlari kabi qator omillar badiiy asarning g‘oyaviy mazmunini anglashga xizmat qiladi. Lekin eng qizig‘i ham, eng murakkabi ham shundaki, bu vositalarning hammasi ham so‘z vositasida yaratiladi, so‘z tufayligina jozibaga, ta’sirdorlikka, yaratishga qodir bo‘ladi. So‘z vositasida asar voqealari “jonlanadi”, qahramonlar “tilga kiradi”. Demak, badiiy asarlarni mutolaa qilish kitobxonning dunyoqarashini kengaytirish barobarida adabiy tilni puxta o‘zlashtirishga, egallashga yaqindan yordam beradi.

3. Personaj nutqida muallif axloqiy qarashlarining aks etishi.

Ma'lumki, badiiy asar tili – muallif nutqi va personajlar nutqi deb nomlanadigan, bir-biri bilan murakkab bog'lanishda bo'lgan ikkita katta qismdan iborat. Badiiy asarda turli-tuman personajlar qatnashar ekan, albatta, ularning har biriga xos nutqi ham mavjud bo'ladi. Personajlar nutqi badiiy asar tilining tarkibiy qismi bo'lib, u tipikligi va individualligi, obrazliligi bilan har bir shaxsning dunyoqarashini, tajribasini, xulq-atvorini, ma'naviyatini, salohiyatini, deyarli, butun borlig'ini mubolag'ali va ishonchli qilib ko'rsatadi. Chunki har bir odamning nutqida uning bo'yi-basti (ruhiy kayfiyati, his-tuyg'ulari ham) aks etadi, shuning uchun ham so'z – xarakter ko'zgusi sanaladi.

Personaj nutqi muallif nutqi bilan bog'liq holda ro'yobga chiqadi. Biroq ayrim hollarda muallif nutqi asar personajlari va voqealar bayoni bilan bog'lanmagan bo'ladi. Bunda muallif nutqi lirik chekinishlardan iborat bo'lib, bunday lirik chekinishlar muallifning munosabatini ifodalaydi, bayon qilinayotgan voqealarni izohlaydi, to'ldiradi.

Personaj nutqi muallif axloqiy qarashlari hamda ularning fikr va hissiyotini, turli hodisalarga bo'lgan munosabatini ham anglatadi. Jumladan, Odil Yoqubovning “Ulug'bek xazinasini” romanida Ali Qushchi Abdulatif oldidan boqqa chiqqanida uning qalbidan quyidagi o'y-saboqlar kechadi:

“Hayhot Kim aytmish, bu noraso dunyoda haq va adolat yo'q deb. Bor. Kimki, bu dunyoda yomonlik qilsa – xoh shoh bo'lsin, xoh gado jazosiz qolmaydi. Insonga aql va shuur shu maqsadda berilgankim, bu teran haqiqatni tushunsin. Kimki bu haqiqatga tushunmay, adolatsizlik yo'lini tutar ekan, oxiri voy bo'lishi muqarrar. Mana, shahzoda. Toju taxt va shon-shavkat ishqida o'z padarini qatl qilishdan ham toymagan edi, allomalar sarvari yoqqan ilm mash'alini so'ndirib, Movarounnahrni zulmat qo'yniga tashlagan edi, oqibati ne bo'ldi? Bu foni dunyoda ham haq va adolat bordur. Bundan mo'minlarga qatlu qirg'in keltirgan, mehr-shafqat o'rniga jabru jafo, ilmi ma'rifat o'rniga zulmat urug'ini sochgan hech bir kimsa intiqomsiz qolmaydur.”²²

²²Yoqubov O. “Ulug'bek xazinasini”. – T.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1994.309-bet.

Ko‘rinadiki, quyida keltirilgan personaj nutqi muallif ruhiy dunyosini, axloqiy qarashlarini namoyish etadi va o‘z kashfi bilan asar mohiyatini chuqurlashtiradi, bosh maqsadni yoritishga, tirikligini ta‘minlashga hissasini qo‘shadi.

Personaj nutqi tipikligi va individualligi, obrazlilik bilan har bir shaxsning dunyoqarashini, tajribasini, xulq-atvorini, ma‘naviyatini, salohiyatini, deyarli, butun borlig‘ini mubolag‘ali va ishonchli qilib ko‘rsatishi lozim. Chunki har bir odamning nutqida uning bo‘yi-basti (ruhiy kayfiyati, his-tuyg‘ulari ham) aks etadi, shuning uchun ham so‘z – xarakter ko‘zgusi sanaladi. Personaj nutqi dialog va monolog vositasida voqe bo‘ladi.

Personajlar nutqi, ruhiyati, o‘y-kechinmalari, xatti-harakatlari ham hayotiylik, ham badiiylik nukta – nazaridan tahlil kilinganda muallifning badiiy mahorati va axloqiy qarashlari namoyon bo‘ladi. Aniqrog‘i, personajlar nutqi muallif obrazini idrok etishga, muallifning niyati va ma‘naviy olamini anglashga, asar jozibasini ta‘minlaydigan jihatlarni aniqlashga qaratilgan bo‘ladi. Yozuvchi – muallif doimo minglab so‘zlar ichidan eng keragini tanlaydi; zargarona tanlangan ana shu so‘zlar qahramon va sharoitning mazmuni (g‘oyasi), holati bilan chambarchas bog‘lanishi, aniq estetik maqsad (mazmun)ni voqe qilishi shart. Bundan har qanday so‘z badiiy asarda o‘z “yuki”ga ega bo‘lishi kerak, degan qoida kelib chiqadi.

Muallif barcha asarlarining hikoyachisi bo‘lganligi sabab, u har bir personajning o‘y-kechinmalarini, fikr-mulohazalarini, harakatlantiruvchi muhitning shart-sharoitlarini, muomala – munosabatlarini ta‘rif-tavsiflash, ko‘rsatish orqali hammasini bir maqsadga – asarda ifodalanayotgan fikr – g‘oyani ro‘yobga chiqarish uchun harakatga keltiradi. Bu harakatning zarur ikir-chikirlarigacha tasvirlaydi. Ayni paytda, tasvirlanayotgan hamma narsa (obraz, muhit, tafsilot, detal)ga munosabatini bilvosita bildiradi Adabiyotshunos S. Mamajonov “Lirik olam, epik ko‘lam” kitobida shunday yozadi: Sh. Rashidovning “G‘oliblar”, “Bo‘rondan kuchli” asarlarida muallif nuqtai nazari bilan bosh qahramonlar nuqtai nazari, ular ovozi jips qo‘shilib ketgan. Muallif ovozida xalqning fikri, nuqtai nazari, personajlar nutqida muallif ovozi doim ishtirok etadi.

Quyidagi parchada haqiqatan ham qahramonlar kechinmasi, holati, kayfiyati birlashib ketganday: Pogodinlar o‘zlari hal qilgan ulug‘vor

ishlarga nazar tashlar ekan, behad quvonadilar, qonuniy g'ururlanadilar, inson qudratining va irodasining cheksizligiga qoyil qoladilar; bu nuqtai nazar ayni chog'da yozuvchining shaxsiy tuyg'usi, nuqtai nazari tarzida ham yangraydi. Muallif na "qahramonlarni o'ylaydi", "dilidan o'tkazadi" degan jumla-izoh beradi, na bevosita o'z tilidan aytayotganini ta'kidlaydi. U shunday bir shakl va oxangda so'zlaydiki, muallif bilan personajlar birlashib – xor bo'lib so'zlayotgandek tuyuladi:

“Mana endi ularning oldida umr buyi birinchi marta haydalgan va eqilgan yerlar, birinchi marta odamzod qo'li bilan parvarish qilingan va ardoqlangan yerlar yastanib yotibdi. Modomiki shunday ekan, inson o'zi bilan, odam bolasi bilan faxrlanmay bo'ladimi? Inson degan so'zning mag'rur jaranglashi shundan emasmi? Haqiqat bu!

Ha, endi bu yerlarni qadimiy yerlar deb bo'lmaydi. Endi bu inson irodasi bilan asriy uyqusidan uyg'ongan, birinchi bor haydalib tanasiga shabada tekkan, bag'riga urug' tashlangan, butun vujudi, husn-jamoli tubdan o'zgartirilgan, qaytadan dunyoga kelgan yangi yer bu! Yangidan ochilgan bu yer! Navqiron yer bu!

Mo'jiza yaratildi: o'tzor va butazor bo'lib yotgan yovvoyi yerlar birdaniga hosildor yerlarga aylantirildi. Yashardi va go'zal bo'ldi, endi u bahorga o'xshaydi, kelinchakka o'xshaydi.

Axir bu mo'jiza emasmi? Axir bu inson faxri emasmi?..

Bosh qahramon bilan muallif nutqining yaqinligining ildizi ularning hayotga qarashidagi yagonalik – bir xil pozitsiyada turishlariga borib tutashadi. Bosh qahramon nutqining muallif nutqi kabi ko'tarinki, hatto shoirona ohangda bo'lishining asosi ham xuddi shu yerda bo'lsa kerak...”²³.

Ushbu misoldan ham ko'rinayaptiki, muallif Sh.Rashidov o'z so'zlarini qahramonga yuklaydi, o'zi qahramon qiyofasiga to'liq singmaydi. Xuddi shunday holatni V.Gyugo, N.G.Chernishevskiy, M.Y. Lermontovning ba'zi asarlarida ham ko'rishimiz mumkin. Jumladan, M.Y. Lermontovning “Zamonamiz qahramoni” asarini tahlil qilib, V.G.Belinskiy “u (muallif) tomonidan tasvirlangan xarakter... shunchalik unga yaqinki, undan o'zini ajratishga va obyektivlashtirishga kuch topa” olmaganligini ta'kidlaydi. Buning

²³ Mamajonov S. Lirik olam, epik ko'lam. -T.:Fan, 1979, 317— 318-betlar.

sabablari nimada? Sababi muallif va personajning “hayotga qarashdagi yaqinligi”dir. Muallif fikri, so‘zi, xatti-harakatining personaj ichki dunyosi mazmuniga to‘liq mosligidir.

4. Liro-epik asarlarni mutolaa qilishda ritmning o‘rni. Voqelikni epik bayon va lirik ifoda bilan qo‘shgan holda tasvir etgan she’riy asarlar – liro-epik tur (she’riy roman, doston, ballada, masal, oda)ni tashkil etadi. Epos (yunoncha epos – co‘z, nutq, hikoya)ning eng yirik janri epopeya (yunoncha epopoia-rivoyatlar, qo‘shiqlar majmuidir). “Epopeya xalqning faqat go‘daklik davrlarida, uning hayoti hali ikki qarshi tomonga – poeziya va prozaga ajratilmagan chog‘da, xalqning tarixi faqat afsona bo‘lgan zamonda, dunyo haqida uning tushunchalari faqat diniy tasavvurlardan iborat bo‘lganda, uning kuch-qudrati va toza faoliyati faqat qahramonlik g‘alabalarida ko‘ringan zamonlardagina paydo bo‘lishi mumkin”²⁴. Homerning “Iliada” va “Odessiya”si, hindlarning “Mahobhorat” va “Ramayana”si, qirg‘izlarning “Manas”i, o‘zbeklarning “Alpomish”i yuqoridagi mulohazalarning isbotidir.

Tarixiy shaxsning bahodirliklari bilan bog‘liq voqealar haqida yaratilgan turkum – liro-epik asarlarda tarixiy voqelik xalq fantaziyasi asosida umumlashtiriladi. Bunday umumlashtirish xalqning ijtimoiy adolat haqidagi g‘oyalari va orzu umidlari bilan yo‘g‘rilgan. Demak, dostonga ham epiklik xos bo‘lib, kompozitsion va syujet qurilishi jihatidan murakkab voqealarni qamrab oladi. Bunday voqealar mazmunan qahramonlik xarakteriga ega bo‘lib, ular yakka shaxs – xalq idealidagi bahodir atrofida birlashtiriladi. Favqulodda kuch-qudratga ega bo‘lgan bunday yakka shaxslarda butun bir xalqning orzu-umidlari, imkoniyat va intilishlari mujassamlashgan. Bu esa o‘z navbatida janrning o‘ziga xos uslubi va shaklini ham yuzaga keltiradi.

Ma’lumki, band – strofika she’rning asosiy ritmik birligi hisoblanib, kompozitsion yaxlitligi va semantik tugalligi bilan ajralib turadi²⁵. Sodaroq qilib aytganda band, strofa tugal bir fikr yoki manzarani ifodalaydigan, alohida qofiyalanish tartibiga ega bo‘lgan she’r bo‘laklaridir²⁶. Liro-epik asarlarning asosiy qismini egallaydigan

²⁴ Belinskiy V.G. Tanlangan asarlar. -T.: O‘zbekiston Davlat nashriyoti, 1955, 167-bet.

²⁵ Misl, voorujennaya rifmami. – L.: LGU, 1983. – S. 27.

²⁶ Hotamov N.T. Adabiyotshunoslikdan qisqacha ruscha-o‘zbekcha terminologik lug‘at. – Toshkent: O‘qituvchi, 1969. 112-bet.

she'riy parchalar ham bandlar asosida tuziladi. Turkiy she'riyat ibtidosi xususida tadqiqot olib borgan ko'plab sharqshunoslar fikriga qaraganda bandlarning shakllanishida ikki misralik takror va alliteratsiyalar asosiy rolni o'ynagan. Jumladan, V.M.Jirmunskiy ham V.Radlov, T.Kovalskiylarning fikrlariga ko'ra xalq poeziyasi dastlab ikki misralik shaklda jipslashib, keyinchalik to'rt misralik bandlar yuzaga kelgan. Bu jarayonda ritmik – sintaktik parallelizmlarning o'zni alohida ahamiyat kasb etgan²⁷.

Eposlarning kompozitsion tuzilishini umumiy an'anaviy andoza – o'zni bilan o'zaro almashinib nazm va nasriy matnlar tashkil etadi. Bunday umumiy qolip bir qator turkiy xalqlar eposlari uchun ham xosdir. Dostonlardagi she'rlar, asosan, 7,8 hijoli barmoq vaznida bo'lib, turoqlarning o'zgarib turishi, band tuzilishi va qofiyalanishiga ko'ra o'ziga xos xususiyatga ega. 7, 8 hijoli vaznlar o'ziga xos ritmga ega bo'lib, voqealarning jadal rivojlanishi tasvirida qo'llaniladi. Ular tezlikni bildiradi. Qahramonlarning otdagi safari, jang manzaralari, qizlarning sayr, bog'da yurishlari, xabar va chaqiriqlar esa bazm va ziyofatlar tasviri qisqa vaznlarda beriladi.

Masalan:

Kulon yurmas yerlardan

Quvib o'tib boradi,

Bo'lon yurmas yerlardan

Buvib o'tib boradi.

Qarsoq yurmas yerlardan,

Qalqib o'tib boradi.

Barslar yurmas yerlardan

Bo'zlab ketib boradi.

Polvon Xasan dovushin

Sozlab ketib boradi.

Bek Ravshanni tinmasdan

Izlab ketib boradi.

Bu tasvir do'mbira sadosida, otlarning tuyog'idan chiqayotgan dupir-dupir, jang suroni bilan uyg'unlashib ketadi.

²⁷ Jirmunskiy V.M. Ritmiko-sintaksicheskiy parallelizm kak osnova drevnetyurkskogo narodnogo epicheskogo stixa. – S.10.

Uzun vaznli (11 hijoli) she'rlar harakatning tinch, ohistaligini bildiradi. Qahramonlarning monologi, diologi, ta'rif va tavsiflari shu vaznda beriladi.

Masalan:

– *Men zulfimni toblab-toblab o'rgali,*

Ilojim yetmaydi jonimni bergali,

Zindonning ichida, to'ram, bormisan,

Baxtiqaro yoring keldi ko'rgali

– *Tor zindonda yotib doim "xuv" dedim,*

Kim o'tsa boshimdan "ohu" ham "suv" dedim,

Omonat yor yo'lay ko'rma qoshima

Ajalning otini mindim, "chu" dedim.

Xalq dostonlarida qisqa she'rlarga nisbatan uzun she'rlar ko'pchilikni tashkil etadi va asosiy o'rin tutadi. Bu narsa vazniy o'zgarishlar dostonlarning mazmuni bilan, qahramonlarning hatti-harakati va holati bilan bevosita bog'liq ekanligini ko'rsatadi. Dostonning nasriy qismi ham o'ziga xos. Ular o'zaro sa'jlangan. Masalan, Ravshanxon bu bog'larga qarasa, tik paxsasini ishlagan, devorini(ng) tagini g'ish(t)lagan, juda mahkam qilib tashlagan, devorlarni ganchlagan, to'g'riga ketgan rastalar, devorlarda guldastalar, juda o'xshatib ustalar. Ko'rgan xasta, ko'rmagan havasda. Gul ekilgan baland-pastda, gulni desang dasta-dasta, tevaragi yong'oq-pista, qilgan ham juda usta.

Dostonlarda nazm va nasr badiiy funksiyasiga ko'ra deyarli teng huquqda. Ularning har birining o'z o'рни va o'z vazifasi bor. Biroq tasviriy va hajm jihatidan nazm nasrdan ustunlik qiladi.

5. Epik asarlarni mutolaa qilishda ritmli nasr – sa'jning o'рни. Sa'jli o'qish notiqlik madaniyatini rivojlantiruvchi muhim omil sifatida. Nasriy asar tilida ham ma'lum darajada ritm mavjud bo'ladi. Zero, har qanday nasr ham o'ziga xos ritmga egadir. Lekin nasriy asarlardagi ritm, she'riy asarlardagidan o'zgacha qonunlar asosida yuzaga keladi. Ritmlar asosiga qurilgan nasr dastlab xalq og'zaki ijodida paydo bo'lib, keyinchalik yozma adabiyotga o'tgan. Xalq dostonlari yoki ertaklari tarkibidagi ritmik-sintaktik parallelizmlar asosiga qurilgan lavhalar buning yorqin dalilidir. "Hasanxon qanday o'g'lon? - so'ylaydi alvon-alvon, yag'rini yoziq polvon, toza bir bilak arslon". Bu o'rinda har bir saj'langan bo'lak bitta ritmik guruhni

tashkil etadi, guruhlar orasida esa, qat'iy vazndoshlik mavjud, ya'ni har bir ritmik bo'lak yetti hijodan tashkil topgan. Bilga Qoon, Kul Tegin sharafiga qo'yilgan yodnomalar matni, "O'g'uznoma" kabi asarlar ritmli nasrning yorqin namunalaridir.

G'afur G'ulom "Shum bola" asarida saj' san'ati qo'llangan bo'lib, bozor makoniga oid manzarani ta'sirli ifodalagan. Turli sasu hayqiriq jonli, tabiiy jarayonni tasvirlashga xizmat qilgan. Tiriklik uyiga mengzalgan bozorda insonu jonzot yashash uchun kurashib, toleiga bitilgan nasibaga oshiqadi. Vaqt (juma) va makon (bozor) konkret berilib, har bir narsa, kimsa holati lo'nda ifodalanadi: "Juma kuni, qo'ylar ma'ragan, tuyalar bo'kirgan, otlar kishnagan, bozorchilar so'kishgan, tole osmonini bozorning changi qoplagan, dallollarning bilaklari "bor baraka top"da charchagan"²⁸.

Erkin A'zamning "Otoyining tug'ilgan yili" qissasida ham saj' qo'llanadi: "Oldimda uyum-uyum kitob, darslik; tevaragimda bari yashash uchun ilm olayotgan kimsalar; tashqarida esa, hayot atalmish beqiyos mo'jiza: charaqlagan quyosh, tip-tiniq osmon, top-toza havo, ko'zni qamashtiruvchi atlas ko'ylaklar-barno qizlar, o'ynoqi favvoralar, xushnag'ma qushlar..."²⁹

Tasvirda jonli hayot manzarasi insonu tabiat holatini muvofiqlashtiradi. Ot turkumidagi so'zlar ichki ohangni hosil qilib, narsalar sifati, xususiyati hissiy samarani oshiradi. Uyushiq bo'laklar muayyan predmet, jism, kimsalar holatini obrazli ifodalaydi. Ilm tolibi nigohida vaqtni bilim olishga sarflash bosh ma'naviy maqsad, hayotdan zavqlanish moddiy ehtiyoj kabi tushuniladi.

Epik asarlar mutolaasida ritmli nasr – sa'jning o'rni beqiyos. Saj'li o'qish notqlik madaniyatini rivojlantiruvchi muhim omil sifatida qaraladi. Chunki saj' badiiy asarga she'riy fazilat baxsh etadi, biror fikrni jozibali ifodalashda, ayniqsa, tasvirlashda ohangdorlik baxsh etadi. Manbalarda saj'li o'qishga notqlik madaniyatini rivojlantiruvchi muhim omil sifatida baho beriladi.

Ma'lumki, obrazlilik surat va sifatni badiiy tasvir vositalari orqali ifodalash, ya'ni saj' usuli asarda yoki uning ayrim o'rinlariga badiiylik tusini bag'ishlovchi nafis san'at turlardan hisoblanadi.

²⁸ G'ulom G'. Shum bola. - T.: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1973.

²⁹ A'zam E. Kechikayotgan odam – T.: Sharq, 2002.

Saj' – (arabcha – bulbul, to'ti, qumri kabi qushlar ovozinig uyg'unlashib kelishi) folklorning, asosan, nasriy janrlarida bir yoki bir necha gapdagi ayrim so'zlarning yo vaznda, yo qofiyada, yoxud har ikkalasida moslashuvidir.

Saj' san'ati nihoyatda qadimiy bo'lib, bu tasviriy uslub, ayniqsa, xalq og'zaki ijodi janrlarida an'anaviy fazilatga aylanib ketganligini ta'kidlash lozim. Xususan, xalq dostonlarida ko'plab uchraydigan saj'lar baxshi uslubining tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadiki, xalq dostonchiligi san'atida atoqli baxshilar ana shu qadimiy tasvir uslubini nihoyatda yaxshi egallagan va undan o'rinli, barakali foydalanganlar.

Ilmiy adabiyotlarda saj' san'ati haqida bu tasviriy usulning uchta mustaqil turi ko'rsatiladi.³⁰ Bulardan birinchisi mutavozi sa'j (to'liq saj')dir. Agar ikki va undan ortiq sodda jumalardan tuzilgan gaplarning oxiridagi iboralar boshqa qofiyadosh vazn hamda harflar miqdori jihatidan barobar bo'lsa, bunday san'atga mutavozi saj' deyiladi. Masalan, "...Uning Norguloy degan qizi, falakning Cho'lpon yulduzi, oyni uyaltirgan yuzi Shukuraliboyning ko'zi, ko'zi emas yurakduzi bor edi",³¹ kabi keltirgan tasvirdagi qizi, yuzi, ko'zi qofiyalari ikki himoyali o'lchovga mos tushgan.

Agar gap oxiridagi ikki va undan ortiq iboralar va sodda jumalar bir-biriga qofiyadosh bo'lib, vazn va harflar miqdori jihatidan ittofoqdosh bo'lmasa mutarraf sa'j (qofiyali saj') deyiladi: "...So'ltoq bir narsani otga o'ngarib ketayotgan ekan, molma, odamma bilolmay, kuchim yetib qo'lidan ololmay, cho'ponlarga, ovulga xabar berayin deb, ot choptirib kelib, qo'yni suruvga qo'shib, endi otga minmoqchi bo'lib, turibman"³².

Saj' san'atining navbatdagi ko'rinishida qofiyalanuvchi so'zlardagi hijolar miqdori teng bo'lib, qofiyadosh ma'lum miqdorda ohangdosh bo'lganligiga qaramay, shakllar turli-tumanlikka ega bo'ladi: "...Qizini olib qochgan So'ltoqligini bilib, boyning battar achchig'i kelib, Dononi ham olib yetti kishi bo'lib, katta daraga ot choptirib ketdi"³³. Bu epizodda bilib, olib, kelib, bo'lib kabilar saj' hisoblansada, qofiyalanuvchi hijolar miqdori teng bo'lsa-da, so'zlarning shakli

³⁰ Sarimoqov B. O'zbek adabiyotida sa'j. - T.: Fan. 1984, 164-bet.

³¹ Qodirbaxshi Rahimov. Kelinoy yoki Norguloy. - Qarshi: Nasaf. 2011. 6-bet

³² Qodir baxshi Rahimov. Kelinoy yoki Norguloy. - Qarshi: Nasaf. 2011, 69-bet.

³³ O'sha asar. 6-bet.

va ma'nolari o'zgacha tarzidaligi hamda ular bir-birlariga vazndosh bo'lganligi sababli mutavozi saj' (ya'ni, vazndosh saj') hisoblanadi. Aslida mutavozi so'zi "vaznlashgan", "vazndosh", "barobar vazn" ma'nolarini ifoda qiladi.

Bosh niyatning ifodasiga va uni yorqinroq ochib berishga qaratilgan tasvirlarda mahoratli baxshilar bu san'atning musajja' usulidan ham unumli foydalanadilar. Jumladan, yurt ta'rif-tavsifini keltirishda shunday tasvirlarga duch kelamiz: "... Oqbosh tovdan tubanda, Oqbet degan tovining ustida Gala degan joy bo'lib, u yerda Shukuraliboy degan katta boy yashar edi. Uning o'n suruv qo'yi, ikki suruv yilqi bilan toyi, Dumachovli edi yaylov joyi".³⁴ Yoki "...Hammamiz bir bo'lib, eshikma-eshik yurib ramazon aytamiz, boynikiga boramiz. Biz yo ramazon aytib turamiz, So'ltoq qizni ko'rib oladi, iloji bo'lsa so'z aytib qoladi, agar yuvoshroq bo'lsa, bir o'pib qanniqlab qoladi"³⁵.

Xalq dostonlarida ko'plab uchraydigan saj'lar yozma adabiyotga ham kirib keldi. Nasriy asarlarning tilini serbo'yoq, ta'sirchan qilish bilan qahramon xarakterini chuqurroq ochishga xizmat qila boshladi: "Obi ravon, bog'i jahon, shoh supaga zebi jahon, mo'rcha miyon, pista dahon, nozik ado, pari jahon, ya'ni ismi shariflari Jamilaxon. Kim ekanlar desam, G'ofir kazzobning xotinlari-yu Muso qallobning qizlari ekan... ".(H. H. Niyoziy)

Anglashiladiki, sa'jli o'qish notiqlik madaniyatining o'ziga xos ko'rinishlaridan biri hisoblanadi. Zero, har qanday notiqning ko'zda tutgan asosiy maqsadi – tinglovchining zavqini uyg'otib, o'ziga moyil qilishdan iborat ekan, notiq sharoitga qarab, mavjud uslublarning barchasidan o'z o'rnida foydalanishi zarur.

6. Dramatik asarlarda notiqlik va deklorativ bayonning ahamiyati. Dramatik asarlar mutolaasi boshqa turdagi asarlardan tubdan farq qiladi va muayyan nazariy tayyorgarlikni talab etadi. Shu xildagi tayyorgarlik yo'qligi uchun ham kishilar ko'pincha dramatik asarlarni o'qimaydilar. Bordi-yu, sahna asari o'qilgan taqdirda ham uni idrok etish, uning zamiridagi badiiy ma'noni topish oson kechmaydi. Chunki dramatik asarda muallif mutlaqo ishtirok etmaydi, uning pozitsiyasi biror yul bilan bayon qilinmaydi va asarda ro'y

³⁴ O'sha asar. 6-bet.

³⁵ O'sha asar. 56-bet

berayotgan to‘qnashuvlarni ma’naviy jihatdan baholash hamda undan estetik xulosa chiqarish kitobxonning hayotiy tajribasiga, intellektual darajasiga, ma’naviy sifatlariga bog‘liq bo‘lib qoladi.

Murakkablik yana shundaki, dramatik asarlarda voqea ham, xarakter ham asosiy o‘rin tutib turadi. Chunki dramatik turdagi asarlar qanday janrda bo‘lishidan qat’i nazar dramatismga – ruhiy havotir shiddati tasviriga qurilgan bo‘ladi. Dramatik asarda qahramon uchun hayot-mamot ahamiyatiga ega bo‘lgan qandaydir bir narsaning qo‘ldan boy berilishi yoki amalga oshmay qolishi havfi tasvirlangan bo‘lishi lozim. Ana shundagina dramatik asar yuzaga chiqadi.

Hayotni akslantirishning o‘ziga xos usuli bo‘lgan dramatik asarlarda ko‘rsatmalilik, ya’ni “tomosha” ko‘rsatish, to‘g‘rirog‘i harakat bilan tomosha ko‘rsatish bosh xususiyat sanaladi. Unda muallif ishtirok etmaydi (remarkalarni hisobga olmaganda), voqelik harakatdagi insonlarning dialog va monologlari shaklida yuzaga chiqadi; asar jamoa bo‘lib, bir o‘tirishda sahnada tomosha qilishga mo‘ljallangan bo‘ladi:

“Olimjon. Xo‘p, unda men yaratgan robot, ya’ni mening mashinam qani?

Qo‘chqor. Men qaydan bilaman sening mashinangni! E, birovning uyiga bostirib kirib, mashinam qani, deysan! Biz er – xotin tinchgina o‘tiribmiz, chirog‘imizni yoqib!

Olimjon. Demak, men yetti yil ko‘zimning nurini to‘kib, mingta byurokrat bilan olishib ...

Qo‘chqor. Nima krat?

Olimjon. Byurokrat. Kechalari uxlamay, o‘lib tirilib sizga xotin tayyorlab bergan ekanman-da, a?

Qo‘chqor. Rahmat. Biz ham yaxshi kunlaringda qaytararmiz. Bizdan qaytmasa, bola-chaqamizdan qaytadi.

Olimjon. Bola – chaqangizdan? Hali “kichkina – kichkina robotchalar yasab ber” ham dersiz?

Qo‘chqor. U yog‘i bilan ishing bo‘lmasin, bildingmi?! Kerak bo‘lsa, o‘zimiz yasab olaveramiz! (Bir oz sukunatdan so‘ng) Vey, bu dunyoda odamdan faqat yaxshilik qoladi. Otam rahmatli “birov senga

yomonlik qilsa ham yaxshiligingni ayama, o'sha padariga la'natdan" deganlar. Yaxshilik yaxshi-da, Olimtoy!.."36

Dramatik turdagi asarda qahramonlar nutqi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Chunki, muallif bayon qilishga ham, munosabat bildirishga ham, tasvirlashga ham haqli bo'lmagan ushbu adabiy turda nutq deyarli barcha vazifani o'z zimmasiga oladi:

“ – Tingla, Mirzo, men saroyning tantiq nuriman. Aybimmi yo egnimdagi bu zar, bu kimxob,

Men ham inson shuurining merosxo'riman!

Tingla, Mirzo, mana buni deydilar qiyos,

Bu – Buxoro Malikasin yurak ifshosi:

Sen – tubansan, u-chi, yuksak, sen – xok, u – quyosh,

Sen – gadosan, u – tafakkur mulkin podshosi.

Inson – Hazrat! Inson – kabir! Bu gapni ammo

Uqqandirman na padarim va na onadan.

Aqidamni toptama sen, men uni zero,

Topgan edim sen yoqqan ul kutubxonadan ”37.

Drama monolog va dialoglar asosida quriladi. Monolog shakli bilan tomoshabinlarga, dialog tarzida sahnadosh sheriklarga murojaat qilishning, voqealar rivojining, xarakterlar ochilishining vositasi bo'ladi. Shuning uchun ham dramada nutq alohida bir badiiy quvvatga ega bo'ladi. Masalan, nutqning monolog shaklida, odatda, qahramonlarning ichki holati – iztirob yoxud dardlarining “po'rtanalari”, “to'liqlari”ni ifoda qilinishadi: “Qush edim, qanotimni qayirdilar, gul edim, bulbulimdan ayirdilar. Sibir... Sibir... Qanday qo'rqinchli... U qanaqa joy bo'lsa ekan? Borsammikan? He, men nima deyapman? Qayerga ham bora olaman! Meni bu temir qafasga soldilar, ixtiyorimni qo'limdan oldilar. Aylanamda qancha poyloqchi, qancha qorovullar bor. (Kulib) Men endi boy xotiniman, ha, ha, ha. Boy xotin! G'ofirjon menga nomahram! O'h-ho', qancha yig'ladim, yig'layversang ko'zingning yoshi tugab qolar ekan, ko'nikib ham qolar ekansan kishi. Mana endi yig'lamayman ham. Ko'zingga qatra yosh ham kelmaydi. O'limga ham tik qarab turaveraman. Ne qilay? Yashash uchun kurashdim, olishdim, boshimga tuproq solib faryod ko'tardim, foydasi

³⁶ Boshbekov Sh. “Temir xotin”// “Yoshlik”jurnali, 1989, №5, 28-bet.

³⁷Oripov A. “Hakim va ajal”. Tanlangan asarlar.To'rt jildlik.1- jild. -T.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 2001. 380-bet

tegmadi, ko‘z yoshlarimning ariqda oqqan suvchalik qadru qimmati bo‘lmadi. Birov, nimaga yig‘laysan, deb so‘ramadi. Ha, menday baxti qaroning kimga keragi bor? Xonzoda bo‘lsa xuddi qarg‘aday go‘shnimni poylab, tepamda uchadi, He, shu ekan-da!”

Monologning ichki ko‘rinishi (bunda personajlar o‘z-o‘zlari bilan ichdan gaplashadilar) epik asarlar va dramada ko‘plab uchraydi. Ichki monologda qahramon qalbidagi yashirin o‘ylarini, fikr-mulohazalarini kitobxon bilan baham ko‘radi. Epik asarlarda bu kengroq, batafsilroq ifodalansa, dramada judayam keskin va dramatizmga boy shaklda voqe bo‘ladi.

Dramatik asarda muallif qahramonlarning turli xil vaziyatlardagi kayfiyatini, holatini va hatto ichki hissiyotini ham ularning nutqi va hatti-harakati orqali bayon etadi. Chunki, dramaturg o‘z qahramonlari hayoti haqida hikoya qilmaydi, balki ularning o‘zlarini harakatda ko‘rsatadi. V.G.Belinskiy “Adabiyot so‘zining umumiy ma’nosi” nomli asarida dramatik asarlarning o‘ziga xos xususiyatlarini ta’kidlab, mazkur tur adabiyotning eng qiyin shakli ekanini, unda har bir shaxs muallif izohisiz, o‘z so‘zi va ismi bilan harakatlanishini uqtiradi.

Dramada harakat bosh alomat sanalgani uchun, u quyidagilarni o‘zida jamlaydi:

1. San’atkor hamma tasvirlanayotgan shaxslarni harakat etuvchi va faol shaxslar sifatida tasvirlaydi. Aniqrog‘i, voqelik dunyoning obyektiv va subyektiv tomonini birlashtirib, shaxs harakati orqali ochib beriladi;

2. Obrazlar bilan bog‘liq hayotiy voqealar ko‘z oldimizda hozir bo‘lib o‘tayotgandek namoyon bo‘ladi;

3. Dramada muallif nutqi remarka shaklida bo‘ladi

Personajlar o‘zlarini o‘zlari va bir-birlarini so‘z orqali ochadilar. Dramada gaplar – sodda, qisqa va ravon bo‘ladi. Ularda tomoshabin tushunmaydigan bironta ham so‘z yoki ibora qo‘llanilmaydi. Shu jihati bilan u roman, povest, hikoya va she’riy asarlardan tubdan farq qiladi.

Dramatik asar qahramonlarining nutqi epik asar qahramonlarining nutqiga nisbatan dinamik hisoblanadi. Dramatik nutqqa doir yana bir jihat shundaki, bunda asar tili, albatta, bir qadar ko‘tarinki, aytilishi jarangli, eshutilishi aniq bo‘lishi lozim. Shuningdek, nutqning aniqligi,

uslubi, temp, ritm va pauza katta ahamiyatga ega. Chunki u sahnada qo'yilishi zarurligi, tomoshaxonaning turli burchaklarida o'tirganlarga eshutilishi uchun shunday xususiyatlarga ega bo'lishi joiz. Drama qahramonlari quyuq tuyg'ular, hissiyotlar bo'roni og'ushida yashaydilar, kuchli to'qnashuvlarni boshdan kechiradilar, keskin va ta'sirchan tilda so'zlashadilar, har qanday voqea-hodisaga keskin va kutilmagan munosabat bildirishga moyil bo'ladilar.

Drama o'quvchi yoki tomoshabin ko'zi oldida bo'layotgan kabi ko'ringan kechmish voqedir. Unda shaxslar o'zlarini harakatda ifoda qiladi. Dramada harakat bosh alomat sanalgani uchun ijodkor hamma tasvirlanayotgan shaxslarni harakat etuvchi va faol shaxslar sifatida tasvirlaydi.

Dramaning hajmi taxminan 2,5-3 soat mobaynida ko'rsatishga mo'ljallangani uchun, unchalik katta bo'lmaydi. U dialog va monologlardan, sahna va pardalardan tashkil topadi, ijrochilar-artistlar orqaligina asarning mazmuni ro'yobga chiqadi.

7. Aruz alifbosi. Aruz vazni nazariyasi. Aruz bir qator Sharq xalqlari poeziyasi, jumladan, o'zbek mumtoz lirikasida asosiy o'rin tutadi. U faqat hijolarning miqdoriga emas, balki talaffuzdagi uzun-qisqaligiga ham asoslangan bo'ladi. Shunga ko'ra, aruz vazni barmoqdan tubdan farq qiladi. Aruz misradagi hijolarning guruhlanib takrorlanishi asosida emas, balki qisqa va cho'ziq hijolarning-ritmik bo'laklarning ma'lum tartibga takrorlanib kelishidan hosil bo'ladi, o'ziga xos ohangdorlikni, musiqiylikni vujudga keltiradi. Aruz ilmi nuqtai nazaridan qaraganda hijo asosan ikki xil: qisqa va cho'ziq bo'ladi. Lekin ayrim hollarda hijolarning o'ta cho'ziqligi ko'zga tashlanadi. Bunday hijolarni o'ta cho'ziq yoki bir yarim hijo deb nomladilar. Masalan, quyidagi misolni o'qib ko'raylik:

Qilmag'il zinhor izhor ehtiyoj,

Kim aziz elni qilur xor ehtiyoj. (Nodira.)

Agar shartli ravishda qisqa hijoni (V) shaklida, cho'ziq hijoni (—) va o'rta cho'ziq hijoni (~) shaklida ko'rsatilsa, quyidagi manzara hosil bo'ladi:

Qil-ma-g'il -zin ho-r- izhor ehtiyoj,

Kim aziz elni qilur xor ehtiyoj.

Kim-a-ziz-el -ni -qilur-xor eh-ti-yoj

Fo-i-lo-tun fo-i-lo-tun fo-i-lon

Odatda “o” dan tashqari unlilar bilan tugallanuvchi hijolar qisqa, barcha tovushlar “o” va tugallanuvchi hijolar cho‘ziq hijo bo‘lib keladi. Ba’zan qisqa hijolarning cho‘ziq hijoga, cho‘ziq hijoning qisqa hijoga o‘tish hollarda ham yuz beradi. Bu aruzda imola deb nomlanadi. Shuni ham esdan chiqarmaslik kerakki, imola hidisasiga ko‘ra “a” bilan tugagan ochiq bo‘g‘inlar so‘z o‘rtasida qisqa, so‘z oxirida esa cho‘ziq va qisqa bo‘lib kelishi mumkin. Bundan tashqari, qolgan barcha unlilar bilan bitgan ochiq hijolar ham qisqa va cho‘ziq bo‘lishi mumkin. Bir xil hijolarning oxirida ikki undosh qator kelsa (Masalan: shayx, charx, xalq, talx, zavq, baxs, baxt), hijolar ham o‘ta cho‘ziq hisoblanadi. Ayrim hollarda bir undosh bilan tugagan hijolar ham o‘ta cho‘ziq hijoga aylanishi mumkin. Masalan, yor, bor, zor, toj, nur, sher, g‘am. Bular og‘zaki nutqda yoor, boor, zoor, tooj, nuur, sheer, g‘aam sifatida talaffuz etiladi. O‘ta cho‘ziq hijolar undosh bilan boshlanuvchi hijodan oldin kelsa, bir cho‘ziq va bir qisqa hijo o‘rniga o‘tadi. Aruz vazni nazariyasining xarakterli xususiyatlaridan yana biri shundaki, unli bilan boshlanadigan so‘z undosh bilan tugagan so‘zdan keyin kelsa, vazn talabiga binoan qo‘shib ham o‘qilaveradi. Masalan, quyidagi “karam aylab” so‘zlarining o‘qilishiga diqqat qiling:

Ka-ram-ay-lab Ka-ra-may-lab

Ma-fo-iy-lun Fo-i-lo-tun

Anglashiladiki, aruz vaznidagi she’rlarning hijolari ularning yozilishiga qarab emas, balki o‘qilishiga, ohangiga, qanday talaffuz qilinishiga ko‘ra aniqlanadi. She’riyatda misralar ma’lum bir tartibda bo‘lganligi uchun, ular bir necha hijodan iborat bo‘laklarga bo‘lib talaffuz etiladi. Misraning xuddi ana shu bo‘laklari aruzda rukn deyiladi. Rukn bittadan tortib, to besh hijogacha bo‘lishi mumkin. Har bir misradagi ruknlarni bir-biridan ajratish uchun qisqa pauza qilinadi. Masalan, Alisher Navoiyning “Mehribone topmadim” nomli g‘azalidan olingan quyidagi parchani ko‘raylik:

Mehr ko‘p ko‘rguzdim, ammo mehribone topmadim,

Jon base qildim fido, oromijone topmadim.

G‘am bila jonimg‘a ettim g‘amgusore ko‘rmadim,

Hajr ila dilxasta bo‘ldim dilsitone topmadim.

Ruknlar hijolarning miqdori va cho‘ziq-qisqaligiga qarab sakkiz asarga bo‘linadi va ularning har biri maxsus nom bilan yuritiladi.

1. foulun - uch hijoli rukn: fo-u-lun

Birinchi hijo qisqa, ikkinchi va uchinchi hijolar esa cho‘ziqdir.

2. foulun ham uch hijoli rukn: fo-u-lun

3. foilotun - to‘rt hijoli rukn: fo-i-lo-tun

4. mafoiylun - to‘rt hijoli rukn: ma-fo-iy-lun

5. maf ulotu - to‘rt hijoli rukn: maf-u-lo-tu

6. mustaf ilun - to‘rt hijoli rukn: mus-taf-i-lun

Alisher Navoiy ijodiyoti o‘zbek mumtoz adabiyotini o‘rganishda mislsiz manba, yorqin ko‘zgudir. Vazn jihatidan ham Navoiy she’riyati aruzning barcha asosiy masala va xususiyatlarini, bahr va vaznlarini o‘rganishda bosh manbadir. Navoiy “Hamsa” va “Lison-ut tayr”da salaflari qo‘llagan vazn turlaridan foydalangan bo‘lsa, “Xazoyinul-maoniy” va “Devoni Foni”da juda ko‘p yangi bahr va vaznlarni qo‘lladi. Bu bahr va vaznlar o‘zbek hamda fors-tojik she’riyati poetikasining o‘ziga xos qomusidir. Alisher Navoiy aruz vazni takomiliga ham shoir, ham aruz nazariyachisi sifatida katta hissa qo‘shdi.³⁸

Aruzning bir-biriga yaqin vazn turkumlari bo‘lib, bu turkumlar bahr deb nomlanadi. Bahrlar soni 19 ta: tavil, madid, basit, vofir, komil, hazaj, rajaz, ramal, munsareh, muzore, muqtazab, mujtass, sare, jadid, qarib, hafif, mushokil, mutaqorib, mutadorik.

Bahrlar asosan baytdagi ruknlarning miqdori bilan birga quyidagi aytiladi:

a) Rajazi murabba - to‘rt ruknli rajaz:

Mus-taf-i-lun mus-taf-i-lun

Mag‘rur, xusisu beshu kam,

Har gapda yuz ichgay qasam.

Mag‘-rur- xa-si/su be-shu-kam,

Har- gap-da- yuz/ ich-gay qa-sam.

b) Ramali musaddas - olti rukuli ramal:

Fo-i-lo-tun fo-i-lo-tun fo-i-lon

La’lidin jonimg‘a o‘tlar yoqilur,

Qoshi qaddimni jafodin yo qilur.

Lali-din - jo / nim-g‘a- o‘t-lar / yo-qi-lur,

Qo-shi - qad-dim- / ni -ja-fo-din / yo- qi-lur.

³⁸ Qarang: To‘ychiyev U. “O‘zbek poeziyasida aruz sistemasi”, -T.:Fan, 1985; “Adabiyot nazariyasi”, II t., T., “Fan”, 1979, 368-385 b; Akbarova M. Alisher Navoiy g‘azallarida qofiya, -T.:Fan, 1993; Hojiahmedov A. She’riy san’atlar va mumtoz qofiya, -T.:Sharq, 1998.

Bularning har biri bir necha xil vaznlarga bo‘linadi va ular mohiyatiga qarab maxsus nomlar bilan yuritiladi.

8.Badiiy asar mutolaasi. Badiiy asar mutolaasiga qo‘yiladigan talablar. Adabiyot iste’dodli yozuvchilar bilan birga ishtiyoqli kitobxonlarga ham hamisha ehtiyoj sezadi. Kitobga ixlosmandlik tug‘ma emas, balki tarbiya vositasida kamol topadi. Buyuk adib Gyote “Kitobxonlikka o‘rganish uchun qanchalik ko‘p vaqt sarf qilinishini odamlar tasavvur qilmaydilar, buning uchun men hayotimning 80 yilini bag‘ishladim, lekin hali ham o‘rgandim, deb ayta olmayman”, deb yozganida nechog‘lik haq edi. Professor V.F.Asmus o‘zining “Kitobxonlik – mehnat va ijod” nomli maqolasida ta’kidlashicha, “Mutolaa vaqtida asar bir ko‘zadan ikkinchi ko‘zaga quyilgan suv kabi kitobxon miyasiga quyilib qolmay, balki ijodkor kitobxon tomonidan qayta idrok etiladi”. “Taraqqiy etgan xorijiy mamlakatlarda, - deb yozadi X.To‘xtaboyev,- kitobxonlik fan darajasiga ko‘tarilgan. Kitobxonlik kitobni targ‘ib qilishgina emas, balki kitob o‘qitishni, o‘qiladigan kitobni tanlay bilishni, mag‘zini chaqishni, ya’ni kitob yordamida o‘zini anglashni o‘rgatish hamdir”.

Adabiyotning asosi, uni dunyoga keltiruvchi omil – hayotdir. U bitmas - tunganmas yaratish qudratiga, yangilanishga, o‘sish va rivojlanishga qodir ekan, asar mutolaasiga yondashuv ham unga mos holda shu qodirlikni o‘zida mujassam etishi lozim. Zero, kitobga oshnolik, mutolaaga tashnalik va u bergan huzur hayotimizga ezgulik baxsh etadi. Ezgulik esa – yaratishga chanqoqlik tug‘diradi, umrni mazmunli kechirishga undaydi, besamar va gunoh ishlardan, tuhmat va bo‘hton uyushtirishdan, alam va og‘riqlar o‘tkazishdan, fisqu-fasod va g‘iybat yuritishdan, ko‘rolmaslik va hasaddan... saqlaydi. Kitobxon o‘zini, o‘zligini tezroq anglaydi. O‘zini anglamoq baxti esa komillikka yetaklaydi.

Mutolaa jarayonida kitobxonning shaxsiy ijodiy tajribasi, ijodiy o‘qish usuli muhim ahamiyat kasb etadi. Badiiy asar mutolaasi ilmiy va publitsistik asarlar mutolaasidan sifat jihatidan farq qiladi. Ayni holat ijodiy o‘qish jarayoni sifatida olib qoraladi. Chunki ijodiy o‘qish - adabiyotga xos usul. Ijodiy o‘qish so‘zga, jumlagi, vaznga alohida e’tibor berishni talab qiladi. Zukko kitobxon badiiy so‘zni tinglashni, qadrlashni, undan zavqlanishni, ifodali so‘zlash va yozishni o‘rganadi.

Ijodiy o'qish kitobxonda ana shu ko'nikmalarni o'stirishni ta'minlaydi.

Badiiy qabul qilish, estetik zavqlanish adabiyotni ilmiy asosda anglashda birinchi va muhim bosqich hisoblanadi. Chunki badiiy qabul qilish va estetik zavqlanish orqali asar obrazlari, til xususiyati o'zlashtiriladi.

Badiiy asar mutolaasiga quyidagi talablar qo'llaniladi:

1. Asarni o'qish bilan kitobxonda hosil bo'ladigan tasavvurni faollashtirish;

2. Asarni o'qish natijasida yuzaga kelgan va kitobxonning anglash faoliyatini rivojlantirish niyatida qo'yiladigan muammolarni belgilab olish;

3. Asar mutolaasidan keyin kitobxonning badiiy tasavvurini kuchaytirish yoki umumlashtirish maqsadida suhbat o'tkazish;

4. Asar matni bo'yicha hayotiy kuzatishlar va ilmiy qarashlarni qiyoslash orqali kitobxonda ijodiy fikrlashni shakllantirish, asar mohiyatini teranroq anglash, tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirish.

Badiiy asar mutolaasiga bu tartibda yondashishdan ko'zlangan maqsad-adabiyotning o'ziga xos xususiyatini chuqur ilg'ash, kitobxonni adabiy asarni mustaqil tahlil qila bilishga tayyorlash, badiiy didini o'stirishdan iboratdir. Har bir o'quvchi yoki kitobxon muayyan bir asarni o'zicha tushunadi, o'zicha ta'sirlanadi, o'zicha his etadi, o'zicha qabul qiladi. Demakki, o'zicha xulosa chiqaradi. Bir asarni o'qigan ko'pchilik kishilar o'rtasida o'zaro o'xshash, bir-biriga to'g'ri keluvchi fikrlar bo'lish mumkin bo'lgani singari, mutlaqo bir-biriga to'g'ri kelmaydigan qarashlar bo'lishi ham mumkin va bu tabiiy holdir.

Badiiy asar mutolaasiga qo'yiladigan talablar mohiyatida asar mazmunini qabul qilish va idrok etish muhim omil sanaladi. Bunda kitobxonlarning yoshi, bilim darajasi inobatga olinishi lozim. Asarni o'zlashtirishda – yozuvchi qo'ygan adabiy, axloqiy, ijtimoiy, falsafiy masalalarni aniqlash, asar tarkibiy qismlarning o'zaro uzviy bog'liqligini tushunish talab etiladi. Shuningdek, adabiy bilimni oshirmasdan turib, badiiy so'z san'atini anglab olishga erishib bo'lmaydi. Chunki, badiiy asarni idrok etish kitobxondan zukkolik, ijodkorlik va mehnatsevarlikni, o'z bilimini uzluksiz oshirib borishni talab qiladi. Kitobxonda hayotiy voqea-hodisalarni bilish, odamlar va

ularning ruhiyatini anglashga ehtiyoj tug'ilishi bilan adabiyotni anglashga qiziqish paydo bo'ladi. O'qituvchi badiiy asar mutolaasi orqali o'quvchilarda hosil bo'lgan ana shu qiziqishni rivoj toptiradi, yoshi, bilim darajasini hisobga olgan holda qiziqarli badiiy asarlarni tavsiya etadi.

MAVZUNI MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR:

1. Mutolaa madaniyati bilan ifodali o'qishning o'zaro mushtarak holatda yashashi qonuniyligini tushuntiring.
2. Adabiy turlar va janrlar qanday tushunchalarni izohlaydi ?
3. Epik asarlardagi badiiy nutq masalasi haqida ma'limot bering.
4. Personaj nutqiga xos xususiyatlarni aniqlang.
5. Personaj nutqida muallif axloqiy qarashlarining aks etishini qanday tushunasiz?
6. Qahramon etikasi va notiqlikaro munosabat haqida fikr yuriting.
7. Personaj nutqida muallif axloqiy qarashlarining aks etishini qanday tushunasiz?
8. Liro-epik asarlarni mutolaa qilishda ritmning o'rni qanday?
9. Epik asarlarni mutolaa qilishda ritmli nasr – sa'jning o'rnini izohlang.
10. Dramatik asarlarda notiqlik bayonning ahamiyati haqida so'z yuriting.
11. Aruz alifbosi va aruz vazni nazariyasi haqida ma'limot bering.
12. Badiiy asar mutolaasiga qanday talablar qo'yiladi?
13. Kitobxonning badiiy matnni anglash darajasini qanday tushunasiz?

MUTOLAA MADANIYATI VA ADABIYOT MUNOSABATI

Reja:

1. Mutolaa madaniyatining adabiyot bilan bevosita bog'liqligi.
2. Badiiy adabiyotdapoetik uslub va badiiy san'at shakllarining izchil qo'llanilishi.
3. Mutolaa madaniyatida ham obrazli tafakkurning yetakchi ekanligi.

4.Qadim Yunon ritorika fanining bevosita epos va dramalar tahlili asosida shakllanganligi.

5. Sharq voizligi mohiyatida Sharq mumtoz badiiy tafakkuri mujassamligi.

Tayanch so‘z va iboralar: mutolaa madaniyati, badiiy adabiyot, poetik uslub, individual uslub, uslubda obyektivlik, uslub omillari, obrazli tafakkur, badiiy tafakkur,estetika, ritorika, epos, drama, Sharq voizligi.

ADABIYOTLAR:

1. Arastu. Poetika. Axloqi kabir. Ritorika. –T.: Yangi asr avlodi, 2011.

2. Bekmirzayev N. Notiqlik san’ati asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2008.

3. Esxil. Zanjirband Prometey. –T.: Adabiyot va san’at nashriyoti,1976.

4. Sofokl. Shoh Edip. – Toshkent: Adabiyot va san’at nashriyoti.1979.

5. Sulton I. Adabiyot nazariyasi. – T.: O‘qituvchi nashriyoti. 1980.

6. TronskiyI.M. Istoriya antichnoy literaturi. – M: Visshaya shkola, 1988.

7.To‘xliyev B. Ifodali o‘qish. – Toshkent: Bayoz. 2008.

8. Fitrat A. Adabiyot qoidalari. –Toshkent: O‘qituvchi.1995.

9. G‘afurov I. Hayo - xaloskor. -T.: Sharq. 2006.

1.Mutolaa madaniyatining adabiyot bilan bevosita bog‘liqligi.Mutolaa madaniyatining jamiyat oldidagi o‘ta muhim vazifalardan biri tafakkur sohibini tarbiyalashdir.Uning vazifasi, inson ijtimoiy faoliyatiga ta’siri masalalariga juda qadim zamonlardayoq diqqat qilingan. Antik madaniyatning arxaik davrida kurtak holidan paydo bo‘lgan bu fan kitobxonlik madaniyati zaminida barg yozdi, rivoj topdi. Zero, badiiy asarlarning yashovchanligi va mohiyati ko‘p jihatdan kitobxonga bog‘liq. Talqinchi ham, tanqidchi ham aslida yetuk kitobxon – his qiluvchidir. Shu ma’noda, mutolaa madaniyati adabiyot bilan bevosita bog‘liqdir. Mutolaa madaniyatining adabiyot

bilan uzviy bog‘liqligi – bu ikki fan vazifalarining o‘zaro mushtarak jihatlarida ko‘zga tashlanadi.

Avvalo, inson va inson tafakkurini o‘rganmagan fanning o‘zi yo‘q, chunki fanlar tabiat, jamiyat va insonni ilmiy bilish jarayonida yuzaga kelgan ilmlar tizimidir. Lekin hech bir fan predmet, hodisa, insonni “o‘z harakatida”, “jonli” holatda, birbutunlikda, yaxlitlikda o‘rganmaydi. Bunday vazifani adabiyot bajaradi. Zero, adabiyot – xarakterlar yaratish san’ati va ayni chog‘da ana shu xarakterlar qalbini bilish, uning sirlarini bizga ochib ko‘rsatish – asarlarini biz maroq bilan qayta-qayta o‘qiydigan yozuvchilarning har biriga beriladigan ta’rifdagi birinchi so‘z. Adabiyot atalmish ulkan xazinalar bog‘iga kirib, uning dur-u gavharlaridan ko‘zimiz yashnab, yam-yashil yaproqlaridan, xandon ochilgan gul-u chechaklaridan ko‘nglimiz yayraydi. Eng muhimi, ruhiyatimiz kundalik hayot tashvishlaridan bir muddat uzilib, xuddi shu hayotning badiiy bo‘rttirilgan manzaralariga oshno tutinadi. Bu mo‘jizalarga to‘liq bog‘dan nimalar olib chiqish faqat o‘zimizga, nafis adabiyotga bo‘lgan e’tiborimizga bog‘liq.

Adabiyot hayotni aks ettirar ekan, u insonning o‘zini o‘ziga ko‘rsatuvchi ulkan ko‘zgu vazifasini ham bajaradi. O‘sha ko‘zgu orqali har bir kishi o‘zining yaxshi va yomon tomonlarini ko‘radi, qusur va kamchiliklardan forig‘ bo‘lishga, ruhan tozarishga intiladi. Forig‘lanish yoxud ruhan tozarish buyuk faylasuf Aristotel talqiniga ko‘ra, san’atning o‘z oldiga qo‘ygan bosh maqsadidir. San’at, xususan, adabiyot insonni ziddiyatlar asosiga qurilgan, hayot atalmish mo‘jizaning nima ekanligini anglashga o‘rgatadi, yovuzlikka nafrat, ezgulikka muhabbat tuyg‘ularini uyg‘otadi va, shu tariqa, inson ma’naviy olamini go‘zallashtiradi. Zero, adabiyotning asosiy vazifasi, birinchidan, voqelikni estetik jihatdan o‘zlashtirish va ikkinchidan, kitobxonda estetik hissiyot (emotsiya) uyg‘otishdan iborat. San’atkor go‘zallik qonuniyati asosida ijod qiladi. Shunga ko‘ra, adabiyotning vazifasi – go‘zallikni targ‘ib qilish, uning predmeti – inson esa ba’zan go‘zallik va ba’zan xunuklik ifodachisi bo‘lishi mumkin. Badiiy obraz kitobxonda albatta qandaydir estetik xissiyot (emotsiya) uyg‘otishi lozim. Chunonchi, hayotdagi xunuklikni aks ettirgan badiiy obraz kitobxonda nafrat uyg‘otsa, go‘zallikni ifodalagan badiiy obraz o‘quvchida estetik zavq-shavq uyg‘otadi. Yozuvchi badiiy obraz orqali estetik idealni ifodalaydi: ideal ijobiy obrazda bevosita va

salbiy obrazda bilvosita ifodalanadi. Yozuvchi har bir obrazni extiros bilan tasvirlaydi, unga faol munosabatda bo'ladi. Ijodkor eng oddiy narsa ustida ishlayotgan bo'lsa ham, bu ishga qalbini qo'shadi. Bordinyu, qalbini qo'shmasa, oddiy hunarmand bo'lib qolishi mumkin. Shunga ko'ra, u yoki bu asarni mutolaa qilganimizda biz ham badiiy obrazning faoliyatiga befarq qaray olmaymiz: ulardan yo ilhomlanamiz, zavqlanamiz, o'rnak olamiz yoki nafratlanamiz, g'azablanamiz va hayotdagi shunday kishilarga qarshi kurashga axd qilamiz. Chunonchi, Sadriddin Ayniyning "Sudxo'rning o'limi" qissasidagi Qori Ishkambaga bosh xususiyat qilib olingan xasislik, ochko'zlik, sudxo'rlik kabi hislatlari bizda nafrat uyg'otsa, Abdulla Qodiriyning "O'tgan kunlar" romanidagi Kumush tasviridan, uning o'zbekona muomala madaniyati va xatti-harakatlaridan zavqlanamiz, faxr hissini tuyamiz. Demak, adabiyot insonni yaxlit va jonli tarzda o'rganadi, tahlil va tadqiq qiladi, tasvirlaydi: kitobxon ko'z o'ngida u fikrlovchi, harakat qiluvchi, his qiluvchi, o'z atrofidagi olamlar bilan jonli munosabatda bo'luvchi odam tarzida gavdalanadi. Shu sabab ham adabiyotda qayta yartilgan olam – insoniylashgan olam mukammalligi, ezgulikni uyg'otadigan go'zalligi bilan inson ong-shuuriga ko'chli ta'sir etadi; uni komil insoniylikka yetaklaydi. Shu fazilati bilan adabiyot – insonshunoslikdir; inson ruhiyatini poklovchi, boyituvchi mo'jizadir. Insonni ulug'lab, e'zozlab, hurmatlab, ardoqlab, sevib kuylovchi va xuddi shunday ruhni boshqalarga ato etuvchi qiyosi yo'q ne'matdir. Zero, badiiy asarda olam butun murakkabligi, ziddiyatlari bilan tasvir etilgan, hayot oqimining ichki qonun – qoidalari, insonning mohiyati, qalb tebranishlari kashf qilingan.

Kishilik jamiyatida shaxsning og'zaki va yozma nutqini rivojlantirish bevosita uning tafakkur darajasi bilan chambarchas bog'liq ekan, mutolaa madaniyati bu borada badiiy adabiyotning eng yaqin ko'makchisi hisoblanadi. Mutolaa jarayonida hayotiy saboqlarlarga ko'p marotaba duch kelishimiz aniq. Masalan, shoirlar sultoni Alisher Navoiy Farididdin Attorning "Mantiq ut-tayr" asarini mutolaa qilishga tutinganida atigi besh-olti yoshlardagi bola bo'lgan. Tabiiyki, keyinchalik ul zotning badiiy ijodda baland mavqega erishishida "Mantiq ut-tayr"dan olgan mutolaa zavqi muhim ahamiyat kasb etgan.

Tarixiy tajribalar shuni ko'rsatadiki, muhabbat va nafrat, adolat va adolatsizlik, iymon va iymonsizlik, nafsga qul bo'lish, haqiqat va

yolgʻon, mardlik va qoʻrqoqlik, sadoqat va sotqinlik, vatanparvarlik va yurtfurushlik singari tuygʻularni oʻz ichiga olgan abadiy muammolarni yoritgan asarlarga umrboqiylik kasb etadi. Shu bois, Tohir tilga olinganda Qorabotir (“Tohir va Zuhra” dostoni), Farhod eslanganda Xusrav (“Farhod va Shirin” dostoni), Kumush yodlanganda Zaynab (“Oʻtkan kunlar” romani) esga kelaveradi, kishini oʻylantiraveradi. Bu asarlar va ularning qahramonlari insoniy tuygʻularni oʻzida aks ettirishi bilan ham abadiyatga dahl dordir. Zero, adabiyotshunoslik fanida “abadiy muammolar” degan tushuncha mavjud ekan, bu muammolar zamonlar oʻtishi, bir-ikki davr kishilarining saʼy-harakatlari bilan yechilib, yoʻq boʻlib ketmaydi. To odamzod bor ekan, bu muammolar unga doimiy va ajralmas hamroh boʻlib qolaveradi. Odamzodni qiziqtiraveradi, oʻylantiraveradi, qiynayveradi.

Badiiy asardagi nafosat va goʻzallikni chuqur his qilish va shu orqali axloqiy-estetik tuygʻularni shakllantirish mutolaa madaniyati fanning asosiy vazifasidir. Mutolaa jarayonida badiiy nutq masalalari chuqur tadqiq etiladi, ifoda vositalari taʼriflanadi, tavsif va tasnif qilinadi, ularni qoʻllash yoʻllari va meyorlari belgilanadi. Shunday ekan, bugungi yosh avlodni ham mutolaa sanʼatiga oshno qilish, badiiy asarlar hissini tuyishdek maroqli va lazzatli faoliyatga jalb etish hamda ularni yetuk allomalarimizga munosib tarzda tarbiyalash har birimiz, xususan, ziyolilar, taʼlim muassasalari, ijodkorlar, noshirlar zimmasiga ulkan masʼuliyat yuklaydi.

2. Badiiy adabiyotda poetik uslub va badiiy sanʼat shakllarining izchil qoʻllanilishi. Har bir yozuvchi (shoir)ning olami – hayotiy tajribasi, bilim darajasi, didi, tasavvuri, xayolot dunyosi, qalb koʻzi oʻzigagina tegishlidir va ana shu oʻzlik uning har bir asarida akslanadi. V. G. Belinskiy qayd etganidek, “Yozuvchining mazmun bilan shaklga quyma bir holat bagʻishlay olish qobiliyatini va shu bilan birga hamma - hamma narsaga oʻz shaxsi, oʻz ruhini takrorlanmas, original muhrini tushirib oʻta olish xususiyati ” - uslubdir.

Poetik uslub har bir yozuvchi – sanʼatkorning, har bir yetuk asarning, har bir davr adabiyotining oʻziga xos barcha xususiyatlarini qamrab oladi. Hazrat Alisher Navoiyning “El netib topgayki meni, men oʻzimni topmasam”, - deganlarida hikmat bor. Mavlono Zahiriddin Boburning: “Qachonki koʻrgaysan mening soʻzimni, Soʻzimni oʻqib anglaysan oʻzimni,” - deganlarida haqiqat mavjud.

Uslubda obyektivlikning mavjudligini shunda ko‘rinadiki, o‘ziga xoslik, ijodkor qalbining betakror urishi – uslubning bosh alomati sanaladi. Uslub asarning butun yaxlit tizimida namoyon bo‘luvchi badiiy o‘ziga xoslik, adabiy asar unsurlarining bir – biriga bog‘liqligi va ularning yozuvchi iste’dodiga mos tarzda garmonik chatishuvidir.

Poetik uslub bir vaqtning o‘zida mazmun ham, shakl ham, g‘oya ham, motiv ham. Bularning barchasi birlashganda asar bus-butunligini uslub ta’minlaydi. Shunga ko‘ra yozuvchi uslubini so‘zga, tilga – ulardan foydalanishdagi o‘ziga xoslikka bog‘lab qo‘yish noo‘rindir. To‘g‘ri, adabiyot – so‘z san’ati, til adabiyotning birinchi elementi bo‘lsa-da, uslubni yuzaga keltiruvchi vositalardan biri – zaruriy elementi sanaladi.

Poetik uslubni yuzaga keltiruvchi eng zarur omillardan yana biri – san’atkorning hayotni, hayotning mohiyatini, uning qa’ridagi haqiqatni tadqiq va tahlil qila bilishi bilan bog‘liqdir. Inson ruhiyatining boy va yashirin sirlarini, ularning tub estetik qimmatini kashf etish san’ati – ruhiyat bilimdonligi bilan bevosita aloqadordir. Masalan, Abdulla Qahhor asarlarining aksariyati ilk sahifalaridanoq obrazlarning xatti-harakatlari tasviridan boshlanadi: “Turobjon eshikdan hovliqib kirar ekan...” degan so‘zlar bilan “Anor” boshlanadi. “Bemor” hikoyasi esa “Sotiboldining xotini og‘rib qoldi...” degan so‘zlar bilan boshlanadi. “O‘g‘ri”ning boshlanish ham shunday: “Kampir tong qorong‘isida xamir qorgani turib ho‘kizidan xabar oldi...”, “Qadoqchi Hamroqulning tobi qochdi”- bu “Tomoshabog‘”ning birinchi satrlari. “Shunday qilib, Ahmad polvon so‘yiladigan bo‘ldi”, bu esa “Ko‘r ko‘zning ochilishi” hikoyasidagi birinchi jumla. Xullas, Abdulla Qahhorning ko‘pchilik asarlari shu xilda muhit tasviridan emas, balki obrazlarning xatti-harakati yoki holati tasviridan boshlanadi.

“Dahshat”da esa bu qoidadan chekiniladi. Asarning boshida hikoyaning umumg‘oyaviy yo‘nalishini belgilaydigan tabiat dahshati aks ettiriladi: “...Yaqin ikki haftadan beri ko‘z ochirmayotgan kuzak shamoli yaydoq daraxtlar shoxida chiyillaydi, guvillaydi, tomlarda vishillaydi, yopiq eshik va darchalarga bosh urib uf tortadi”. Shu asnoda birinchi satrlaridan boshlab asarga qandaydir dahshatli tasvir va og‘ir ruh olib kiriladi. Yuqoridagi satrlarni o‘qir ekanmiz, ertak va afsonalardagi qandaydir sirli qora kuchlar; dev va parilar, yalmog‘iz

kampirlar xayolimizdan o'tadi. Boshqacha qilib aytganda, birinchi jumladan "dahshat" boshlanadi. Bu dahshatni akslantiradigan, ertak va afsonalarda ko'p ishlatiladigan so'zlar ham topiladi – "chiyillaydi", "uvillaydi", "uf tortadi". Keyingi jumalarda ayni dahshatli vaziyat odam mavzusiga ko'chiriladi va yuqoridagi tabiat manzarasidan kelib chiqadigan dahshatni yana bir bor ta'kidlaydi: "...Bunday kechalarda odamzod qo'ymizoj, g'uj bo'lib va nimanidir kutib jimgina o'tirishni xohlab qoladi".

Bundan keyingi satrlarda ham obrazlar kayfiyati va tabiat dahshati bir-biriga yondosh tasvirlanadi. "Odamlarning qo'ymijoz, g'uj bo'lib o'tirishlari" tabiat dahshatining naqadar vahimali ekanini tasdiqlasa, bu vahimali shamol odamlarning xayolida har xil tushuncha va kayfiyatlar uyg'otib, undan kelib chiqadigan vahimani yana ham oshiradi. "...goh och bo'riday uvillayotgan, goh o'lim changaliga tushgan mushukday pixillayotgan, vig'illayotgan" shamol hikoyada qatnashadigan obrazlardan biri Dodhoni vahimaga soladi. U payg'ambar yoshidan o'tgan, kafanligini tayyorlab qo'ygan bir chol. O'z hayotini xudbinlik bilan o'tkazayotgan bunday kimsalarga oddiy narsalar ham vahimali bo'lib ko'rinishi va har bir vahima, albatta, o'limni esga solishi aniq fakt. Shu holda Dodho shamol dahshati sababli go'ristonni, keyin o'limni xayolidan o'tkazadi. "Dodho o'limni o'ylagan sari shamol xuruj qilar edi. Bir mahal shamol nimanidir keltirib darchaga urdi. Hamma o'tirgan yerida go'yo bir qarich cho'kkanday bo'ldi..." Dodho darchani ochib qarab, uning bo'yra ekanini anglaydi. Bo'yra tobutni esga soladi, tobut esa o'limni eslatadi. Shu orada go'rga pichoq sanchib kelishdan garov o'ynagan yigit esga olinadi. Ayni epizod Unsinning jasoratini bo'rttirib ko'rsatishga xizmat qiladi.

Hikoyada shamol muhim badiiy detal vazifani ado etadi. Ayni ana shu detal asar mavzusiga izchillik bag'ishlaydi, ya'ni assotsiatsiya yo'li bilan Unsin ko'rsatmoqchi bo'lgan qahramonlik voqeasiga bog'laydi. Hikoyaning ikkinchi yarmida shamolning vazifasi bir oz boshqacha. Shamol endi assotsiatsiya uyg'otuvchi vosita emas, balki Unsin harakatlari bilan yonma-yon boradigan dahshatli kuch. O'zining butun vahimasi bilan Unsin ko'rsatmoqchi bo'lgan qahramonlikni, jur'atni ta'kidlaydi.

Hikoyada faqat shamol emas, boshqa tabiat manzaralari ham asar mavzusi va g'oyasini to'laroq ochib berishga bo'ysundirilgan. Unsin paranjida, qo'liga qumg'onni olib mozor tomon jo'naydi. Kecha shunday tasvirlanadi: "...Ko'r oydin. Osmoning chekkasi sarig'-kir uvadaga o'xshaydi. Bu bir kir shu'la qo'ynida past-baland uylar, shamolda egilayotgan, tebranayotgan daraxtlar qop-qora ko'rinadi".

Ma'lumki, "...Ko'r oydin". "Sariq kir uvada". "Shu'la" – ko'pgina asarlarda poetiklashtirilib kelingan tushuncha sanaladi. Biroq bu kabi tushunchalar hikoyada "antipoetik" epitet vazifasini o'taydi. Dastlabki jumlaning o'zidayoq barcha badiiy vositalar bir zumda "antipoetik" tushunchalarga aylanib ketayotgandek. Biroq bu birinchi qarashdagi taassurot. Aslida fojia ham poetika. Otello, Otabek, Yo'lchi fojialarida nechog'li poetika bor. Ular hayotdagi jaholatlarga qarshi kurash e'lon qilib, shu yo'lda fojiaviy holatga tushadilar. Shunday ekan, agar badiiy unsurlar qahramonlar fojiasini ko'rsatish uchun xizmat qilsa, shu narsa poetik uslubdir. Bu yerda ham xuddi shunday. Unsin fojiasini ko'rsatish va uning mohiyatiga kirib borishga xizmat qilayotgan barcha vositalar poetik uslub sanaladi. Shunday ekan "ko'r oydin", "osmonning chekkasidagi kir uvadaga o'xshagan shafaq", "kir shu'la" iborolari ham poetik vazifani ado etadi. Odatda, biz ko'p uchratadigan asarlarda bu iboralar o'zining to'g'ri ma'nosida qo'llaniladi. "Dahshat"da esa ayni iboralar o'zining asl ma'nosiga zid tarzda qo'llaniladi. Anglashiladiki, hikoyaning tasviriy uslubida o'ziga xoslik mavjud. Bu usul asosan qahramonlar harakat qiladigan muhitni jonlantirish uchun qo'llanilgan. Aniqrog'i, hikoyada tavsiflangan shamol detali asarning asl g'oyasini ifodalash yo'lidagi bosh omillardan biri sifatida keltiriladi.

Demak, poetik uslub – yozuvchining voqelik va insonni idrok qilishi, ularning qalbidagi haqiqatning kashf etishi va uni so'z vositasida obrazli ifodalay olishi – bu vazifalarni individual ("o'ziga xos") tarzda yaratish san'atidir. Uslub doim yozuvchi (shoir) ning butun borlig'idan – tabiatidan kelib chiqadi va har bir yaratgan asarida ana shu o'ziga xos olamning hayotbaxsh nurini – insoniylashgan tuyg'ularini tiriltiradi, ko'pga ulashadi, ezgu tuyg'ular tarbiyachisi vazifasini o'taydi. Shuning uchun ham uslub "kuchsiz adib –

yozgʻuvchining asarlarida oʻzini ochiq koʻrsata olmaydir. Kuchsiz yozuvchilarning uslublari bir – biriga oʻxshab qoladir”³⁹.

“Uslub zamon bilan oʻzgargani kabi shaxs bilan ham oʻzgaradir. Hatto, yana biroz chuqurroq borib, bir kishining sochim – tizim (nasr va nazm) yozganida ham uslubning oʻzgarib qolganini koʻramiz. Navoiyning uslubi tizimda hashamatli bir ohang bilan yuradir, sochimda esa ogʻirlashib qoladir. Yana biroz ingichkaroq qaragʻanda bir shoir uslubining asarning mavzuiga koʻra oʻzgarganini ham koʻramiz. Navoiyning “Layli va Majnun”idagʻi oʻynab qaynagʻan uslubini uning “Lison ut - tayr”ida koʻrib boʻlmaydir. Biroq bu oʻzgarishlar (yaʼni: asarning shakli yo mavzuiga koʻra boʻlgʻan oʻzgarishlar) asosiy emasdir. Navoiy va Choʻlponning uslublari sochim – tizimda, yo mavzuiga koʻra oʻzgarmak bilan ularning “oʻzlik”larini (shaxsiyatlarini) yoʻqotmaydir. Choʻlponning Choʻlponligi, Navoiyning Navoiyligi bu shoirlarning tizim – sochim asarlarida mavzu oʻzgarishiga qaramasdan koʻrinib turadir”⁴⁰.

Fikrimiz isbotini Oybek va A. Qahhorning adabiyotshunoslar taʼkidlagan oʻziga xos belgilarida ajratib koʻramiz:

Oybek:

Hayot manzarasini barcha ikir-chikirlarigacha erinmasdan, uning poeziyasini (jozibasini) koʻrsatishga intiladi.

Romantik tabiatli, xayolotga boy, falsafiy mushohadasi kuchli.

Epik kenglik, serbuyoqlik.

Lirik shoir, mohir prozaik.

Roman janrida mashhur

Lirik harorat – proza- epiklik – pafos egasi.

Lirikasida zoʻr.

Shafqatli daho.

A. Qahhor:

Hayotning koʻproq kulgili va fojiali jihatlarini siqiq tarzda tasvirlaydi.

Vazmin tabiatli, sovuqqon, satirik mushohadasi kuchli

Qisqalik, voqeani qiziq bir koʻrinishdan boshlash

Mohir prozaik, taniqli dramaturg.

Hikoya janrida mashhur

Yumor va satira ustasi.

Kinoya, piching, istehzo, hazil - mutoyibasi kuchli.

Haqiqatni hamma narsadan ustun biluvchi daho.

³⁹ Fitrat A. Adabiyot qoidolari. –Toshkent: Oʻqituvchi, 1995. 26-bet.

⁴⁰ Fitrat A. Adabiyot qoidolari. –Toshkent: Oʻqituvchi, 1995. 28-bet.

3.Mutolaa madaniyatida ham obrazli tafakkurning yetakchi ekanligi. Haqiqiy badiiyat, anglangan va anglatilgan go‘zallik kitobxonning ma’naviyati -gagina emas, tafakkuriga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi, uning shaxs sifatida shakllanish jarayoniga to‘g‘ri yo‘nalish beradi. Kishining bilimi oshgan sari u hayotga o‘zgacha ko‘z bilan qaray boshlaydi, uni o‘zgacha idrok etadi. Badiiy asarni o‘qish, qabul qilish va estetik o‘zlashtirish jarayonini tafakkur qonuniyatlariga yaqinlashtirish zarurati yozuvchining g‘oyaviy niyati, uning kitobxon oldiga qo‘ygan vazifasidan kelib chiqib hal etiladi. Obrazlilikni, jozibalilikni, izchillikni idrok etish – kitobxon tasavvuriga ta’sir etuvchi badiiy tilning go‘zalligiga taalluqli bo‘lib, bular asarni chuqur his etishlariga yordam beradi.

Har bir kitobxon dunyoni o‘zicha idrok etadi, tasavvur qiladi. Ayniqsa, o‘qigan badiiy asarlari asosida ko‘pdan-ko‘p taassurotlar hosil qilib, ularni xotirasida ancha yorqin saqlab qolishga harakat qiladi. Shuningdek, har bir zamonning o‘z milliy qahramonlari, har bir avlodning o‘xshashga intiladigan badiiy timsollari – obrazlar dunoyi ham mavjud bo‘ladi. Agar o‘tgan asr kitobxonlari “Tohir va Zuhra”, “Vomiq va Uzro”, “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun” munosabatlaridan chuqur ta’sirlangan bo‘lsalar, XX asr boshlaridagi o‘zbek kitobxoni “O‘tkan kunlar” romanini o‘qib yig‘lagan. Yigitlarga Otabekning mardligi, tantiligi, millatsevarligi, qizlarga esa Kumushbibining iffati, jasurligi, go‘zal odobi ideal jihatlar hisoblangan. Bu kabi jihatlar badiiy asarni qabul qilish va estetik o‘zlashtirishda juda ham zarur, qaysiki, xotirada faqat o‘z mazmunida borliqqa estetik, hissiy munosabat aks etib turuvchi obrazlar chuqur iz qoldiradi. Shuningdek, badiiy asarni qabul qilishda kitobxonning badiiy asarni tushunishi, his etishi va asar muallifi tutgan yo‘lni idrok etishi o‘ta muhim. Bunda kitobxonning adabiy matnni mustaqil tahlil qilish qobiliyatiga alohida e’tibor berish lozim. Adabiyotshunos G.L.Yermash o‘zining “San’atning ijodiy tabiati” nomli tadqiqotida bayon etishicha, “Ruhiy va amaliy qobiliyatlar (mehnat, xohish, ilhom, hissiyot, xotira, tafakkur, sezgirlik, xayol, badiiy ijodkorlik) insonning ruhiy hayotini psixik jarayonlari shaklida; bilish jarayonlari (shaxs psixologiyasi, faoliyat, e’tibor) va insonning individual-psixik xususiyatlari (temperament, xarakter, qobiliyat) psixik hayotni namoyon etadi. Shuningdek, bilish jarayonlari – (idrok, xotira, tasavvur,

xayol, sezgi, tafakkur va nutq) kabilar yordamida ham amalga oshirib boriladi⁴¹.

Badiiy asarlarda yaratilgan obrazlar “men”lik olami ifodasiga xizmat qiladi. Asar g‘oyasi, poetik ko‘chim, obrazli tafakkur tarzi shuni taqazo qiladi. Deylik, yozuvchining dunyoqarashi – yaratilayotgan asarida aytmoqchi bo‘lgan salmoqli fikri bilan, g‘oyasi bilan chambarchas bog‘liq ekan, g‘oya o‘z navbatida asardagi obrazlarga singigan bo‘lib, ularning barcha faoliyatlari – xatti-harakatlari, kurashlari, intilishlari, orzu-istaklari orqali reallashadi. Shuning uchun ham “... badiiy asardagi g‘oya turmush hodisalari ustidan chiqarilgan oddiy mantiqiy xulosa emas, balki hayotni bevosita mushohada qilish, sinchiklab tadqiq etish va obrazli, emotsional ifodalash yakunidir. Bu yakun badiiy asar organizmining har bir hujayrasiga singib ketgan bo‘ladi. Shu sababli badiiy asardagi g‘oyani faqat shu asarning butun obrazlari mazmuni orqaligina anglash mumkin. Lev Nikolayevich Tolstoy ta’biri bilan aytganda, har bir badiiy asarning g‘oyasini ifoda etish uchun u qanday yozilgan bo‘lsa, shunday qayta yozib chiqish kerak bo‘ladi”⁴². Masalan, agar biz “O‘tkan kunlar” romanida Abdulla Qodiriy “Tariximizning eng kir, qora kunlari”ni tasvirlagan desak, unda roman g‘oyasi o‘z rangini, ko‘rinishini, latofatini, go‘zalligini, ta’sirini yo‘qotadi. Muallif aytmoqchi bo‘lgan fikrlarning yuzdan birini ham ayta olmagan va ularni obrazlardan (demakki, o‘tmish hayotidan) ajratgan bo‘lamiz. Chunonchi, romandagi g‘oyalar dunyosi obrazli fikrlardir. Mutolaa jarayonida Otabek, Kumush, Zaynab, Yusufbek Hoji, Mirzakarim qutidor, Homid, Musulmonqul, Oftoboyim, Xushruiy, Hasanali, usta Olim kabi o‘nlab obrazlar hayoti va taqdiri orqaligina o‘tmish haqiqati – “eng kir, qora kunlar” bo‘lganligini to‘liq his qilamiz va anglaymiz. Ishonamiz va afsus chekamiz. Qayg‘uramiz va bugungi kunimizdan mamnun bo‘lamiz.

4.Qadim Yunon ritorika fanining bevosita epos va dramalar tahlili asosida shakllanganligi. Yunon adabiyotining ilk namunalari – epos va dramalarning yaratilishi eramizdan avvalgi VIII asrga, rimliklarniki esa eramizdan avvalgi III asrga to‘g‘ri keladi. G‘arbiy

⁴¹Levidov A.M. Avtor – obraz – chitatel. -L.:Nauka.1977. Str.86.

⁴²Sulton I. Adabiyot nazariyasi. – T.: “O‘qituvchi” nashriyoti. 1980, 170-bet.

Rim imperiyasining qulashi va Rim adabiyotining tugashi esa eramizning V asriga borib taqaladi.

Yunonlarning bizgacha yetib kelgan qadimgi yozma adabiyot namunasi Gomerning “Iliada” va “Odisseya” dostonlaridir. Bu yetuk asarlar uzoq yillar davomidagi rivojlanishning mahsuli ekanligiga shubha yo‘q. Ammo hech qanday yozma asarlar bizgacha yetib kelmagan. Antik davr olimlari, masalan Arastu Gomergacha ham shoirlar bo‘lganligiga hech shubha qilmagan. U paytlar haqida faqat mifologik xarakterdagi hikoyalar yetib kelgan, xolos. Gomer dostonlari og‘zaki xalq adabiyoti asosida yaratilgan epopeyaning klassik namunasi. Biroq har ikkala doston folklor asarlarga xos oddiylilik, soddalikdan ancha yuqori turadi. Eposlar syujeti yunonlarning Troya shahriga yurishi va Troya urushi haqidagi qahramonlik afsonalaridan olingan. Unga ko‘ra Troya shahzodasi Paris mehmondo‘st Sparta shohi Menelaydan bir talay boyliklari va go‘zal xotini Yelenani o‘g‘irlab ketadi. Bundan g‘azablangan Menelay va akasi Agamemnon qo‘shini bilan Troyaga yurish qiladi. Ular 10 yil davomida natijasiz urish olib boradilar. Va nihoyat, hiyla bilan (yog‘och ot ichida) shaharga kirib Troyaga o‘t qo‘yadilar. Yelena Menelayga qaytariladi. Ammo yunon qahramonlarining uylariga qaytishi oson kechmaydi. Ana shu voqealarning jamlanishi yunon mifologiyasining “Troya turkumi”ni tashkil etadi.

Gomer eposigacha Troya urushi haqidagi qissa avlod-dan-avlodga o‘tib, o‘zgarishlarga uchrab yetib kelgan. Bunda ayniqsa, ritorlarning xizmati beqiyos darajada bo‘lgan. Ritorlar o‘z chiqishlarida asrlar davomida yaratilgan ulug‘ madaniyatlari va ma’naviyat namunalaridan ham foydalanganlar. Va albatta so‘z san’atining hamma sohalariga ta’sir ko‘rsatgan. Ritorika fanini ilk bor adabiy janr darajasiga ko‘targan hamda notiqlikka ilmiy yondashgan kishilar sofistlar hisoblangan. Ular notiqlik mahoratiga ega bo‘lganlarni “ritor” deb atashgan. Ritorlar davralarda voizlik qilishdan tashqari, o‘quvchilarga notiqlik yo‘l-yo‘riqlari bo‘yicha saboq ham berganlar.

Eramizdan avvalgi VII-VI asrda shakllangan yunon quldorlik jamiyati V asrda o‘zining eng yuksak taraqqiyot bosqichiga ko‘tarildi. Rosa yarim asr (499-449) bo‘lgan Eron-yunon urushida yunonlar g‘alaba qozonganlaridan keyin ilmu fan, madaniyat markazi kichik Osiyodagi Ioniyadan Afinaga ko‘chadi. V-IV asrlar adabiyoti Afina

shahri joylashgan viloyat nomi bilan «yunon adabiyotining attika davri» deb ataladi. Afina 150 dan ortiq davlatlar (shahar) orasidagi eng kuchli va eng yirigiga aylanadi. Savdo-sotiq, mustamlaka mamlakatlarni talash, xalqni ekspluatatsiya qilish natijasida V asr oxiriga kelib Afina davlati juda boyib ketadi. Afina demokratiyasi qulchilik asosiga qurilgan demokratiyadir. Afina fuqorosi huquqidan qullar va meteklar (boshqa yerdan ko'chib kelganlar) mahrum edilar. Afinaning eng gullab-yashnagan davri miloddan avvalgi V asrning 50-30 yillariga to'g'ri keladi. Bu paytda davlat tepasida Perikl turgan (500-429). U butun Yunonistondan faylasuf, shoir, haykaltaroshlarni Afinaga to'playdi (faylasuf Anaksagor, Suqrot, tarixchi Geradot, tragediyanavis Sofokl, haykaltarosh Fidiy va boshqalar).

Gorgiy ismi bilan tanilgan sofist taxminan 427 yilda o'z shahri Leontina uchun harbiy yordam so'rab, maxsus elchi sifatida Afinaga keladi va xalq majlisida so'zlagan nutqi bilan Afina yoshlarida juda kuchli taassurot qoldiradi. Shundan keyin davlat rahbarlari taklifi bilan Gorgiy Afinaga butunlay ko'chib keladi va shu yerda Ritorika maktabi ochadi. U o'z shogirdlariga so'z san'ati va boshqa fanlarni o'rgatish bilan birga voizlik bilan ham shug'ullanadi. Gorgiy asosan mifologik ma'ruzalarda tantanali nutq so'zlagan, uning nomi ostida bizga qadar "Yelena" va "Palimed" sarlavhali ikkita yozma asar yetib kelgan⁴³. Gorgiyning e'tirof etishicha, notiqning eng muhim vazifasi tinglovchini ishontira olish, uni maftun etish va o'ziga nisbatan iliq munosabat tug'dirishdan iborat. Maftun etishning asosiy vositasi sifatida yozuvchi birinchi o'ringa uslubni qo'yadi va shu maqsad bilan o'z asarlarida go'zal uslub namunalarini namoyish qiladi. Darhaqiqat, notiqning bizga qadar yetib kelgan asarlarida tantanali epitetlar (jonlantirish), metaforalar (o'xshatish), majoziy ifodalar nihoyatda ko'p uchraydi. Shuning uchun bo'lsa kerak qadimgi yunonlar Gorgiyning usulini "jimjimador uslub" deb ataganlar.

Bu davrda poeziya hamon adabiyotning asosiy turi edi. Davlat bilan fuqoro, shaxs bilan jamoa orasidagi munosabatlar adabiyotning asosiy mavzusi bo'lgan. Jamiyatdagi ziddiyat va kurashlarni endi lirik hamda epik doston mukammal ifoda eta olmas edi. Shuning uchun yangi adabiy janrga ehtiyoj tug'ildi. Bu janr drama edi (harakat). Bu

⁴³ Bu to'g'rida Internetning [www//http.wikipedia.ru](http://www.wikipedia.ru) saytidan ma'lumot olish mumkin.

yunonlarning (Gomer dostonlari bilan birga) jahon madaniyatiga qo'shgan katta hissasidir.

Yunon dramasi ritorika san'atining yuksak badiiy kamolotiga yo'l ochdi. Taraqqiyot bosqichi mobaynida ritorlar notqlik san'atiga qiziqqan har bir kishi faqat ritorika ilmiga oid ibtidoiy bilimlar bilan cheklanmasdan, o'zlarining iste'dodiga ishonib qolmasdan, doimo turli fanlarni o'qib o'rganmog'i, ilm va madaniyatning yuqori cho'qqilariga intilmog'i darkor, deb bilganlar. Eramizdan oldingi IV asrda yashagan Aristotel (384-322) "Poetika" va "Ritorika" nomli asarlarida Gomer, Sofokl, Evripid, Aristofan kabi san'atkorlarning asarlarini tahlil etdi. Uning "Ritorika" asari birinchi notqlik nazariyasi kitobi sanaladi. Unda ritorlik san'ati xususiyatlari-predmetining o'ziga xosligi, ifoda maqsadining turli usullari, epos va drama mohiyatida notqlik san'ati mujassamligi kabi nazariy muammolar izchil tekshiriladi.

Yunon dramaturgiyasining barcha turlari – tragediya, komediya, satirlar ritorika san'ati rivojiga turtki bergan. Masalan, Aristotelning qayd etishicha ("Poetika") Esxil birinchi bo'lib aktyorlar sonini bittadan ikkitaga oshiradi, xor partiyasini kamaytiradi. Dialog asarning asosiy elementiga aylanadi. Aktyor sonining ikki nafarga ko'payishi dramatik konfliktni kuchaytirishga ijobiy ta'sir o'tkazadi. Qahramonlarning tabiatini chuqurroq ochish maqsadida Sofokl turli usullarni qo'llaydi. Ulardan biri taqoslash usulidir. Ikki qahramonni yonma-yon qo'yib tasvirlashning eng mohir namunasini «Antigona» tragediyasida ko'ramiz. Asar Antigona va Ismenaning suhbatlari bilan boshlangan. (Polinikning jasadini dafn etish haqida). Yozuvchi Antigonani beozor, dilrabo, muloyim, mehribon, ammo jasoratda singlisi bilan taqqoslab, o'z qahramonini balandroq ma'naviy yuksaklikka ko'taradi. Sofokl o'zining ajoyib obrazlari bilan bir qatorda, dramatik voqealarni ustalik bilan bir-biriga bog'lagan san'atkor sifatida ham mashhurdir. Gyotening fikricha, sahnani va o'z kasbini hech kim Sofokldek bilgan va sevgan emas.

Qadim Yunon ritorlarining ijro uslubi – jamoa oldidagi xatti-harakatlari, ya'ni o'zlarini sahnada qay tarzda tutishida teatrning⁴⁴ ham o'rni va ahamiyati katta bo'ldi. Ma'lumot uchun: o'sha davrda

⁴⁴Teatr – Grekcha «ko'rish, kuzatish» degani.

tragediyanavis shoirlar mazmunan bir-biri bilan bog‘liq uchta tragediya va bitta satirlar dramasini (tetralogiya, ya‘ni to‘rtlik) hakamlar hay‘atiga topshirishi lozim bo‘lgan. Komediyanavis shoirlardan faqat bitta asar talab etilgan. Asarlarni sahnalashtirishda xor rahbarlari – xoreglar katta rol o‘ynagan. Afina teatriga 17 ming odam siqqan.

Demak, qadim Yunonistonda ritorika san‘atining shakllanishi epos va dramalar taraqqiyoti bilan bog‘liq. Chunonchi, ritorika san‘ati ham adabiyotning asosi – nutqni o‘rganishga qaratilgan ekan, notiqlik san‘ati bo‘yicha bildirilgan fikrlar adabiyotga ham bevosita aloqadordir. O‘z faoliyatida ritorika masalalariga katta e‘tibor qaratgan yunon sofistlaridan biri Protagor (mil.av.480-410 yy.) ta‘kidlaganidek, nutqning tinglovchiga huzur bag‘ishlashi yoki tasavvurida o‘tmishni jonlantirishining o‘zi kam, u tinglovchi tasavvurlarini notiq istaganidek o‘zgartirishi, shakllantirishi ham lozim.

5. Sharq voizligi mohiyatida Sharq mumtoz badiiy tafakkuri mujassamligi. Sharq qadimdan o‘z mutafakkirlari bilan ulug‘lanib kelingan. Ayniqsa, bu donishmandlarning Sharq mumtoz badiiy tafakkuriga qo‘shgan merosi o‘zining salmog‘i va sifati bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Jumladan, Abu Homid Muhammad ibn Muhammad G‘azzoliyning “Ihyo ulum ad-din”, Husayn Voiz Koshifiyning “Javohir ut-tafsir” (“Tafsir javohirotlari”, Atoulloh Asiliyning “Ravzat ul-ahbob”(“Do‘stlik bog‘i”), Atoulloh Mahmud Husayniyning “Badoye’ us-sanoye’” (“Badiiy san‘atlar”), “Risolai muammo”, Alisher Navoiy va boshqa ko‘plab adiblarning asarlarda va‘z va voizlik, so‘z ta‘rifi, she‘r va shoirlik, badiiy ijod bilan bog‘liq masalalar qalamga olingan.

So‘zning qadri, undan foydalanish, kam so‘zlab, ko‘p ma‘no yuklash, ravshan fikrlash kabi masalalar ustida XII-XIII asr mutafakkirlari Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiylar ham ibratli fikrlar bildirganlar.

Ulug‘ shoir Yusuf Xos Hojib turkiy xalqlarining XII asrdan ajoyib badiiy yodgorligi bo‘lgan “Qutadg‘u bilig” (“Baxt keltiruvchi bilim”) asarida so‘zlarni to‘g‘ri tanlash va qo‘llash haqida: “Bilib so‘zlasa so‘z bilig sanalur” degan edi. Gapirishdan maqsad so‘zlovchining ko‘zda tutgan narsa, hodisa, voqealarni tinglovchiga to‘g‘ri, ta‘sirchan

yetkazishdan iborat. Shunday ekan, nutqning to'g'riligi, ravonligi va mantiqiyligiga erishish muhim ahamiyat kasb etadi. Mutafakkir yana so'zlovchini tilning ahamiyatini tushungan holda hovliqmasdan, so'zning ma'nolarini yaxshi anglab, ravon nutq tuzishga chiqaradi:

Tilning foydasi talaydir, ortiqcha hovliqma,

Goho til maqталadi, goho so'kiladi.

Modomiki shunday ekan, so'zni bilib so'zla,

So'zing ko'r uchun ko'z bo'lsin, (u) ko'ra bilsin

Til va so'zni avaylashga, og'ziga kelgan so'zni o'ylab gapirishga chaqiradi:

Kishi so'z tufayli bo'ladi malik,

Ortiq so'z qiladi bu boshin egik,

Tilingni avayla – omondir boshing,

So'zingni avayla – uzayar yoshing

Adib Ahmad Yugnakiy (XII-XIII) ham so'zlaganda nutqni o'ylab, shoshmasdan tuzishga, keraksiz, ortiqcha so'zlarni ishlatmaslikka, mazmundor so'zlashga chaqiradi. Noto'g'ri tuzilgan nutq tufayli keyin xijolat chekib yurmagin, deb so'zlovchini ogohlantiradi:

O'qib so'zla so'zni eva so'zlama,

So'zing kizla, kedin, boshing kizlama.

Amir Xisrav Dehlaviy (XV asr) ham nutqni ta'sirli, emotsional, shuningdek, mazmundor tuzishga da'vat qiladi:

So'zlaringda bo'lsin fikru o'y yoniq,

Bo'lsin har so'zingda bir nuqta aniq.

Aytilayotgan fikring mazmundor va ohangdor bo'lishi lozimligi haqida yozadi:

Nazm aytsam, aytaman ta'b o'lchovida olchabon,

O'lchab aytilsa nuqta, bo'lmas uchov besamar.

Navoiy so'zga ta'rif berar ekan, uni eng ajoyib gavhar, mavj urgan dengizga o'xshatadi:

Ey so'z, ne balo ajab guharsen,

Gavhar neki, bahri mavjvarsen...

Aytib sovu maye tarona sen-sen,

Olib qurumas xizona sen-sen.

Sharqda va'zxonlik-balog'a, balog'at (chechanlik, notiqlik) deb yuritilgan va notiqlik san'ati rivojlanishi bilan nutq oldiga qo'yilgan talablar ham murakkablashib bordi. Buyuk allomalardan Beruniy, Abu

Nasr Farobiy, Ibn Sino, Abu Abdulloh al-Xorazmiy, Mahmud Koshg'ariy, Zamaxshariy, Abu YA'qub Sakkokiylar ham tilga, lug'atga so'z odobi, grammatika va mantiqshunoslik ilmiga doir asarlar yozganlar, boshqa sohalarga doir yozgan asarlarida ham voizlik madaniyati masalalariga katta e'tibor berganlar.

Alisher Navoiy, Sa'diy Sheroziy, Husayn Voiz Koshifiy kabi Sharq allomalari ijodida ham nutq odobi va voizlik san'ati qoidalari mufassal bayon etilgan. Xususan, mutafakkir shoir Alisher Navoiy turkiy tilda go'zal nutq tuzishning bayroqdori sifatida o'zbek tili boyliklarini namoyon etuvchi mashhur asarlar yaratdi. Ulug' shoir o'z asarlarida nutqning kishilar kundalik ehtiyojini qondiruvchi nodir vosita ekanligini qayd etdi. "Mahbub ul-qulub" asarida voizlar, ularning til odobi xususidagi fikrlarini keltirsa, "Muhokamat ul lug'atayn" asarida o'zbek adabiy tilining boyligini e'tirof etdi. Nainki e'tirof etdi, balki tilning ijtimoiy hodisa ekanligini ta'kidlaydi. So'zning tarixiy-madaniy xizmati beqiyosligi, ammo til imkoniyatlari nutq jarayonidagina ochib berilishini isbotlaydi. Zero, nutq bo'lmas ekan, tilning, so'zning cheksiz imkoniyatlari ruyobga chiqib chiqmay qolaveradi. "Majolisun-nafois"da so'zning voizlar hayotida tutgan o'rni haqida ham qimmatli mulohazalar bayon qilinadi. "Nazmul javohir" asarida esa so'z qudratli vosita ekanligi, insonga hayotiy zarurat sanalishi aytib o'tiladi.

Tarixdan ma'lumki, Alisher Navoiyning o'zi ham mohir notiq bo'lgan va shirin kalomi, o'tkir tafakkuri bilan xalq qalbidan joy olgan va o'z asarlarida ham xaloyiqqa naf'i tegadigan, el yuragidan joy oladigan shirin-zabon so'zlar so'zlashni, chiroyli va ravon nutq tuzish yo'llarini o'rganish lozimligi haqida mukammal fikrlar bayon etgan.

"Nazmul javohir" asarida til insonni hayvondan ajratuvchi gavhardir, deb ta'kidlaydi.

So'zdurki, nishon berur o'lukka jondin,

So'zdurki, berur jonga xabar jonondin.

Insonni so'z ayladi judo hayvondin,

Bilkim, guhari sharifroq yo'q ondin.

Navoiyning sa'y-harakatlari tufayli XV asrda o'zbek tili olamga dong'i ketadigan adabiy asarlar yaratishga qodir til ekanligini isbotlaydi. Bobur, Ogahiy, Komil Xorazmiy, Munis, Mashrab, Maxmur, Gulxaniy, Nodira, Uvaysiy, Muqimiy, Furqat, Avaz O'tar,

Fitrat, Behbudiy, So‘fizoda kabi mutafakkir shoir va yozuvchilarning asarlarida Navoiy boshlab bergan o‘zbek mumtoz adabiy tili meyorlari mukammalashib bordi.

Alisher Navoiyning zamondoshi Husayn Voiz Koshifiy “Futuvvatnomayi sultoniyy” nomli asarini yozadi. Bu asarda nutq madaniyati va voizlik san‘atiga oid qimmatli fikrlar bildiriladi, so‘zning kuch-qudrati, o‘rni, ahamiyati batafsil ochib beriladi: “Agar so‘z senikimi yoki sen so‘z nikimi, deb so‘rasalar, aytgil: men so‘z niki va so‘z menikidir, chunki so‘z insonlik daraxtining mevasidir, daraxtni mevan va mevani daraxtdan ajratib bo‘lmaydi”, deb yozadi olim. Aytilgan so‘z odam uchun farzandi jigarbandiday, ota-ona farzandidan tonolmagani singari, inson ham o‘z so‘zidan tonolmaydi. Farzand ham ota-onadan tonolmagani singari, so‘z ham notiqniki hisoblanadi. Shuning uchun ham deydi olim, aytiladigan so‘zga mas’ullik ota-onaning farzandga va farzandning ota-onaga mas’ulligi darajasida bo‘lmog‘i lozim. Xalqqa naf‘i tegadigan farzand qobil, zarari tegadigan noqobil sanalsa, so‘z ham shunga o‘xshash bo‘ladi. Yaxshi so‘z egasiga sharaf keltirib, yomon so‘z o‘z egasini badnom etadi. Shuningdek, olim suhbat odobi qoidalar haqida ma’lumot beradi. So‘zlash ham, tinglash ham katta mas’uliyat va madaniyatni talab etadi. Agar inson yaxshi so‘zlasa-yu, tinglashni bilmasa, yoki tinglasa-yu, so‘zlashni bilmasa bu ma’naviy noqislik alomatidir. Madaniyatli va ma’rifatli inson so‘zni sidqu sadoqat, samimiyat bilan so‘zlamog‘i, suhbatdosh so‘zini jon qulog‘i bilan, diqqat-e’tibor, xayrixohlik va hamdardlik bilan tinglamog‘i maqsadga muvofiqdir.

Suhbat va nutq odobida madaniyat va fahm-farosat bilan savol-javob qilish, so‘rashish ham muhim o‘rinda turadi. Mashhur notiq Koshifiy o‘z suxandonligi davrida bu qoidalarga to‘liq rioya etishga harakat qilgan va bo‘lajak notiqnlarni ham bu qoidalar asosida ish yuritishga undagan.

Donishmand Sharqda “...Yozishmalar ham davrlar, ham davr odamlarining qiyofalarini kelajak nasllar oldida ravshan qiluvchi shahodatlar sanalgan. Xatlarda yozuvchi, ijodkor, uning shaxsi ichki dunyosi shakllanadi. Sharq adiblari bu shahodatning inson hayotida qanchalar muhimligini hammadan ilgari angladi. Yozishmalarni asarlari ichiga turli shakllar va turli mundarija yo‘nalishlarida olib

kirdi”⁴⁵. Bu borada “Boburnoma” asari fikrimizning yorqin namunasi bo‘la oladi. Asar nihoyatda ravon va go‘zal tilda yaratilgan. Shoir ham ommabop yozishni ma‘qul ko‘rgan va o‘g‘li Xumoyunga yozgan xatida birovga yozgan maktubni bir necha bor o‘qish, uning ravonligiga, so‘zlarning ko‘zda tutilgan ma‘nosi to‘g‘ri aks ettirayotganligiga ishonch hosil qilgandan so‘ng jo‘natishga chaqiradi. Chunki so‘zlarning xato yozilishi aytilmoqchi bo‘lgan fikrni xiralashtiradi, o‘quvchini qiynaydi. Adib shunday bayon etadi: “...Yana men degandek, bu xatlaringni bitibsen va o‘qumaysen, ne uchunkim, agar o‘qur xayol qilsang edi, o‘quyolmas eding. O‘quyolmagandan so‘ng albatta tag‘yir bo‘lur eding. Xatingni xud tashvish bila o‘qusa bo‘ladur, vale asru mug‘laqdur. Nasri muammoni hech kishi ko‘rgan emas. Imlong yomon emas. Agarchi xili rost emas, iltifotni to bila bitibsen. Qulunjni yo bilan bitibsen. Xatingni har tavr qilib o‘qusa bo‘ladur, vale bu mug‘laq alfozingdin maqsad tamom lafhum bo‘lmaydur. G‘olibo xat biturda kohilliging ham ushbu jihattindur. Takalluf qilmay deysan, ul jihatdin mug‘laq bo‘ladur. Bundin nari betakalluf va ravshan va pok alfoz bila bitti; ham senga tashvish ozroq bo‘lur va ham o‘qig‘uvchig‘a”.

Tarixnavis Muhammad Solih Boburni o‘zbek harbiy notiqlarining zabardast vakili bo‘lganligini qayd etgan: “Mavlono Bobur Mirzo nutq so‘zlaganda so‘z bilan tog‘ni narm aylardi”. O‘zbek mutafakkirlari nutq ma‘nosida “nutq”, “til”, “so‘z” atamalarini ishlatgan. Eng ko‘p uchragani “so‘z” atamasidir. Vaziyatga qarab til, so‘z, nutq o‘rnida qo‘llana bergan.

Xulosa qilib aytganda, Sharq mutafakkirlari notiq oldiga tilni chuqur o‘rganish, ona tilining lug‘aviy boyligi va grammatikasini puxta egallash, mantiqli so‘zlashni o‘rganish, nutqning ichki va tashqi ko‘rinishiga (shakl va mazmuniga) birday e‘tibor berish, ravon va ta’sirchan nutq tuza bilish, til boyliklarini o‘rinli va maqsadga muvofiq holda qo‘llash vazifalarini qo‘yganlar. Shu bilan birga Sharq voizligi mohiyatida Sharq mumtoz badiiy tafakkuri ham o‘z tajassumini topgan.

⁴⁵ G‘afurov I. Hayo - xaloskor. -T.: Sharq, 2006. 232 - bet.

MAVZUNI MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR:

1. Mutolaa madaniyatining adabiyot bilan bevosita bog‘liqligi nimada?
2. Badiiy ijod namunalarining mutolaa san’ati bilan mushtarak holatda yashashi qonuniyligini izohlang.
3. Badiiy adabiyotda qo‘llaniladigan poetik uslub va badiiy san’at shakllarining mohiyatini qanday tushunasiz?
4. So‘z va atamaning farqi nimada?
5. Insonda so‘z tuyg‘usi tarbiyasining tugal bo‘lishida ona tilining o‘rni va ahamiyati haqida fikr yuriting.
6. Qadimgi Yunon ritorika fanining tarixiy ildizlari qanday omillar bilan izohlanadi?
7. Sharq voizligida mumtoz badiiy tafakkur mujassamligini qanday tushunasiz?
8. Sharq voizlari qaysi fanlarni chuqur o‘rgangan? Ularning xalq o‘rtasida shuhrat qozonishlarining siri nimada edi?
9. Donishmand Sharqda yozishmalarning o‘rni qay darajada ahamiyat kasb etgan?
10. “Boburnoma” asarida Bobur xat bitmak odobida “so‘zlarning xato yozilishi aytilmoqchi bo‘lgan fikrni xiralashtiradi” qegan ta’kidni keltiradi. Bunga qanday hodisa sabab bo‘lgan edi?

IFODALI O‘QISHNING MAQSAD VA VAZIFALARI. NOTIQLIK SAN’ATINING YUZAGA KELISH OMILLARI.

Reja:

1. Ifodali o‘qishning maqsad va vazifalari, mazmun-mundariyasi, badiiy adabiyotning estetik ta’sir kuchini reallashtirishda ifodali o‘qishning o‘rni va roli.
2. Ifodali o‘qish va notiqlik san’atining shakllanish tarixi. Notiqlikning yuzaga kelish omillari. Yunon notiqligi.
3. Qadimgi Gretsiyada notiqalar faoliyati. Epideyktik notiqlik.
4. Huquq tizimida notiqlikning o‘rni. Falsafa maktablarining notiqlik san’atiga munosabatlari. Aristotelning notiqlik san’ati taraqqiyotidagi xizmatlari.

5. Rim notiqlik san'ati. Rim notiqlik maktabining o'ziga xosligi. Sitseronning notiqlik san'ati haqidagi qarashlari.

6. Sharq notiqligi haqida ma'lumot. Sharqda voizlik san'ati. Sharq voizlarining qarashlari.

7. Mumtoz asarlarda voizlik san'atining ulug'lanishi. Qozi O'shiy, Husayn Voiz Koshifiyning notiqlik mahorati. Kaykovusning "Qobusnoma" asari.

Tayanch so'z va iboralar: ifodali o'qish, ifodali o'qishning maqsad va vazifalari, mazmun va mundariyasi, badiiy adabiyot, estetik ta'sir kuchi, notiqlik san'ati, umuminsoniy qadriyat, milliy ong va tafakkur, sud notiqligi, ritorika, nutq madaniyati, g'oya, poetika, logografiya, psixologiya, da'vogar, ritor, fikr, logograf, falsafa, Sharq voizligi, va'z va voizlik, Sharq notiqligi, notiqlik mahorati, mumtoz asarlar, so'z, so'z san'ati, voizlik san'ati, substantsiya, mohiyat, aksidentsiya, so'zlovchi madaniyati.

ADABIYOTLAR:

1. Abu Nasr Forobiy. Risolalar. – Toshkent: Fan, 1975.
2. Arastu. Poetika. Axloqi kabir. Ritorika. –T.: Yangi asr avlodi, 2011.
3. Bekmirzayev N. Notiqlik san'ati asoslari.- Toshkent: O'qituvchi, 2008.
4. Jumaniyozov R. Nutqiy mahorat. -T.: Adolat nashriyoti, 2005.
5. Inomxo'jayev S., A.Zunnunov. Ifodali o'qish asoslari. – T.:O'qituvchi, 1978.
6. Kaykovus. Qobusnoma. - Toshkent: O'qituvchi, 1986.
7. Karnegi D. Nutq so'zlash san'ati.-Toshkent: Adabiyot uchqunlari, 2018.
8. Rasulov R. Nutq madaniyati va notiqlik san'ati. – T.: 2006.
9. Siddiq Mo'min. So'zlashish san'ati.- Farg'ona, 1997.
10. Sofokl. Shoh Edip. – Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1979.
11. Tronskiy I.M. Istoriya antichnoy literaturi. – M: Visshaya shkola, 1988.
12. Fitrat A. Eng eski turk adabiyotining namunalari. – Toshkent, 1997.

1. Ifodali o‘qishning maqsad va vazifalari, mazmun-mundarijasi, badiiy adabiyotning estetik ta’sir kuchini reallashtirishda ifodali o‘qishning o‘rni va roli. Ifodali o‘qish tushunchasi, uning asosiy mohiyati, ushbu tushunchaning yuzaga kelish davri, tadqiqot obyekti hamda amaliy faoliyatda qo‘llash tarzi haqida fanda turli-tuman qarashlar, mavjud. Ko‘pchilik tadqiqotchilarning haqli ravishda qayd etishlaricha, ifodali o‘qish muammosini nazariy jihatdan asoslamasdan turib bu sohada biror ilmiy muvaffaqiyatga erishish qiyin. Hozirda bu soha eng muhim muvaffaqiyatni qo‘lga kiritdi: Ifodali o‘qish ilmiy muammo sifatida tan olindi va uni tadqiq qilish lozimligi ko‘pchilik olimlar tomonidan ma’qullandi. M.A.Rubnikova: “Ifodali o‘qish adabiyotni aniq va ko‘rgazmali o‘qitishning birinchi asosiy shakli bo‘lib, ko‘z bilan ko‘radigan har qanday ko‘rgazmali-likdan muhimdir. Shunday ekan, hozirda ifodali o‘qish bo‘yicha tadqiqot olib borishning zarurligini isbotlab o‘tirish ortiqchadir”, deb yozgan edi. Zero, insonning ma’naviy kamolotga erishuvida, jamiyatning madaniy-ma’rifiy rivojida bu fanning o‘rni favqulotda muhimdir.

Ifodali o‘qish jarayonida yo‘l quyiladigan turli xil nuqsonlarni aniqlash va uni tuzatish soha mutaxassislarining vazifasiga kiradi. Ammo bu masalaning faqat amaliy tomoni bo‘lib, soha tadqiqotchilaridan mazkur fanning nazariy asoslarini ishlab chiqishni taqozo etadi. Chunki, ifodali o‘qish sohasining mustaqil muammo sifatida mavjudligiga, uni hal etish mumkinligiga shubha bilan qarovchi kishilar ham yo‘q emas. Ifodali o‘qish sohasiga ishonchsizlik bilan qarashni tug‘diradigan sabablardan biri, bizningcha, bu muammo g‘oyat oddiy, o‘ta sodda holda tushunish va tushuntirishdan iboratligida.

Badiiy adabiyotda fikr ifodasi, uni san’at sifatida nafis qilib tasvirlash masalasi ustuvorlik qilsa, ifodali o‘qish esa mohiyatan kishining his-tuyg‘ulariga ta’sir ko‘rsatishga qodir bo‘lgan muhim jarayon hisoblanadi. Shu boisdan ham badiiy adabiyot bilan og‘zaki ijro – ifodali o‘qish san’ati asrlar davomida o‘zaro mushtarak holatda yonma-yon yashab, insonning ma’naviy hamrohi bo‘lib kelgan. Demak, badiiy asardagi nafosat va go‘zallikni chuqur his qilish va shu orqali axloqiy-estetik tuyg‘ularni shakllantirish ifodali o‘qish fanining asosiy vazifasi sanaladi. Ifodali o‘qish kursining maqsadi esa shaxsning umummadaniy saviyasini yuksaltirishga hissa qo‘shish,

kishilarda ifodali o'qishga oid maxsus bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish; yaxshi nutqni o'rganish, baholash hamda targ'ib qilish; o'quvchilarda mutolaa madaniyatini shakllantirish, ularda kitobga qiziqishni, adabiyotlar bilan kengroq tanishish rag'batini oshirish kabi qator masalalarni qamrab oladi. Adabiyotning barcha tur va janrlariga xos badiiy asarlar ifodali o'qish fanining o'rganish obyekti bo'lib xizmat qiladi.

Ifodali o'qish deganda, faqat lirik turga mansub asarlarga emas, balki epik va dramatik turdagi asarlarni o'qish ham nazarda tutiladi. Badiiy asarlarni ifodali o'qish ijrochidan alohida iqtidor va mahoratni talab qiladi. Zero, adabiy asarning badiiy xususiyatlari, unda ilgari surilgan g'oyalar, muallif dunyoqarashi kabi muhim masalalarni aniqlashda ifodali o'qish alohida ahamiyat kasb etadi. Ta'kidlash joizki, g'oyaviy-badiiy jihatdan mukammal yaratilgan har qanday asar og'zaki ifodali nutqsiz, ovoz chiqarmasdan mustaqil o'qilganda ham o'zining axloqiy-estetik jihatdan ta'sir kuchini yo'qotmaydi, tarbiyaviy ahamiyati va vazifasiga putur yetmaydi. Lekin ifodali o'qish jarayonida ko'zga tashlanuvchi maftunkor ohang, xilma-xil ovoz tovlanishlari, jozibador intonatsiya kabi vositalar badiiy asarning emotsional ta'sir kuchini yanada oshiradi, eshituvchiga beqiyos zavq-shavq bag'ishlaydi.

Ifodali o'qish san'ati o'tmish zamonlarda og'zaki ijodda qanday ahamiyat kasb etgan bo'lsa, yozma adabiyotda ham shu qadar muhim o'rin tutadi. Zero, badiiy adabiyotning estetik ta'sir kuchi ifodali o'qish jarayonida yanada yorqinroq namoyon bo'ladi. Ifodali o'qish, ayniqsa, asarning g'oyaviy mazmunini chuqur tushunishda, badiiy xususiyatlarini aniqlashda katta ahamiyatga ega. Badiiy asarlarni ifodali o'qish inson ongi va hissiyotiga ta'sir etib, axloqiy-estetik tuyg'ularini shakllantirishga, ma'naviy olamini boyitishga xizmat qiladi.

Ifodali o'qish quyidagi ta'lim usullarida qo'llaniladi.

1. O'qituvchining ifodali o'qishida, badiiy so'z ustalarining o'qishida, aktyorlarning pyesadan ayrim parcha, ko'rinishlarni ijro etishida;

2. O'quvchilarning ifodali o'qishida, o'qituvchining badiiy asarni sharh bilan o'qishida va asardagi nafosatni ko'rsatish maqsadida qiladigan qisqacha nutqida.

Ifodali o‘qish faoliyatida quyidagilarni faollashtirishni taqozo qiladi:

1. Muayyan tur va janrlarga mansub badiiy asarlarni uning xususiyatiga e’tibor bergan holda ifodali o‘qish, yoddan o‘qish;

2. Muayyan bir badiiy asarni sinfda va uyda ifodali o‘qish;

3. Muayyan bir badiiy asardan olingan parcha yoki lavhani jonli, obrazli tushunishga yordam beradigan sarlavha topish va ifodali o‘qish;

4. Matnga yaqin qilib qayta hikoyalash, badiiy hikoyalash va ifodali o‘qish.

2. Ifodali o‘qish va notqlik san’atining shakllanish tarixi. Notqlikning yuzaga kelish omillari. Yunon notqligi. Badiiy adabiyotning yuzaga kelish tarixi qanchalik qadimiy bo‘lsa, ifodali o‘qish ham shu qadar uzoq tarixiylikka borib taqaladi. Mazmundor va ifodali nutq hamma davrlarda ham kishilarni o‘ziga jalb etib ijtimoiy hayotda alohida o‘rin egallab kelgan. Ifodali o‘qish, avvalo, xalq san’atidir. Chunki badiiy adabiyot dastavval xalq og‘zaki ijodi shaklida paydo bo‘lgan. Xalq yaratgan asarlarning keng tarqalishida esa og‘zaki ijrochilik san’ati muhim ahamiyat kasb etgan. Aniqrog‘i, asrlar davomida yaratilgan afsona va rivoyatlar, maqol va matallar, qo‘shiq va dostonlar, og‘zaki ijrochilik, ifodali nutq san’ati tufayligina bizgacha yetib keldi. Xalq yaratgan asarlar qanchalik donishmandlik va san’atkorlik mahsuli sifatida yuzaga kelgan bo‘lsa, ularning og‘zaki ijrochiligi ham shu qadar mahorat va san’atkorlikni talab qilgan.

Anglashiladiki, ajdodlarlarimiz so‘z san’atining, ayniqsa, og‘zaki ijrochilik san’atining inson ruhiga ko‘rsatadigan ta’siriga qadim zamonlardan boshlab katta e’tibor bilan qaraganlar. Shuning uchun ham, o‘rta asrlarda adabiy talaffuz meyorlarini o‘rgatuvchi “ilmi tajvid” jonli nutq asoslarini o‘rgatuvchi “ilmi kalom”, ilmiy va adabiy bahsni o‘rgatuvchi “ilmi munozara” kabi fanlar o‘qitilgan. Natijada maxsus bilim olgan har bir savodli kishi ayni paytda ifodali o‘qish asoslarini egallagan so‘z ustasi ham bo‘lib yetishgan. Shu boisdan ham, o‘tmishda badiiy so‘z ijrochiligining dostonxonlik, qissaxonlik, g‘azalxonlik kabi turlari keng tarqalgan. O‘qimishli kishilar tomonidan o‘tkazilgan she’rxonlik anjumanlarida so‘z san’atining yuksak namunalari og‘zaki ijro – ifodali o‘qish vositasida chuqur

tahlil qilingan. Shu ma'noda, ifodali o'qish va notqlik san'ati bir – biri bilan o'zaro bog'liq va mushtarak soha hisoblanadi.

Notqlik san'atining shakllanishida muayyan jamiyat madaniy-ma'rifiy taraqqiyotining yoxud muayyan millat ma'naviy kamolotining muhim jihatlari asos bo'lib xizmat qiladi. Chunki haqiqiy ma'nodagi madaniy nutq shaxs umummadaniy saviyasining favqulodda muhim unsurlaridan biri sanaladi. Ma'lum bo'lishicha, notqlik san'atiga dastavval, "Nutq odobi" nomi ostida keng e'tibor qaratilgan. Sitseronning "Notqlik haqida", "Notiq", "Brut" asarlari, Mark Fabiy Kvintilianning "Notiq bilimi haqida", Aristotelning "Ritorika" kabi asarlari qadimgi Gretsiya va Rimda madaniy nutq, notqlik nazariyasi ancha rivojlanganligini ko'rsatadi. Nutq odobi deb yuritilgan qoida va ko'rsatmalarda esa sodda va o'rinli gapirish, qisqa va mazmundor so'zlash, ezmalik, laqmalikni qoralash, keksalar, ustozlar oldida nutq odobini saqlash, to'g'ri, rost va dadil gapirish, yolg'onchilik, tilyog'lama-chilikni qoralash va boshqalar haqidagi qaydlar ta'kidlanadi. Biroq nutq madaniyati yoki nutq odobi hodisasini ushbu tushunchaning ilmiy muammo sifatida o'rta qo'yilishi bilan aralashtirmaslik lozim. Bu sohaning ilmiy muammo sifatida o'rta qo'yilishi va uning o'z o'rganish obektiga ega bo'lgan alohida ta'limot sifatida shakllanishi alohida masala hisoblanadi.

Ta'kidlash joizki, qadimgi Yunonistonda ko'plab sohaviy ilmlarni o'z ichiga olgan falsafa va siyosatshunoslikning rivojlanishi notqlik san'atining alohida tarmoq sifatida shakllanishiga turtki bo'lgan. Aristotelning "Ritorika" asarida qayd etilishicha, notqlik san'ati haqidagi ta'limot qadimgi Rim va Afinada shakllangan bo'lsa-da, unga qadar Misr, Assuriya, Vavilion va Hindiston kabi mamlakatlarda mavjud bo'lgan. Bu davrlarda jamiyatning rivojlanishi, savdo - sotiqning, sud ishlarining nihoyatda taraqqiy etishi notqlikni san'at darajasiga ko'tardi. Chunki u paytlarda davlat arboblarning obro' - e'tibori va yuqori lavozimlarga ko'tarilishi, ularning notqlik mahoratiga ham bog'liq bo'lgan.

Qadimgi madaniyat va sivilizatsiya o'choqlaridan bo'lgan Yunonistonda notqlik san'ati yuksak darajada taraqqiy etdi. Biroq bizgacha yunon notqligining eng qadimiy sarchashmalari haqida deyarli hech bir yozma ma'lumot yetib kelmagan. Notqlik san'ati haqidagi ilk ma'lumotlarni esa faqatgina Gomerning (eramizdan

oldingi XII asr) «Iliada» va «Odissey» nomli dostonlaridan olish mumkin.

Gomer dostonlaridagi ma'lumotlarga ko'ra qadimgi Yunoniston tuprog'ida eramizdan avval, ana shu davrlarda, Nestor, Menelay, Odissey, Axill kabi bir talay mashhur notiqalar yashab o'tgan. Gomer turli voqea-hodisalar tasviri jarayonida yo'l-yo'lakay qalamga olgan yuqoridagi to'rt nafar notiqning notiqlik sohasining to'rtta yo'nalishga mansubligi, ulardan ayrimlarining esa maxsus notiqlik maktablarida tahsil olganliklarini qayd etadi. Xususan, Axillning Feniks ismli so'z ustasi darsxonasida saboq olganligini aytadi. Ushbu fikrlar shuni ko'rsatadiki, notiqlik san'ati o'sha davrlarda yoki xuddi harbiy mutaxassislik va boshqa shu kabi ijtimoiy - siyosiy zarur mutaxassisliklar qatori maxsus maktablarga ega bo'lgan. Yunonistonda keyinchalik aristokratiya, demokratiya tuzumining o'rnatilishi natijasida davlat ishlarida, xalq majlislarida, senat kengashlari va sud jarayonlarida mamlakatning har bir erkin fuqarosi ishtirok etish, ko'rilayotgan masala yuzasidan erkin muhokama yuritish huquqiga ega bo'lgan. Bu hol keng ommasida ham notiqlik sa'natining rivojlanishi uchun juda qulay sharoit yaratdi. Chunki notiqlik san'ati har bir fuqaro uchun zaruriy ehtiyojga aylangan edi. Shu bois barcha davlat arboblardan tortib, xalq majlislarining ishtirokchisi bo'lgan erkin fuqarolar ommasi notiqlik san'atining asoslarini egallash uchun kurashar va maqsadga erishish uchun maxsus ustoz - o'qituvchilardan dars olishardi. Badavlat oilalar esa o'z farzandlarini bolalik chog'idanoq shu mo'tabar san'at bilan qurollantirishga urinar va farzandlarini maxsus notiqlik san'ati maktablariga berib o'qitardi.

O'z - o'zidan ma'lum bo'ladiki, ana shu ommaviy ehtiyoj tufayli notiqlik san'atining boshlang'ich, o'rta va oliy ta'lim darajasidagi maktabi mavjud bo'lib, ularda ming-minglab kishilar maxsus ta'lim olardi. Ammo shuni unutmaslik kerakki, yunon demokratiyasi nechog'lik erkinlik va oshkoralikka erishmasin, biroq u hozirgi tushunchadagi eng progressiv ma'nodagi demokratiya emasdi. Gap shundaki, antik Yunonistonning davlat sistemasi quldorlikdan iborat edi. Erkin fuqarolardan tashqari yana ikki toifa bor ediki, ular qullar va chetdan kelgan, kelgindi, deb kamsitiluvchi kishilar bo'lib, ular erkin fuqarolar ega bo'lgan huquqlardan foydalanishga mutlaqo haqlari yo'q edi.

Yunonlar chuqur fikrlash va chiroyli gapirish ilmini hikmat va donishmandlik deb ataganlar. Notqlik san'atining buyuk namoyandasi Sitseronning ma'lumotlariga qaraganda, Suqroti hakim zamonlarigacha falsafa va notqlik yagona ilm sifatida mavjud bo'lgan. Suqrot o'z mulohazalari bilan dono fikr va ziynatlangan nutqning yagona ilmini ikkiga ajratib qo'ygandan keyin fikrga ayrim, nutqqa ayrim o'qitish odati paydo bo'lgan⁴⁶. Shundan keyin kishilarni har tomonlama mukammal, go'zal nutq so'zlashga o'rgatuvchi maxsus ritorika ilmi vujudga kelgan.

Yunonlarda notqlik san'atining quloq yoyishi sud notqligi, harbiy notqlik va siyosiy notqlik kabi turlarning paydo bo'lishiga olib keldi. Masalan, qadimgi Yunonistonning mashhur logograflaridan biri Litsiy (miloddan avvalgi taxminan 459-380 yillarda yashab ijod etgan) unga ishi tushib kelgan kishilarning hojatini bitirishdan oldin, ularning dunyoqarashini, psixologiyasini o'rgangan. O'sha paytlarda Afina sudida ishtirok etuvchi kishilarning ko'p qismi savodsiz, omi bo'lgan, til va qonunlardagi murakkabliklarni tushunib yetmaganlar. Shu sababli so'zga chechan kishilarning sudni aldab ketishlaridan cho'chishib, ilmoqdor va balandparvoz gaplarga gumonsirab qaraganlar. Ammo Litsiy logograflikda mohirlik kursisini egallagan notqlardan biri bo'lganligi sababli, buyurtmachilar orasida o'ziga bino qo'ygan shaxsmi, tiyinni-tiyinga urib sotaman degan hasis olib-sotarmi, xotinining izmidan yuradigan laqma ermi, yoki shallaqi ayolmi, ayyormi, maqtanchoqmi yoxud sodda omi insonmi, kim bo'lishidan qat'i nazar – Litsiy ularning har birining zarakter xususiyatiga, tabiatiga, bilimi va jamiyatdagi mavqeiga mos keladigan nutqlari bilan tinglovchilarni ishotira oladigan uslubni topadi. Litsiydagi bu mahorat, ya'ni har kimni o'z tabiatiga mos ravishda gapirtira olish yunon tarixida o'tgan logograflarning birontasida uchramaydigan hodisa edi. Litsiy tomonidan bitilgan har bir nutq sud minbaridan turib gapiriladigan oddiy safsata emas, balki mohir notiq qalamiga mansub bir asar sifatida ahamiyatlidir. Uni ijro etayotgan odam go'yo sud minbari sahnasida rol ijro etayotgan aktyorni eslatib, tinglovchilar ongiga hikoyasini singdirib, ular qalbini junbushga keltiradi.

⁴⁶Sitseron. Notqlik san'ati haqida ikki risola (Urfon Otajon tarjimasi). - Toshkent: Yangi asr avlodi, 2007. 195-bet.

Qadimgi Yunonistonda notiqlik san'ati sarkardalik mahorati bilan barobar darajada ulug'langan. Sitseronning "Tarixda yo yaxshi harbiy sarkarda, yo yaxshi notiq bo'lish kerak", degan mashhur iborasi o'sha davrning shiori darajasiga ko'tarilgan. Harbiy sarkardaning itoatida ko'p sonli lashkar bo'lishini tasavvur qilsak, bu ibora tasodifiy hol emasligiga amin bo'lamiz. Grek va Rim notiqchilarning hayotiy tajribalari ham bunga misoldir.

Yunonistonda notiqlik san'atini egallashga bo'lgan ehtiyoj kuchaysa kuchayganki, aslo susaymagan. Shu tariqa chiroyli so'zlash san'ati asta-sekin rivojlanib borib, badiiy adabiyotning shakllanishida muhim ahamiyat kasb etdi. Eng muhimi, notiqlik san'atining rivoji tragediya, komediya kabi janrlarning tug'ilishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi hamda notiqlik nazariyasi bo'lmish ritorikaning vujudga kelishiga sabab bo'ldi. Shuningdek, Yunoniston – jahon notiqlik san'atining yirik namoyandalarini ham yetishnirib berdi: Sitseron, Litsiy, Demosfen, Aristotel ana shular jumlasidandir.

3.Qadimgi Gretsiyada notiqchilar faoliyati.Epideyktik notiqlik. Qadimgi Gretsiyada ham bu san'at yuksak darajada taraqqiy etdi, jahonga mashhur notiqchilar etishib chiqdi. Qadimgi Gretsiyada notiqlik san'atiga bo'lgan kuchli qiziqish natijasida uning yangi-yangi ko'rinishlari yuzaga kela boshladi. Ana shulardan biri epideyktik notiqlik, ya'ni tantanali notiqlikdir. Shu davrgacha ma'lum bo'lgan notiqlik ko'rinishlari muayyan amaliy ehtiyoj uchun xizmat qilardi. Epideyktik (tantanali) nutq ko'rinishi esa notiqlik san'atiga bo'lgan katta qiziqishning mahsuli bo'lib, faqatgina suxandonlik maqsadini ko'zda tutardi. Bunday nutqdan ko'zlangan maqsad o'z notiqlik mahoratini namoyish etish, notiqlik san'atining barcha imkoniyatlarini ishga solib, tinglovchilarga estetik zavq bag'ishlashdan iborat edi. Epideyktik nutq mavzuiga ko'ra turlicha edi. Masalan; xudolar haqidagi afsonalar, xalq qahramonlari (Axill, Gerakl va h.k.) madhiyasi, mashhur kishilar hayotiga oid ma'lumotlar (Gomer, Aristid) va b.

Tantanali nutq matnlari shu qadar go'zal, silliq, badiiy va lisoniy bezaklarga boy holda tuzilardiki, ularni so'zga usta notiq og'zidan eshitish emas, o'qib chiqishning o'zi ham katta zavq-shavq berardi. Iste'dodli notiq butunlay badiiy o'qishga kirishib ajoyib, mohirona ijrochiga aylanib ketar va tinglovchilarga chindan ham estetik huzur

bag'ishlardi. Shu nuqtai nazardan qaraganda qadimgi Gretsiya notiqligining epideyktik ko'rinishi o'z ijtimoiy mavqeiga ko'ra badiiy – estetik ijod xarakteriga moyilroq edi. Qolaversa, umuman yozma adabiyotning paydo bo'lishida notqlik san'atining roli juda katta bo'lganidek, nafis adabiyotning go'zal lirik shakllari yuzaga kelishida ham epideyktik notqlikning ta'siri katta bo'lgan.

Qadimgi Gretsiya – jahon notqlik san'atining yirik namoyandalari yetkazib berdi. Perikl. Perikl eramizdan oldingi V asrning boshlarida (500-429) yashagan taniqli notqlardan biridir. Eramizdan oldingi V asrning 50-30 yillar Afina davlatining siyosiy-iqtisodiy va madaniy jihatdan rivojlanish davri bo'ldi. Bupaytda davlat boshida Perikl turgan bo'lib, shunga ko'ra ayni davr tarixda «Perikl asri» deb ham yuritiladi... Perikl asli harbiy qo'mondon bo'lib, Eron-Yunon urushida katta mahorat ko'rsatadi va shu tufayli vatandoshlarining e'tiborini qozonadi. Perikl o'z davrining davlat arbobigina emas, yirik notig'i ham bo'lgan.

Kleon. Kleon Perekldan keyingi mashhur notiq bo'lib, nafaqat Afinada, balki undan tashqarida ham so'zga chechanligi bilan shuhrat qozongan. Kleon o'z notqlik maktabi bilan mavjud rasmiy notqlik uslublariga qaqshatqich zarba bergan va bunga o'z zamondoshlarini ham ergashtira olgan.

Isokrat (eramizdan oldingi 436-338 yillar). Isokrat notqlik, falsafa va huquqshunoslik sohasida o'z zamonasining eng yirik fan va madaniyat arboblari bo'lgan Suqrot, Tisiy, Gorgiylardan ta'lim oldi. U 329 yili Afinada notqlik maktabini ochadi va unga qariyb 40 yil davomida rahbarlik qiladi. Isokratning notqlik maktabi juda katta shuhrat qozonadi. Shuning uchun ham bu maktabga faqat afinaliklar emas, balki Yunonistonning barcha burchaklaridan o'quvchilar oqib kela boshlaydilar.

Isey (eramizdan oldingi taxminan 420-350 yillar). Iseyning logografik va notqlik faoliyatiga xos bo'lgan xususiyatlardan biri uningso'zga chechanligidir. U o'zining ana shu iqtidori, notqlik mahorati tufayli qo'lga tushgan har qanday ishni o'zi va mijozi foydasiga hal qila olardi. U, asosan, logografik bilan shug'ullangan. Isey logografik va notqlikda Lisiy va Isokrat kabi mashhur so'z ustalariga ergashdi.

Likurg. Likurg o'z davrining gumanist notig'i, davlat, fan va madaniyat arbobi. Uning yoshi Demosfendan sal ulug'roq bo'lib, 324-yili vafot etgan. Likurg notqlik san'ati asoslari, falsafa va yurisprudensiya bo'yicha Platon va Isokratdan maxsus ta'lim olgan. Iste'dodi va notqlik mahorati tufayli Afina davlatining eng yirik notqlari va arboblari safidan joy olgan. Eramizdan oldingi 388-yildan boshlab, u davlat xazinachisi sifatida (hozirgi tushunchada moliya vaziri) Afina iqtisodini boshqaradi.

Demosfen (taxminan 384-322 yillar). Demosfen davlat arbobi va o'z davrining yirik notig'idir. Tarixchilarning ma'lumotlariga ko'ra, Demosfen falsafani Platondan, notqlik asoslarini Isokratdan o'rgangan. Demosfen Afina notqligining yirik namoyondasi bo'lib, uning texnik mashqlari, nutq talqini jarayonidagi usullari nutq ustida ishlash uslublari, til imkoniyatlaridan foydalanish va notqlikning talqiniy ifoda vositalarini mohirona ishga sola olishi kabi fazilatlari hozirgi davr notqligi uchun ham amaliy va nazariy ahamiyatga ega.

Esxin (eramizdan avvalgi 390 - yilda tug'ilgan). Esxin kambag'al oiladan bo'lgani tufayli notqlik san'ati asoslarini maxsus maktablarda emas, mustaqil o'rganishga majbur bo'lgan. Esxin logografiyadan dars olmaganligi uchun uning nutq matnlari, tili kompozitsion jihatdan uncha ahamiyat kasb etmadi. Ammo Esxinning notqlik faoliyatida talaffuzining burroligi, teatr deklamatsiyasiga ustaligi alohida o'rin tutadi. U o'zining yuksak saviyali, ta'sirchan deklamatsiyasi bilan tinglovchilar qalbini rom etgan va shuning uchun ham bo'lsa kerak, «Attikalik o'nta notiq qonuni» ga kiritilgan.

Giperid (eramizdan oldingi 389 - yilda). Giperid o'rta hol oilada tug'ilgan. Giperid Demosfenning zamondoshi bo'lib, ayrim tarixchilar notqlik borasida uni Demosfendan ham yuqori qo'yadilar. Giperid notqlikni Isokratdan, falsafani Platondan o'rgangan. O'z davrida Afina davlatining yirik siyosiy arbobi va notig'i bo'lib tanilgan. Giperid notiq sifatida juda soddalikka va aniqlikka intilgan.

Dinarx (eramizdan oldingi 361-360- yillarda tug'ilgan). Dinarx Afina notqlik san'ati tushkunlik sari yuz tutgan davrning namoyondalaridan biridir. Dinarx falsafa bo'yicha Aristoteldan, notqlik va yurisprudensiyadan esa Feofrastdan tahsil olgan. Amalda esa notqlikda Lisiy, Giperid va Demosfenga ergashadi.

4. Huquq tizimida notiqlikning o'rne. Falsafa maktablarining notiqlik san'atiga munosabatlari. Sud ishlarida o'rnatilgan tartib notiqlik san'atining yuksalishiga katta bir turtki bo'ladi. Sud jarayonida da'vogar ham, himoyalannuvchi ham - har biri o'z manfaatini himoya qilish uchun kurashardi. Sud hukmining qaysi tomon foydasiga hal bo'lishi ko'pincha sudlanuvchi shaxs yoki da'vogarning notiqlik san'atidagi mahoratiga bog'liq edi. Qay tomon o'zining mantiqiy, asosli dalil va ma'lumotlari bilan sud hay'atini ishontira olsa, hukm o'shaning foydasiga chiqarilar edi. Lekin hamma sudlanuvchi yoki da'vogarlar ham yetuk notiqbo'lgan raqiblarining tazyiqiga dosh berishlari qiyin edi. Shuning uchun ham antik sud tizimining qoidalariga ko'ra bunday kishilarga u yoki bu kishi nomidan so'zlovchi notiqlardan yordamchi olishga ruxsat berilardi. Sud jarayonida boshqa birov manfaatini ko'zlab, nutq so'zlovchi ana shu toifadagi notiq'larga sinegorlar deyilib, ularning nutqi sinegoriya deb atalardi. Bora-bora esa ana shu sinegorlar toifasidan sud hay'atining ajralmas qismi bo'lgan hozirgi tushunchadagi advokatlar kelib chiqdiki, bu ma'noda sinegorlar instituti chinakamiga ijobiy, demokratik rol o'ynadi, deb aytish mumkin.

Sinegorlar notiqlik san'ati va huquqshunoslikdan maxsus ta'lim olgan kishilar bo'lib, ana shu sud jarayonidagi qatnashuvchilar hisobiga o'z himoyalaridagi kishilardan xizmat haqi olib, tirikchilikqiluvchi professional notiq'lar edi. Shu ma'noda ularni ixtisoslashgan notiq'lar, deb aytish mumkin. Chunki sud notiqligi oldida birovni oqlash uchun ular bor bilimlarini va mahoratlarini ishga solishga majbur edilar. Bugina emas, ular dastavval olgan ishlarini ipidan ignasigacha o'rganib chiqishlari va nihoyat jonli so'z san'atiga oid bor mahoratlarini ishga solib, sud jarayonida yutib chiqishga harakat qilishlari lozim edi. Shuning uchun ham sinegorlar sud notiqligi taraqqiyotiga katta hissa qo'shdilar.

Logograflar ham sinegorlarga juda o'xshash kishilar bo'lib, aslida ularni ham sinegorlardan ajralib chiqqan muayyan ixtisosli kishilar, deb aytish mumkin. Qadimgi yunon tilida "logograf"lar deb ataladigan, tajribali, qonunni yaxshi biladigan dastlabki notiq-advokatlar sudda qatnashayotgan ayblannuvchi va da'vogar'larga nimani gapirish lozimligini yozib berganlar va mehnatlari evaziga haq olganlar. Logografiyaning tirikchilik vositasiga aylanishi notiqlik san'atining

rivojida muhim rol o'ynaydi. Bu kasb egalari o'z ixtisosliklari taqozosiga ko'ra huquqshunoslik, notqlik va nutq matnini yozishda iqtidorli kishilar bo'lganlar. Chunki ular qonunshunos mutaxassis, ta'sirchan, mantiqiy izchil va ishontiruvchi nutqlarning yozuvchisi, o'rni kelganda notiq sifatida o'z himoyalaridagi kishilarni keng omma oldida, demokratik sud oldida oqlab chiqishlari kerak edi. Zabardast notiqlar nutqiga o'rganib qolgan afinaliklar va sud hay'ati oldida bu ishni bajarish juda mushkul bo'lgan. Shuning uchun ham logografiya bilan eng bilimdon, zehni o'tkir, tadbirkor kishilargina shug'ullanganlar. Shunisi ham borki, logografiya bilan muvaffaqiyatli shug'ullanib kelgan kishilarning ko'pchiligi bora-bora yo yirik davlat arbobi darajasiga ko'tarilgan yo yaxshigina badiiy ijodkor-yozuvchi bo'lib yetishgan.

Dastlab siyosiy va sud notqligi yuzaga kelgan bo'lsa, keyinchalik buning zahirida notqlik san'ati va, tabiiyki, ulug' zotlarni, yashab turgan maskanini madh etuvchi notiqlar maydonga keldi. Bu san'atni ilk bor adabiy janr darajasiga ko'targan hamda notqlikka ilmiy yondashgan kishilar sofistlar hisoblangan. Ular notqlik mahoratiga ega bo'lganlarning "ritor" deb atashgan. Ritorlar davralarda voizlik qilishdan tashqari, o'quvchilarga notqlik yo'l-yo'riqlari bo'yicha saboq ham berganlar.

Yunon ritorlarining og'zaki va yozma nutq ko'nikmalarini egallash borasidagi harakatlarining muqaddimasi mashhur ritor Gorgiy nomi bilan bog'liq. Uning Afinada ochgan ritorika maktabida notqlik san'ati saboqlari ham og'zaki, ham yozma shakllarda olib borilgan. Usto'z Gorgiyning fikricha, notiqning eng muhim vazifasi tinglovchini ishontirish, uni maftun etish va o'ziga rom qilishdan iboratdir. Gorgiy, asosan, mifologik mavzularda tantanali nutq so'zlagan, uning nomi ostida bizga qadar "Yelena" va "Palimed" sarlavhali ikkita yozma nutq yetib kelgan.

Yunon ritorlarining o'ziga xos jihatlari shundaki, ular mavjud jamiyat va odamlarni falsafiy asosda tahlil etadi va falsafiy asosda fikr-mulohaza yuritadi. Chunki bu davrda falsafa va notqlik yagona ilm sifatida maydonga chiqqan edi. Manbalarda qayd etilishicha, 342-yili Makedoniya podshosi Filipp o'zining Aleksandr ismli 13 yoshli o'g'lining tarbiyasi uchun qadimgi dunyo ilm-fani, falsafiy qarashlarining buyuk donishmandi Aristotelni Mitilendan chaqirib

oladi. Bu yerda u falsafa maktabini ochadi va katta kutubxona tashkil qiladi. Shu davrda Gretsiyada chiroyli soʻzlashga qiziqish kuchayib ketgan edi. Natijada qator notqlik maktablari ochiladi. Bu maktablardan soʻz sanʼati ustalari yetishtirib chiqardi. Keyinchalik chiroyli soʻzlash haqidagi qoʻllanmalar maydonga keldi. Shunday asarlardan biri Aristotelning «Ritorika» nomli kitobidir. Buyuk olim uni mashhur «Poetika» nomli asaridan soʻng, aʼni eramizdan oldingi 330-yillarda Afinaga soʻnggi marta qaytib kelganda yozgan edi.

Qadimgi Yunoniston madaniyati xususida soʻz yuritilar ekan, oʻzining falsafa, mantiq, sheʼriyat va notqlik sanʼatiga bagʻishlangan mashhur asarlari bilan butun dunyoga doʻrugʻ tarqatgan olim Aristotelning nomini tilga olish oʻrinlidir. **Aristotel(mil. av.384-322y.)** yashagan davrda Afinada chiroyli soʻzlashga qiziqish kuchaygan, natijada qator falsafiy-pedagogik maktablar bilan bir qatorda notqlik maktablari ham ochila boshlangan edi. Keyinchalik chiroyli soʻzlash madaniyatiga bagʻishlangan qoʻllanmalar yuzaga kela boshladi. Shunday asarlardan biri Aristotelning “Ritorika” asari edi. Buyuk olim uni mashhur “Poetika” asaridan soʻng, aʼni miloddan avvalgi 330 yillarda – Afinaga soʻnggi marta kelganida yozgan edi. “Ritorika” uch kitobdan iborat boʻlib, asarning birinchi va ikkinchi kitoblari asosan chiroyli soʻzlash, odamlarni mahv qilish va ishontirish uslublaridan iborat boʻlgan mulohazalardan tashkil topgan. Uchinchi ktobda esa nutq mantiqiga juda katta ahamiyat beriladi. Olimning fikricha, notiq tilidagi turli qorishmalar, yaʼni soʻzlarning notoʻgʻri va nooʻrin talaffuz qilinishi, jummalarning mantiqan har xil tuzilishi soʻzlovchining katta xatosidir. Har bir aytilgan notoʻgʻri gap insonning boshiga yetishi mumkinligini qayd etadi.

Aristotel notqlik sanʼatini 5 qismga ajratadi. Bular quyidagilardir:

1. Materialni kashf etish (qiziqarli matn topa bilish).
2. Materialni joylashtirish shakli (rejasi).
3. Materialni eslab qolish (oʻzlashtirish).
4. Materialni soʻz yordamida toʻgʻri ifodalash.
5. Materialni toʻliq tasvirlash.
6. Materialni toʻgʻri talaffuz qilish.

Shunisi eʼtiborliki, Aristotelning ushbu fikr-mulohazalari hozirgi kunga qadar ham oʻz qimmatini saqlab kelmoqda.

6. Rim notiqlik san'ati. Rim notiqlik maktabining o'ziga xosligi. Sitseronning notiqlik san'ati haqidagi qarashlari. Rim notiqlik san'ati yunon notiqlik san'atining davomi sifatida yuzaga keldi. Rimda ham qadimdan jamoat oldida so'zga chiqib, odamlarga o'z fikrini tushuntirish, ular ongiga ta'sir etib, o'z ortidan ergashtirish, biror narsa, voqea, hodisa haqida gapirganda ishontirish va isbotlab berishga intilish, insonlar orasidan so'zamol notiqqlarning chiqishiga zarurat tug'dirgan hamda notiqlik san'atining paydo bo'lishiga sabab bo'lgan. Buning uchun esa, avvalo, ma'lum ijtimoiy sharoit va muhit bo'lishi zarur edi. Rimdagi iqtisodiy va siyosiy o'sishning xarakteri notiqlik san'atining yangi ko'rinishlarini yaratdi.

Rimda notiqlikning, asosan, uch turini ko'rsatish mumkin: sud notiqligi - oqlovchi va qoralovchi, siyosiy notiqlik, maqtoov notiqligi. Bulardan tashqari, Yunonistonda bo'lganidek, notiqlik san'atini o'qitish uchun xizmat qiluvchi o'quv - mashq notiqligi ham mavjud edi. Rimda harbiy yurishlar va urushning kuchayib ketganligi harbiy sarkardalar nutqining rivojlanishiga ham imkon berdi.

Rimlik notiqlardan biri eramizdan avvalgi III – II asrlarda yashab o'tgan davlat arboblari Mark Partius Katoyoki Katondir. Katon notiq sifatida nutq san'ati nazariyasi va amaliyoti masalalari bilan maxsus shug'ullangan. Keyinchalik Rimda aka-uka Tiberiy va Kay Grakx, Mark Antoniy, Mark Tulliy Sitseron kabi taniqli qator notiqqlar etishib chiqadiki, bular ichida eng buyuk va so'zamoli notiq Sitserondir. (Sitseronning notiqlik faoliyati haqidagi ma'lumotlar bilan quyiroqda tanishamiz)

Rim notiqlik san'atining buyuk nazariyotchilaridan yana biri Kvintiliandir. Mark Fabiy Kvintilian Rimdagi notiqlik maktabining asoschisi hisoblanadi. Ungacha notiqlik bilimini berish xususiy maktablarda amalga oshirilgan. Mark Fabiy Kvintilian notiqlik san'atida yirik notiq va nazariyotchi sifatida shuhrat qozongan. Uning «Notiq bilimi haqida» nomli asari juda mashhurdir. Kvintilian Sitseron va boshqa Rim notiqqlari fikriga qo'shilgan holda, hamma notiq birinchi navbatda bilimli bo'lishi lozimligini aytadi. Shuningdek, u notiq axloqiy olijanob bo'lishi lozim, busiz hech qachon haqiqiy notiq darajasiga ko'tarila olmaydi, deb biladi. Umuman qadimgi Rimning notiqlik san'ati tajribalari ham o'rta asr va keyingi davr notiqqlarining vujudga kelishida muhim rol o'ynaydi.

Qadimgi yunon notiq va faylasuf olimlari orasida Rim yaqinidagi Arpina shahrida dunyoga kelgan **Sitseron (mil.av.103-43)** ham alohida o‘rin tutadi. Otasi farzandiga yaxshi tarbiya berish maqsadida Rimga ko‘chib o‘tadi. Sitseron u yerda yunon murabbiylari qo‘lida tahsil oladi. Bo‘lajak notiq ayni vaqtda falsafa ilmi bilan ham shug‘ullanadi. Lekin uni ko‘proq notqlik san’ati qiziqtiradi. Sitseron notqlarning turli mimika va harakatlar bilan so‘zlayotganliklarini ko‘rib, notiq bo‘lish uchun aktyorlikdan ham xabardor bo‘lish kerak, degan xulosaga keladi. Sitseron uzoq tayyorgarlikdan so‘ng, 25 yoshida birinchi marotaba xalq odida nutq so‘zlashga jur’at etadi. U dastlab fuqarolik, so‘ngra jinoiy ish jarayoni bo‘yicha nutq so‘zlaydi. Biroq uning bu nutqi muvaffaqiyatsizlikka uchraydi; davlat boshliqlari unga qarshi chiqishadi. Shundan so‘ng u ritorika va falsafa fanlaridan mukammalroq bilim olishga kirishadi. Mashhur so‘z ustalaridan tajriba olish maqsadida, Kichik Osiyoning bir qancha shaharlarini kezib chiqadi. Sezar hukmronligi davrida Sitseron mashhur notiq va davlat siyosatchisi sifatida ulug‘ martabalarga erishadi. Notqlik sirlarini o‘rganib, Osiyo sayohatidan qaytgach, u konsullik lavozimiga saylanadi. U sudlarda o‘zi yaratigan nutq uslublaridan foydalanib butun mahoratini ishga soladi. Sitseron sud notqligi bilan tanildi. Albatta, Sitseron nutqlari siyosiy jihatdan ham kuchli edi. Rimda, umuman, siyosiy tomonni chetlab o‘tgan birorta ham yaxshi notiq bo‘lmagan.

Sitseron timsolida notqlik san’atining nazariyasi hayot tajribasi va nazariyasi bilan muvaffaqiyatli ravishda qo‘shib olib borildi. U notqlik san’ati nazariyasining ayrim tomonlarini ishlab chiqibgina qolmay, o‘z notqlik chiqishlari bilan buni tajribada isbot etdi. Sitseron nutqining muvaffaqiyatli chiqishi uchun notiq quyidagilarga alohida e’tibor berishi lozimligini ko‘rsatadi:

1. Notiqning o‘ziga ishonchi mustahkam bo‘lishi kerak. Buning uchun esa notiq o‘z nutqida olg‘a suriladigan fikrga to‘liq ishonch hosil qilishi lozim.

2. Nutq to‘liq isbotli dalillarga ega bo‘lishi kerak.

3. Materialni to‘plash nutqqatayyorgarlikning asosidir.

4. Materialni to‘g‘ri joylashtirish-ekspozitsiyaga alohida e’tibor berish lozim. Joylashtirish shunday bo‘lsinki, u materialnibutunlay

o‘zlashtirib olishga engillik yaratsin. Buning uchun esa nutqni aniq qismlarga bo‘lish lozim.

5. Har qanday sohada ham nutqning muvaffaqiyatini bilish hal etadi. Agar notiq o‘z nutqi qaratilgan sohani yaxshi bilmasa, u qanchalik san’atkor bo‘lmasin, o‘z tinglovchisini jalb etolmaydi.

Sitseronning notqlik san’ati nazariyasi va tarixiga oid uchta asari ma’lum: “Notqlik haqida”, “Notiq” va “Brut” (yoki “Taniqli notqlar haqida”).

“Kimki jo‘n narsalar haqida oddiygina, kundalik voqealar haqida o‘rta darajada, ulug‘ hodisalar haqida esa zavq-shavq bilan gapirsa, shu odam so‘z san’atining chinakam ustasi bo‘ladi”, deya qayd etadi u.

Sezar vafotidan so‘ng davlatni uning nabiasi Oktavian boshqaradi. U o‘z davlatini mustahkamlash maqsadida Sitseronning Senat oldidagi mavqei va obro‘sidan foydalanmoqchi bo‘ladi. Biroq Sitseron Oktavianga ishonmaydi. Sitseronning dushmanlari yangi hukmdorni o‘zlariga og‘dirib olgach, undan buyuk notiqni qatl etishni talab qiladilar. Sitseron 43-yilda 6-dekabrdan 7-dekabrga o‘tar kechasi Antoniyning tarafdorlari tomonidan o‘ldiriladi. Shunday qilib so‘z san’atining mohir ustasi shafqatsiz jazoga hukm etiladi.

Sitseronni butun insoniyat oldida ulug‘lab, obro‘sini oshirgan narsa uning ajoyib, takrorlanmas nutqlari bo‘ladi. Uyg‘onish davrida Italiya, Fransiya va Olmoniyaning insonparvar olimlari Sitseronning ilhombaxsh nutqlarini sevib o‘rgandilar.

Tarixiy ma’lumotlarga ko‘ra Sitserondan 150 ta nutq, qolgan bo‘lib, shundan 58 tasi bizgacha etib kelgan.

Bular:

1. Falsafa mavzularida yozilgan 12 ta asar.
2. Notqlik tarixi va nazariyasiga oid 7 ta risola.
3. Jami 800 tacha maktub

Rimda bir qancha vaqtgacha notqlik san’ati rivojlanishdan to‘xtab qoldi. O‘rta asrlarga kelib esa notqlikning diniy va sxolastik tomonlari avj olib ketdi. O‘rta asrlarning ikkinchi yarmidan boshlab “universitet notqligi” deb nomlangan yo‘nalish rivojlandi. XVI asrda burjuaziyaning tug‘ilishi bilan yangi – insonparvarlik dunyoqarashi shaklana boshladi. Uning xarakterli xususiyatlaridan biri insonning kuch-quvvatiga, aql-zakovatiga ishonch hamda antik dunyo

madaniyatiga katta qiziqish uygʻotish edi. Insonparvarlar xalq yaratgan madaniy boyliklarni koʻz qorachigʻidek saqlashni targʻib qiladilar. Shuning uchun ham koʻp vaqtlargacha “uygʻonish” atamasi “gumanizm” atamasi bilan bab-barobar qoʻllanib keldi.

6. Sharq notiqligi haqida maʼlumot. Sharqda voizlik sanʼati. Sharq voizlarining qarashlari. Musulmon Sharqi madaniyati tarixini voizlik sanʼatisiz tasavvur etib boʻlmaydi. Sharqda voizlik ilmining asosini Qurʼoni karim suralari, Muhammad paygʻambar (s.a.v.) faoliyati va koʻrsatmalarini ifodalovchi hadislar, hikmatli hikoyatlar tashkil etadi. Manbalarda qayd etilishicha, Sharqda vaʼzxonlik – balogʻa, balogʻat (soʻzga chechanlik, notiqlik) deb yuritilgan va voiz – diniy, axloqiy, ijtimoiy-siyosiy mavzularda vaʼz qiluvchi, vaʼz aytuvchi, vaʼzxon, vazgoʻy shaxs hisoblanadi. Vaʼzxonlik sanʼati jamoatning hissiyot va tushunchasiga taʼsir etish usuli (ilmiy-siyosiy maʼruza, baxs munozara, targʻib va tashviq boshqalar). Qomusiy usmoniy lugʻatda vaʼz kishilarning qalbini yumshatadigan pand-nasihatlarni deyilgan. Shuningdek, voiz nasihatimiz yoki tashviqiy nutq soʻzlovchi notiq hamdir.⁴⁷ Biroq, ayni oʻrinda takidlash joizki, notiq va voiz tushunchalari bir xil maʼnoga ega emas. Ular mohiyat eʼtibori bilan alohida sanʼat hisoblanadi. Ularning bir-biridan farq qiluvchi tomonlari haqida R. Jumaniyozov shunday yozadi, “Notiqlik qoʻllanish oʻrni, mavzu doirasi va maʼno qamrovi jihatidan birmuncha kengroq. Voizlik ham nutqiy mahorat orqali oʻz roʻyobini koʻrsatadi. Unda diniy, didaktik va hayotiy mazmun ustuvorlik qilgan, notiqlik dunyoviylik bilan hamma davr va makonlarda har xil gʻoya va maslaklarga xizmat qilgan. Shunday ekan, voizlik notiqlikning bir koʻrinishi degan fikr haqiqatga yaqin”.⁴⁸

Demak, voizlik (notiqlik) sanʼati Oʻrta asrlarda juda katta ijtimoiy-siyosiy mavqega ega boʻlib, umumdavlat ahamiyatiga molik ish hisoblangan. Voizlik sanʼatining dabirlik, xatiblik, muzakkirlik kabi turlari mavjud boʻlib, baʼzi voizlar dabirlik – davlat ahamiyatiga ega boʻlgan yozishmalarni oʻqish va yozib berish bilan, baʼzi voizlar xatiblik – juma kunlari Qurʼoni Karim suralari asosida xalqni odob-axloqqa chaqirish bilan, baʼzilari esa muzakkirlik – tarixiy voqea-hodisalarni gapirib berish bilan shugʻullanganlar.

⁴⁷ Falsafa asoslari. -Toshkent: Oʻzbekiston nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2005, 11-b.

⁴⁸ Jumaniyozov R. Nutqiy mahorat. -T.: Adolat nashriyoti, 2005.17-b.

Oʻrta asrlar fani, madaniyatida oʻchmas iz qoldirgan ulugʻ allomalar Bahouddin Valad, Yusuf Hamadoniy, Ahmad Yassaviy, Jaloliddin Rumiy, Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Husayn Voiz Koshifiy, Muʼiniddin Voiz, Voiz Hiraviy, Zayniddin Vosifiy kabi notiqlik sanʼatini puxta egallagan soʻz ustalari yetishib chiqdilar. Bu ulugʻ zotlar oʻzlarining ibratli hayot tarzi bilan imon-eʼtiqod, ilm-maʼrifat, axloq-odob haqidagi beqiyos oʻgitlari bilan minglab insonlar qalbini maʼrifat nurlari ila munavvar qilishga erishdilar.

XV-XVI asrlarda notiqlik sanʼati turlari, qonun-qoidalarini aks ettiruvchi bir necha asarlar vujudga keldi. Ayniqsa, Muhammad Rafiʼ Voizning “Abvob ul-jinon” (“Jannat eshiklari”), Voiz Qazviniyning “Ziloli maqol” (“Maqol nafosati”), Voiz Shirvoniyning “Ahsan ul-ahodis” (“Nafis kalimalar”), Quraysh Sindiyning “Anis ul-voizin” (“Voizlar doʻsti”), Mulla Kalon Voiz Samarqandiyning “Ravzat ul-voizin” (“Voizlar boʻstoni”), Qozi Oʻshiyning “Miftoh un-najot” (“Najot kaliti”) kabi asarlari keyingi davrlarda yetishib chiqqan notiqlik uchun asosiy dasturulamalar boʻlib xizmat qilgan. Shuningdek, Alisher Navoiyning “Majolis un-nafois”, Zayniddin Vosifiyning “Badoyeʼ ul-vaqoyeʼ”, Xondamirning “Makorim ul-axloq” kabi asarlarida ham voizlik sanʼati haqida qimmatli fikr-mulohazalar bayon qilingan. Bu mutafakkirlar yashagan davr Sharq tarixida uygʻonish davri deb ataladi. Bu davrda madaniyat, sanʼat, ilm-fan nihoyat darajada ravnaq topdi. Fan va madaniyat va voizlikni targʻib va tahlil etuvchi fikrlar vujudga keldi.

Butun umrini ilm-fanga baxshida etgan olim Abu Rayhon Beruniy koʻplab asarlarida soʻz sanʼatiga doir gʻoyat qimmatli fikr-mulohazalar bildiradi. “Geodeziya” asarining kirish qismida Beruniy fanlarning paydo boʻlishi, tarmoqlanib koʻpayishi haqida soʻz yuritib, har bir fan inson hayotidagi zaruriy ehtiyoj tufayli paydo boʻladi, degan gʻoyani ilgari suradi. Olimning fikricha – grammatika, aruz va mantiq ana shu zaruriy ehtiyoj hosilasi, mevasi. Inson nutqi oʻz tuzilishiga koʻra rost va yolgʻonni ifodalashi mumkin. Bu munozaraga sabab boʻladi. Bu munozaralar jarayonida inson rostni yolgʻondan ajratib oladi, rostni yolgʻondan ajratadigan mezon yaratadi. Bu mantiq fani hisoblanadi. Mantiqning sillogizmi (qiyosi) rostni yolgʻondan ajratish vositasi boʻladi. Nutqdagi shubhali oʻrinlar sezilsa ular “mezon” asosida tuzatiladi. Beruniy mantiq ilmini oʻrganmasdan

turib, uni malomat qiladiganlarga achinib shunday yozadi: “Agar u dangasalikni tashlab oromga berilmasdan gap bilan bog‘lanib keladigan nahv (grammatika), aruz (she‘r o‘lchovi) va mantiq (logika)ni mutolaa qilganda edi, so‘z (nutq) zotan, nasr va nazmga ajralishini bilgan bo‘lardi”. Beruniy nutqning nazm va nasr ko‘rinishlari borligini e‘tirof etadi. Uning fikricha, nutqning barcha turlari ma‘lum qoidalar asosida shakllanadi. Nasr nahv (grammatika) qonun-qoidalarini asosida, nazm aruz talabiga binoan tuziladi. Aytilgan so‘z meyorining o‘lchovi va xatosini tuzatuvchi aniq ikkita mezon-nahv nasrda va aruz nazmda mujassamlashadi, grammatika umumiyroq bo‘lib, u nazmni ham, nasrni ham o‘z ichiga qamrab oladi.

Beruniy shakl va mazmun birligiga ham katta ahamiyat beradi. Shakl mazmunga xizmat qilishi kerak deb hisoblaydi, mutafakkir. Mazmunsiz har qanday shakl ham el orasida e‘tibor qozonmaydi. Shuning uchun ham nutqning ikkala shaklida-ham nasriy, ham nazmiy shaklida mazmun bosh mezon hisoblanadi. Nutq o‘zining har ikki shaklida ham so‘zlovchi o‘z oldiga qo‘ygan ma‘noni (fikrni) ifodalashi shart. Olim yozadi: “So‘ngra so‘z mana shu ikki qismda (nasr va nazmda) ham so‘zlovchi maqsad qilgan ma‘nodan iborat bo‘lib qoladi”. Nasriy yoki nazmiy nutqda mazmun bor yoki yo‘qligini bilish tuzilgan gaplarni bir-biri bilan qiyoslash orqali aniqlanadi. Bu vazifani esa mantiq fani o‘z bo‘yniga oladi: “... agar (biror) ma‘noga ega (jumlar) tuzilib, ular (bir-biri) bilan qiyos qilinsa, ularda (ma‘lum) ma‘no topiladi yoki u inkor qilinadi”. “Yaxshi nutq tuzish uchun nahv, aruz mantiq fanlari hamkorligidan foydalanishi zarur bo‘ladi. Ularning birortasiga ahamiyat bermaslik, bulardan birining qoidasining buzilishi, qolgan ikkitasiga ta‘sir qilmay iloji yo‘q”. Olim o‘z fikrlarini davom ettirib, har qanday tilning o‘z grammatik qurilishi, grammatikasi, o‘z tartib-qoidalarini bo‘lishi, bu qoidalarining shu tilda tuzilgan nutq uchun ahamiyati beqiyosligi aytib, bu qoidalar boshqa tillar uchun nozarur bo‘lishi mumkin, deydi. Ammo olim har bir tilning afzalligi o‘sha tilda so‘zlovchilar uchun zarurdir, deb hisoblaydi.

Beruniy balog‘a san‘atini arab tiliga xosligi haqida to‘xtalib, bunday nutq texnikasi arablar uchun fazilat ekanligini ta‘kidlaydi. Chunki arab tilida balog‘a (notiqlik)ning mavjudligi Qur‘oni Karim

targ'ibotida arab nutqining ziynati sanaladi⁴⁹. Notiqlik san'atidan foydalangan kishining yuqori mansabga erishuvi va boshqa bir kishining kambag'allikka yashashiga balog'a aybdor emas, deb aytadi. Boshqa tillarda balog'ani egallaganlarning obru topmasliklariga sabab, balki balog'aning arablar tilidan boshqa tillarga ko'chirishda notiqlik ilmini har tomonlama chuqur o'rganmaganligidir deydi. Shuningdek, Beruniy "Hindiston" asarida hindlarda Voyakarona deb ataladigan til ilmi borligini, bu ilm – ular so'zlarini tuzatadigan nahv, xat yozishda balog'atli, nutq so'zlashda fasohatli, yetuk va usta qiladigan ishtiyoq ilmidan iboratdir, deb ma'lumot beradi. Sharq allomalari axloqiy-tarbiyaviy asarlarining asosini Qur'oni karim suralari, Muhammad payg'ambar faoliyati va ko'rsatmalarini ifodalovchi hadislar, hikmatli hikoyatlar tashkil etadi. "Qobusnoma" ham bundan mustasno emas.

Sharq notiqligi asoslari, suxandonlik nazariyasiga oid manbalar ichida Abu Nasr Farobiyning "Kitob al-xitobat" risolasi ham o'ziga xos o'rin tutadi. Asarda buyuk tafakkur sohibi Abu Nasr Farobiy to'g'ri so'zlash, to'g'ri mantiqiy xulosalar chiqarish, mazmunder va go'zal nutq tuzishda leksikologiya, grammatika va mantiqning muhim ahamiyati haqida shunday qaydlarni keltiradi: "Qanday qilib ta'lim berish va ta'lim olish, fikrni qanday ifodalash, bayon etish, qanday so'rash va qanday javob berish (masalasi)ga kelganimizda bu haqidagi bilimlarning eng birinchisi jismlarga (substansiya-narsalar) va aksidensiya (hodisalar)ga ism beruvchi til haqidagi ilmlar deb tasdiqlayman;

Ikkinchi ilm grammatikadir: u jismlarga berilgan ism (nom)larni qanday tartibga solishni hamda substansiya va aksidensiyaning joylashishini va bundan chiqadigan natijalarni ifodalovchi hikmatli so'zlarni va nutqni qanday tuzishni o'rgatadi;

Uchinchi ilm mantiqdir: ma'lum xulosalar keltirib chiqarish uchun logik figuralarga binoan qanday qilib darak gaplarni joylashtirishni o'rgatadi, bu xulosalar yordamida biz bilmagan narsalarni bilib olamiz hamda nima to'g'ri, nima yolg'on ekanligi haqida hukm chiqaramiz"⁵⁰. Forobiyning ushbu fikrlari to'g'ri nutq tuzish va uni og'zaki ijro etishni o'rganish uchun juda chuqur va har tomonlama

⁴⁹ Beruniy A. Tanlangan asarlar. III tom. - T.: Fan, 1982. 64-bet.

⁵⁰ Abu Nasr Forobiy. Risolalar. -Toshkent: 1975, 54-bet.

bilim olish muhim ekanligini ko'rsatadi. Demak, grammatika va mantiq fanlarining nutq tuzishdagi ahamiyatini ikki buyuk olim ham yuksak darajada anglaganlar va ularga katta ahamiyat berganlar.

Abu Nasr Farobiyning asli ismi Abu Nasr Muhammad ibn Muhammad ibn Ulug' Tarxon bo'lib, tarixda uning nomi "Sharq Arastusi", "Muallimi soniy" degan maqomlar bilan ulug'langan. Olim butun umri mobaynida 160 dan ortiq asarlar yaratgan. Forobiy asarlari XII-XIII asrlardayoq lotin, qadimiy yahudiy, fors tillariga tarjima qilingan. Olim grammatika, mantiq she'riyat ilmlar fanlardan to'g'ri foydalanishni, bilimlarni boshqalarga so'z vositasida to'g'ri tushuntirish, aqliy tarbiya berish uchun xizmat qilishini ta'kidlaydi. Insonning ibtidosida, avvalo "oziqlantiruvchi quvvat" paydo bo'lib, uning yordamida inson oziqlanadi. So'ng "tashqi quvvat – tashqi ta'sir natijasida sezgi organlari orqali vujudga keluvchi quvvatlarning besh turi aytiladi" (teri-badan sezgisi, ta'm bilish, hid bilish, eshitish, ko'rish sezgisi). "Ichki quvvat"ga esda olib qolish, xayol (xotira, tasavvur), his-tuyg'u, nutq (fikrlash) "quvvat"lari kiradi. "Mantiq san'ati kishiga shunday qonunlar haqida tushuncha beradiki, bu qonunlar vositasida aql chiniqadi, inson sog'lom fikr yuritishga o'rganadi" – deb yozadi olim. Forobiy mantiq ilmi bilan grammatikaning mushtarakligini ta'kidlab, mantiqning aqlga munosabati grammatikaning tilga munosabati kabidir, deydi. Grammatika odamlar nutqini tarbiyalagani kabi, mantiq ilmi ham tafakkurni haqiqiy yo'ldan olib borish uchun aqlni to'g'rilab turadi. Bu bilan Forobiy insonni sog'lom fikr yuritishga undovchi mukammal nutqni tarbiyalash yo'llari haqidagi o'zining ilmiy qarashlarini bayon etadi.

Notiqlik san'ati masalalariga oid ilmiy talqinlarni Beruniyga zamondosh bo'lgan Ibn Sinoning "She'r san'ati", Abu Abdulloh al Xorazmiyning "Mafotih ul-ulum" ("Ilmlar kalitlari") kabi asarlarida ham uchratamiz. Xususan, Abu Abdulloh al Xorazmiyning "Mafotih ul-ulum" ("Ilmlar kalitlari") asarida keltirilgan mukammal nutq tuzish haqidagi qimmatli fikrlari bugungi kunimiz uchun, ayniqsa, ahamiyatlidir. Bu asarning uch nusxasi Buyuk Britaniya muzeyida, bir nusxasi Berlin kutubxonasida saqlanadi. Amerikalik sharqshunos olim K.Bosvort XX asrning 60-yillarida ushbu asarning oltita nusxasi Turkiya kutubxonalarida saqlanayotganligini (Istambulda) aniqladi. Asarda nutq madaniyatining ba'zi bir masalalari – devonxona ish

qogʻozlari, ularning shakllari, shuningdek, adabiyotshunoslikka oid masalalar haqida maʼlumot beriladi. Asarning beshinchi bobida aruz va qofiya ilmi hamda sheʼriyatda qoʻllaniladigan badiiy tasvir vositalari, ularning fazilatlar va nuqsonlari haqida soʻz yuritiladi. Asarning beshinchi bobi besh boʻlimdan tashkil topgan. Beshinchi boʻlim X asr Oʻrta Osiyo sheʼriyati va voizlik sanʼatiga bagʻishlanadi. Bu shuni koʻrsatadiki, X asrdayoq oʻlkamizda badiiy nutq yuksak darajada rivojlangan, uning nazariyasi mukammal ishlangan. “Mafotih ul-ulum” asarining “arab ilmlari qismidagi yetti kalom, oʻn ikki bobi grammatika (sarf va nahv), sakkiz bobi ish yuritish, besh bobi sheʼr va aruz ilmlariga bagʻishlangan. Kitob arab tilida yozilganligi sababli ham arab adabiy tili grammatikasi, uning qonun-qoidalarini bayon etiladi. Shu oʻrinda olim arab sheʼriyati va uning tarkibiy qismlaridan boʻlgan aruz haqida ham mufasssal maʼlumotlar berishga harakat qiladi.

Oʻrta asrlarda Sharq notiqligi – voizlik sanʼatining oʻsishi barobarida nutq oldiga qoʻyiladigan talablar ham mukammallashib bordi. Shu boisdan, bu davrda vaʼz va voizlik, uning nazariyasi va talqin uslublarini yorituvchi bir qator ilmiy, uslubiy va xrestomatik asarlar yaratildi. Jumladan:

Voiz Muhammad Rafiʼ	– “Abvobul jinon”.
Voiz Qazviniiy	– “Zilolu maqol”.
Imom Abu Homid Gʻazzoliy	– “Ihyoulum ad-din”.
Voiz Shirvoniiy	– “Ahsanul ahodis”.
Husayn Voiz Koshifiy	– “Futuvvatnomayi sultoniyy”.
Muhammad Bobur binni	
Muhammad Voiz	– “Hidoyatul-taqvim”.
Quraysh Sindiiy	– “Anisul-voizin”.
Mulla Kalon Voiz	– “Ravzatul-voizin”.
Samarqandiiy	
Qozi Oʻshiiy	– “Miftoxun-najjoh”.

kabi oʻz davrining mashhur voizlari sanalgan. Necha yuz yillar oldin faoliyat olib borgan va faoliyatlari samarasi sifatida yaratilgan ushbu asarlar hozirga qadar kishini gʻoyat darajada hayratga solib kelmoqda.

Alisher Navoiyning “Majolis un-nafois”, Zayniddin Vosifiyning “Badoyeʼ ul-vaqoyeʼ”, Xondamirning “Makorim ul-axloq” kabi

asarlarida ham voizlik san'ati va Sharq voizlarining faoliyatlari va qarashlari haqida qimmatli fikr-mulohazalar bayon qilingan. Jumladan, Alisher Navoiyning "Majolis un-nafois" asarida Sharq notiqlik san'ati tarixida o'ziga xos o'rin tutgan mashhur voizlar ma'lumot beriladi. "Majolis un-nafois" tazkirasida Xoja Muayyad Mehnagiy nomi o'z zamonasining yetuk notiqalaridan biri sifatida tilga olinadi. Dunyoviy va diniy bilimlarni chuqur egallagan ul zotning va'zlari hamisha jo'shqin o'tgan. Mehnagiy va'zlarining asosini imon-e'tiqod, dinu diyonat, axloq-odob haqidagi umuminsoniy masalalar tashkil etgan. U o'zining pandu nasihat so'zlari bilan zamondoshlarini ezgulikka da'vat etishdan charchamagan. Voiz o'z nutqini hamisha Qur'on hikmatlari va hadislar, hikoyat va rivoyatlar bilan bezab, ularni tinglovchilarning didi va saviyasiga muvofiqlashtirib dilkash ohangda bayon etgan. Shuning uchun ham, uning va'zlari xalq tomonidan qizg'in kutib olingan, bahs-munozaralarga sabab bo'lgan. Komil ma'rifat egasi Xoja Muayyad Mehnagiy o'z davrining fidoiy murabbiysi sifatida boshqalarni ham kamolot sari yetaklashga intilgan. Shu boisdan Alisher Navoiy "Majolis un-nafois"da taniqli adiblar va shoirlar qatorida Xoja Muayyad nomini ham hurmat va ehtirom bilan tilga oladi. "Xoja Muayyad Mehna – Hazrat Shayx Abusaid Abulxayr (quddisa sirrihu)ning nabiralaridindur. Yillar mozar bosbida shayx erdi va zohir ulumin takmil qilib erdi va va'z majolisi bag'oyat garm va pursho'r voqe' erdi. Va Xoja samo'ni dag'i muassir qilur erdi. Salotin Xojani ta'zim qilur erdi"⁵¹. Hazrat Navoiyning ushbu fikr-mulohazalaridan shu narsa ma'lum bo'ladiki, Mavlono Riyoziy bir necha muddat Zova viloyatining qozisi bo'lgan. Ammo o'z davri hukmronlarining siyosatiga qarshi borgan uchun qozilik lavozimidan chetlashtirilib, ancha zahmatlar chekkan. Mavlono Riyoziy o'z davrining taniqli so'z ustasi sifatida va'zlarida yuksak insonparvarlik qarashlarini ilgari surgan. Jamiyatda ro'y beradigan axloqsizlik, zo'ravonlik kabi g'ayriinsoniy hodisalarga befarq qaray olmagan. Binobarin, hukmronlarni insofga chaqirish e'tiqodsiz va noporok kimsalarni haq yo'lga hidoyat etish Mavlono Riyoziy va'zlarining asosiy mazmunini tashkil etgan. Riyoziy nafaqat voiz, ayni paytda iste'dodli shoir ham bo'lgan. Shu boisdan ham xalqqa va'z

⁵¹ Alisher Navoiy. Majolis un-nafois. XII tom.-Toshkent: G'.G'ulom nomidagi badiiy Adabiyot nashriyoti. 1966, 42-bet.

aytayotganda ba'zan o'z she'rlarini hissiyot bilan o'qib, eshituvchilarni ham to'ldirantirgan, ularda xayrixohlik va hamdardlik tuyg'usini uyg'ota olgan. "Majolis un-nafois" asarida Alisher Navoiy shunday yozadi: va'z aytib, minbarda o'z ash'orin o'qub, yig'lab vajdu hol qilur erdi"⁵². Mavlono Riyoziy va'zxonlik paytida ko'z yoshi qilish darajasiga yetib borar ekan, uning nutqida yoki she'rlarida bunga asosli sabab bo'lgan. O'z nutqidan o'zi shunchalik ta'sirlanishi va boshqalarni ham shunchalik hayajonga solishi, ishontirishi va hamdardlik tuyg'usini uyg'ota olishi mavlono Riyoziyning chinakam notiq, yuksak mahorat egasi ekanligidan dalolat beradi. Hayoti va faoliyatini ezgulikni targ'ib etishga bag'ishlagan mavlono Riyoziy fidoiy murabbiy sifatida xalq qalbidan chuqur joy olganligi sababli ham, Alisher Navoiydek zotning nazariga tushgan.

Sharq voizlik san'ati tarixida o'zining gapirish ohangi, ko'z qarashlari, yoqimli xatti-harakati, xullas, butun qiyofasi bilan tinglovchilarni o'ziga maftun etib, eshituvchilarning mehrini qozongan notiqlar ko'p bo'lgan. XV asrda Hirotida yashab, xalqning obrue'tiborga sazovor bo'lgan voizlardan yana biri Mavlono Irshodning faoliyati buning yorqin dalilidir. U o'zining donishmandligi va so'zga chechanligi bilan el nazariga tushgan. Mavlono Irshod faqat xalqqa va'z aytish bilangina cheklanib qolmasdan, rasmiy davlat ishlarida ham qatnashib, qo'shni mamlakatlar bilan diplomatik aloqalarni mustahkamlashda ham munosib xizmatlar qilgan. Faxriddin Ali Safiyning "Latoyif ut-tavoif" asarida hikoya qilinishicha, Sulton Husayn Boyqaro rasmiy davlat ishi yuzasidan muzokara olib borish uchun Sherozga vakil yubormoqchi bo'ladi. Saroy ayonlari o'zaro maslahatlashib, bunday nozik va mas'uliyatli vazifani faqat Mavlono Irshod bajara oladi, degan xulosaga kelishadi. Mavlono Irshod Sherozga borib kutilganidek, rasmiy ishlarni oz fursatda ijobiy hal qilishga erishadi. Uning notiqlik mahoratiga qoyil qolgan Shoh Shujo' Irshodga ruxsat bermay, bir majlis qurib keyin ketishni iltimos qiladi. Majlis juma kuniga belgilanadi. Juma namozidan keyin Masjidi jome'ga yig'ilgan xalq oldida Mavlono Irshod shunday ehtirosli nutq so'zlaydiki, odamlar uning ta'sirchan sobzlaridan junbushga kelib, ko'z yoshlarini tiya olmay qolishadi. Buni ko'rgan voiz notiqlik

⁵² Alisher Navoiy. Majolis un-nafois. XII tom.-Toshkent: G'.G'ulom nomidagi badiiy Adabiyot nashriyoti. 1966,101-bet.

mahoratining yana bir qirrasini namoyish etib, o'z nutqida keskin burilish yasaydiki, endi hamma birdaniga ko'z yoshi aralash kula boshlaydi. "Latoyif ut-tavoif" asarida keltirilgan bu voqea Mavlono Irshodning badiiy so'zning nafosati, hissiy qudrati, ulug'vorligi, til odobi va voizlik asoslari, shuningdek, odamlar ruhiyatini chuqur tushunadigan, nihoyatda mahoratli diplomat bo'lganidan dalolat beradi.

Sharq voizlarining va'z va voizlik, uning nazariyasi va talqin uslublari haqidagi ilmiy-nazariy qarashlari va amaliy faoliyatlari bugungi kunimiz uchun ham, ayniqsa, ahamiyatlidir.

7. Mumtoz asarlarda voizlik san'atining ulug'lanishi. Qozi O'shiy, Husayn Voiz Koshifiyning notiqlik mahorati. Kaykovusning "Qobusnoma" asari. Sharq xalqlari orasida qadim-qadimdan to'g'ri so'zlash va fikrni chiroyli ifodalash masalalariga katta e'tibor qaratilgan. Til qoidalariga to'la amal qilgan holda so'zlash va yozish bilan bog'liq fan "ilmi balog'a" deb, chiroyli, yoqimli so'zlash va yozishni o'rgatadigan fan sohasi esa, "ilmi faisohat" deb atalgan. Lutfiy, Alisher Navoiy, Fuzuliy, Ogahiy kabi buyuk san'atkorlarning beqiyos ijod mahsuli sifatida yaratilgan asarlari balog'a va fasohat ilmining yorqin namunalaridir. Biror fikrni oddiy so'zlar bilan shunchaki soddagina ifoda qilish bilan uni badiiy bo'yoqlar, go'zal tashbehlar, rang-barang obrazlar, jozibador vazn va ohangdosh qofiyalar vositasida ifodalash o'rtasida katta farq bor. So'z san'atkorlarining asarlarida talqin qilingan umumbashariy g'oyalar yuksak badiiylilikda ifodalangani uchun ham mangulikka daxldor bo'lib kelmoqda.

Abu Ali ibn Sino "She'r san'ati" risolasida "she'r uch xil narsa bilan xayolga ta'sir etadi" deydi. Bulardan birinchisi lahn – garmoniya bo'lib, bu bilan she'r kuylanadi. Kuy va ohang, shubhasiz, inson ruhiga ta'sir etadi. Ikkinchisi obrazli va tashbehli aytilgan so'zlardir. Uchinchisi esa vazn bilan bo'ladigan taqliddir. Shuning uchun kimdakin she'r aytib kuylamoqchi bo'lsa, albatta, uni ohangli lahn bilan bajo keltiradi.⁵³ Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk", Zamaxshariyning "Muqaddimat ul-adab", "Notiqlik asoslari" kabi asarlari ham so'z san'ati ilmiga bag'ishlangan bebaho ma'naviy

⁵³ Abu Ali ibn Sino. She'r san'ati (Abdusodiq Irisov tarjimasini). - Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. 1980. 99-100-betlar.

xazina hisoblanadi. Soʻzning qadri, undan foydalanish, kam soʻzlab, koʻp maʼno yuklash, ravshan fikrlash kabi masalalar ustida XII-XIII asr mutafakkirlari Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiylar ham ibratli mulohazalar bildirganlar. Yusuf Xos Hojib oʻzining butun dunyoga mashhur boʻlgan “Qutadgʻu bilig” asarida nutq odobi toʻgʻrisida quyidagi satrlarni yozadi:

“Kishi soʻz tufayli boʻladi malik,
Ortiq soʻz qiladi bu boshni egik,
Tiling avaylasang, omondir boshing,
Soʻzni avaylasang, uzayar yoshing”.

Soʻzlaganda nutqni oʻylab, shoshilmasdan tuzishga, keraksiz, yaramas soʻzlarni ishlatmaslikka, notoʻgʻri soʻzlangan nutq tufayli keyin hijolat chekib yurmaslikka ogohlantiruvchi jummalarni Ahmad Yugnakiyning “Hibat-ul haqoyiq” asarida ham uchratish mumkin:

Uqib soʻzla soʻzni, eva soʻzlama,
Soʻzing qizla, kedin boshing qizlama.

Ulugʻ shoir Alisher Navoiy oʻz asarlarining butun boblarini soʻzning ilohiy neʼmat ekanligi, soʻzning moʻjizali qudratini koʻrsatishga bagʻishlagan. Jumladan, Mahbub ul-qulub” nomli falsafiy asarining 24-faslini “Nasihat ahli va voizlar zikrida” deb ataydi. Asarda Navoiy voiz qanday kishi boʻlishi kerakligi haqida shunday fikr yuritadi: “Voiz haq soʻzni targʻib qilishi, Paygʻambar soʻzidan chetga chiqmasligi kerak, eng avval uning oʻzi Haq va paygʻambar yoʻliga kirishi, soʻngra esa nasihat bilan elni ham shu yoʻlga solishi lozim. Oʻzi yurmagan yoʻlga elni boshlamoq – musofirni yoʻldan adashtirib biyobonga tashlamoq va sahroda uni yoʻqotmoqdir. Oʻzi mastning elni hushyorlikka chaqirishi – uyquchi kishining odamlarni bedorlikka daʼvat etishiga oʻxshash bir narsadir”.⁵⁴ Voiz, avvalo, oʻzi shariat va tariqat yoʻliga kirgan notiq boʻlishi kerak ekan.

Navoiy nazdida, “Vaʼzxon shunday boʻlishi kerakki, uning majlisiga boʻsh kirgan odam toʻlib chiqsin, toʻliq kirgan odam esa yengil tortib, xoli qaytsin. Voiz olim va halol ish koʻruvchi boʻlsa, uning nasihatidan chetga chiqqanlar gunohkor boʻladi. Agar u boshqalarga buyursa-yu, oʻzi qilmasa, uning soʻzlari hech kimga taʼsir etmaydi va foyda keltirmaydi. Voiz bilimdon, halol ish koʻruvchi,

⁵⁴ Alisher Navoiy. Mahbub-ul qulub. –T: Gʻ.Gʻulom nomidagi badiiy Adabiyot nashriyoti.1983.72-bet.

sidqu sadoqat bilan faoliyat ko'rsatuvchi shaxs bo'lishi bilan birga, xalqning ruhiyatini yaxshi biladigan, xalqning dardi bilan yashaydigan bo'lishi kerak. Ana shundagina uning va'ziga yurak-bag'ri g'am-alamga, dardu tashvishlarga to'lib kirgan kishi dardlaridan forig' bo'lib, ko'ngli bo'shab, yengil tortib chiqadi. Qalbida ma'naviy ruhiy bo'shliq bo'lgan odam esa bunday voizning suhbatidan olam - olam ma'naviy zavq olib, ko'ngli, ongu-shuuri fikriy nurga to'lib chiqadi"⁵⁵.

XV asrda yashab, faoliyat ko'rsatgan voizlardan biri **Qozi O'shiydir**. Asli Farg'onalik mashhur notiq xalq o'rtasida juda katta obro'-e'tiborga ega bo'lgan. U O'sh shahri qozisi bo'lganligi uchun Qozi O'shiy taxallusini olgan. Uning "Miftoxun-najjoh" ("So'zning kaliti") asari til, lug'at, so'z odobi, grammatika va mantiqshunoslik ilmiga doir bo'lib, boshqa asarlarida ham notiqlik san'ati masalalariga katta e'tibor bergan.

Qozi O'shiy o'zining donishmandligi va so'zga chechanligi bilan el nazariga tushgan. Voiz "Miftoxun-najjoh" asarida qiziq bir voqea haqida hikoya qiladi. Aytishlaricha, Erondagi Siyiston viloyatining xalqi qattiqo'lligi bilan dong taratgan, hatto gadoyga ham non bermas ekan. Qozi O'shiy esa bu xalqning ko'ngil qulfini so'z kaliti bilan ochib yumshataman, deydi. U Siyistonga borib bir-ikki hafta shu xalq ichida yuradi, ularning ruhiy holatini o'rganadi. Shahar qozisidan ruxsat olib, juma kuni masjidi Jomeda katta nutq so'zlaydi, notiq bilan baravar xalqning fig'oni falakka ko'tariladi. Siyiston xalqi topgan-tutganini minbar ostiga tashlaydi. Lekin qozi O'shiy nutqi uchun hech kimdan haq olmasligini aytadi, buni eshitgan xalq notiqni yanada e'zozlaydi. Notiq bu xalqning xasis emasligini, aksincha olijanob ekanligini, xalqning mehr xazinasini ochish uchun munosib kalit topa olish zarurligini isbotlaydi. Ushbu hikoya zamirida juda katta ibrat va hikmat ma'nolari singdirilgan. Demak, xalqqa pand-nasihat aytib, ularni to'g'ri yo'lga boshlovchi voiz nafaqat ilmi va chiroyli so'zlari bilan, balki o'zining yuksak axloq-odobi bilan ham boshqalarga namuna bo'lishi lozim.

⁵⁵ Alisher Navoiy. Mahbub-ul qulub. -T: G'.G'ulom nomidagi badiiy Adabiyot nashriyoti.1983.72-bet.

Sharqda odob-axloq, notiqlik va davlat ishlariga bag‘ishlangan asarlari bilan tanilgan allomalardan yana biri **Husayn Voiz Koshifiydir**. Yoshligidanoq “Qur’oni Karim”ni yod bilgan Koshifiy uning suralaridagi hikmatlarni, hadislarni xalqqa tushuntirish va targ‘ib qilishda o‘z mohoratini namoyish qiladi. Husayn Voiz Koshifiy Hirot madrasalarida talabalarga voizlik san’ati va muloqat odobidan saboq beradi. Xuroson bo‘ylab odob qoidalari va axloqdan nutq so‘zlaydi. Uning “Axloqi Muxsiniy”, “Kitobi hotamnoma”, “Axloqi Kariym”, “Javohirnoma” kabi asarlarida axloqiy ta’limot ilgari surilgan. Bu kitoblardan Hirot va boshqa shahar madrasalarida nutq odobiga doir fanlardan darslik sifatida foydalanilgan. Husayn Voiz Koshifiy Navoiyning zamondoshi bo‘lib, nutq odobiga doir “Futuvvatnomayi sultoni” asarini yozadi. Bu asarda nutq madaniyatiga oid fikrlar bildiriladi, so‘z qudrati batafsil ochib beriladi.

“Agar so‘z senikimi yoki sen so‘znikimi, deb so‘rasalar, aytgil: men so‘zniki va so‘z menikidir, chunki so‘z insonlik daraxtining mevasidir, daraxtni mevadan va mevani daraxtdan ajratib bo‘lmaydi”, deb yozadi olim. Aytilgan so‘z odam uchun farzandi jigarbandiday, ota-ona farzandidan topolmagani singari, inson ham o‘z so‘zidan tonolmaydi. Farzand ham ota-onadan tonolmagani singari, so‘z ham notiqniki hisoblanadi. Shuning uchun ham deydi olim, aytiladigan so‘zga mas’ullik ota-onaning farzandga va farzandning ota-onaga mas’ulligi darajasida bo‘lmog‘i lozim. Xalqqa naf’i tegadigan farzand qobil, zarari tegadigan noqobil sanalsa, so‘z ham shunga o‘xshash bo‘ladi. Yaxshi so‘z egasiga sharaf keltirib, yomon so‘z o‘z egasini badnom etadi. Shuningdek, olim suhbat odobi qoidalari haqida ma’lumot beradi. So‘zlash ham, tinglash ham katta mas’uliyat va madaniyatni talab etadi. Agar inson yaxshi so‘zlasayu, tinglashni bilmasa, yoki tinglasayu, so‘zlashni bilmasa bu ma’naviy noqislik alomatidir. Madaniyatli va ma’rifatli inson so‘zni sidqu sadoqat, samimiyat bilan so‘zlamog‘i, suhbatdosh so‘zini jon qulog‘i bilan, diqqat-e’tibor, xayrixohlik va hamdardlik bilan tinglamog‘i maqsadga muvofiqdir. Suhbat va nutq odobida madaniyat va fahm-farosat bilan savol-javob qilish, so‘rashish ham muhim o‘rinda turadi.

Mashhur voiz Koshifiy o‘z suxandonligi davrida bu qoidalarga to‘liq rioya etishga harakat qilgan va bo‘lajak notiqnlarni ham bu qoidalar asosida ish yuritishga undagan. Koshifiyning notiqlik san’ati

haqidagi nazariy va amaliy fikrlari “Futuvvatnomai sultoniyy” asarida keng o‘rin olgan. Koshifiy mazkur asarida notiqlik san’atining odob masalasiga alohida urg‘u beradi, notiqning o‘zini tutishi, nutq so‘zlash jarayonidagi holati, umuman, notiqlik san’atining qonun-qoidalari haqida asosli fikrlarini o‘z tajribasidan kelib chiqib bayon qiladi. Shu asosda, amaliy va nazariy xulosalarini chiqaradi. Uning ta’kidlashiga ko‘ra, voiz avvalo, yuksak bilim egasi bo‘lmog‘i, shuningdek har qanday vaziyatda ham kechirimlilikni o‘ziga kasb etmog‘i zarur, “...zero ko‘pchilikka qarshi borish hamda dilda kek saqlash voizlikka xos xususiyat emasdir”.

XI asrda yashab ijod etgan, ma’rifat sarchashmalari durdonalarini jahonga yoygan mutafakkir **Amir Unsurmaoliy Kaykovus**ning ma’naviy merosi nafaqat ahli din orasida, balki, dunyoviy ilm sohiblari, keng miqyosdagi ahli jamoa orasida ham ulkan ahamiyatga ega. Kaykovus o‘z davrida muhim ilmiy va tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan bir qancha asarlar yozgan. Bu asarlar ichida Sharq olamida «Qobusnoma» asari diqqatga sazovordir. Kaykovus bu asarini 1082-1083 melodiy, 475 hijriy yilida, ya’ni 62 yoshida, kaksayib qolgan paytida yozgan.

Sharq olamida “Nasihatnoma” sifatida mashhur bo‘lgan “Qobusnoma”ning asosiy g‘oyasi “Qur’on” suralari, Muhammad (s.a.v.)ning ko‘rsatmalarini ifodalovchi hadislar, hikmatli hikoyalar bilan uyg‘unlashib ketgan. Aniqrog‘i, asar “Parvardigori olamni tanimoq zikrida”, “Payg‘ambarlarning xilqati zikrida kabi boblar bilan boshlanadi. Asarning yettinchi bobi “Suxanlonlik bila baland martabali bo‘lmoq zikrida” deb nomlangan. Mazkur bobda Kaykovus farzandiga murojaat qilar ekan, quyidagilarni yozadi: “Kishi suxandon va suxango‘y bo‘lmog‘i kerak. Ammo, ey farzand, sen suxango‘y (notiq) bo‘lg‘il va lekin durug‘go‘y (yolg‘onchi) bo‘lmag‘il. Rostgo‘ylikda o‘zing shuhrat qozong‘il, tokim biror vaqt zarurat yuzasidin yolg‘on so‘z desang, qabul qilg‘aylar. Har so‘z desang ham rost degil va lekin nomaqbul rostlig‘ni so‘zlama. Demak, nomaqbo‘l rostni deyishdan parhez qil, chunki rostga o‘xshagan durug‘ durug‘ga o‘xshagan rostdin yaxshidur. “Suxango‘y kishi shu bo‘lg‘ayki, ul har so‘zni desa, xalqqa ma’qul bo‘lg‘ay va xalq ham ha so‘z desa, unga ma’qul bo‘lg‘ay. Bunday kishila oqillar qatoriga kirgay, yo‘q ersa, ul inson suratida mavjud bo‘lg‘shan bir hayvondur. So‘zni bag‘oyat ulug‘

bilgil, soʻz osmondin kelmas va ul har narsa ermasdur. Har soʻzni andisha bilan boshlagʻil, toki aytgon soʻzingdin pushaymon boʻlmagʻaysan.”⁵⁶

Kaykovus magʻrurlikni, takabburlikni qoralaydi. Kishining martabasini soʻzi bila bilurlar, ammo soʻzning martabasini kishi bila bilmaslar, chunki har kishining ahvoli oʻz soʻzining ostida pinhondur”⁵⁷ deydi alloma. “Qobusnoma”da shunday bir ibratli hikoya keltiriladi. Bir kecha xalifa Xolun ar-Rashid tush koʻradi, tushida uning barcha tishlari toʻkilib ketgan emish. Xalifa tongda muabbir (tush taʻbir qiluvchi)dan tushuning maʼnosini soʻraydi. Muabbir shunday deydi: “Ey amiralmoʻminin, sening oldingda barcha yaqinlaring, qarindosh urugʻlaring oʻladi. Sendan boshqa hech kim qolmaydi”. Bu soʻzni eshitgan Xorun ar-Rashid:“ Mening yuzimga bunday qaygʻuli soʻzni aytding. Mening barcha qarindoshlarim oʻlsa, soʻngra men qanday ishga yaraymanu qanday yashayman?” – deydi dargʻazab boʻlan va uni yuz tayoq bilan jazolashni buyuradi. Keyin boshqa muabbirni chaqirib, undan tushining taʻbirini soʻraydi. Muabbir bunday deydi: “Ey amiralmoʻminin, sening umring barcha qarindoshlaring umridan uzoq boʻladi”. Shunda Xorun ar-Rashid deydi: “Barcha aqlning yoʻli birdir va ikkovining taʻbiri negizi bir yerga borib taqaladi, ammo bu ibora bilan u iboraning orasida farq bagʻoyat koʻpdir”. Soʻng muabbirga yuz tillo tanga berishni buyuradi. Demakki, tilda bir fikrni bir qancha shaklu shamoyillarda ifodalash imkoniyatlari mavjud, aynan qaysi shaklni tanlash, muayyan fikr va muloqot vaziyati uchun eng uygʻun ifodani topa bilish nutq egasining tilga sohiblik darajasi, mahoratu malikasi, maʼrifatu maʼnaviyatiga bogʻliq. Muloqot vaziyatini yetarlicha baholamasdan turib, fikr ifodasi uchun tanlangan lisoniy libos, har qancha toʻgʻri va goʻzal boʻlmasin, maqsad nishoniga yetib bora olmaydi. Bunday ifoda hatto boshga balo keltirishi ham mumkin. Goʻzal va nafis nutq sezgisi hamda unga azaliy ixlosu eʼtiqod anʼanasining ibtidosi, ayniqsa, koʻhna Sharqda juda qadim zamonlarga borib taqaladi. Donishmand Sharq bagʻrida (Frot va Dajla daryolari oraligʻida yashagan qadimgi eng “keksa” muassasaalaridan boʻlmish ilk maktablarning bosh vazifalaridan ham biri bolani toʻgʻri, aniq gapirish va yozishga oʻrgatishdan iborat

⁵⁶ Kaykovus. Qobusnoma. - Toshkent: Oʻqituvchi, 1986. 43-bet.

⁵⁷ Kaykovus. Qobusnoma. - Toshkent: Oʻqituvchi, 1986. 45-bet.

bo'lganligi, ayni vazifaning bizning kunlarimizga qadar ham o'sha mohiyatini yo'qotmay kelayotganligi har qanday jamiyat hayotida til va nutq nufuzining nechog'li muhtasham o'rin tutishining shahodatidir.

Kaykovus ta'kidlaydiki, "Hech qachon ko'p gapirma. Juda oz so'zla. Tuman so'z tugunini bitta so'z bilan yozib yubor, ya'ni, oz so'zlarga ko'proq ma'no sig'dirish payidan bo'lg'in. Chunki:

Kishi so'z tufayli bo'ladi malik,

Ortiq so'z bu boshni etadi egik.

Ortiqcha aytilgan so'z kishi ko'ngliga malol. Ammo so'zlamaslik ham mumkin emas. Bu holda soqov degan nomni ortirib olish mumkin. Shunga ko'ra o'rtacha yo'riq tutish lozim. Yo'riqni o'rtacha tutgan odam qut iqbolga erishadi. Tilning keltiradigan nafi juda ko'p. Ularni g'ofillik qilib qo'ldan chiqarmaslik kerak. Til goho maqtalsa, goho so'kishga moyil bo'ladi. Shuning uchun qachon va qancha so'zlasang ham bilib gapir. Gapirgan gapiing ko'r odamlar uchun ko'z bo'lsin. Nazar solib qarasang, bilimsiz odam ko'zi ko'r kishiga o'xshaydi. Uning ko'zini ochish uchun bilimdan hissa berish lozim.

Inson ikki narsa tufayli qarilik nimaligini bilmaydi. Ularning biri xush xulqlik, ikkinchisi ezgu so'zdir. Insondan qoladigan meros – so'z. Olamdagi barcha so'zlarni aql-idrok jamlolmaydi. Biroq kerakli so'zlarni aytishi uchun kishini majburlash shart emas. Bu so'zlar keyingi avlodlarga meros bo'lishi kerak:

Senga so'zladim men so'zim, ey o'g'il,

Senga o'git berdim o'zim, ey o'g'il.

Kumush qolsa meros bo'lib gar senga,

Uni tutmagin sen bu so'zga teng-a!

Kumush ishga tushsa olqinar, tugar,

So'zim ishga tushsa oltinlar to'kar.

Kishidan kishiga qoladigan meros – so'z. Unga amal qilsang, ming - ming foyda va naflar olasan.

Zakovat har doim shunday uqtiradi: dag'al so'z kishi boshiga ofat. Hasadli so'z kishining qizil rangini somonga aylantiradi. So'zlashda xato qilmaydigan odam yo'q. Xatoga yo'l qo'ymaydigan odamlarni sanab bera olasanmi? Bilimsiz kishilar – donolarning dushmani. Bilimsiz doimo donolarga xorlik tilaydi. Bu ular ko'nglining tub-tubiga cho'kib yotgan hasad alomati:

Kishi farqi bordir kishidan azim,
Bilimdan bu farq deb uqtirar so‘zim.

So‘zni bilimdon kishiga so‘zlash kerak. Bilimsizning tilini tushunish qiyin. To‘g‘ri, so‘zni so‘zlagandan har kim xatoga yo‘l qo‘yishi mumkin. Ammo bu xatoni donishmandlar hakimlar bartaraf etishadi. Dunyodagi har bir so‘zini o‘ylab, tushunib, taroziga solib gapiradiganlar ham talay. Ularni tushunganlar esa aziz mo‘tabar. Olam yaxshiliklarining hammasi uchun sabab bilimdir. Bilim bilan xatto ko‘kka ham yo‘l topsa bo‘ladi. Shuning uchun qayerda bilim bor ekan, sen o‘ziningni o‘sha yerga yondoshtir, undan bahra ol. Bilim yot-begonani ham, o‘z kishilaringni ham ulug‘laydi:

Yashil ko‘kdan indi bu bo‘z yerga so‘z,

So‘z bilan insonda yorug‘ bo‘ldi ko‘z.

Kishi ko‘ngli go‘yo tubi yo‘q dengiz,

Bilim bor tubida, u inju tengsiz.

Bilimli bilimin qilmasa bayon,

Bilimi yorishmas o‘tsa ham zamon.

Dono va aqli pishgan kishi bilim va aql-idrok haqida shunday deydi:

Uquv bilan oldi olamni olgan,

El-yurtning diliga bilim yo‘l solgan.

Bunday misollarni ko‘plab keltirish mumkin. Bularning barchasi asarning naqadar katta ma‘rifiy-tarbiyaviy ahamiyatga molik ekanligini ko‘rsatib turibdi.

Xulosa qilib aytganda, tariximizda nurli iz qoldirgan ulug‘ allomalarning mumtoz asarlarida jamiyat ma‘naviy taraqqiyotida voizlik san‘atining tutgan o‘rni va ahamiyati haqidagi qarashlari Sharqda bu sohaning davlat ahamiyatiga molik juda katta ijtimoiy-siyosiy mavqega ega ekanligidan dalolat beradi.

Sharq mutafakkirlari notiq oldiga tilni chuqur o‘rganish, uning lug‘aviy boyligi va grammatikasini puxta egallash, mantiqli so‘zlash, nutqning ichki va tashqi ko‘rinishiga (shakl va mazmuniga) birday e‘tibor berish, ravon va ta’sirchan nutq tuza bilish, til boyliklarini o‘rinli va maqsadga muvofiq ishlatish vazifalarini qo‘yadilar. Bu muammolarni hal etish esa har birimizning qo‘limizda. Binobarin, biz oqillik, rosmana madaniyat, chidam va iroda bilan harakat qilsak, albatta bunga erishishimiz muqarrar.

MAVZUNI MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOLVATOPSHIRIQLAR:

1. Ifodali o‘qish fanining maqsad va vazifasi nimalardan iborat?
2. Badiiy adabiyotning estetik ta’sir kuchini reallashtirishda ifodali o‘qishning o‘rni va rolini izohlang.
3. Notqlik san’ati haqidagi ta’limot qayerda va qachon shakllangan. Notqlik san’atining alohida fan sifatida shakllanishi qanday omillar bilan bog‘liq?
4. Qadim Yunon ritorika fani ifodali o‘qish san’ati bilan bevosita bog‘liqlikda shakllanganligini izohlang.
5. Yunon notqligi haqida nimalarni bilasiz?
6. Qadimgi Gretsiyadagi mashhur notqlar faoliyati haqida so‘zlang.
7. Huquq tizimidagi notqlikning o‘ziga xosligi nimada edi?
8. Yunon ritorlari faoliyati haqida so‘zlang.
9. Aristotelning notqlik san’ati taraqqiyotidagi xizmatlari haqida nimalarni bilasiz?
10. Rimda notqlikning qanday turlari mavjud bo‘lgan?
11. Sitseron notqlik va aktyorlik sohalari o‘rtasidagi bog‘liqlikni qanday izohlaydi?
12. Sharq voizlik san’ati haqida so‘zlang. Notqlikning voizlikdan qanday farqi bor?
13. Sharqda nutq madaniyati masalalari bilan shug‘ullangan mutafakkirlardan kimlarni bilasiz?
14. Husayn Voiz Koshifiyning notqlik faoliyati haqida nimalar bilasiz?
15. “So‘zni bag‘oyat ulug‘ bilgil, so‘z osmondin kelmas va ul har narsa ermasdur” degan fikrlar kimga tegishli?

IFODALI O‘QISHDA NAFAS, OVOZ VA TALAFFUZNING O‘RNI

Reja:

1. Ifodali o‘qishda nafasdan to‘g‘ri foydalanish.
2. To‘g‘ri talaffuz ifodali o‘qishning asosi.
3. Ifodali o‘qishda ovozning ahamiyati.
4. Og‘zaki nutq xususiyatlari. To‘g‘ri talaffuz meyorlari.

Tayanch soʻz va iboralar: nafas, ovoz, fiziologik jarayon, nutqdagi marom, tovush va nutq, tembr, toʻgʻri talaffuz, tahlili jarayoni, oʻqish-oʻqitishda nutq madaniyati, soʻz, sifat, miqdor, yoʻnalish, tez, sekin oʻqish, ogʻzaki nutq, talaffuz meyorlari.

ADABIYOTLAR:

1. Mahmudov N. Oʻqituvchi nutqi madaniyati. –T.: Oʻzbekiston Milliykutubxonasi, 2007.
2. Jamolxonov H. Oʻzbek tilining nazariy fonetikasi. - Toshkent: Fan. 2009.
3. Jumaniyozov R. Nutqiy mahorat. -T.: Adolat nashriyoti, 2005.
4. Bekmirzayev N. Notiqlik sanʼati asoslari. –T.: Oʻqituvchi, 2008.
5. Masharipova Z. Ifodali oʻqish praktikumi. - T.: Oʻzbekiston Milliy kutubxonasi, 2011.
6. Karimov N. XX asr adabiyoti manzaralari - T.: Oʻzbekiston, 2008.
7. Normatov U. Tafakkur yogʻdusi. - T.: Fikr-media, 2005.
8. Rasulov R. Nutq madaniyati va notiqlik sanʼati. – T.: 2006.
9. Sitseron. Notiqlik sanʼati haqida ikki risola (U, Otajon tarjimasini). - T.: Yangi asr avlodi, 2007.

1. Ifodali oʻqishda nafasdan toʻgʻri foydalanish. Nutqning fonetik vositalari nutqning ifodali, taʼsirli, aniq, jarangdor, kuchli, ravon va tiniq boʻlishini taʼminlaydi. Nutqdagi nuqsonlar va kamchiliklar nutqning fonetik vositalariga yetarlicha eʼtibor bermaslikdan kelib chiqadi. Nafas tovush hosil qilishda asosiy fonetik vositalardan hisoblanib, undan toʻgʻri foydalana bilish ifodali oʻqishning zaminini yaratadi. Nafas olinganda havo burun boʻshligʻidan kekirdakka boradi va nafas yoʻli orqali oʻpkaga oʻtadi. Oʻpkaga kirgan havo qovurgʻa muskullarini kengaytiradi, natijada qovurgʻalar qorin boʻshligʻidan uzoqlashib ikki yonga kengayadi. Aniqrogʻi, koʻkrak qafasi har tomonga kengayadi. Shu bir vaqtda qorin boʻshligʻini koʻkrak boʻshligʻidan ajratuvchi diafragma oʻpkaning havoga tushib kengayishi hisobiga pastga yaqqol sezilib turadi.

Anglashiladiki, nafas olish fiziologik jarayon bo‘lib, u uch guruhga bo‘linadi:

- kiftidan nafas olish. Nafas ko‘krakning yuqori qismida olinib, kiftlar ko‘tariladi. Bunday nafas olish zararli. U kishini tez charchatadi. Meyorida o‘qish va so‘zlashga imkon bermaydi;

- ko‘krak-qorin orqali nafas olish. Bunday nafas olganda o‘rta qovurg‘alar, biqin harakatga keladi, ya’ni ular kengayadi.

- aralash nafas olish, ya’ni pastki qovurg‘alar, diafragma ishtirokida nafas olish. Bunda ko‘krak qafasi va kiftlar ko‘tarilmaydi.

To‘g‘ri nafas olish inson hayoti uchun ham, ifodali o‘qish uchun ham juda katta ahamiyatga ega. Prof. N. Mahmudov shunday yozadi: “O‘quvchi nutqida kuzatiladigan kamchiliklardan biri fonatsiya jarayonida, ya’ni nutq hosil bo‘lish paytida nafas olishdagi tartibsizliklar bilan bogliq. Fonatsiya jarayonida nafas olish va nafas chiqarish fazalari shunday yo‘lga qo‘yilishi kerakki, nafas olish zo‘riqishsiz, bir qadar jadalroq, nafas chiqarish esa tekis, bir me’yorda va davomliroq kechishi lozim. Nafas chiqarish qanchalik davomli, uzun bo‘lsa, shunchalik yaxshi. Zotan, tovush, nutq ayni shu nafas chiqarish jarayonida hosil b‘yladi”⁵⁸. Agar noto‘g‘ri nafas olinsa – o‘rinsiz pauzalar qilinsa, o‘qilayotgan matn mantiqan buziladi. Natijada matndagi muallif maqsadi tinglovchiga to‘g‘ri yetib bormaydi, fikr tushunarsiz bo‘lib qoladi. Shuning uchun oliy va o‘rta maktablarning o‘qituvchilari o‘zlarining va o‘quvchilarning nafas organlari muskullarini chiniqtirib borishlari lozim. Bu borada amalga oshiriladigan chora va tadbirlar insonni sog‘ va baquvvat qiladi, tovush va nutqning aniq, ravon, burro va jarangdosh bo‘lishini ta’minlaydi.

Demak, to‘g‘ri nafas olish va nafas chiqarish mukammal o‘zlash-tirilsa, nutq tovushlarini to‘g‘ri talaffuz qilish qoidalariga amal qilinsa, ayniqsa, unli va undosh tovushlar talaffuzidagi nozik nuqtalarni aniq ilg‘ab olinsa ifodali o‘qishdan kutilgan natijaga erishish mumkin bo‘ladi. Quyida N. Bekmirzayev muallifligidagi “Notiqlik san’ati asoslari” o‘quv qo‘llanmasida keltirilgan nafas faoliyatini yaxshilash uchun tavsiya etilgan mashqlarni e’tiboringizga havola qilamiz:

⁵⁸ Mahmudov N. O‘qituvchi nutqi madaniyati. Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. - Toshkent: 2007, 180-bet.

1-mashq. Dastalbki holat. Gavda to'g'ri tutilib, oyoq tovonlari bir-biridan yelka kengligida uzoqlashtiriladi. Qo'llar yelka tekisligida oldinga cho'zilgan holda ko'tariladi, kaftlar bir-biriga tegib turadi. Bir deganda, tovon ko'tarilib, panjalar uchida turiladi va qo'llar ikki yonga yo'naltirilib, burun orqali chuqur nafas olinadi.

Ikki deganda, gavda o'z holiga qaytariladi, qo'llar yana oldinga Cho'zilgan holda kaftlar bir-biriga tekkizilib, og'izdan nafas chiqariladi.

Shu tarzda, bir deganda, yuqorida aytilgan holatga kelib, nafas olinadi, ikki deganda esa asl holatga qaytib, nafas chiqariladi. Bu mashq har safar 4-5 marta qaytariladi.

Eslatma: har bir mashqda nafasni faqat burun orqali olib, og'izdan chiqarishni unutmang.

2-mashq. Bu mashqda gavdani to'g'ri tutgan holda tovonlarbbir-biriga yaqinlashtiriladi, panjalar bir oz kenglikda tutilib, qo'llar bo'yinga olinadi.

Bir deganda, tovon ko'tarilib, oyoq uchida turiladi. Qo'llar ikki tomonga cho'zilib, burun orqali nafas olinadi.

Ikki deganda, oyoq uchida turgan holatda o'tiriladi. Tizza bir-biri bilan juftlashtirilib, qo'llar oldinga cho'ziladi va nafas chiqariladi.

Uch deganda, asta-sekin o'sha holatda o'rnidan turib, qo'llar ikki tomonga cho'zilib, nafas olinadi. Bu mashq ham har safar 4-5 marta qaytariladi.

3-mashq. Oyoqlar yelka kengligida ochiladi. Qo'llarning kafti pastga qaratilgan holda ko'krakka qo'yiladi, tirsak yelka tekisligida ko'tarilib, burun orqali chuqur nafas olinadi.

Bir deganda, gavda to'g'ri tutilgan holda o'ng yon tomonga cho'ziladi, ayni vaqtda gavdaning beldan yuqori qismi ham qo'l bilan birgalikda o'ng tomonga buriladi, chap qo'l va gavda oldingi holatiga qaytadi, burun orqali chuqur nafas olinadi.

Uch deganda chap qo'l yon tomonga cho'ziladi, ayni vaqtda gavdaning beldan yuqori qismi qo'l bilan birgalikda chop tomonga buriladi. O'ng qo'l esa ko'krakda turganicha qimirlatilmaydi, so'ngra nafas chiqariladi.

To'rt deganda, gavda va qo'llar asl holatiga keltirilgan holda nafas olinadi.

4-mashq. Oyoqlar yelka kengligida ochilib, qo'llar belga qo'yiladi. So'ngra, burun orqali chuqur nafas olinadi.

Bir deganda, gavda o'ng tomonga egiladi, shu holatda o'ng qo'l beldan asta sirg'alib tovongacha tushadi, chap qo'l esa gavdadan tepaga qarab ko'tariladi, ayni vaqtda nafas chiqariladi.

Ikki deganda, oldingi holatga qaytib, chuqur nafas olinadi.

Uch deganda gavda chap tomonga egiladi, bu holda chap qo'l asta pastga – oyoqqacha tushadi. O'ng qo'l esa, gavdadan tepaga qarab ko'tariladi, ayni vaqtda nafas chiqariladi.

To'rt deganda, gavda va qo'llar o'z holatiga qaytadi va chuqur nafas olinadi⁵⁹.

2. To'g'ri talaffuz ifodali o'qishning asosi. Bizning nutqimiz bizning ziyoliligimizni ko'rsatadi, u ziyrak tinglovchilarga biz voyaga etgan jamiyat haqida ma'lumot beradi, u bizning ilmiy va madaniy darajamizni ko'rsatadi. 30 yildan ortiq Garvard universitetining prezidenti bo'lgan doktor Charlz U. Elliot o'z xotiralarida shunday fakti keltiradi: "Men erkaklar va ayollar ma'lumotining zaruriy qismi sifatida faqat ma'naviy ilm olishni tan olaman. Men ona tilini aniq va nazokat bilan qo'llashni nazarda tutayapman". So'zlarni o'z o'rnida va chiroyli qo'llash uchun ba'zi vositalarga e'tibor berish zarur. Bu hammaga ma'lum bo'lgan vosita – so'zlarni aniq va tushunarli talaffuz qilish demak.

To'g'ri talaffuz nafas olish va tovush hosil qilish bilan mustahkam bog'langan. Ularning har biri miya oliy asab tizimining faoliyati hisoblanadi. Muayyan lug'aviy ma'no tashuvchi yoki grammatik vazifa bajaruvchi so'z shaklini talaffuz qilish uchun berilgan belgi nafas olishni, nafasni o'pkadan chiqarish orqali unli va undosh tovushlar birikmasini yuzaga keltiradi. Tovushlarning sifati, jarangdorligi nutq a'zolarining tuzilishi va talaffuz jarayonida qanday ishtirok etganligiga bog'liq. Artikulatsiya nutq tovushlarini talaffuz etganda nutq a'zolarining harakati sanaladi. Nutq tovushlari talaffuzida nutq a'zolarining harakati ikki xil: ma'lum tovushni talaffuz etishga chog'lanishi va aytish – artikulatsiya, tovush tugagach, nutq organlarining asl holiga qaytishi rekursiya deb yuritiladi.

⁵⁹Bekmirzayev N. Notiqlik san'ati asoslari.- Toshkent: O'qituvchi, 2008.116-117-betlar.

Nutq tovushlarining aniq yoki noaniq talaffuzi artikulatsiya apparatining faol yoki nafaolligiga bog‘liq. Bir kishining nutq a‘zolari boshqa kishining nutq a‘zolaridan ko‘pmi-ozmi farq qiladi. Shunga ko‘ra odamlarning tovushi ham bir-biriga o‘xshamaydi. Nutq tovushlarini birov ingichka, birov yo‘g‘on, birov jarangdor, birov xira talaffuz qiladi. Ba‘zi yosh bolalar unli va undosh tovushlarni aytishda artikulatsion nuqsonlarga yo‘l qo‘yadi. Masalan, r harfi o‘rniga l; s harfi o‘rniga sh harfini talaffuz qiladi. Bunday nuqsonlarni muntazam ravishda mashqlar orqali tuzatib borish lozim.

Badiiy asarlarni yuksak mahorat bilan o‘qish metodikasining asosini tashkil etuvchi fonetik vositalardan biri – so‘zlarni hamda tovushlarni aniq va ravshan talaffuz qilishdir. To‘g‘ri talaffuz o‘qituvchi va o‘quvchilar uchun muhim ahamiyatga ega: nutq tovushlarini to‘g‘ri va aniq talaffuz qilish nutqdagi nuqsonlarni bartaraf qilishga asos bo‘ladi. Sitseron “Notiq” nomli asarida shunday deb yozadi: “...hatto so‘z ne‘matidan benasib odamlar ham ifodali, yaxshi talaffuz tufayli suxandonlik mevasini terganlar, ko‘pgina suxanoro odamlar esa, yomon talaffuz tufayli no‘noq hisoblanganlar. Shuning uchun ham, Demosfen birinchi, ikkinchi va hatto uchinchi ish ham talaffiizdir, degan. Va agar talaffuzsiz suxandonlik yo‘q ekan, talaffuz suxandonliksiz ham shunday kuchga ega ekan, u holda so‘zsiz (albatta) notiqlik san‘atida uning ahamiyati ulkandir”⁶⁰.

Ta’kidlash joizki, talaffuz (orfoepik) meyorlari til birliklarining og‘zaki nutq jarayonida adabiy til meyorlariga muvofiq kelishi masalasi bilan ish ko‘radi. Adabiy tilning bu meyori ishlab chiqilgan bo‘lsa-da, orfoepik lug‘atlar tuzilganligiga qaramay,⁶¹ nutqiy jarayonda hanuzgacha ayrim til birliklarining talaffuzida xatolik ko‘zga tashlanadi. Masalan, ruscha yoki rus tili orqali o‘zlashgan so‘zlarning talaffuzidagi nomuvofiqliklar, so‘zni yozilganidek talaffuz etish, qabul qilingan so‘zni o‘zbekcha aksent bilan talaffuz etish kabi masalalar bo‘yicha kamchiliklar mavjud.

⁶⁰Sitseron. Notiqlik san‘ati haqida ikki risola (Urfon Otajon tarjimasini). -Toshkent: Yangi asravlodi. 2007. 346-bet.

⁶¹ Sodiqova M., Usmonova H. O‘zbek tilining orfoepik lug‘ati. –Toshkent: O‘qituvchi. 1977; Asomiddinova I., va boshqalar. O‘zbek adabiy talaffuz lug‘ati. –Toshkent: Fan, 1984.

Adabiy til meyorlarining mustahkamlanishida, jamiyat a'zolarining unga amal qilishlarini targ'ib etishda avvalo, bog'cha va maktab, qolaversa, litsey, oliy ta'lim muassasalari, televideniye, radio, gazeta va jurnallarning alohida o'rni bor. Albatta, madaniy nutq tarbiyasini shakllantiruvchi vosita sifatida dastlabki o'rinda bolalar bog'chasini tilga olishimizning ham o'ziga yarasha sabablari bor. Binobarin, bola tilning ma'lum qonuniyatlarini, undagi unli va undoshlar talaffuzini, so'zlarni go'daklik paytidanoq o'rganib, o'zlashtira boshlaydi. Bizga ma'lumki, til ijtimoiy hodisa bo'lib, insonda til va nutqning shakllanishida uning atrofini o'rab turgan muhit yetakchi o'rinni egallaydi. Demak, bolani o'rab turganlar qaysi til yoki qanday shevada so'zlashsa, bolaning tili ham, tabiiyki, o'sha sheva doirasida chiqib, rivojlana boshlaydi. Keyinchalik o'sha bola xoh o'qituvchi bo'lib yetishsin, xoh artist bo'lsin, baribir uning tilida o'zi mansub bo'lgan sheva elementlari saqlanib qoladi. Hatto adabiy tilni o'rganish va mukammal o'zlashtirishgan qasd qilgan odamni ham sof adabiy tilda so'zlashga o'rgatish ancha qiyin kechadi. Masalan, Xorazm shevasida o'zbek tilidagi chuqur til orqa "q" tovushi rus tilidagi "k" tovushiga yaqin talaffuz qilinadi. Xorazmliklar tilidagi bu nuqson hatto taniqli xonanda va aktyorlar, filolog olimlar va shoirlar nutqida ham sezilib turadi. Qipchoq shevalarida esa "a" o'rnida "o" va aksincha, "o" o'rnida "a" ni talaffuz qilinishiga ko'p bora guvoh bo'lganmiz. Quyidagi so'zlar fikrimizga dalil bo'la oladi: "qochan (qachon)", "oraq (aroq)", "toraq (taroq)" va hokazo. Bu holat hatto ismlar talaffuzida ham kuzatiladi: "Loyla (Laylo)", "Shohla (Shahlo)", "Ro'na (Ra'no)" kabi. Demak, bolada to'g'ri talaffuz ko'nikmalarini, go'dakligidan boshlab shakllantirib borish zarur.

3. Ifodali o'qishda ovozning ahamiyati. Ifodali o'qish jarayonida ovoz ohangini uzluksiz o'zgartirib borish ham katta samara beradi, chunki ba'zi so'z va iboralarni yuqori ovozda, ba'zilarini pastroq ovozda talaffuz qilish tinglovchilarga yaxshi ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, ovoz kishilarning bir-birlari bilan bo'ladigan muomala-sida ham katta ahamiyatga egadir. Shu o'rinda, Ovoz qanday hosil bo'ladi? Ifodali o'qishda ovozning ahamiyati qay darajada? degan mantiqli savollar tug'ilishi tabiiy.

Ovoz oliy asab tizimi signallarining mahsulidir. Oliy asab tizimi biror narsaga tikilish uchun ko'zlarga, biror narsani olish uchun

qo'llarga, oldinga qo'yish uchun oyoqlarga buyruq (signal) bergani kabi ovoz chiqarish, nutq tovushlari yoki so'zlarni talaffuz etish, ovozni jaranglatish yoki xiralatish, past yoki baland gapirish uchun ham muayyan a'zolarga signal beradi. Bu a'zolar esa oliy asab tizimining buyruqlarini bajaradi. Ana shunday buyruqlarni bajarishda, ovozning muhim a'zolari bo'lgan halqasimon, pardasimon va qalqonsimon tog'aylar hamda ovoz naychalari asosiy rol o'ynaydi. Hiqildoqning ichki devori ovoz yorug'ini hosil qiladi. Ularning cheti esa ovoz boylamlarini tashkil etadi. Gorizontal holatda yotgan ovoz boylamlari asosan elastik to'qimalardan (naychalardan) tuzilgan. Ular oldingi tomonda qalqonsimon tog'ay bilan birlashib turadi, orqada esa bir-birlaridan uzoqlashadi. Ana shu uzoqlashgan paytda ular o'rtasida burchak hosil bo'ladi, buni ovoz yorug' deyiladi. Ovoz yorug'i uchburchak shaklidir. Tog'aylarni bir-biriga yaqinlashtirib va uzoqlashtirib harakatga keltirib turuvchi kuch qalqonsimon va halqasimon bir juft muskuldir. Boylamlar tortilishi, qisqarishi yoki tebranishi mumkin. Ular tinch turganda esa deyarli harakatsiz bo'ladi, ular orasidagi tovush yorug'i kichik bo'lib nafas olinayotganda ovozsiz o'tib turadi. Dastlabki paydo bo'lgan tovush zaif va deyarli tembrsiz bo'ladi. Ovoz tembr va kuchga ega bo'lishi uchun qo'shimcha sharoilar talab qiladi. Bunda halqum, burun-halqum va og'iz bo'shlig'i rezonatorlik, ya'ni qaytargichlik vazifasini bajaradi. Ular tovushga ma'lum tus va kuch beradi. Bunday tuslanishning siri ovozning fizik xossasi, ya'ni uning qattiq jismlariga duch kelgach urilib, qaytib rango-rang rezonais kasb etish tabiati bilan bog'liq. qayerda qaytargichlar ko'p bo'lsa, o'sha yerda ovoz kuchli, jarangdor va ko'rkam bo'ladi. Anglashiladiaki, ovoz mashqlarida eng avvalo mana shu qonuniyatni nazarda tutish kerak.

Tembr hosil qilishda hiqildiqdand chiqayotgan tovushning yo'nalish darajasi katta ahamiyatga ega. Agar tovush faqat burundan chiqsa xunuk, yoqimsiz, to'ng'illagan tembr hosil bo'ladi. Tovush faqat qattik tanglaydan chiqsa, rangsiz "oq tovush", ya'ni shang'i tovush hosil bo'ladi. Tovush yumshoq tanglaydan chiqib, qattiq tanglayga tegib o'tsa, jarangdor, yoqimli tovush hosil bo'ladi. Tovushning so'ngi xossasi esa uning balandligiga, ovoz boylamlarining kengayishi va tortilishi darajasiga hamda ular qancha ko'p tarang qilib tortilsa,

ovoz shuncha baland jarangdor, u qancha bo'g'i q bo'lsa, ovoz shuncha past va do'rillagan bo'ladi.

Ba'zilarida tovush tug'ma bo'ladi. Ammo mashq qilib turilmasa, o'zining kuchi, tiniqligi va jozibadorligini yo'qotadi. Tizimli mashqlar inson tovushini kuchli, egiluvchan, jarayonli qila olishi mumkin.

Tovushning asosiy xossalari, uning kuchi va tembri hamda baland-pastligi ovoz boylamlarining o'zigagina bog'liq bo'lib qolmasdan, avvalo oliy asab tizimi signallariga, qolaversa tovush apparatiga taalluqlidir. Tovush apparati esa, ta'kidlanganidek, oliy asab faoliyati-ning umumiy qonuniyatiga asosan harakat qiladi. Bolalarning tovush apparati kattalarga nisbatan ancha nozik bo'ladi. Shuning uchun bog'chada, maktabda tarbiyachi va o'qituvchilar bolalarning bo'lar-bo'lmasga baqirishlariga yoki badiiy asardan olingan biror parchani kuchlari boricha baqirib-chaqirib o'qishlariga yo'l qo'ymasliklari kerak. Kuchli zo'riqish, noto'g'ri diapozon va balandlikda baqirib, kuchanib o'qish ovoz muskullarining o'ziga xos bo'lmagan holatda ishlashiga sabab bo'ladi. Ovozni normal holatga keltirish bir – ikki mashq qilish bilan emas, balki ovoz mashqlarini muntazam o'tkazish bilan amalga oshiriladi. Shuning uchun ham ovoz mashqlariga uzoq muddatli va tizimli ish jarayoni deb qarash lozim. Ovoz mashqlari ham butun bir murakkab tizimini tashkil etadi. Ularni to'liq bilib olish uchun ovozni yo'lga qo'yish deb ataluvchi maxsus predmet bilan bog'liq adabiyotlarga murojaat etish mumkin. Masalan, ovoz va nafasni birlashtiruvchi quyidagi mashqlarga diqqatimizni qarataylik: Ovoz va nafasni to'g'ri yo'lga qo'yish maqsadida m, n, ng, l, r, sonor tovushlarga unlilarni qo'yish, talaffuz etish mashqlari yaxshi natija beradi.

1-mashq. Berilgan harf birikmalarini diqqat bilan o‘qing. Ularning talaffuziga ahamiyat bering va har bir qatorni bir nafasda ayting.

Mi, me, ma, mo, mo', mu, mi.

li, le, la, lo, lo', lu, li.

Ni, ne, na, no, no', nu, ni.

ri, re, ra, ro, ro', ru, ri.

2-mashq. Qator sonor tovushlar oʻrtasidagi unli tovushlarni urgʻu berib talaffuz eting.

m m m i m m

m m m e m m

m m m a m m

m m m o' m m

m m m u m m

m m m i m m

n n n i m m

nn n a m a

n n o o m m

n n n o' m m

n n n u m m

1 1 1 i m 1

l l e m m m

1 1 1 a m m

1 1 1 o m m

1 l u m m m

l l l i m m r r r i m m r r r e m m r r r o m m
 r r r o' m m r r r u m m r r r i m m r r r o m l

3-mashq. Tez aytish mashqlari ham ma'lum tovushlarni to'g'ri talaffuz etish ko'nikmasini hosil qiladi. Quyida keltirilgan misollarni oldin yakka, so'ngra birgalikda o'qing. So'zlarni to'g'ri talaffuz qilishga e'tibor bering.

Bir tup tut, to'rt tup turp.

Tilim – tilim tilla qovunning

To'rt tilimi tilimni tildi.

To'p-to'p ko'k koptok, har ko'k koptokda bittadan katta ko'k koptok.

Samarqanddagi usta Muso pistafurushning 33 qop puch pistasi bor ekan, shu 33 qop puch pista bo'lsa ham o'sha usta Muso pistafurush ekan, bo'lmasa ham o'sha usta Muso puch pistafurush ekan.

Ta'kidlash joizki, ovoz mashqlarida tovushning eshitilish, masofaga moslay olish va uni boshqara olish ko'nikmalarini egallab borish zarur. Tovush eshitilishining poletnost (uchuvchan)ligi, bu ovozni masofaga moslay olish, tovushni boshqara olishdir. Gipkost (egiluvchanlik) va podvijnost (harakatchanligi) tovushning uni yengil o'zlashtira olish, tinglovchilarga moslashdir. Diapazon - tovushning hajmi. Uning chegarasi juda yuqori va past ton bilan aniqlanadi. Tembr - tovush buyog'i, yorqinligi, shu bilan birga uning yumshoqligi, iliqligi, o'ziga xosligi. Diksiya – so'z, bo'g'in, tovushning aytilishi-dagi to'g'ri va aniqlikdir. Diksiyani takomillashtirish nutq organlari-ning harakatini qayta ishlash bilan bog'liq. Maxsus mashqlar boshqariladi. Diksiya – notiq va adabiyot o'qituvchisi nutqining asosiy qurollaridan biri. Diksiya (lotincha - distio so'zidan olingan) so'zlarni aniq, burro talaffuz qilish degan ma'noni anglatadi. Badiiy asarni ifodali o'qishda nafas va ovoz kabi diksiyaning ham o'ziga xos o'rni bor. Badiiy asar o'qishda, mazmunning qayta hikoya qilishda va umuman, og'zaki nutqda diksiyaning qonun-qoidalariga rioya qilishsa, nutqning emosionaal ta'siri yana ham oshadi. Diksiya orfoepiya bilan ham bog'liqdir.

4. Og'zaki nutq xususiyatlari. To'g'ri talaffuz meyorlari. Til va nutq bir - biriga bog'liq hodisalardir. Til nutq uchun moddiy material bo'lib, bu material asosida nutq tashkil topadi. Tildagi hamma narsa til jamoasi uchun umumiy hisoblanadi. Tilda ruhiy va moddiy material

mavjud bo'lib, so'zning kishilar xotirasidagi obrazlari ruhiy material, nutq yaratish jarayonida qo'llaniladigan so'z shakllari, morfemalar, tovushlar moddiy material hisoblanadi. Tilning ruhiy hodisa ekanligi uning ongda saqlanishi bo'lsa, moddiy hodisaligi undagi til vositalari orqali belgilanadi.

Nutq – bu til deb ataluvchi, o'ta muhim vazifalarni bajaruvchi noyob quroldan foydalanish jarayoni, til birliklari imkoniyatlarining borliq, tafakkur, ong hamda vaziyat kabi hodisalar bilan munosabatda namoyon bo'lishidir. Nutq harakatdagi til bo'lib, nutq a'zolarining harakati jarayonida paydo bo'ladi va so'z shakllari, so'z birikmalar va gaplardan tashkil topadi. Nutq tildagi ifoda vositalaridan foydalangan holda voqelikka aylangan fikr sanaladi. Nutq nutq a'zolarining harakati sababli paydo bo'ladi. Nutq ikki xil shaklda voqe bo'ladi: ichki nutq va tashqi nutq. Kishilarning og'iz ochmasdan, gapirmasdan fikrlashi, mulohaza yuritishi, o'ylashi ichki nutqqa misol bo'ladi. O'pkadan chiqqan havoning nutq a'zolariga ta'siri, shu ta'sir natijasida ularning harakati bilan aniq tovushlar sifatida yuzaga keladigan nutq tashqi nutq hisoblanadi.

Nutq harakatdagi tildir. Nutq tilga tegishli birliklarni ma'lum vaqt bo'lagida bir-biriga qo'shadi, harakatga keltiradi. Shunga ko'ra, nutq o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladi. Xususan, nutqning og'zaki shakli o'z talablari, imkoniyat doirasi jihatidan yozma nutqdan farq qiladi. Xususan, og'zaki nutq yozma nutqqa nisbatan ancha faol, jonli jarayon sanaladi. Og'zaki nutq qo'llanish usuliga ko'ra ikki xil ko'rinishda sodir bo'ladi:

1. Oddiy so'zlashuv nutqi, ya'ni kundalik hayotimizda o'zaro muomala jarayonida foydalaniladigan nutq.

2. Adabiy so'zlashuv nutqi. Bu muayyan shaxslar doirasida tilning meyoriy mezonlarini qo'llash orqali ro'yobga chiqadi.

Shuningdek, og'zaki nutqda shevachilik ta'siri sezilib turadi. Og'zaki nutq tezkor, avto'liqtik jarayon bo'lganligi sababli o'ylab turish, so'ngra so'zni yana davom etish biroz mushkul. Chunki so'zlash va o'ylash bir vaqtning o'zida amalga oshadi.

Og'zaki nutq shaxsiy, individual faoliyat bo'lganligi uchun ham fikriy bayon va nutqiy uslub, ovoz ifodalari bir-biridan tubdan farq qiladi. Og'zaki nutq so'zlovchining kayfiyati, ruhiyati, tabiatiga

hamda muayyan vaziyatga, nutqiy a'zolarining sog'lom va normal ishlashiga ham bog'liq bo'ladi.

Og'zaki nutq o'ziga xos grammatik tuzilishga va qurilish tartibiga ham ega bo'ladi. Unda gap bo'laklarining tushib qolishi, qisqarishi, almashinishi, takrorlar, keraksiz unsurlarning qo'llanilishi kuzatiladi. Og'zaki nutqdagi ma'no ottenkalari, munosabatdagi tasdiq yoki inkor alomatlari, ohang, talaffuz, imo-ishora vositalari orqali amalga oshiriladi.

To'g'ri talaffuz meyorlari tilshunoslikning orfoepiya bo'limida o'rganiladi. Orfoepiya nutqning tabiiy, aniq, ravon, hammaga tushunarli bo'lishini talab qiladi. Bu masalaga katta e'tibor berish zarur, albatta. Talabalarni ifodali o'qishga o'rgatishdan oldin har bir darsda unli va undosh tovushlarning, har bir so'zning, har bir jumlaning lug'oviy-fiziologik ma'nosini tushuntirib, so'ngra shu so'zning talaffuzini o'rgatish maqsadga muvofiqdir. Fan sifatida diksiyaning roli juda kattadir. U kishilarni aniq hamda burro gapirish insonlar ongiga tez yetib boradi va ularga tez tushunarli bo'ladi. Harflarni va tovushni, albatta, aniq va ravon talaffuz qilish kerak. Negaki, ularning ifoda darjasi yanada kengayadi.

Nutqiy malaka va ko'nikmalarini muvaffaqiyatli egallash uchun sharoit yaratuvchi kishining umumiy ruhiy, jimoniy xususiyatlarini shakllantirish, ayniqsa, tasavvurni, obrazli xotira va fantaziyaning rivojlantirish ko'zda tutiladi. Ona tilida aniq, to'g'ri, mantiqli va ifodali nutq tuza olish malakasi va mahorati barcha fan o'qituvchilari uchun birday zaruriy fazilatdir. Mamlakatimizda ma'naviy-ma'rifiy islohotlar davlat siyosatining ustivor yo'nalishi deb e'tirof etilgan bugungi kunda nutq madaniyati masalalari, o'qituvchilarning nutqiy madaniyat mahorati, farzandlarimizning madaniy nutq ko'nikmalari va malakalarini oshirish, ta'lim jarayonining barcha bosqichlarida madaniy nutq muammolarini yetarli darajada nazarda tutish har qachongidan ham dolzarbdir. Milliy jamiyat, umuminsoniy qadriyat va milliy o'zlik idrokining barqarorligi, milliy ong va tafakkur, milliy g'urur va iftixor, Vatanga teran muhabbat va istiqloлга adoqsiz sadoqat kabi ma'naviy kamolotning o'zagini tayin etuvchi tushunchalarni ona tilidan ayro holda tasavvur ham etib bo'lmaydi. Shuning uchun ham alloma ajdodlarimiz tilni ana shu mo'tabar tushunchalarni inson shuuriga muhrlamoqning eng ta'sirchan vositasi,

deb bilganlar. Bu vositadan unumli va o‘rinli foydalanmoq uchun, avvalo, insonda til tuyg‘usi tarbiyasi tugal bo‘lishi, ya’ni ona tilining mohiyatini faqat aql bilangina emas, balki ichki hissiy sezgi bilan hamidrok etish ustuvorlashishi lozim.

Ayni paytda ona tiliday sehrli dunyoning cheksiz – chegarasiz ifoda imkoniyatlarini itasavvur etish va nutqda ulardan maqsadga eng muvofiqlarini saralab foydalana bilish malakalarini tarkib toptirish va muntazamlashtirish benihoya muhim masala hisoblanadi. Chunki, til milliy ma’naviyat, ma’rifat va madaniyatning eng xolis va xira tortmas ko‘zgusidir. Hadisi shariflarda “Kishining zebu ziynati, go‘zalligi uning tilidadir” deyiladi. Qadim-qadim zamonlardan beri har bir millat, har bir qavm o‘z tiliga buyuk hurmat bilan qaraydi. Bu tilning sohir ohanglari og‘ushida erimoqdan adoqsiz huzur tuyadi. Bu tilga timsol topmaslikdan taskin topadi. Bu nodir boylikni dunyolarga bermaslikka hozir turadi. Chunki til millat degan birlikning tamal toshi, u boy berilsa, millat ham boy beriladi. Ona tilini bilish, ona tilida sobitlikning o‘ziyoq ta’kidlangan mo‘tabar tushunchalar uchun poydor poydevor ekanligi tabiiy. Ona tilida go‘zal va ravon nutq tuza bilish, bejirim va betakror, rangin va zangin nutqdan huzurlanish va shunday madaniy nutq bilan boshqalarga ta’sir etish, yosh avlod qalbining qulfini ochib, mazkur tushunchalarni ularni o‘ziniki qildirish, ayniqsa, o‘qituvchi uchun birinchi darajali talablardandir. Kishilar nutqida uchrab turadigan nuqson va kamchiliklarni bartaraf qilish, nutqni madaniylashtirish umumdavlat ahamiyatiga ega bo‘lgan masaladir. Bu masala bilan shug‘ullanish ishiga faqat filologlar emas, balki jumhuriyatimizda istiqomat qiluvchi barcha soha vakillari e’tibor berishlari maqsadga muvofiq. Chunki nutq madaniyati umumxalq madaniyatining tarkibiy qismi bo‘lib, kishilarning yuksak madaniyatli bo‘lishlarini belgilovchi omillardan biridir. So‘z san’ati bilan shug‘ullanuvchi kishilar, ayniqsa, inson ta’lim-tarbiyasi uchun mas’ul bo‘lgan muallimlar notiqlik san’ati va ifodali o‘qish mahoratini puxta egallagan bo‘lishlari zarur. Holbuki, o‘qituvchining butun qiyofasi – xatti-harakatlaridan tortib, gapirish uslubigacha yosh va tajribasiz, taqlidchan o‘quvchi uchun jonli namuna hisoblanadi. “...Kishining martabasini so‘zi bila bilurlar, ammo so‘zning martabasini kishi bila bilmaslar, chunki har kishining ahvoli o‘z

soʻzining ostida pinhondur” - deydi Kaykovus⁶². Zotan har bir kishining kim ekanligini, uning bilim va madaniyatlik darajasi soʻzlariga qarab bilib olish mumkin. Donishmandlar nazdida, inson soʻzi bilan taniladi, axloqi bilan maqtaladi. Shu maʼnoda, yosh avlodning shaxs sifatida kamol topishida muhim rol oʻynovchi muallimning ravon va ifodali nutqi, goʻzal axloqi beqiyos ibrat namunasi boʻlib xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, ifodali oʻqish vositalari nutqning taʼsirchan, aniq, jarangdor, kuchli, ravon va tiniq boʻlishini taʼminlaydi. Notiq ifodali, ravon, aniq va taʼsirchan nutq bilangina tinglovchilarning diqqatini tortadi, ularni ham madaniy nutq egasi qilib tarbiyalaydi. Nutqdagi nuqsonlar va kamchiliklar toʻgʻri talaffuz meyorlariga yetarlicha eʼtibor bermaslikdan kelib chiqadi. Nutqimiz taʼsirchan va qiziqarli chiqishi uchun nafas, ovoz, toʻgʻri talaffuz meyorlarini oʻzlashtirishimiz lozim. Buning uchun esa avvalo, qiziqish va oʻz ustimizda uzluksiz, tinimsiz ishlashimiz kerak. Zero, muayyan maqsad yoʻlida tinimsiz mehnat va mashq qilish, albatta oʻz samarasini beradi.

MAVZUNI MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOLVATOPSHIRIQLAR:

1. Ifodali oʻqishda nafasdan toʻgʻri foydalanishning ahamiyatini izohlang.
2. Ifodali oʻqishda talaffuzning ahamiyati qanday?
3. Tovushning asosiy xossalari, uning kuchi, tembri va baland-pastligi ovoz boylamlarining oʻzigagina bogʻliq emasligini dalillang.
4. Aniq, ravon nutq egallashda orfoepik bilimlarning oʻrni qanday?
5. “Ona tili milliy maʼnaviyat, maʼrifat va madaniyatning eng xolis va xira tortmas koʻzgusidir”, degan jumlaning qanday tushunasiz?
6. Ifodali oʻqish jarayonida ovoz ohangini uzluksiz oʻzgartirib borish qay darajada ahamiyati kasb etadi?
7. Nutqiy malaka va koʻnikmalarini muvaffaqiyatli egallash uchun qanday qoidalarga amal qilish lozim?
8. Nutqdagi nuqsonlar va kamchiliklarni bartaraf etishda toʻgʻri talaffuz meyorlariga eʼtibor berish zarurligini misollar asosida izohlang.

⁶² Kaykovus. Qobusnoma. - Toshkent: Oʻqituvchi, 1986. 45-bet.

IFODALI O‘QISH VOSITALARI

Reja:

1. Urg‘u va bo‘g‘in turlari. So‘z urg‘usi. Sintagma urg‘usi. Ayiruv urg‘usi. Emfatik urg‘u.
2. Pauza. Pauza turlari. Grammatik pauza. Nuqta qo‘yilgan o‘rinlarda pauza. So‘roq belgisi qo‘yilgan gaplarda pauza. Ifodali o‘qishda pauzaning ahamiyati.
3. Intonatsiya va intonatsion vositalar haqida.
4. Temp, nutq tempini belgilovchi vositalar.
5. Ritorik murojaat. Parallelizm. Anafora.
6. Ritm. Band ritmi. Alliteratsion ritm. Anafora ritm.

Tayanch so‘z va iboralar: Urg‘u, so‘z urg‘usi, mantiqiy urg‘u, pauza, grammatik pauza, mantiqiy pauza, psixologik pauza, tahlili jarayoni, so‘z, atamalarni o‘rinli qo‘llash, intonatsiya, intonatsion vositalar, temp, nutq tempi, tembr, ritm, band ritmi, ritm, mazmun, ohang, ritorik murojaat, parallelizm, anafora ritmi, alliteratsion ritm, misra, turoq, qofiya, ovoz, poetik fikr.

ADABIYOTLAR:

1. Mahmudov N. O‘qituvchi nutqi madaniyati. –T.: O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashr, 2007.
2. Jumaniyozov R. Nutqiy mahorat. -T.: Adolat nashriyoti, 2005.
3. Jamolxonov H. O‘zbek tilining nazariy fonetikasi. - Toshkent: Fan. 2009.
4. Bekmirzayev N. Notqlik san’ati asoslari.- Toshkent: O‘qituvchi, 2008.
5. Inomxo‘jayev S., A. Zunnunov. Ifodali o‘qish asoslari. - T.: O‘qituvchi, 1978.
6. Karimov N. XX asr adabiyoti manzaralari. - T.: O‘zbekiston, 2008.
7. Sitseron. Notqlik san’ati haqida ikki risola (U, Otajon tarjimasini). - T.: Yangi asr avlodi, 2007.
8. To‘xliyev B. Ifodali o‘qish. - Toshkent: Bayoz, 2008.
9. Cho‘lpon. Asarlar. 4 jildlik. J.I.-T: Akademiya nashr, 2016.-B.31.

1. Urg‘u va bo‘g‘in turlari. So‘z urg‘usi. Mantiqiy urg‘u. Emfatik urg‘u. Ifodali o‘qishning asosiy vositalaridan biri urg‘u bo‘lib, u ta’kidlash, alohida e’tibor qaratish uchun xizmat qiladi. Urg‘u so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz etishga, ma’noni to‘g‘ri va to‘liq anglashga yordam beradi. Ilmiy adabiyotlarda urg‘u leksik urg‘u, dinamik urg‘u, ritmik urg‘u, mantiqiy urg‘u, an’anaviy urg‘u, psixologik urg‘u kabi bir necha turga bo‘lib o‘rganiladi. Bu bo‘linish lingvistik jihatdan to‘g‘ri, ammo biz o‘quvchi-talabalarni ifodali o‘qishga o‘rgatish va ifodali o‘qishning nazariy masalalari haqida ma’lumot olishlarini osonlashtirish maqsadida urg‘uning uch turi xususida to‘xtalmoqchimiz:

1. So‘z urg‘usi.
2. Mantiqiy urg‘u.
3. Emfatik urg‘u.

So‘z urg‘usi. So‘z urg‘usi tushgan bo‘g‘indagi unli shu so‘zning boshqa bo‘g‘inlaridagi unii tovushlarga qaraganda kuchliroq, cho‘ziqroq talaffuz etiladi. So‘z urg‘usi lingvistik adabiyotlarda leksik urg‘u nomi bilan ham yuritiladi. O‘zbek tilida so‘z urg‘usi, asosan, so‘zning oxirgi bo‘g‘iniga tushadi. So‘zlarga qo‘shimchalar qo‘shila borishi bilan urg‘u ham ko‘cha boradi.

Masalan: bola, bolalar, bolalarga; ishchi, ishchilar, ishchilarga;

Bu hodisa ko‘proq turkiy tillarga, jumladan, o‘zbek tiliga ham xosdir.

Ammo, bundan o‘zbek tilida urg‘uning o‘rni o‘zgarmas ekan, degan xulosa chiqmaydi. O‘zbek tilida shunday so‘zlar ham borki, so‘z boshida kelgan urg‘u so‘nggi bo‘g‘inlarga tushmaydi. Masalan, qaysi, qanday, qancha.

Demak, o‘zbek tilida urg‘u so‘zning boshida, o‘rtasida va oxirida ham kelishi mumkin. Masalan,

- a) so‘z boshida: kelsin, kimdir, allakim, doim, barcha, hamma;
- b) so‘z o‘rtasida: bil’aks, albatta, mardlarcha, afsuski, yaxshigina, achchiqqina.

Mantiqiy urg‘u. Mantiqiy urg‘u matnda yashiringan bo‘ladi. Badiiy asarlarni ifodali o‘qishdan oldin yashiringan mantiqiy urg‘uni aniqlash uchun matnni bir necha marta o‘qib, muallif maqsadini tushunish, so‘ngra mantiqiy urg‘uli so‘zni aniqlash mumkin. Mantiqiy urg‘uni izlayotganda badiiy asardagi uyushib kelgan va ma’noni

kuchaytirish uchun qo‘llangan takroriy so‘zlarga, ergash gapdagi bir manzarani tasvirlovchi bir xil bo‘laklarga hamda ayrim ta’kidlovchi so‘zlarga alohida e’tibor berish zarur. Odatda mantiqiy urg‘udan keyin qisqa pauza qilinadi. Masalan,

Ey **Farg‘ona!**

Mushkul kunlar bolasini

Tishida **tishlab,**

yuvib,

tarab,

sevib,

o‘pib,

quchib,

opichib,

Ey baxtlarni balog‘atga yetkazgan **ona!** (H. Olimjon.)

Mantiqiy urg‘uning ahamiyati shundaki, u gapdagi asosiy fikrni aniqlaydi, oydinlashtiradi. Matnda esa maxsus belgi bilan ko‘rsatilmaydi. Og‘zaki nutqda mantiqiy urg‘u tushgan so‘z ovoznı balandlatish, pastlatish kabi vositalar bilan ajratilib talaffuz etilgani uchun tinglovchi diqqatini tez jalb qiladi.

Do‘stlar, mening yurtimni

O‘zbekiston, deydilar.

Dong‘i ketgan dunyoni

Bog‘u buston, deydilar. (Z. Diyor.)

Mantiqiy urg‘u gapdagi istalgan so‘zga tushishi mumkin. Masalan, Bahor quyoshining nurlari ko‘k dengizga sig‘may toshadi. (O.) Bu gapdagi so‘zlarning har biriga mantiqiy urg‘u berib o‘qish mumkin.

Masalan,

Bahor quyoshining nurlari ko‘k dengizga sig‘may toshadi.

Bahor ***quyoshining*** nurlari ko‘k dengizga sig‘may toshadi.

Bahor quyoshining ***nurlari*** ko‘k dengizga sig‘may toshadi.

Bahor quyoshining nurlari ***ko‘k*** dengizga sig‘may toshadi.

Bahor quyoshining nurlari ko‘k ***dengizga*** sig‘may toshadi.

Bahor quyoshining nurlari ko‘k dengizga ***sig‘may*** toshadi.

Bahor quyoshining nurlari ko‘k dengizga sig‘may ***toshadi.***

Emfatik urg‘u (emotsional urg‘u). “Urg‘uning bu turi ham biror gap bo‘lagini alohida ta’kidlashga asoslanadi, ammo mantiqiy urg‘uda

bo‘lakning (so‘zning) ma’no tomoni ta’kidlansa, emfatik urg‘uda shu ma’no bilan birga so‘zlovchining his-hayajoni, voqelikka bo‘lgan subyektiv munosabatini ifodalash ham maqsad qilinadi: bu urg‘u gapdagi so‘zning ta’sirchanligini kuchaytirishga xizmat qiladi”⁶³. Masalan: Eh, qanday go‘zal tog‘lardagi qip-qizil lola. Ushbu gapdagi qanday go‘zal birikmasiga emfatik urg‘u tushgan.

Men ham umid bilan safarga chiqib,
Uzoq manzillarga ko‘z tikkan jonman,
Birda Sirday toshib, birda tutoqib,
Katta yo‘lga chiqqan Kichik karvonman.

Anglashiladiki, olamga, odamlarga, dunyoning shevalariga shunchaki bir tomoshabin sifatida qaray olmagan shoir mazkur she’rida o‘zini she’riyat dunyosida umid bilan yo‘lga chiqqan karvonga o‘xshatadi.

2. Pauza. Pauza turlari. Grammatik pauza. Nuqta qo‘yilgan o‘rinlarda pauza. So‘roq belgisi qo‘yilgan gaplarda pauza. Ifodali o‘qishda pauzaning ahamiyati. Kishilar gapirish jarayonida ma’lum darajada qisqacha to‘xtab, nafas oladilar va o‘pkalarini qayga to‘ldirib, nutqini davom ettiradilar. Nutqdagi ana shunday to‘xtash, tinish yoki shunday kichik tanaffusga pauza deyiladi. “Pauza nutqimizning eng muhim elementi va uning asosiy vositalaridan biridir”, - deb ta’kidlaydi K. S. Stanislavskiy.

Badiiy asarlarni ifodali o‘qishda pauzaning o‘ziga xos o‘rni bo‘lib, u asarning janr xususiyati, mazmuni va sintaktik qurilishi bilan uzviy bog‘liq. Badiiy asarda pauza muallif fikrining tinglovchiga aniq va to‘liq yetib borishida katta yordam beradi. Pauza she’riy asarlarda aksariyat turoqlarga tushadi va his-hayajon bag‘ishlaydi. She’rdagi bayt yoki bandler asarning tugallangan bir bo‘lagi sifatida bir-biridan doimo pauza bilan ajraladi.

Masalan:

Ko‘m-ko‘k...

Ko‘m-ko‘k....

Ko‘m-ko‘k...

Mehnat sharaf va shon bo‘lgan vodiylar

Ko‘m-ko‘k... (H.Olimjon.)

⁶³Jamolxonov H. O‘zbek tilining nazariy fonetikasi. –T.: Fan, 2009.169-bet.

Pauzaning turlari haqida har xil fikrlar mavjud. Biz talabalarga tushunarli bo'lsin uchun uni uch turga bo'lib o'rganamiz:

1. Grammatik pauza.
2. Mantiqiy pauza.
3. Psixologik pauza.

Grammatik pauza. Badiiy asarlar ifodali o'qilganda tinish belgilarida qisqa pauza qilinadi. Bunday pauza grammatik pauza deb ataladi. O'zbek tilida quyidagi tinish belgilari ishlatiladi: nuqta (.), so'roq belgisi (?), undov belgisi (!), ko'p nuqta (...), vergul (,), nuqtali vergul (;), ikki nuqta (:), tire (-), qavs () va qo'shtirnoq ("").

Mantiqiy pauza. So'z guruhlarini bir-biridan ajratib, matn ma'nosini aniq va to'liq ifodalashga xizmat etuvchi pazuga mantiqiy (logik) pauza deyiladi. Mantiqiy pauza matnni kesib o'tgan to'g'ri chiziqcha (|) bilan belgilanadi. Masalan, (ertaga sahar paytda) juda uzoqdan bir maqomda guldiragan tovush (arang quloqqa chalindi), bu tovush (o'rmondagi shovur-shuvurlar orasidan) zo'rg'a eshitiladi.

Poeziyada mantiqiy pazalar asarning kompozitsiyasiga qarab ham belgilanadi. Masalan: Uyg'unning "Tong" she'ri ifodali o'qilganda quyidagicha mantiqiy pauza qilinadi:

Sahar chog'i... (|) kumush kabi shudringdan (|)

Sirg'a taqib (|) yaprog'iga bosh qoyib (|)

Gullar tunning quchog'ida mudraydi (|)

Titrab-titrab unda-bunda yulduzlar (|)

Shoshib-pishib yotog'iga ketgali, (|)

Dargohiga etgali (G')

Oltin shohi etgani sudraydi. (|)

Mantiqiy pauza ifodali o'qishning o'ziga xos eng muhim elementlaridan biri bo'lib, u faqatgina mantiq qonuniyatiga rioya qiliadi, lozim bo'lsa, tinish belgilarini ham mutlaqo inkor etadi.

Mantiqiy pauza gap mazmunini tubdan o'zgartirib yuborishi mumkin. Misol uchun quyidagi jummalarni ikki xil pauza bilan o'qib, ma'no o'zgarishiga e'tibor bering:

1. Yaramas (|) itday o'lib ketdi. (N.V.Gogol)

Yaramas itday (|) o'lib ketdi.

2. Aldasam (|) sizni yer yutsin.

Aldasam sizni (|) yer yutsin. ("Maysaraning ishi" dramasidan)

Psixologik pauza. Muallifning badiiy asarda yashiringan kuchli his-hayajonini psixologik pauza orqali ifodalash mumkin. Psixologik pauza o'quvchi va notiq nutqiga jonlilik kiritib, asarning ta'sirchanligini oshiradi. Psixologik pauza ikki chiziqcha (||) bilan belgilanadi. Masalan, quyidagi matndan psixologik pauza olgan o'rinlarni aniqlab ko'raylik:

– O'z qiblagohiga qilich ko'targan senday razil xunrezni (||) nechuk yer yutmaydi?! Nechuk osmon ag'darilib (||) boshingga tushmaydi?! - Abdulaziz taqir boshi sarak-sarak qilib, ko'zlari sovuq chaqnab, yaqinlashib kelardi. Abdullatif devorga suyanganicha qilichini ko'tardi, lekin Abdulaziz to'xtamadi, u hamon iyagi qaltirab, tishlari shaqillab yaqinlashib kelardi. - mehribon, buzrukvorim!... (||) Ne qilding uni? (||) Ne qilding, mal'un padarkush?!... – Abdulazizning ko'zlaridan tirqirib oqqan yosh tomchilari qorayib ketgan so'lg'in yuzini selday yuvib, taralmay patak bo'lib ketgan soqoliga quyilardi. (Odil Yoqubov. "Ulug'bek xazinası")

Asar voqealarining bunday shiddatli tus olgan o'rinlarini tinch va sekin ohangda, bir tekis o'qib bo'lmaydi. Ifodali o'qish jarayonida qahramonning bunday junbushga kelgan ruhiy holatini, ro'y bergan fojeali voqeani ovozni ko'tarish, ritorik so'roq olgan o'rinlarni bo'lib-bo'lib o'qish va psixologik pauzalar orqaligina aks ettirish mumkin. Shunday ekan, psixologik pauza ijrochi nutqiga ta'sirchanlik bag'ishlaydi, eshituvchilarni zavqlantiradi va hayajonga soladi:

Faxr etarman, (||) ona xalqim,
Ko'kragimni tog' qilib, (||)
Ko'kragida tog' ko'targan (||)
Tanti dehqon (||) o'zbegin...

O'zbegin (||) deb keng jahonga
Ne uchun madh etmayin! (||)
O'zligim bilmoqqa davrim (||)
Berdi imkon, (||) o'zbegin.⁶⁴

Badiiy asarning o'xshatish, sifatlash, mubolag'a, istiora va boshqa tasviriy ifoda vositalari qo'llangan o'rinlarda psixologik pauza muhim rol egallaydi. Demak, psixologik pauza notiq nutqiga jonlilik kiritib,

⁶⁴ Erkin Vohidov. Saylanma. Birinchi jild. Ishq savdosi. – Toshkent: Sharq, 2000.107-bet.

badiiy asarning ta'sirchanligini oshiradi. Psixologik pauza badiiy asarlarni ifodali o'qishda personaj xarakteri, tasvirlanayotgan voqealar rivojining eng keskin, hayajonli tus olgan o'rnini yoritishda muhim o'rin tutadi.

Pauza ifodali o'qishda eng muhim vosita bo'lib, u nutqning yorqin va ta'sirchan chiqishini ta'minlaydi. Zero, to'xtovsiz, nafas olmay uzluksiz qilinadigan nutq qo'pol va nazokatsiz bo'lib tuyuladi, chunki insonning eshitish qobiliyatida meyor tuyg'usi mavjuddir. Har bir narsa yoki hodisada meyor bo'lganidek, nutqning ham o'z meyori va maromi mavjud. Notiq nutqining ta'siri pauzadan amalda to'la va o'rinli qo'llay bilishiga ham bog'liq. Taniqli notiqning ko'pchiligi muhim fikrlar oldidan va undan so'ng pauza qilish, ya'ni jim turish qoidasiga jiddiy rioya qilishgan. Chunki, asosiy fikr tinglovchilar ongiga aniq va to'liq yetib borishi uchun bu usuldan foydalanish samarali hisoblangan⁶⁵. Ta'kidlanishicha, nutqda so'z va jimlikning (pauza) o'rni galma-galdan almashinib turishi kerak. Jim turish so'z va jumlaning tuzilishiga vaqt ajratish demakdir. Jim turishda auditoriyaning sizning fikrlaringizga berayotgan bahosini anglaysiz. Ammo to'g'ri kelgan joyda tinimsiz jimlik ham yarashmaydi. Jimlik auditoriyadan javob kutayotgan paytingizda kerak. Demak, nutq jarayonida so'zlarning ketma-ket oqimi davomida ma'lum bir bo'laklardan keyin to'xtab tin olish, nutqning bir meyorda bo'lishiga, ravon va yoqimli kechishiga xizmat qiladi.

Pauza asarning janr xususiyati, mazmuni va sintaktik qurilishi bilan uzviy bog'liq bo'lgan hodisadir. Ayniqsa, she'rdagi bayt yoki bandlar she'riyatning tugallangan bir bo'lagi sifatida doimo pauza bilan bir-biridan ajraladi. Pauza she'riy asarlarda misralar orasidagi turoqlarning oxiriga tushadi, ayrim so'z yoki so'z birikmalarini bo'rttiradi, ularning ma'no va ahamiyatini ta'kidlaydi, she'riy nutqqa his-hayajon bag'ishlaydi.

Yoqimli va jarangdor ovozga ega notiq o'z tinglovchilarini she'riy nutqqa xos pauza bilan ham asir etadi. Bunday muvaffaqiyatga erishish uchun notiq pauza va uning turlari haqida nazariy asoslarini bilishi zurur. Lozim bo'lganda undan foydalana bilish malakasiga ham ega bo'lishi kerak. Ifodali o'qishda kamchilik sezgan notiq uni

⁶⁵Karnegi D. Nutq so'zlash san'ati.-Toshkent: Adabiyot uchqunlari, 2018.

yo‘qotishga harakat qiladi. Buning uchun pauzadan foydalanish va o‘qish texnikasi ustida hamma vaqt uzluksiz mashq qilib borishi lozim bo‘ladi. Erkin Vohidov qalamiga mansub ushbu she‘riy asar o‘qish texnikasiga asoslanib ijro etilganda o‘quvchilar qalbini to‘liqroq egallaydi, xotiralarida hamishalikka qoladi:

Yurt, sen yolg‘iz tuproq, makon emassan,
Yomilliy tarona, tug‘ro yo bayroq.
Ispaniya, seni ona demasman,
Sen jallod qo‘lida bo‘lsang o‘yinchoq.

Yo‘q, rozi emasman, men uchun Qaysar
Qaysardur, hech qachon demasman ollo.
Qolmasin mendan bir nom-nishon, asar,
Bo‘lganimdan ko‘ra qo‘g‘irchoq daho.

Yo‘q, rozi emasman, siz bilan hech vaqt
Bahs qilib masala talashmayman ham.
Sizning qurolingiz g‘azab va hasad,
Siz – bo‘ri zotidan, men esam odam.

So‘z aytmoqqa sizga emasman rozi,
Chunki so‘zingizda yo‘qdir haqiqat.
Sizning gapingizni eshitmok o‘zi
Siz bilan barobar qilmoq jinoyat.

Bu zahar havodan olmasman nafas,
Yo‘q, rozi emasman zaqqum falakdan.
Zamon g‘alvirida adolat bo‘lmas,
U farq qila bilmas donni kepakdan.

Zolimlar, siz uchun naqadar lazzat
Shu lahza! Jismimni tark etar jonim.
Hayotimga nuqta qo‘ydim endi, bas,
Bozorga solmasin hech kimsa shonim.⁶⁶

⁶⁶Erkin Vohidov. Saylanma. Birinchi jild. Ishq savdosi. – Toshkent: Sharq, 2000.152-153-betlar.

3. Intonatsiya va intonatsion vositalar haqida. Ma'lumki, nutq inson tafakkuri mahsulidir. Kishi fikri yoki maqsadini ikkinchi bir kishiga so'zlar vositasida yetkazib, o'zaro fikr almashadi, aloqada bo'ladi va kayfiyatini ifoda etadi. Fikr-tuyg'ular, maqsad-intilishlar, his-hayajonlar boshqalarga ovoz tovlanishi – ohang orqali ham etib boradi. Muayyan istak, niyat, intilish, harakat natijasida yuzaga keluvchi ana shu ovoz tovlanishlariga intonatsiya deyiladi. Sitseron nutq jarayonida ohang eng muhim va eng ta'sirchan vosita ekanligini ta'kidlab bunday deydi: Shunday nutq ohangi tanlanishi zarurki, u tinglovchilarning e'tiborlarini o'ziga jalb etib tursin va u nafaqat huzurbaxsh, balki jonga tegmaydigan, ko'ngil qolmaydigan huzurbaxsh bo'lsin"⁶⁷.

Intonatsiya (lat. Intonate-qattiq talaffuz etish) – ohang – badiiy asar bilan birga tug'iladi. Badiiy asar matnida intonatsiya turli tinish belgilari, she'riy asarlarda misralarning joylashishiga qarab belgilanadi, shuningdek, u asar mazmuni, muallif maqsadi, fikr-tuyg'usi va kayfiyatidan tabiiy ravishda kelib chiqadi. Uni ilg'ash – asardagi har bir so'z va gap asosida yotgan mazmunni to'g'ri anglash uchun, albatta, uning ohangini sezish talab qilinadi. Uni sezishda asarda ishlatilgan turli tinish belgilari (nuqta, vergul, tire, so'roq, undov, qo'shnuqta, nuqtali vergul kabi), misralarning joylashishi, turoqlanishi, qofiyalanishi (she'riy asarlarda), muallif remarkalari (dramatik asarlarda) yordamga keladi. Ular ovozning pasaytirishi, ko'tarilishi, so'nishi, tez yoki sekinlashishini, turfa xil tembrini anglatadilar. Mazmun va ohang yuzaga chiqqanidagina-asarning emotsional ta'siri beqiyos bo'ladi, g'oyasi ko'zlangan nuqtani zabt etadi. Masalan, Mirtemirning "Qoraqalpoq daftari" turkumidagi "Yengajon" hazil she'rini tinglaylik:

- Yengajon, – dedim.
- Qaynim-ov, – dedi.
- Berroq kel, – dedim.
- Aynim-ov, - dedi.

Davra quvnoq edi, suhbat sho'x edi,
Ko'ngilda zarra ham g'ubor yo'q edi.
Yoshlik esga tushdi, avjida hazil,

⁶⁷Sitseron. Notiqlik san'ati haqida ikki risola (U, Otajon tarjimas). - T.: Yangi asr avlodi, 2007, 282-bet.

Hazilga ko‘p qulay edi bu manzil.

Ko‘z tikib, oh chekib: - Yengajon, – dedim.

– Berroq kel, sadag‘a senga jon, – dedi.

– Qaynimsan, inimsan, qaynim-ov, – dedi.

– Esi past boladay aynim-ov, - dedi.

Birinchi banddagi ohang – chorlashga, hazillashishga ishtiyoqni uyg‘otuvchi ruhga o‘rangan bo‘lsa, ikkinchi banddagi ohang – zalvorli, samimiy tushuntiruvchi va yanada tasvirning zo‘rayishiga imkoniyat tug‘diruvchi xabar kuyini o‘zida jamlaydi. Uchinchi bandda ohang – balandlashadi, tezlashadi va ayni paytda, yoshlikning va bosiqlikning ma‘nosi-mohiyatini qayin va yenganing beg‘ubor qalbini, qaroqalpoqona hazilning milliy poeziyasini ko‘z-ko‘z qiladi.

Badiiy asarlarda intonatsiyaning savol, xitob, darak, kinoya, g‘azab, ta‘kid kabi turli his-tuyg‘ularni ifodalaydigan ko‘rinishlaridan foydalaniladi. Ijodkorlar ko‘pincha nutqning emotsional ta‘sirchanligini yanada oshirish uchun xitob, undov va so‘roq mazmunini ifodalaydigan intonatsion-sintaktik gap qurilishlaridan foydalanadilar. Shuning uchun bunday nutq emotsional-ritorik intonatsiyali nutq hisoblanadi. Agar jonli nutqda qo‘yilgan so‘roqlarga notiqning o‘zi javob bersa, badiiy nutqda emotsional-ritorik so‘roqlarga hech kim javob bermaydi. Shoir ritorik so‘roq va ritorik undovdan hayajonli intonatsiya yaratish uchun foydalanadi. Bu turdagi asarlarni ifodali o‘qish ijrochidan puxta tayyorgarlik va aktyorlik mahoratini ham talab qiladi.

Intonatsiyani yuzaga keltiruvchi vositalardan biri inversiyadir. Inversiya – (lot.Inversid – o‘rin almashtirish)da ijodkor xohishi (g‘oyasi)ga ko‘ra ta‘kidlamoqchi bo‘lgan fikrni ta‘sirdor qilmoq maqsadida grammatik qoidalardan chekinadi va kitobxonni aynan shu fikr (so‘z)ga diqqatini tortadi:

Aytarlar bu tunda yorug‘ sham yonmas,

Chaqmasa gugurtni asl o‘g‘illar...

Cho‘lponning bu satrlari grammatika qonuniga binoan shunday tarzda bo‘lishi lozim: “Asl o‘g‘illar” gugurtni chaqmasalar, bu tunda yorug‘ sham yonmasligini aytardilar: Bunday holda she‘riy nutq o‘ladi, ta‘sirdorlik, chaqiriq, ifodalilik yuzaga kelmaydi, oddiy xabar, bayon tug‘iladi.

Intonatsiyani yuzaga keltiruvchi badiiy vositalardan yana biri takror san'atidir. Badiiy asarda bir soʻz yoki bir necha soʻz, baʼzan esa butun bir satr takrorlanadi. Bu usul maʼlum bir fikr va tuygʻuni yorqin ifodalash bilan birga, taʼsirni kuchaytirish va intonatsiyani boʻrttirib koʻrsatishga xizmat qiladi. Masalan, Botu ijodiy olamida takrorlar oʻziga xos badiiyatga egaligini kuzatish mumkin. Oʻz davrida Fitratning nazariga tushib, badiiy jihatdan yuksak baholangan mashhur “Soʻrma” sheʼrining ham dastlabki toʻrt qatori soʻrma soʻzining takrori bilan boshlanadi. Ushbu soʻzning takror qoʻllanishi shoir ichidagi dardning yuki nihoyatda ogʻir ekani, bu yuk uning ichu tashini, yaʼni koʻzu yuzi, koʻngliyu, xayolini ezayotganini yanada yorqin ifodalashga xizmat qilgan. Natijada, sheʼrning badiiy ruhi kuchayib, fikr taʼsirchanligiga erishilgan:

Soʻrma, oʻrtoq, koʻzlarimda oʻtli yosh qaynashganin,
Soʻrma, hech bir yuzlarimda qaygʻular oʻrnashganin,
Soʻrma, bu majnun koʻngilning dard ichida yonganin,
Soʻrma, bu mahzun xayolning qay ochunʼda yurganin. ⁶⁸

Taʼkidlash kerakki, sheʼriy matnlarda takrorlarning qoʻllanish oʻrni oʻziga xos boʻlib, ular, odatda, gorizontaal va vertikal holatda qoʻllanadi. Bu esa goʻzal ohangdorlikni yuzaga keltiradi. Yuqoridagi misolda soʻrma soʻzi qoʻllanish oʻrniga koʻra vertikal takror hisoblanadi. Yana bir misol:

Kuchli yel yurdi,
 Naʼralar urdi:
 Uv,
 Uv,
 Uv

Oʻtni oʻt quvdi,
 Guldirash yurdi:
 Guv,
 Guv,
 Guv. ⁶⁹

⁶⁸ Botu. Tanlangan asarlar (nashrga tayyorlovchilar N.Karimov, Sh.Turdiyev). -T.: Sharq, 2004. -33-b.

⁶⁹ Botu. Tanlangan asarlar (nashrga tayyorlovchilar N.Karimov, Sh.Turdiyev). -T.: Sharq, 2004. -190-b.

Takrorlarga boy bo'lgan mazkur she'rda uv, guv taqlid so'zlari takrori vertikal takrorning go'zal namunasi. Bunda takrori davomiy qo'llash orqali yel (shamol) hamda guldirash (momaqaldiraq) ovozi jonli, obrazli tasvirlanishiga erishilgan.

4.Temp, nutq tempini belgilovchi vositalar. Badiiy adabiyot hayotni aks ettirar ekan, unda ham temp va ritm saqlanadi. Bu yozuvda tinish belgilari orqali ifodalanadi. Badiiy adabiyotda temp va ritm asarning g'oyaviy-estetik mohiyatini ochishga xizmat qiladi, nutqning emosional ta'sirchanlligini kuchaytiradi, estetik zavq uyg'otadi. Demak, temp va ritm ifodali o'qishda muhim ahamiyat kasb etadi. Har qanday asarda o'ziga xos temp va ritm yashiringan bo'ladi. Shuning uchun o'quvchi to'g'ridan-to'g'ri ifodali o'qishga kirishmasdan, avval asar bilan puxta tanishib chiqishi zarur. So'ngra, asarning temp va ritmi o'zgaradigan yerlarini qalam bilan belgilab olgach, ifodali o'qishga kirishsa, asar mazmuni, muallif maqsadi tinglovchiga to'liq etib boradi.

Temp lotincha (tempus) so'zidan olingan bo'lib, sur'at, daraja, vaqt degan ma'nolarini anglatadi. Temp – ifodali o'qishning his-hayajon jihatdan instensivligi, uning iztirobli, hayajonli nafasidir. Instensivlik – o'qish tempi deganda o'qish sur'ati, o'qish tezligi tushuniladi. “Bunday tezlik gap tarkibidagi tovushlar talaffuziga sarflangan vaqt bilan belgilanadi. Bunday vaqt gap bo'laklari, ularning o'ri, gapning turi, situatsiya kabi omillar ta'sirida har xil bo'ladi. Masalan, darak gaplarda gap boshida kelgan ega talaffuzida temp sekinroq bo'ladi, bu temp kesim tarkibida tezlashadi. Agarda ega mantiqiy urg'u olsa, uning talaffuzida temp kuchayadi. So'roq gapda eganing talaffuzidagi tezlik darak gapdagi eganikidan bir oz ortiq bo'ladi, kesim talaffuzidagi tezlik esa nisbatan kamayadi. Buyruq gaplarda temp gap oxiriga tomon tezlashib boradi, ammo oxirgi so'z talaffuzidagi tezlik keskin pasayadi”⁷⁰.

Asarda temp qahramonlarning ichki kechinmalari, his-hayajon, voqealar rivojlanishining keskinligi darajasiga ko'ra o'zgarib turadi. Nutq sur'atining tezlashishi yoki sekinlashishi, so'roq va undov shakllarining kiritilishi badiiy nutq ruhini o'zgartirib turadi, so'zning ma'nosi bilan bog'liq holda, uning ifodaviyligini kuchaytiradi.

⁷⁰ Jamolxonov H. O'zbek tilining nazariy fonetikasi. - Toshkent: Fan. 2009. 171-bet.

Ifodali o'qish jarayonida tempni ko'tarish hovliqish degan gap emas, aksincha jonlantirish demakdir. Cho'lponning eng mashhur she'rlaridan biri "Go'zal" bo'lib, unda ayol nafosati baland ohanglarda kuylanadi. Unda lirik qahramon ma'shuqasi haqida eng yorug' yulduzdan, oydan so'raganida, ular tushlarida ko'rganini aytishadi. Lirik qahramon nihoyat sevgilisini tongda esgan shamoldan so'raydi va u ham bir ko'rib, yo'ldan ozganini aytadi. Shunda qahramon qo'li yetmas sohibjamolni sevib qolganini sezadi, lekin uning go'zalligidan fahrlanadi:

Men yo'qsil, na bo'lib uni suyibmen,
Uningchun yonibmen, yonib-kuyibmen,
Boshimni zo'r ishga berib qo'yibmen,
Men suyib... men suyib, kimni suyibmen?
Men suygan "suyukli" shunchalar go'zal,
Oydan-da go'zaldir, kundan-da go'zal! ⁷¹

Shoir noma'lum bo'lgan dilbarning jamolini shunchalar badiiy mahorat bilan tasvirlaydiki, ko'z oldingizda oy va yulduzdan ham go'zal qiz qanday bo'larkin deya o'yg'a botasiz. Shuningdek, she'rdagi so'zlarning ohangdorligidan xuddi qo'shiq kuylayotgandek bo'lasiz. Bu Cho'lponning so'z tanlashdagi mahoratidan dalolat beradi.

Agar biror harakat ma'lum bir vaqt meyorida bajarilsa, tempni ko'tarish o'sha vaqtni bir oz qisqartirishga olib keladi, natijada yashash (kechinma)ni ham, shu orada aytiladigan so'zni ham bir oz tezlashtirib, qisqartirilgan vaqt miqyosiga joylashtirishga to'g'ri keladi.

Agar ifodali o'qish jarayonida temp inobatga olinmasa, nutq so'lg'in, jonsiz bo'lib, ta'sir kuchi pasayadi. Bunga G'afur G'ulomning "Sen yetim emassan" she'ridan olingan quyidagi parcha yaxshi misol bo'la oladi.

Nega cho'chib tushding?
Murg'ak tasavvur.
Go'dak xayolingga
Nimalar keldi?

Shunday qilib, nutq tempi asar mazmuni va muallif maqsadiga ko'ra goh pasayadi, goh ko'tariladi.

⁷¹ Cho'lpon. Asarlar. 4 jildlik. J.I.-T: Akademyashr, 2016.-B.31.

5. Ritorik murojaat. Parallelizm. Anafora. Ritorik (gr.rhetor-notiq) murojaat (ritorik nido, ritorik xitob, ritorik g‘azab, ritorik undov va h.) – poetik figuralardan biri bo‘lib, unda personajlarning quvonch, hayrat, nafrat, iltimos, buyruq kabi yuzlab hissyotlarining ko‘tarinki, tantanali, kulguli, kesatqli, g‘azabli (g‘oyaning talabiga mos tarzidagi) ifodasidir.

Ayt, ey, xasta bulbulim,
O‘shga qachon yetamiz?
Yashil bog‘lar sarg‘ardi,
Mag‘iz bo‘ldi gujumlar.
Oh, voy, muncha yo‘l og‘ir
Bulbulim... Abadiyat oralab
O‘shga qachon yetamiz?

Shavkat Rahmon(1950-1996)ning o‘lim to‘shagida aytib turib yozdirgan ushbu so‘nggi she‘rida orziqish, sog‘inish nidosi bo‘rtib ko‘zga tashlanadi, “xasta bulbul”ning abadiyat oralabgina O‘shga yetishini – o‘lmasligini jo‘mardlik bilan ifoda eta olgan. Bu shoir dahosining, inson ruhining – Shavkat Rahmon qismatining yaratuvchan qudratidir.

Nutq tovushlarining evfoniya (ing. euphony – yaxshi ovoz), ya’ni ohangdosh va ohangdorligi asarda shunchalik zarurki, u tufayli ritm izchillashadi, poetik fikr latiflik (yoqimlilik) kasb etadi, hissiy ta’sirni kuchaytiradi. Nutq tovushlarining takrori orqali so‘zlar ohangdoshligi, so‘zlar ohangdoshligi orqali misralar ohangdoshligi voqe bo‘ladi; ohangdoshlik, pirovardida, zaruriy musiqiylikni yuzaga keltiradi. Poetik fonikaning unsurlaridan biri alliteratsiyadir.

Ritorik so‘roq – “poetik fikrni so‘roq shaklida tasdiqlash”dir, ya’ni so‘roqning o‘zida javob ham mujassamlashgan bo‘ladi; faqat fikr yorqinlashib, terinlashib qirralarining ham oshkor etib – estetik ta’sirdorlikni yuzaga keltiradi. Jumladan, “Naxshon”(U. Nosir)da, uning Ashotni sevib qolgani xuddi shu dilbar vosita orqali tasdiqlanadi (tasvirlanadi); to‘g‘rirog‘i shoir mahorati tufayli u dilbar vositaga aylanadi:

Ne bu?
Nega yurak hal-hal ezildi?
Nega, nega kabi
Chil-chil sindi dil?

*Ne bu?
Nenga nuri kiprikni so‘zdi?
Nega o‘z-o‘zidan
So‘z yo‘qotdi til?
Suqim oqib ketdi
Go‘yo poyida.
Lablarim ham ajib
Qaltirab turdi.
Ko‘kragimda xuddi
Bir balo yurdi...
Qanday sevgi ekan,
O‘ychan aylandi?*

Parallelizm (gr.parallelos-yonma-yon boruvchi) – ikki yoki undan ortiq hodisa, narsa, predmet kabilarni yonma-yon tasvirlash (zidlashtirish, qiyoslashtirish, muqoyasalashtirish) orqali-asardagi poetik fikr(g‘oya)ni konkretlashtirish, uning ta’sirchanligini kuchaytirish vositasidir. Mirtemirning yosh qalamkashlarga atagan “Kipriklarim” she’ri buning misoli bo‘la oladi:

*Kipriklarim qo‘ng‘irmikan yo qora?
Kipriklarim yuztamikin yo ming?
Kipriklarim muncha aziz va sara,
Ko‘zginamning kiprikleri...
Quyunlarda qolganimda, changga o‘ralganimda,
Ohangaron to‘zonidek zanj qoralganimda,
Yoki yaxshi timsol izlab, changday taralganimda,
Yoki bir she’r armonida yuz bir ko‘rolganimda,
O‘zbekiston tonglarini bedor kutgan ko‘zlarim,
Tengsiz tonglar falsafasin tashna yutgan ko‘zarim
Ko‘zlarimga chegarada shay askarday qo‘riqchi,
Ko‘zlarimga olis Bobur g‘ussasiday yo‘riqchi,
Ey, aziz kipriklarim.
Sergaklikda tiriklarning siz-ku eng tiriklari...
Kiprigimday azizlarim, nechog‘li ham suyuksiz,
Armonimday buyuksiz.*

6. Ritm. Band ritmi. Alliteratsion ritm. Anafora ritm. Ritm grekcha (trutmos- ritmos) so‘zidan olingan bo‘lib, vazndosh, ohangdosh degan ma’nolarni anglatadi. Ritm ifodali o‘qishda katta

o‘rin tutadi. Badiiy adabiyotda, ayniqsa, she‘riyatda misradagi kichik bo‘laklarning bir-biriga monand ravishda takrorlanib kelishi ritmni hosil qiladi. Masalan, barmoq sistemasidagi she‘rlarda ritm turoq, qofiya, radiflar yordamida va misralardagi hijolarning bir tekisda takrorlanishidan maydonga keladi. Aruz sistemasiga mansub she‘rlarda esa ritm cho‘ziq va qisqa hijolarning bir xil tartibda takrorlanishidan hosil bo‘ladi. Erkin she‘rlarda har bir satr zinapoya bo‘laklarga bo‘lib yoziladi va ularni ifodali o‘qiganda mazmunga qarab, ritm saqlanadi. Poeziyada ritmni bir necha ichki turlarga bo‘lib ko‘rsatish mumkin. Masalan, bind (strofa) ritmi, alliterasion ritm, anafora ritmi, intonasion ritm, ijrochilik pauzalariga bog‘liq bo‘lgan ritmlar va boshqalar.

Band ritmi. O‘zbek poeziyasida band qurilishi bilan bog‘liq ritm band ritmi deb ataladi. Band mazmunning shartli tugalligi bilan farqlanuvchi she‘r misralari yig‘indisidan iborat bo‘lib, u poetik fikr, ritm jihatidan tugal bo‘lgan va qofiya tartibi bilan birlashgan she‘riy bo‘laklardan tashkil topadi. She‘r bandlarining qofiyalanish tartibi har xil bo‘lib, ular o‘ziga xos ritm hosil qiladi.

Anafora ritmi – poetik asarlarning misralari boshida yoki prozaik asarlardagi gaplarning oxirida bir xil tovush, ohangdosh so‘z yoki iboralarning takrorlanib kelishidan hosil bo‘ladi. Masalan,

<i>Kimsa necha zebu tama'din yiroq,</i>	- a
<i>Zimnida osoyish erur yaxshiroq.</i>	- a
<i>Gavharu dumi quloq ozori bil,</i>	- b
<i>So'zni quloqning durri shahvori bil.</i>	- b
<i>Oltun isirg'aki qulog' og'ritur,</i>	- v
<i>Zarhal yetukdurki, ayog' og'ritur.</i>	- v
<i>Nukta durrin, bil, qulog' oroyishi,</i>	- g
<i>Keng yetuk o'ldi oyoq osoyishi...</i>	- g
<i>Murabba': Ko'rmay yuzini devona bo'ldum,</i>	- a
<i>Xalqi jahondin begona bo'ldum.</i>	- a
<i>Yuz dardu g'amg'a hamxona bo'ldum,</i>	- a
<i>Ey bod, yetkur yora salomim.</i>	- b
<i>Yordin judo men o'lguncha bo'ldum,</i>	- v
<i>Qonlami yutdum, hasratga to'ldum.</i>	- v
<i>Dardi g'amingdin, vallohki, o'ldum,</i>	- v
<i>Ey bod, yetkur yora salomim.</i>	- b

(Mashrab)

Alliteratsiya (lotin. littera-harf) nutqda tovushlarning bir-biriga ohangdosh bo‘lish hodisasi, ya’ni harflar – tovushlar takroriga asoslangan badiiy san’atdir. She’rda bir xildagi ohangdosh tovushlarning takrorlanishi natijasida alliteratsion ritm hosil bo‘ladi va badiiy nutqning intonatsion ifodaviyligini kuchaytiradi. Alliteratsiya ikki xil ko‘rinishga ega:

1. Misra tarkibidagi unli tovushlarning ohang jihatidan o‘zaro mosligi – vokal alliteratsiyani yuzaga chiqaradi:

O‘tar dunyoni o‘tarini o‘yladi

Tanqa tashlab Olatog‘ni yoyladi. (“Alpomish”)

2. Misra tarkibidagi undosh tovushlarning ohang jihatidan o‘zaro mosligi – konsonant alliteratsiyani bunyod etadi:

Sochilgan sochingdek sochilsa siring

Anor yuzlaringni kimga tutasan.

“**Q**” tovushining takroriga asoslangan she’rlarga misol:

Qaro qoshing, qalam qoshing, qiyiq qayrilma qoshing, qiz.

Qilur qatlima qasd, qayrab qilich qotil qaroshing, qiz.

Qafasda qalb qushin qiynab, qanot qoqmoqqa qo‘ymaysan,

Qarab qo‘ygin qiyo, qalbmni qizdirsin quyoshing, qiz.

(E.Vohidov)

“**Yo**” tovushining takroriga misol:

Yomon – yomon,

Yolvortirgan yor yomon,

Yog‘ib yotgan yozdagi yomg‘ir yomon.

Yog‘iy – yomon,

Yonboshida yoyi yomon,

Yosuman yolg‘on yomon,

Yovuz yomon.

Yorni yodlab yonog‘idan yoshi – yo

Yoqasiga, yostig‘iga yog‘sa yomon.

Yozug‘ikim,

Yondirib yoronlarin,

Yoriga yolchimagan yolg‘iz yomon... (“Yomon”. Malik Egamov)

Anafora ritmi. Anafora – she’riy misralarning boshida bir xil so‘z va iboralarining, tovushlarning takrorlanib kelishidan hosil bo‘ladi.

Olamning chirog‘i – Quyosh bor bo‘lsin,

Oy, yulduzlar doim unga yor bo‘lsin,

Olam uzra ziyo barqaror bo'lsin,

Chiroq yoniq tursin,

Chiroq yoniq tursin

Ziyo bo'lsin doim yuragimizda,

Ziyo bo'lsin doim qarog'imizda,

Ziyo pilik bo'lsin chirog'imizda,

Chiroq yoniq tursin,

Chiroq yoniq tursin.

Chiroq – davlat emas, shukuh muruvvat,

Chiroq – g'aflat emas, bedorlik, da'vat,

Chiroq – nafrat emas, mehr-muhabbat,

Chiroq yoniq tursin,

Chiroq yoniq tursin.

Insonning qo'lida chirog'i bo'lsin,

Insonning dilida chirog'i bo'lsin,

Insonning yo'lida chirog'i bo'lsin,

Chiroq yoniq tursin,

Chiroq yoniq tursin.

She'rdan anafora san'atining qo'llanilishi ritmik ohangdorlikni yuzaga keltirish barobarida lirik qahramonning jo'shqin tuyg'ularini obrazli ifodalashda ham muhim vosita bo'lgan.

Xulosa qilib aytganda, bu vositalarning obrazlilik, emotsional-ekspressivligi (hissiy-ta'sirchanligi) – ularning estetik ta'sirini voqe qiladi. Bu ta'sirni yuzaga chiqarish uchun so'z san'atkorlari tildagi gap bo'laklari tartibi qoidalaridan chekinadi, ayrim so'z, iboralarni qayta-qayta va turli-tuman o'rinlarda takrorlaydi, jonsiz narsaga jonliday murojat qiladi, poetik mazmun talabidan kelib chiqib, so'zlardan yangi so'z ijod qiladi.

MAVZUNI MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOLVATOPSHIRIQLAR:

1. Ifodali o'qishda urg'uning qanday ahamiyati bor?
2. So'z urg'usining o'ziga xos xususiyatini izohlang.
3. Matndagi mantiqiy urg'u olgan so'z qanday aniqlanadi?
4. Emfatik urg'u deganda nimani tushunasiz?

5. Pauza va uning turlari haqida soʻzlang.
6. Ogʻzaki nutqda grammatik pauzaning qanday ahamiyati bor?
7. Mantiqiy pauza deganda nimani tushunasiz?
8. Psixologik pauzaning oʻziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
9. Ifodali oʻqishda pauzaning ahamiyatini misollar asosida izohlang.
10. Intonatsiyaning uslubiy imkoniyatlariga misollar keltiring.
11. Ritorik murojaat, parallelizm va anafora haqida maʼlumot bering.
12. Temp nima? Oʻqish tempi deganda nimani tushunasiz?
13. Nutq tempini belgilashda nimalarga eʼtibor berish lozim?
14. Ritm deganda nimani tushunasiz? Ritmning turlarini izohlang.
15. Nasriy asarlarda ham ritm mavjudmi?

EPIK, LIRIK VA DRAMATIK ASARLARDA MAROM VA OHANG.

Reja:

1. Epik ijod namunalarini ifodali oʻqish jarayonida notiqlikka xos marom, ohang, urgʻu, talaffuz va ifodaning muhim retseptiv vazifa bajarishi.
2. Lirik janrlar asosida marom (ritm) va ohang turishi, voiz nutqida ham marom va ohang ishtirokiga alohida eʼtibor qaratilishi.
3. Ritor tanlagan mavzuga qarab lirik janrlarga xos tez, sekin, yuqori yoki past ohanglarning oʻrin almashinib turishi.
4. Sheʼr vaznlariga xos marom, nutq materiali semantikasiga bevosita taʼsir etishi.
5. Dramatik asarda marom va ohangning yetakchi mavqeda turishi.
6. Dialog va monolog nutq talqinida notiqlik sanʼatiga xos marom oʻzgarishlarining muqarrarliligi.

Tayanch soʻz va iboralar: Epik ijod, lirik janrlar, dramaturgiya, dramatik asar, remarka, marom, ohang, tahlili jarayoni, oʻqish-oʻqitishda nutq madaniyati, soʻz va atamalarni oʻrinli qoʻllash, muallif, obraz, personaj, ommaviy maʼruzalarda madaniy nutq belgilari, tahlili jarayoni, nutqning ifoda shakllari.

ADABIYOTLAR:

1. Mahmudov N. O'qituvchi nutqi madaniyati. –T.: O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashr, 2007.
2. To'xliyev B. Ifodali o'qish. - Toshkent: Bayoz, 2008.
3. Jumaniyozov R. Nutqiy mahorat. -T.: Adolat nashriyoti, 2005.
4. Bekmirzayev N. Notqlik san'ati asoslari. –T.: O'qituvchi, 2008.
5. Karnegi D. Nutq so'zlash san'ati.-Toshkent: Adabiyot uchqunlari, 2018.
6. Islomov U. Alisher Navoiy asarlarida nutq madaniyati talqini. Avtoref.diss.-T: 2011.
7. Yo'ldoshev Q. Yoniq so'z. - T.: Yangi asr avlodi, 2006.
8. Sitseron. Notqlik san'ati haqida ikki risola (Urfon Otajon tarjimai). - Toshkent: Yangi asr avlodi, 2007.
9. Qilichev E., Qilichev B. Nutq madaniyati va uslubiyati asoslari. - Buxoro, 2002.
10. Rustamiy A. Adiblar odobidan adablar. - Toshkent: Ma'naviyat, 2003.
11. Saidov U. Nutq madaniyati va notiqdik san'ati. - Toshkent: Akademiya, 2007.

1. Epik ijod namunalarini ifodali o'qish jarayonida notqlikka xos marom, ohang, urg'u, talaffuz va ifodaning muhim retseptiv vazifa bajarishi. Epik ijod namunalarini ifodali o'qish – adabiy ta'limning o'zak masalalaridan sanaladi. U o'quvchini adabiyot olamiga olib kiradi, kitobxonning nutqiy savodxonligini oshiradi. XI asr Sharqining ulkan pandnomachisi Unsurulmaoliy Kaykovus o'zining “Qobusnoma” asarida, “Kishining eng yaxshi fazilatlardan biri bu notqlikdir” deya ta'kidlaydi. Zero, notiqning obro'-e'tibori uni faqat yaxshi, chiroyli, jozibali so'zlashi bilangina emas, balki uning lug'at boyligi kengligi, hamma tushunadigan, qofiyali so'zlarni o'z o'rnida ishlata bilishi bilan ham o'lchanadi. Shunda notiq nutqi mantiqli bo'ladi. Mantiq bilan bezangan nutq esa ta'sirli bo'ladi. Notiq, nutq – mantiqning o'zagi bir. Mezbon agar mexmonga: “Xush kelibsiz” desa, chiroyli so'z, chiroyli jumla hosil bo'ladi. Ayni shu chiroyli gapni qabristonga yozsakchi?! Unda mantiq buziladi. Bunday

chiroyli soʻz, chiroyli jumla juda xunik ifodaga aylanadi. Epik janrning kichik turiga mansub xalq maqollaridan birida aytilganidek: “Avval oʻyla, keyin soʻyla”, degan mantiq kelib chiqadi.

Notiqlik sanʼatida notiq nutqining taʼsirchanligi degan ibora mavjud. Nutqning taʼsirchanligini oshirish soʻzlovchining lingvistik mahoratiga bogʻliq. Qolaversa, epik asarlar syujetida ishtirok etuvchi personajlarning har qanday maʼnoni eng nozik, eng inju qatlamlarigacha ifodalab bera oladigan nutqlaridan ham nutqiy savodxonlik sabogʻini olish mumkin. Soʻz zargari Abdulla Qahhorning “Sinchalak” asarida Qalandarov Saidani kolxozdan ketkazish maqsadida unga “Ariza yozing” deb aytganda, Saida rozi boʻlmaydi. Shunda Qalandarov gʻijinib:

– Kolxoz yoqib qolgan boʻlsa, er-per topib bera qolay, – dedi. Saida esa uning aftiga qarab:

– Men sizni faqat yaxshi paxtakor, deb bilar edim, boshqa kas(s)bingiz ham bor ekan, – deydi kesatib.

Ushbu gapda “kassbingiz” soʻzidagi bitta “s” tovushini ataylab qavatlantirish bilan asar qahramoni raqibiga nisbatan oʻzining salbiy fikrini, yaʼni salbiy munosabatini oʻziga xos taʼsirchan tarzda bayon eta olgan.

Epik asarlarni ifodali oʻqish kitobxondan katta mahorat va tajriba talab qilinadi. Ifodali oʻqishda asarning badiiy xususiyatlari, unda oldinga surilgan gʻoya va fikrlar, yozuvchi dunyoqarashi kabi masalalarni aniqlash muhim ahamiyatga ega. Buning uchun oʻqituvchi matnni tanlashda juda ehtiyot boʻlmogʻi zarur. Matn yuqori saviyaga, yuksak qimmatga ega boʻlishi, shu bilan bir qatorda, taʼlim-tarbiyaga oid boʻlmogʻi lozim. Olingan parcha hajm jihatidan ham katta boʻlmasligi maqsadga muvofiqdir. Bundan tashqari matndagi dialog va monologlarga eʼtibor berish kerak. Shundagina ogʻzaki nutqni oʻstirish, badiiy asarning gʻoyaviy mazmunini chuqur tushunish, obrazlar tarkibini oʻrganish, umuman, yozuvchining hayotga boʻlgan munosabatini anglash kabi ifodali oʻqish darslari oldiga quyiladigan qator talablarga javob berish mumkin boʻladi. Fikrimizni A.P.Chexovning “Chinovnikning oʻlimi” nomli gʻoyatda siqiq, quyuq yozilgan hikoyasi misolida asoslaymiz. Hikoyada muallif Ochumilovning “Buqalamun” ekanini oʻz soʻzi bilan koʻrsatadi. Ochumilovning dastlabki fikri:

“– Itni o‘ldirish kerak, quturgan bo‘lsa ham ajab emas”.

It generalga qarashli, deyilgandan keyin:

“– It nozik, sen ho‘kizday, bo‘yingni qara! ”

Yana it generalniki emas, deyilgandan keyin:

“– Generalning itlari qimmatbaho zotli edi. Bu bo‘lsa, egasiz daydi itga o‘xshaydi. Epaqalik yungi ham yo‘q. Shunday bema’ni itni ham saqlaydimi kishi!”

Yana, it generalniki, deyilgandan keyin:

“– Balki qimmatbaho zotli itdir”.

Oshpaz, it generalniki emas, degandan keyin:

“– Bu egasiz, daydi it”.

It generalning akasiga qarashli ekani ma’lum bo‘lganda:

“– Yaxshigina it ko‘rinadi. O‘lguncha yugurdak ko‘rinadi”.

Mana bu dialoglarga muallifning hech qanday izohi kerak emas. Bu dialoglar ham voqeani siljitadi, ham hikoya qahramoni Ochumilovni xarakterlaydi. Kitobxonni hayratga soladigan bunday asarlar ifodali o‘qish san’ati bilan mushtarak holatda umrboqiylik kasb etadi.

Epik ijodda nutqning obrazlar, personajlar, ifoda shakllari, pafos bilan bog‘liq ko‘rinishlari mavjud. Ayni hodisa xalq og‘zaki ijodi janrlarida ko‘plab uchraydi. Fikrimizni xalq ertaklarini ifodali o‘qish jarayoni bilan dalillaymiz.

Xalq og‘zaki ijodining eng qadimgi va ommabop janrlaridan biri ertaklardir. Unda fantaziya va mubolag‘a kuchli bo‘lib, xalq hayoti, urf-odatlar, intilish va kurashlari, orzu-armonlari aks ettiriladi. Ertaklarning ommabopligi shundaki, barcha yoshdagi kitobxonlar sevib tinglashadi, o‘qishadi, mutodaa qilishadi. Demak, ertak tinglash, o‘qish va mutolaa qilish o‘ziga xos zavqli jarayon hisoblanadi.

Ertaklarni ifodali o‘qishdan oldin o‘zbek xalq ertaklarida turli-tuman shakllarda ishlatiladigan an’anaviy muqaddima namunalaridan misollar keltirib, ularning bir-biridan farqli jihatlarini tushunib olishimiz lozim. Masalan, “Tulki bilan tovuş” ertagining muqaddimasiga diqqat qiling: “Ertagi yo ertagi, echkilarning burtagi, qirg‘ovul qizil ekan, quyrug‘i uzun ekan, g‘oz karnaychi ekan, o‘rdak surnaychi ekan, ola qarg‘a azonchi, qora qarg‘a qazonchi, chumchuq chaqimchi ekan, to‘rg‘ay to‘qimchi ekan, bo‘ri bakovul ekan, tulki yasovul ekan,

ertagimning eri bor, yetti kunlik eri bor, yetti kunlik erida dumi kalta bo‘ri bor...”

O‘zbek xalq ertaklaridan “Oypari”ning muqaddimasi undan farq qiladi: “Bor ekanda, yo‘q ekan, och ekanda, to‘q ekan, o‘tgan zamonlarning birida Husanboy ismli kambag‘al bir bechora yigit bo‘lgan ekan, uning yotarga uyi, turarga joyi ham yo‘q ekan. U tug‘ilib o‘sgan qishlog‘idagi eski masjidning hujrasida yotib yurar ekan”. E‘tibor berilsa, ikkala ertakning muqaddimasi ham o‘ziga xos tarzda o‘qilishini sezish qiyin emas. Masalan, birinchi ertak muqaddimasi saj‘da yozilganligi uchun ifodali o‘qilganda ritmga ham katta e‘tibor beriladi. “Ertagi yo ertagi, echkilarning burtagi...” Ikkinchi ertak muqaddimasi esa, undan butunlay farq filadi: “Bor ekanda, yo‘q ekan, och ekanda to‘q ekan...” Bu parcha xuddi muallif bayoni kabi vazmin o‘qiladi. Ertaklarning bunday xilma-xil an‘anaviy muqaddimalari tinglovchilarga to‘g‘ri o‘qib ko‘rsatilsa, ularning butun fikri-xayoli voqelikka jalb etiladi, asar mazmuniga bo‘lgan qiziqishlari tutib turiladi. Masalan, “Uch og‘a-ini botirlar” ertagining o‘qilishiga e‘tibor bering. “Bir bor ekan (qisqa pauza), bir yo‘q ekan (qisqa pauza), qadim zamonda (pauza) bir kishi bo‘lgan ekan (pauza). Uning uchta o‘g‘li bor ekan (qisqa pauza), uchovi ham o‘qigan (qisqa pauza), oq-qorani tanigan (qisqa pauza), yomon bilan yurmagan (qisqa pauza), yomon joyda turmagan ekan (pauza). To‘ng‘ichi yigirma bir yoshda (qisqa pauza), o‘rtanchisi - o‘n sakkiz yoshda (qisqa pauza), kenjasi - o‘n olti yoshda ekan (pauza)”. To‘ng‘ichi, o‘rtanchasi va kenjasi kabi so‘zlarni o‘qilayotganda mantiqiy urg‘u beriladi, bu so‘zlardan so‘ng tire bo‘lganligi uchun qisqa bir pauza qilinadi. “Otasi (qisqa pauza) bir kuni o‘g‘illarini o‘z oldiga chaqirib (qisqa pauza), har birining peshonasidan silab (kichik pauza), bunday debdi: o‘g‘illarim (qisqa pauza), men boy emasman (qisqa pauza), mendan qolgan narsalar (qisqa pauza) sizning turmushingiz uchun yetmaydi (qisqa pauza), endi mendan biror nima umid qilib o‘tirmanglar (pauza). Sizlarni boqdim (qisqa pauza), voyaga yetkazdim (qisqa pauza), quvvatli bo‘ldingizlar (qisqa pauza). Mendan keyin baxtsiz bo‘lib qolmanglar (qisqa pauza), deb o‘qitdim (qisqa pauza), yaroq ushlashni o‘rgatdim (qisqa pauza), yaroq ishlashtishga usta bo‘ldingizlar (qisqa pauza), qo‘rqitmay o‘stirdim (qisqa pauza), botir bo‘ldingizlar (pauza). Yana uch narsani aytaman (qisqa pauza), quloqlaringizga olib (qisqa pauza),

eslaringizdan chiqarmanglar (pauza): to'g'ri bo'ling - (pauza) bexavotir bo'lasiz (pauza). Maqtanchoq bo'lmang - (pauza) uyatga qolmaysiz (pauza). Dangasa bo'lmang - (pauza) baxtsiz bo'lmaysiz (pauza). Bundan boshqasini endi o'zingiz biling (pauza). Kora toyni (qisqa pauza), saman toyni (qisqa pauza), ko'k toyni asboblari bilan tayyorlab qo'ydim (pauza). Xo'runlaringizni bir haftalik ovqat bilan to'lg'izdim (pauza). Baxtingiz yo'lida (qisqa pauza), uni topib olmoq uchun safarga chiqingiz (qisqa pauza), dunyoni tanimay (qisqa pauza), dunyo kishisi bo'lmaysiz (pauza). Baxt qushini ushlamoq uchun (qisqa pauza) baxt oviga chiqinglar (pauza). Xayr endi (qisqa pauza), o'g'illarim, -deb so'zini tamom qilibdi (pauza)".

Bu matnda mehribon ota – qariyaning sevimli farzandlariga qilayotgan nasihati sezilib turishi kerak. Ota so'zidagi yaroq ushlashni o'rgatdim, qo'rqitmay o'stirdim, to'g'ri bo'ling, maqtanchoq bo'lmang, qora toyni, saman toyni, ko'k toyni kabi so'zlar xuddi yuqorida ko'rsatilganidek, alohida ta'kidlab, urg'u berib o'qilsa, ertak g'oyaviy mazmunining tinglovchi qalbiga borib yetishi osonlashadi.

Axloqiy, satirik va kesatiq mazmunni kinoyaviy majoziy obrazlarda aks ettiradigan, taraqqiyotimizga xalaqit berayotgan illatlarni va kishilarni tanqid qilishga qaratilgan kichik she'riy va nasriy asarlarga masal deyiladi. Masal, asosan, epik asar turlaridan biri bo'lib, unda kishilar xarakteriga xos xususiyatlar hayvonlar va o'simlarga ko'chiriladi. Yozuvchi xalq og'zaki ijodidan, ayniqsa maqollar, hikmatli hamda xalq o'rtasida keng tarqalgan turli xil iboralar-piching, kesatish va boshqalardan ustalik bilan foydalanib, insonga xos bo'lgan u yoki bu salbiy belgi-xususiyatlardan kulish orqali pand-nasihat qiladi.

O'z davrining buyuk allomasi Aristotel notiqlik san'atini egallash uchun nutq matnini kashf qilish, ya'ni og'zaki ijro qilinadigan nutq matnini har tomondan chuqur o'rganib chiqish lozimligini uqtirib o'tgan edi. So'z ustasi tomonidan ovoz tovlanishlari orqali o'qilayotgan asar tinglovchida yoqimli hissiyotlar uyg'otadi, estetik tafakkurini boyitadi. Masalan, nasriy turning eng kichik janrlaridan biri latifalarda nozik bir mushohada, muhim bir fikr juda yorqin, ayni paytda kulgili xulosa bilan ifodalanadi. Latifalarda kinoya, majoz, qochirim so'zlar alohida badiiy-estetik vazifa bajaradi. Shuning uchun ham, latifalarni ifodali o'qishda har bir so'z, har bir jumlaning mazmuniga alohida

e'tibor qaratish lozim. Chunki latifada bitta jumla ham katta bir hayotiy haqiqatni o'zida mujassamlashtirgan bo'lishi mumkin. Quyidagi latifani ifodali o'qish qoidalariga asosan o'rganib chiqaylik. Masalan, quyidagi latifani ifodali o'qish qoidalariga asosan o'rganib chiqaylik. Pauza olgan o'rinlarga // - vertikal chiziq, qisqa pauzaga | - vertikal chiziq qo'yilgan.

Afandi bir yalqovdan so'rabdi : // -Holing qalay? //

– Topsam yeyman, // topmasam sabr-qanoat qilaman, // - javob berdi yalqov. //

– Unday bo'lsa, bizning shahar itlariga| juda o'xshar ekansan, // – dedi afandi. //

Ayrim latifalar mazmunida qashshoqlikdan shikoyat seziladi.

Ayni holat hazil-mutoyibada, aniqrog'i, kulgi yaratuvchi so'z o'yinida oydinlashadi. Bu xil yengil kulgida nochorlikni ijtimoiy illat sifatida ayblash yetakchilik qiladi. Masalan:

Afandi bazzozdan so'radi: //

– Shimingiz necha pul ? //

– O'n tanga, // - javob berdi savdogar. //

– Hozircha shimim bor, o'n tangaga yaxtak keladimi? //

– Ha, keladi, // – dedi savdogar, // shimning o'rniga unga yaxtak olib berar ekan.

Afandi yaxtakni qo'ltiqlab ketayotgan edi,| savdogar qichqirdi: //

– Pulini bermaysizmi? – desa, | afandi: //

– Shimni qaytarib berdim-ku,|nega pul to'layman, // – deb javob berdi⁷².

Latifa (arabcha so'z, ma'nosi “nozik, yoqimli, zarif”) xalqning o'tkir mushohadasi asosiga qurilgan yoqimli va nozik kulguli eng kichik va nodir “hikoya” (“zarifa”, “ajiba”)sidir. Unda eng qisqa shakldagi qiziq voqeaning bir epizodi nasriy yo'lda kulguli qilib aytiladi, epizod qiziqarli umumlasmaga, muhim fikrga, yorqin ifodaga boy bo'ladi, bu xususiyati-topqirlik va mahorat bilan yaratilgan bo'lsa, kishi xotirasida uzoq saqlanadi. Ayni paytda, ular og'izdan og'izga tez o'tib, yanada sayqallashadi.

Latifaning eng muhim xususiyatlaridan yana biri undagi konfliktning ikki (ijobiy va salbiy) qutbligidir, uning yorqin, bo'rtib

⁷²Latifalar. –Toshkent.:1968.241-bet.

ko‘rinishidir; “boshqacha bo‘lishi mumkin”, degan tushunchaga o‘rin qoldirmasligidadir. Latifa hamisha hayot bilan aloqadorlikda tug‘iladi. Har bir davrning, qavmning, millatning salbiy illatlari ayovsiz fosh etiladi, lo‘ttibozlik, mansabparastlik, laqmalik, kaltafahmlik, farosat-sizlik, uquvsizlik, dangasalik kabi kamchilik va nuqsonlar ustidan achchiq kulgu qo‘zg‘otadi. Masalan, gabrovoliklar (Bo‘lg‘oriya), shildaliklar (Olmoniya), qazvinliklar (Eron), shirinilar (Buxoro), oltiariqliklar (Farg‘ona), xonqaliklar (Xorazm) latifalarida yaqqol ko‘rish mumkin.

“Ziqna Shirini ko‘k choy ichib, ishkorning soyasida yonboshlab yotgan edi, kimdir radiodan aytib qoldiki, har qaysi atom bombaning qiymati bir necha million so‘m turadi!

– E-e xudo!-deb yubordi Shirini falakka ko‘z tikkancha. - Axir seni saxovatli deydilar-ku! Agar shunday bo‘lsa, chindan bor bo‘lsang, bir hikmat qil: shu bombaning aslidan bizning chorboqqayam bittagina tashla, shunda kun ko‘rib, odamga o‘xshab yashay!”.

Latifaning eng kichik ko‘rinishi matbuotda “xanda”lar nomi bilan yuritiladi. Xandalar biron-bir epizodning “qaymog‘ini-mohiyatini birdaniga kulminasion cho‘qqiga chiqaradi va dialogik nutq vositasida uni kulgili tarzda yechimga olib keladi. Jumladan,

“Folbin mijoziga fol ochayapti.

– Ellik yoshgacha pulsizlikdan qiynalasan.

– Keyin-chi?

– Keyinmi?.. Ko‘nikib ketasan”.

Ifodali o‘qish jarayonida badiiy asarning ta’sirchanligini oshiruvchi omillardan yana biri ohangdir. Ohangning o‘zgarishi nafaqat ta’sirchanlikni, ba’zan gap mazmunining o‘zgacha ma’no kasb etishiga ham sababchi bo‘ladi. Quyidagi misollarni qiyoslang:

1. Odam bo‘l, otang kabi ahmoq bo‘lma// Odam bo‘l otang kabi, ahmoq bo‘lma.

2. Mulla a‘lam to‘g‘ri odam emas // Mulla a‘lam to‘g‘ri, odam emas.

So‘zdagi urg‘uning ko‘chishi ham ko‘p hollarda ma’noning o‘zgarishiga olib keladi. Urg‘uga e’tibor bermasdan o‘qish natijasida matndagi ifodalarning to‘g‘riligi buziladi. Bu holat olma-olma, hozir-hozir, yigitcha-yigitcha, o‘quvchimiz-o‘quvchimiz, bog‘lar-bog‘lar, yangi-yangi kabi qator so‘zlarda urg‘uning bir bo‘g‘indan ikkinchi

bo'g'inga ko'chirilishi va mutolaa jarayonida bunga e'tibor bermaslik oqibatida sodir bo'ladi.

Gap tarkibidagi muayyan bir so'zga tushadigan mantiqiy urg'uning ham ma'noni farqlashdagi xizmati katta. Mantiqiy urg'u ham gap mazmunining o'zgarishiga sababchi bo'la oladi.

Epik turning kichik janrlaridan biri bo'lgan hikoyani ifodali o'qish ham o'quvchidan alohida bilim va tayyorgarlikni talab qiladi.

Ma'lumki, hikoya inson hayotidagi muayyan bir voqeani tasvirlaydi, ammo shu voqeaga qadar bo'lgan va undan keyin ro'y beradigan voqealarni batafsil bayon etmaydi. Shunisi xarakterliki, hikoyada qahramon hayotidan kichik bir epizodi olinib, unda hayotning muhim, tipik ko'rinishi ixcham shaklda tasvirlanadi. O'quvchi hikoyani ifodali o'qishda bu janrning ana shu jihatlarini e'tiborga olishi, matndagi muallif nutqi, tabiat tasviri, dialoglar hamda qahramonning ichki kechinmalarini puxta o'rganishi lozim. Quyida Abdulla Qahhorning "O'g'ri" hikoyasining o'qilishini ko'rib chiqaylik. Bu hikoyada bir-biriga qarama-qarshi ikki sinf vakillari ishtirok etgan. Ularning ma'naviy qiyofasi ham, ijtimoiy kelib chiqishlari ham tamoman bir-biriga zid. Asarda Qobil bobo obrazi xonavayron bo'lgan dehqonlarning yorqin timsoli bo'lsa, amin, pristav va ellikboshilar hukmron sinfnig tipik vakillari sifatida tasvirlanadi. Shuning uchun o'qish jarayonida Qobil boboning nihoyatda soddaligi, amaldorlardan madad kutishi, ularga ishonchi, xo'rlanganligi, amaldorlarning esa poraxo'r-
ligi, ikki yuzlamachiligi, avom xalqni mensimasligi ravshan sezilib turishi kerak. Shundagina tinglovchida Qobil boboga nisbatan achi-nish, mehr-muhabbat, amaldorlarga esa cheksiz nafrat tuyg'ulari uyg'onadi. Hikoyaning boshlanish qismi muallif tavsifi bo'lganligi uchun pauzalarga bo'lib quyidagicha o'qilishi mumkin: "Kampir tong qorong'usida hamir qilgani turib (qisqa pauza), ho'kizidan xabar oldi (pauza). O (pauza)!.. Ho'kiz yo'q (qisqa pauza), og'il ko'cha tomon-dan teshilgan (pauza)... Dehqonning uyi kuysa kuysin (qisqa pauza), ho'kizi yo'qolmasin (pauza). Bir qop somon (qisqa pauza), o'n-o'n beshta xoda (qisqa pauza), bir arava qamish (pauza), uy (pauza). Ho'kiz topish uchun necha zamonlar qozonni suvga tashlab qo'yish kerak bo'ladi (pauza).

Odamlar dod ovozigga o'rganib qolgan (pauza): birovni eri uradi (qisqa pauza), birovning uyi xatga tushadi (pauza)... Ammo

kampirning dodiga odam tez to'plandi (pauza). Qobil bobo yalang bosh (qisqa pauza), yalang oyoq (qisqa pauza), yaktakchan og'il eshigi yonida turib, dag'-dag' titraydi (qisqa pauza), tizzalari bukilib-bukilib ketadi (qisqa pauza), ko'zlari javdiraydi (qisqa pauza), hammaga qaraydi (qisqa pauza), ammo hech kimni ko'rmaydi (pauza). Xotinlar o'g'rini qarg'aydi (qisqa pauza), it huradi (qisqa pauza), tovuqlar qaqillaydi (pauza). Kimdir shunday kichkina teshikdan ho'kiz sig'ishiga ishonmasligi to'g'risida kishilarga gap ma'qullaydi (pauza).

Qobil boboning qo'shnisi (pauza), – burunsiz ellikboshi kirdi (pauza), U og'ilga kirib teshikni (qisqa pauza), ho'kiz bog'langan ustunni (qisqa pauza) diqqat bilan ko'zdan kechiradi (qisqa pauza); negadir ustunni qimirlatib ham ko'rdi (qisqa pauza), so'ngra Qobil boboni chaqirdi va past tovush bilan dedi (qisqa pauza):

– Ho'kizing hech qayoqqa ketmaydi (qisqa pauza), topiladi!”

Xullas, mazkur hikoyani ifodali o'qish jarayonida muallifning shaxsiy nuqtai nazari, uning inson shaxsi bilan aloqador bo'lgan bosh konsepsiyasiga urg'u berish o'rinli bo'ladi.

Qissa epik turning o'ziga xos janrlaridan biri bo'lib, unda bir emas, bir nechta personajlar qatnashadi va ular bosh qahramon atrofida guruhlashadi. Qissalarni ifodali o'qishga kirishishdan avval uning janr xususiyatlariga alohida e'tibor berish zarur. Chunki, bu janrga oid asarlarning barchasini bir xilda o'qib bo'lmaydi. Masalan, avtobiografik qissalarda hayot osuda, osoyishta tasvir etiladi. S. Ayniy, Oybek va A. Qahhorlarning avtobiografik qissalari fikrimizning yorqin dalilidir. Bunday asarlar asar mazmunidan kelib chiqqan holda osoyishta, shoshilmay o'qiladi. Abdulla Qahhorning “Sinchalak”, Pirimqul Qodirovning “Erk”, “Qadrim”, mashhur qirg'iz yozuvchisi Chingiz Aytmotovning “Jamila”, “Sarvqomat dilbarim”, “Oq kema” singari qissalari esa o'tkir drammatizm, keskin konflikt zaminiga qurilgan va bu mazkur asarlarni ifodali o'qishda ham o'z aksini topishi lozim.

Roman ham epik turga mansub bo'lib, insonning jamiyat bilan aloqasini har tomonlama keng planda tasvirlashi, hayotning ko'lamdor manzarasini chizishi bilan ajralib turadi. Romanning povest' va hikoyadan farqi shundaki, unda turmushning yirik muammolari qalamga olinadi, ko'plab personajlar ishtirok etadi, roman janridagi asarlarni ifodali o'qishning o'ziga xos qiyinchiliklari ham shunda.

Ma'lumki, roman, o'z navbatida, tanlangan mavzui va tasviriy ifoda uslubiga ko'ra yana bir necha turga bo'linadi. Masalan, "O'tgan kunlar", "Qutlug' qon" – tarixiy roman; "Quyosh qoraymas" – harbiy roman; "Bo'rondan kuchli" zamonaviy roman; "Sariq devni minib" – sarguzasht roman; "Davr mening taqdirimda" – ijtimoiy falsafiy roman; "Anna Karenina" – oilaviy maishiy roman; "Sarob" – ijtimoiy-psixologik roman va hk. Ularning barchasini bir xilda o'qib bo'lmaydi. Aks holda, ko'zlangan maqsadga hech qachon erishib bo'lmaydi. Bunday o'qish kishini charchatadi, asarga nisbatan qiziqish yo'qoladi. Tinglovchi ham, o'quvchi ham undan estetik zavq ololmaydi. Romanning ichki turlari aniqlab olingandan so'ng, unda qatnashayotgan obrazlarning nutqi, xatti-harakati, so'zlash uslubini ham ko'z oldiga keltira bilish zarur. So'ngra romandan olingan parchani bir necha marotaba o'qib chiqib, tinish belgilari, urg'u, pauza va boshqa zaruriy narsalar aniqlab chiqilsa, maqsad yanada ravshanlashadi. Bu vazifalar bajarib bo'lingandan keyin ifodali o'qishga kirishsa bo'ladi.

Xudoyberdi To'xtaboyevning «Besh bolali yigitcha» romanidan olingan quyidagi parchani ifodali o'qish qoidolari asosida o'rganamiz.

“Tanishing, do'stingiz Orifjon”

Og'ir urush yillari... (pauza) shu urushning kasofati tufayli(qisqa pauza) butun-butun qishloqlar huvillab qolgan (pauza). Yosh-u qari (qisqa pauza) barcha urushning tashvishi bilan yashaydi, (pauza) ular orasida bir oz quv(qisqa pauza), bir oz sho'x-shaddod (qisqa pauza), bir oz latifago'y (qisqa pauza), (ammo juda ham pok Orifjon ismli bola ham bor (pauza). Urushning kulfatlari uning ham yelkasiga tushgan (pauza). Bu haqda uning o'zi yarim hazil(qisqa pauza), yarim chin qilib shunday deydi(pauza): «Belim sal bukikroq, (qisqa pauza) buni o'zim ham tan olaman(qisqa pauza), ukalarimni ko'taraverib (qisqa pauza), shunaqangi bo'lib qolganman(qisqa pauza), bo'yim ham tengqurlaringa qaraganda sal pastroq(qisqa pauza), buni ham inkor qilmayman (pauza). Men yuqoriga qarab o'saman deganimda ukalarim yelkamga minib olib(qisqa pauza), pastga qarab bosishaver-gan (pauza). Shuning uchun pakanaroq bo'lib qolganman(qisqa pauza). Besh bolali deyishlariga ham(qisqa pauza), rostini aytsam uncha jahlim chiqmaydi(pauza). Nega desangiz (qisqa pauza), chindan ham roppa-rosa beshta ukam bor(qisqa pauza). Beshoviniyam o'zim

katta qilganman (qisqa pauza), oyijonim traktorchi (qisqa pauza), urush boshlanganidan buyon kechasi-yu, kunduzi dalada (pauza).

Orifjon tabiatan sho‘x bola (pauza). Og‘ir paytlarda o‘ziga-o‘zi latifa aytib(qisqa pauza), ovunib o‘tiradi (pauza). Kun bo‘yi makka uqalaydi(qisqa pauza), sigirining tagini tozalaydi (qisqa pauza), pol artadi(qisqa pauza), o‘tin yoradi(qisqa pauza), kir yuvadi (pauza). Ba‘zan o‘zi singari tengqurlarining o‘yinlariga aralashib ketishni xayol qiladi(qisqa pauza). Ammo o‘yinga berilib ketib (qisqa pauza), uydagi ishlarning qolib ketishidan qo‘rqadi” (pauza).⁷³

Shu tariqa iste’dodli adib O‘zbekiston xalq yozuvchisi Xudoyberdi To‘xtaboyevning «Besh bolali yigitcha» romanining qahramoni Orifjonning qiziqarli, ammo og‘ir hayot yo‘li boshlanadi. Uning xarakteridagi ba‘zi bir jihatlar adibning «sariq devni minib» romanidagi yoqimtoy Hoshimjonni esga tushiradi. Ularning sho‘xligi ham, quvligi ham, xayolparastligi ham, adolatga intilishlari ham go‘yo bir qarashda bir-birlariga aynan o‘xshashdek bo‘lib tuyuladi. Ammo «Besh bolali yigitcha» romanini sinchiklab o‘qigan kitobxon bu xildagi o‘xshashlikning juda ham yuzaki ekanligiga ishonch hosil qiladi. Bu farq avvalo hayotiy materialning o‘zgachaligida, qahramonlarning turli sharoitlarda harakat qilishlarida, ularning bir-birlariga mutlaqo o‘xshamaydigan yorqin taqdirLARining haqqoniy yaratilganligida.

«Besh bolali yigitcha» romanidagi voqealar Orifjonning hikoyasi orqali beriladi. Uning hikoyasi bilan tanishar ekansiz, gohida beixtiyor jilmayasiz, qah-qah otib kulasiz, gohida urush yillaridagi kecha-yu kunduz tinimsiz mehnat qilgan vatanparvar odamlarning buyuk ishlariga tasanno aytasiz, gohida ko‘pchilikdan ajralib qolgan «ortiqcha» kishilarning qiliqlaridan jirkanasiz. Hech kimga sir emaski, bolalarning hayot va odamlar haqidagi tasavvurlari juda ham toza va musaffo bo‘ladi. Ular borliqni tabiiy holda qabul qiladi. Shu sababli Orifjonning odamlar haqidagi hikoyalari kishini o‘ylashga, fikrlashga undaydi.

Keling, yaxshisi asarning davomini o‘zingiz mustaqil o‘qib chiqing. Pauzali o‘rinlarni, mantiqiy urg‘u olgan so‘z yoki so‘z birikmalarini aniqlab, ifodali o‘qishni mashq qiling.

⁷³ To‘xtaboyev X. «Besh bolali yigit».(sarguzasht roman).-T.: Yangi asr avlodi, 2009,6-bet.

2. Lirik janrlar asosida marom (ritm) va ohang turishi, voiz nutqida ham marom va ohang ishtirokiga alohida e'tibor qaratilishi. Ma'lumki, badiiy adabiyotning bu turi so'zlarning ta'sirchanligi, ma'noning tig'izligi, ifodaning serqatlamligi bilan o'ziga xoslik kasb etadi. Lirik turdagi asarlarning asosiy belgisi yashiringan subyektning ruhiy holati, sezimlari, hissiy olami, tuyg'ular tizimi ekan, bu turdagi asarlarni ifodali o'qishda ayni o'sha jihatlarga e'tibor qaratish, emotsiyaning samimiyligi, ifodaning hissiyligi, yuqumliligi singari lirikaning saviyasini yuksaltiradigan omillarni topishga, ularning o'z o'rnida qo'llanganligini o'rganishga e'tibor qaratish joiz.

Lirik janrdagi asarlar, odatda, kichik hajmli bo'lib, biror voqea-hodisa ta'sirida insonda tug'ilgan ruhiy kechinma, fikr va tuyg'ular orqali hayotni aks ettiradi. Shoir lirikada ayrim shaxsning bevosita hayotiy kechinmasini beradi, bu bilan lirik asarda xarakter va kechinmani individuallashtiradi. Shu bilan bir qatorda, ijodkor lirik asarda faqat o'z fikri, his-tuyg'ularinigina emas, balki umuminsoniy lirik kechinmalarni ham ifodalaydi. «Poeziya predmetsiz yalang'ochlikdan iborat bo'lgan mavhum g'oyaga toqat qilolmaydi. Biroq mavhum tushunchaning o'zini jonli go'zal obrazga aylantiradi. Bu obrazda fikr qirrali, xrustaldagi nurdek, jilvanib turadi»⁷⁴. Demak, shoir voqelikni ilg'or ijtimoiy g'oyalar nuri bilan yoritadigan kechinmalar, fikr-tuyg'ularini tarannum etadi, natijada kichik lirik asar katta ma'rifiy-tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. She'riy shakl lirikaning xarakterli xususiyati bo'lib, u kishining his tuyg'uga to'la hayajonli nutqini ta'sirli ifodalashda qo'l keladi. She'riy nutq mana shu xususiyati bilan ham nasriy nutqdan farq qiladi. Nasr nisbatan tinchosoyishta nutq bo'lsa, she'r – hayajonli, to'liq va ehtirosli nutqdir. Zero, she'r oddiy holatni emas, favqulodda holatni, kuchli hissiyotni, hayajonli tafakkurni ifoda etadi.

Shoirlar o'z ijodiy laboratoriyasida Payg'ambarimizning: “So'zda sehr bor, she'rda hikmat” degan hadislaridagi ikki jihatni namoyon kilishga tirishadi:

– ruhiyatning tushuntirish mushkul bo'lgan qatlamlarini tadqiq etish;

⁷⁴V. G. Belinskiy, Izbranniye sochineniya, GIXL, M.-L., 1949, str. 199.

– hissiyotdagi eng murakkab jarayonlarni bor chigalliklari bilan tasvirlashga e'tibor qaratish.

Demak, lirik asarlar bir oniy tuyg'uning birvarakayiga hayajonli tarzda ifodasidir. Shu boisdan ham lirikada voqealar tasviri, xarakter mantig'i emas, ruhiy holat tasviri, hissiyot ifodasi, tuyg'ular ta'sirchanligi muhim sanaladi. Abdulla Oripovning har satridan insoniy dard balqib turuvchi «O'ylarim» she'ridagi quyidagi satrlar o'quvchi tuyg'ularida o'zgarish yasashini inkor etib bo'ladimi:

Olti oykim, she'r yozmayman, yuragim zada,
Olti oykim, o'zgalarga tilayman omad.
Olti oykim, do'stlarim ham pana-panada
Iste'dodim so'nganidan qilar karomat.
Nimanidir axtaraman she'rdan ham ulug',
Nimanidir qidiraman nondan azizroq.
Dunyo o'zi bepoyonku ranglarga to'lug',
Biroq mening ko'zlarimdan ranglar ham yiroq.
...She'r izlayman bukun Toshkent ko'chalarida,
Sekingina zirqiraydi beorom qalbim.
Men umrimning bu suronli kechalarida
Na bir taskin topa oldim, na she'r topoldim.
...Ta'na qilmay axir sevgim mukofotini
Inson uchun ming otashda kuyar edim men.
O, qanchalar sevar edim inson zotini,
Qanday buyuk muxabbat-la sevar edim men.
Bugun to'nib atrofimga qarayman g'amgin,
O't berolmas, qalbgaga endi u yoshlik damlar.
Men insonni bir insonday sevardim, lekin
Nechun ko'pdir haligacha razil odamlar...

“She'riy nutq ritmga, ritm she'riy nutqqa muayyan shakl, yaxlitlik hadya qiladi. Ritm she'riy nutqni, har qanday oddiy fikrni ham bir daraja yuqori ko'taradi. Ritmdan so'zga sehr, ta'kid, ko'tarinkilik nasib bo'ladi; ritmlilik fikr-ishonch, muhimlik ato etganday bo'ladi; she'riy ritmli so'z obro'li so'zdir, ritmli fikrni yodlash oson va esdan uzoq vaqtgacha chiqmaydi... Qolaversa, ritmdorlik kishiga zavq-shavq bag'ishlaydi, nutqdagi hissiyot, emosionallikni orttiradi;

ruhiy ehtiyojni qondiradi. Aristotel aytganidek, nutqqa zebu-ziynat taqdim qiladi, g'oyaning kishiga singishiga ko'maklashadi."⁷⁵

Lirik nutqda tinglovchi yo o'quvchiga faqat zavq beribgina qolmay, uning emotsional-axloqiy imkoniyatlarini uyg'otadi, faoliyatga undaydi. Tashqi ko'rinishi – misralardan, baytlardan iborat, muayyan vaznga solib yozilgani uchun musiqiylik yetakchilik qiladi. Lirikada so'z mazmunan his-hayajonga yo'g'rilgan, nihoyatda tiniqlashgan, teranlashgan bo'ladi. Chunki haqiqiy she'rda har bir so'z shakl-shamoyil, rang-bo'yoq, maza, salmoq, ritm va ohangga egadir. Lirik asarning bosh hislati shoir qalbida yuz beradigan kechinma, shu kechinma uyg'otgan tuyg'ularni so'z orqali voqe qilish san'atidir:

Sensiz menga sabrdan o'zga nuqson yo'q,

Dilda hijroningdan o'zga armon yo'q,

Jonimda shu darddan o'zga xirmon yo'q,

Yo'q, yo'q, sabr ham yo'q, dil ham yo'q, jon yo'q! (A.Navoiy
“Devoni Foniy”)

Bundayin dil izhori hozirgina qilinganday, hozirgina sodir bo'lib o'tganday taassurot qoldiradi. Uning qalbingizdagi harorati hali sovumaganday tuyuladi.

XV asrning mashhur so'z ustasi Husayn Voiz Koshifiy “Futuvvatnomai sultoni” nomli asarida lirik janrlar asosidagi marom va ohangning o'rni va ahamiyati, she'rxonlik odobi, badiiy o'qishning o'ziga xos qonun-qoidalari haqida fikr yuritib shunday deydi: “Agar she'rxonlik odobi nechta, deb so'rasalar, oltita deb aytil: birinchidan, she'rni ohang bilan o'qisin, ikkinchidan, she'rni odamlar qalbiga joylay olsin. Uchinchidan, agar biror mushkul (tushunilishi og'ir) bayt bo'lsa, yig'ilganlarga uni sharhlab, mazmunini izohlab bersin. To'rtinchidan, eshituvchiga malol keladigan ish qilmasin. Beshinchidan, gadoylik qilmasin, mubolag'ali qasamlar ichmasin. Oltinchidan, o'qigan she'rining muallifini maraka oxiri yoki boshida tilga olib, duo qilsin”⁷⁶. Husayn Voiz Koshifiyning ushbu o'gitlari bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Zero, lirik janrlar asosida so'z ham kayfiyat ifodasini berish, ham holat tasvirini chizish, ham taassurot

⁷⁵ To'ychiyev U. O'zbek poeziyasida aruz sistemasi. - Toshkent: Fan, 1985, 212-bet.

⁷⁶ Husayn Voiz Koshifiy. Futuvvatnomai sultoni yoxud javonmardlik tariqati (fors-tojik tilidan Najmiddin Komilov tarjimai). - Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1994. 57-82-betlar.

manzarasini ko'rsatish vositasi bo'lganligi uchun ifodali o'qishda badiiy so'zdagi yetakchi marom (ritm) va ohangni ilg'ab olishga, asar musiqasini tayin etishga alohida ahamiyat berish lozim.

2. Ritor tanlagan mavzuga qarab lirik janrlarga xos tez, sekin, yuqori yoki past ohanglarning o'rin almashinib turishi. So'zlar lirik janrlarda qofiya, vazn, band, tovush takrori, so'z takrori (epifora, anafora, radif), inversiya, musiqiylik, ritm, turoq, misra, band, turkum, ritmik pauza jihatidan aloqador holda amal qiladi. Shuningdek, lirik janrlar gap, jumla, so'zninggina emas, balki bo'g'in, nutq tovushlarining unli yo undoshligi ham o'ziga xos ahamiyatga ega. She'riy asarlarni o'qish jarayonida ana shu jihatlar inobatga olinishi lozim.

She'riy asarlarda tez, sekin, yuqori yoki past ohanglarning o'rin almashinib turishi aksariyat hollarda band tuzilishi bilan bog'liq hodisa sanaladi. Masalan, xalq dostonlaridagi yetti hijoli bandlar tezlik talab etilgan o'rinlarda ishlatiladi. Qahramonlarning ot bilan safari ko'pincha yettilik bilan beriladi:

Ot boradi arillab,	- 7
Otgan o'qday sharillab,	- 7
Ot alqimi tong shamol,	- 7
Mis karnayday zarillab,	- 7
Suvsiz cho'lda G'irko'k ot	- 7
Borayotir parillab.	- 7

("Ravshan" dostonidan)

Bunday holat mazmun bilan aloqador bo'lib, ko'pincha voqelikni, qahramon xatti-harakati tempini ifodalaydi. Qisqa vaznli She'rlar tezlikni ifodalasa, 11, 12, 13 hijoli uzun vaznli She'rlar harakatning tinch va ohistaligini ifodalaydi.

Bekaslar uchrasa, tumshuq turmagin,	- 11
Hajv aylab zinhor labing burmagin,	- 11
Oting o'ynoqlasa, ketma o'zingdan,	- 11
Kuchim bor deb kuchsizlarni urmagin.	- 11

Anglashiladiki, yuqorida keltirilgan yetti bo'g'inli She'riy parchani og'zaki ijro qilganda o'qish tempi (sur'ati) tezlashadi, keyingi o'n bir bo'g'inli, didaktik ruhdagi She'riy parchada esa, o'qish sur'ati nisbatan sekinlashadi. Shunday qilib, nutq tempi gapning ma'no jihatdan turlari, asar mazmuni, band tuzilishi va muallif maqsadiga ko'ra ba'zan tezlashib, ba'zan esa pasayib, o'zgarib turadi.

Ma'lumki, she'riy asarlarni o'qish jarayonidagi maftunkor ohang, xilma-xil ovoz tovlanishlari, jozibador intonatsiya kabi vositalar badiiy asarning emotsional ta'sir kuchini yanada oshiradi, eshituvchiga beqiyos zavq-shavq bag'ishlaydi. So'z ustalari tomonidan ovoz tovlanishlari orqali o'qilayotgan mazmundor She'r beixtiyor inson qalb torlarini chertib hayajonga soladi yoki maftunkor ovozda ijro etilayotgan qo'shiq tinglovchida yoqimli hissiyotlar uyg'otadi. Mashhur notiq Sitseron ovoz tovlanishlari va uning inson hissiyotlariga ta'siri haqida shunday deydi: "...agar kimda-kim suxandonlikda birinchi bo'lishni xohlasa, g'azabli joylarda tarang, keskin, sokin joylarda muloyim ovozda gapirsin; past ovoz unga salmoqdorlik, titroq ovoz ko'ngilni yumshatuvchi kuch baxsh etadi. Faqat uchtagina: past, yuqori va o'zgaruvchan ohanglar yordamida taronalarda shunchalik rangin va shunchalik lazzatli barkamollikka erishadigan ovoz tabiati haqiqatan ham, g'aroyibdir"⁷⁷. Boshqa-bir o'rinda esa, Sitseron inson ovozi musiqasi asbobining torlariga o'xshatadi: "...inson ovozi har bir tegib ketishiga, baland yoki past, tez yoki asta, qattiq yoki sekin javob beradigan (tovush beradigan) torlarga o'xshab sozlangan, har bir turning oraliq tovushlari haqida gapirmasa ham bo'ladi; har bir tur o'z navbatida tovushning rangin xillariga ega - mayin yoki qo'pol, ezilgan yo to'liq, cho'zilgan yoki uziq-uziq, bo'g'iq yoki keskin, uchib borayotgan yoki kuchayib borayotgan tovushlar. Va ushbu t uslardan hech birini bilim va meyor tuyg'usiz boshqarib bo'lmaydi"⁷⁸.

Sitseron nutqda ritmning o'rni va ahamiyatini ta'kidlar ekan, shunday deb yozadi: "Nutqda go'zallik bag'ishlaydigan ikkita vosita bor: So'zlar va ritmlarning yoqimlilik. So'zlar go'yoki qandaydir ashyo (material), ritm (usul) esa, uning bezagidan iboratdir"⁷⁹.

Darhaqiqat, nutqni, ayniqsa, she'riy nutqni ritmsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Chunki she'r ohang jihatidan ma'lum bir tartibga solingan o'lchovli ritmik nutqdir. She'riy ohangning ritmik strukturasi shakllantirishdagi o'rni qofiyaga ham bog'liq. Qofiya fikrning, mazmunning qo'sh qanotidir. U misralar yaxlitligini ta'minlab,

⁷⁷ Sitseron. Notqlik san'ati haqida ikki risola (U, Otajon tarjimai). - T.: Yangi asr avlodi, 2007, 385-bet.

⁷⁸ O'sha manba, 383-bet.

⁷⁹ O'sha manba, 385-bet.

kompozitsion vazifani ado etsa, muayyan ohangdorlikni hosil qilishi ritmni vujudga keltirib, band tuzilishiga yordam beradi, mantiqiy urgʻuni oʻziga olib misrani yakunlaydi. Bu jarayon ikkinchi, uchinchi va boshqa barcha misralarga yoʻl ochadi. Natijada ohangdoshlik, tovush garmoniyasi vujudga kelib, sheʼrning badiiy – estetik yuksakligi taʼminlanadi.

Demak, ritor tanlagan mavzuga qarab lirik janrlarga xos tez, sekin, yuqori yoki past ohanglarning oʻrin almashinib turishiga eʼtibor qaratmogʻi lozim. Zero, inson ovozi musiqa torlariga oʻxshar ekan, torlarni harakatga keltirish, undan mazmunli ohang taratish yoʻllarini oʻrganish uchun ritor izchil harakat, bilim va toʻxtovsiz mashq qilib turishi talab qilinadi.

3. Sheʼr vaznlariga xos marom, nutq materiali semantikasiga bevosita taʼsir etishi. Sheʼriy shakl lirikaning xarakterli xususiyati boʻlib, u kishining his-tuygʻuga toʻliq hayajonli nutqini taʼsirli ifodalashda qoʻl keladi. “Qalam ahllari soʻzlarni, soʻzlar orqali qalblarni uygʻotadilar. Eng oddiy soʻz ham shoir qalamiga tushgach, taʼsirchan vositaga aylanadi. Eng koʻrimsiz soʻzni ham goʻzallik ilohasiga aylantirish faqat shoirlarning qoʻlidan keladi. Eng arzimasi soʻzni eng aziz maqomga koʻtarish faqat shoirning badiiy moʻjizasidir”.⁸⁰ Sheʼriy nutq mana shu xususiyati bilan ham nasriy nutqdan farq qiladi. Nasr nisbatan tinch-osoyishta nutq boʻlsa, sheʼr – hayajonli, toʻlqinli va ehtirosli nutqdir. Zero, sheʼr oddiy holatni emas, favqulodda holatni, qattiq hissiyotni, hayajonli tafakkuri ifoda etadi.

Sheʼriy asarning gʻoyaviy mazmunini, lirik qahramonning ichki hissiyotlarini tinglovchiga toʻliq yetkazishda ifodali oʻqish muhim rol oʻynaydi. Shu boisdan ham har bir talaba ijrochilik mahoratini, ifodali oʻqishning oʻziga xos xususiyatlarini mukammal oʻrganishi lozim. Har qanday asarni ifodali oʻqish uning janr xususiyatlari va kompozitsion tuzilishiga koʻra belgilanadi. Xususan, lirik turdagi asarlarni ifodali oʻqishga kirishishdan oldin, uning gʻoyaviy mazmuni va badiiy xususiyatlarini atroflicha oʻrganib chiqish maqsadga muvofiqdir. Ogʻzaki ijrochi sheʼrni qalban his qilib, tushunib oʻqisagina, tinglovchini zavqlantira oladi. Ifodali oʻqish jarayonida sheʼriy asarning gʻoyaviy yoʻnalishiga qarab soʻzlashuv ohangidan,

⁸⁰Ochilov E.Oʻzbek xalqining moʻtabar shoiri // Muqimiy.Koʻnglim sandadur. –T.: Sharq, 2009.10-bet.

lirik va dramatik ohangdan foydalaniladi, tinish belgilariga qarab pauzalarga alohida e'tibor beriladi. Shundagina asardagi har bir so'z chuqur ma'no va emotsional ta'sir kuchiga ega bo'ladi. "Zero, har qanday san'at tabiat tomonidan bunyod etilar ekan, u bizning tabiatimizga ta'sir o'tkazmasa va huzur baxsh etmasa, u hech narsaga arzimas edi. Bizni ham to'ldiruvchi, ham jo'shqin etuvchi va ko'pincha, bizda ham quvonch, ham g'amginlik keltirib chiqaruvchi vazn (ritm, marom)lar va ovozchalik hech narsa bizning ongimizga tabiatan yaqin emasdir"⁸¹. Darhaqiqat, badiiy asarning inson ruhiga o'tkazadigan hissiy ta'sirida so'z ijrochisining yoqimli ovozi bilan birga she'r vaznlariga xos maromning ahamiyati beqiyosdir. Binobarin, ritm – marom she'r musiqiyliigi va ohangdorligini ta'minlovchi, lirik qahramonning his-tuyg'ularini badiiy ifodalashga xizmat qiluvchi asosiy vositalardan biridir.

Vazn she'riy nutqni nasriy nutqdan farqlovchi she'riyat asoslaridan biri bo'lib, o'lchov ma'nosini bildiradi. Binobarin, she'r ritmik nutq ekan, she'r tuzilishining asosini ma'lum ritmik birlik (o'lchov) - hijo tashkil etadi. she'r misralaridagi hijolarning miqdoriga qarab she'r tuzilishi ko'rinishlari va vazn turlari aniqlanadi. Chunonchi, o'zbek adabiyotining qadimiy she'r tuzilishi turlaridan bo'lgan barmoq vaznidagi she'rlar ritmi uchun hijolarning soni va turoqlar asos bo'lsa, aruz vaznidagi she'r tuzilishi uchun qisqa va cho'ziq hijolarning bir tartibda kelishi asos bo'ladi.

Barmoq vaznidagi she'rlarni ^{ifodali} o'qish. Barmoq vaznidagi she'rlar aruz vaznidagi she'rlardan tuzilishi va o'qilishi jihatidan farq qiladi. Barmoq vaznidagi she'rlar cho'ziq va qisqa bo'g'inlarga ajratilmaydi, balki hijolar miqdoriga asoslanadi. Unda misralardagi hijo (bo'g'in)larning soni bir xilda, tekis takrorlanishi natijasida muayyan ritm hosil bo'ladi.

Qiziq, har yil yanvarda
Men tug'ilgan bir kun bor.
Kelishadi mehmonlar,
Yog'ib turganda ham qor. (Zulfiya.)

⁸¹Sitseron. Notiqlik san'ati haqida ikki risola (U, Otajon tarjimas). - T.: Yangi asr avlodi, 2007, 314-bet.

Bu she'ning har bir misrasida hijolar soni yettitadandir.

Qi - ziq, har yil yan - var - da

1 2 3 4 5 6 7

Men tu - g'il - gan bir kun bor.

1 2 3 4 5 6 7

Ke - li - sha - di meh - mon - lar,

1 2 3 4 5 6 7

Yo - g'ib tur - gan - da ham qor.

1 2 3 4 5 6 7

Barmoq vazni turkiy xalqlar poeziyasining eng qadimgi turi bo'lib, xalq og'zaki ijodi namunalari ham shu she'riy vazn asosida yaratilgan. Barmoq vazni shunchalik uzoq tarixga ega bo'lishiga qaramay, hozirgacha eskirgan emas, balki o'zbek poeziyasida yetakchi o'rinni egallab turibdi. Quyidagi parcha besh hijoli vaznga misol:

O'rtog'im Turg'un, - 5

Men bilan yurgin. - 5

Bizning bog'chani - 5

Bir borib ko'rgin. - 5

Oybekning she'ridan olingan quyidagi parcha esa olti hijolidir:

Qish oqshomi keskin, - 6

El birla qor oynar. - 6

Turmush yana toshqin - 6

Porladi chiroqlar. - 6

Uyg'unning "O'quvchiga" nomi bilan ataluvchi quyidagi she'ri to'qqiz hijoda bitilgan:

She'rim agar bo'lsa bir lola, - 9

Siz parvarish qiluvchi oftob, - 9

Yuragimni aylab piyola, - 9

Sizga tutdim ishqimdan sharob - 9

Quyidagi she'riy parcha ham shoir Uyg'un qalamiga mansub bo'lib, o'n hijoli barmoq vaznida yozilgan:

Marhabo, yangi yil, omon kelding, -10

Yaxshi kunlar kutar yana oldda. -10

Ko'zimga jahonni ko'rsat keng, -10

Ko'raylik har ne bo'lsa iqbolda. -10

Hamid Olimjonning “Muqanna” drammasidan olingan quyidagi parcha o‘n bir hijoli barmoq vaznida yozilgan:

Xalqqa ayting, men aslo o‘lganim yo‘q -11

Yov qo‘liga taslim ham bo‘lganim yo‘q -11

Men elimni yuragida yashayman, -11

Erk deganning tilagida yashayman! -11

O‘zbek mumtoz she‘riyatining yetuk namoyondasi Nozimaxonimning “Nigorim” nomli quyidagi g‘azali yetti hijoda yozilgan.

Ko‘zi so‘zuk nigorim, -7

So‘zi chuchuk nigorim, -7

Boqmay qiyo o‘tarsan, -7

Aybim nechuk nigorim. -7

4. Dramatik asarda marom va ohangning yetakchi mavqeda turishi. Avval ta’kidlab o‘tganimizdek, dramatik asar qahramonlarining nutqi epik asar qahramonlarining nutqiga nisbatan dinamik hisoblanadi.⁸² Bunda nutqning aniqligi, uslubi, temp va ritm, pauza katta ahamiyat kasb etadi. Kitobxon dramatik asarlarni qo‘lga olishi bilan birinchi galda muallif izohiga ko‘zi tushadi. Bu izoh adabiyotshunoslikda remarka deb ataladi. Dramatik asarlarda beriladigan bu izohlar asarni sahnalashtiruvchi rejissorga va, ayniqsa, uni ifodali o‘qimoqchi bo‘lgan kitobxon diqqatiga qaratiladi. Binobarin, remarkada asar ishtirokchilarining tashqi qiyofasi, yoshi, xulqi, xatti-harakatlari, qiliqlari, sahna manzarasi va boshqalar yoritiladi. Demak, yozuvchi tomonidan bayon etilgan remarka asarni yaxshi tushunish, rollarga bo‘lib ifodali o‘qish uchun juda zarur.

Muallif tomonidan bayon etilgan remarkani ham ifodali o‘qish kerak. Remarkaning birinchi qismida asarda ishtirok etuvchi personajlarning nomlari, yoshi, kasbi va hatto jinslari ham bayon etiladi. Bu matnni ifodali o‘qishda personajlarning nomlarini aniq ravshan talaffuz etib, so‘ng bir oz pauza qilinadi va teridan so‘ngi bayon o‘qiladi. Masalan, “Oydin Davron”. (Nafas Shodmonov).

⁸² Bu haqda “Mutolaa madaniyati mazmuni” mavzusidagi “Dramatik asarlarda notqlik va deklorativ bayonning ahamiyati” reja tahlilida atroflicha tushuncha berilgan.

Ishtirok etuvchilar:

Davron – yosh fermer, asl kasbi qishloq xo‘jaligi muhandisi, 30 – 35 yoshlarda.

Oydin – Davronning turmush o‘rtog‘i, chet tili o‘qituvchisi, 25 – 30 yoshlarda.

Ashur – tuman hokimi o‘rinbosari, oxirida hokim, 45 yoshlarda.

Sherg‘ozi – hokimlik bo‘lim boshlig‘i, 45 yoshlarda.

Fayzulla – Davronning do‘sti va ish yurituvchisi.

Hayot – Oydinning dugonasi, jurnalist.

Mirza – sobiq fermer, 55 – 60 yoshlarda.

Sharif – Davronga qo‘shni fermer, 50 – 55 yoshlarda.

Sayfulla – taftishchi, SHerg‘ozining jiyani.

Asqar – qishloq yigiti, mexanizator.

Hamkor – Davronning chet ellik hamkori.

Prokuror.

Ichki ishlar xodimlari.

Remarkaning ikkinchi qismi, asosan, sahna manzarasini ifodalaganligi uchun matn to‘lig‘icha dona-dona qilib o‘qiladi: *Bahaybat bir daraxt. Uning chap tarafida 101-raqamli eshik, o‘ng tarafida 103-raqamli turli-tuman yashik taxtalaridan ishlangan eshik. 101-uyda yamoqchi Abdusalom, 103-uyda esa qorovul Mo‘min istiqomat qiladi. Mo‘min fig‘oni falakka chiqib Abdusalom oshnasinikidan chiqib keladi....* “Oltin devor”. (Erkin Vohidov).

Dramatik asarlarni ifodali o‘qishga kirishishdan avval, talabalarga dialog va monolog haqida qisqa ma’lumot berib, ularning ifodali o‘qilishini ko‘rsatish zarur. Dialog(lat.dialogos-ikki kishi o‘rtasidagi so‘zlashuv) – ikki yoki undan ortiq personajlar o‘rtasidagi nutq shaklidir. U asarda har bir qahramonning xarakterini, ruhiyatini, o‘y-orzularini ifodalaydi, o‘zining jo‘shqinligi, ma’nodorligi qisqaligi va ixchamligi bilan diqqatni jalb etadi. Ularda tomoshabin tushunmaydigan bironta ham so‘z yoki ibora qo‘llanilmaydi.

Dialog “men” va “sen” rollarining almashinuvini ifodalaydi. Dialogning bosh talabi holatni, o‘y-xayolni talqin qilmog‘i – kitobxonni asarlarning ochiq mazmunidan yashirin mohiyati sari borishga “majbur” qilishdir. Dialog muloqotdagi savol-javobning qisqaligi, aniqligi va tuzilishiga ko‘ra oddiyligi bilan tavsiflanadi. Fikrimizga

dramaturg Nafas Shodmonovning “Oydin Davron” dramasi­dagi Sayfulla bilan Fayzulla o‘rtasidagi mana bu dialog misol bo‘ladi:

“Sayfulla: Yashang. Qancha joyga chigit ekkansizlar?

Fayzulla: Yuz gektar.

Sayfulla: G‘alla qancha?

Fayzulla: Oltmish gektar.

Sayfulla: Yeringizning o‘zi qancha?

Fayzulla: Ikki yuz gektar.

Sayfulla: Qolgan qirq gektarda nima bor?

Fayzulla: Hamma narsa bor.”

Epik asarlardagi dialoglar ko‘proq kishilar o‘rtasidagi suhbatga o‘xshasa, dramatik asarlardagi dialoglar ko‘proq to‘qnashuvlar asosi­ga quriladi. Shuning uchun ham dramatik asarlarni ifodali o‘qishda, mazmunini talabalarga yetkazishda undagi ma’lum harakat, turli-tu­man munosabatlar va hatto personajlarning bir-birlari bilan so‘zlashib, tortishib turgan vaqtlarda qilinadigan pauza ham katta o‘rin tutadi. Shuningdek, qahramonlarning tabiati, ruhiy holati, ularning portreti, voqea sodir bo‘layotgan joylar va undagi sharoitlar ham asarni ifodali o‘qishga kirishishdan oldin mashg‘ulotning dastlabki paytida, ovoz chiqarmay ichdan o‘qish vaqtida belgilab olinadi. Masalan, dramatik asarlarni ichdan o‘qilayotgan vaqtda undagi personajlarning o‘ziga xos xususiyatlari: qaysi tabaqaga mansubligi, qanday kasb va hunar egasi ekanligi kabi masalalar ularning so‘zlarida, hatti-harakatlarida yaqqol sezilib turadi. Umuman, dramatik asarlarni ifodali o‘qishda faqat yuqorida aytilganlarga suyanibgina qolmaslik kerak. Asardagi qahramonlarning ruhiy holatini tasavvur qila bilish, ularning holatiga kira bilish kerak. Masalan, Erkin Vohidovning “Istanbul fojiasi” dramasi­dan olingan quyidagi parchani olib ko‘raylik:

“Jalol: Ukam Iskandar

Novgorodda halok bo‘ldi.

Notanish odam: Afsus...

Jalol: Ming afsus,

U mard edi.

Notanish odam: Afsus shuki, u o‘lmay qoldi.

Jalol: Yo‘q... Nahotki...

Notanish odam: Men bo‘laman o‘sha Iskandar!

(Saodat qichqirib yuboradi.)

Jalol: Yolg'on! Yolg'on! Sen u emas! Iskandar o'lgan!
Mening ukam Vatan uchun jonini berib,
Yer qa'rida yotibdi. Sen arvohni tinch qo'y.

Notanish odam: Tanimading, yo tanishni istamading.
Sen – Qahramonning akasisan, shunisi ma'qul".

Monolog (gr.monos-bir va logos-so'z, nutq) badiiy asardagi qahramonning o'z-o'ziga yoki o'zgalarga qaratilgan nutqidir. Arap monolog parda yoki ko'rinishlarning boshida kelsa, voqea o'rni bilan birga, asarda ishtirok etayotgan personajlardan birining sahnada paydo bo'lishiga zamin hozirlaydi va u bilan tanishtiradi: *"Mo'min: Sichqon sig'mas iniga, g'alvir bog'lar dumiga. E, ko'rpangga qarab oyoq uzat-da, xumpar. O'zing bitta so'zaniga suyangani yamoqchisan-u, dag'dag'ang olamni buzadi. Yana nima deydi, deng: 4 qop un, 2 qop guruch, 2 ko'y, bitta novvos, besh bosh-oyoq sarpo, yana kancha pul... O'-ho', Tanti-boyvachcha bo'lib ket-e! Qirq yillik qiyomatli qo'shnim bo'lib hali ham seni bilmagan ekanman.*

Abdusalom kiradi. Abdusalom: O', men to'y qilmoqchiman, to'y-chiq emas. El-yurtning oshini yegan odamman. O'zim kambag'al bo'lsam ham, himmatim baland, akasi". "Oltin devor". (Erkin Vohidov).

Bulardan tashqari, monolog asar qahramonining fikri va kechinmalarni ham ifodalaydi:

"(Saodat ketadi, Iskandar sohilda yolg'iz)

Ana, kema, Vatanimning bitta bo'lagi.

Oh, Vatanim buncha yaqin, buncha uzoqsan,

O'rtamizda ikki qadam masofa, xolos.

Ikki qadam qo'ysam – tamom, quchog'ingdaman,

Ammo o'sha ikki qadam – ikki dunyoning

Orasicha yo'ldir. Go'yo tug'ilmoq, o'lmoq

Sanalari orasida turgan chiziqcha...

Ana, kema yo'lga chiqdi. Endi u mendan

Beg'ubor u yillarimdek uzoqlashadi.

Bir dam to'xta, bolaligim, moviy bahorim,

G'urbat yurtga tashlab ketma meni, diyorim.

Uzoqlashma. Ko'z oldimda turgin bir nafas.

Sen bu ojiz diydanga nur bergin bir nafas,

Sening bilan eng baxtiyor onim ketmoqda,

Qurib qolgan vujudimdan jonim ketmoqda.
Yurtim, kemam to‘lqinlarning ustida qalqib,
Girdoblarga ko‘krak urib ketib boradir.
Yo‘q, u – oftob, menga tunni qoldirib, balqib
Yorug‘ kunduz maskaniga yetib boradir.
Endi menga shabi hijron falakda tanho
Sargardon bir yulduz kabi mo‘ltirash qoldi.
Har yil bir bor bandargohga kelib umidvor,
Sayyohlardan «bir kaft tuproq» deb tilash qoldi.
Xayr, Vatan, xayr, onajon!..

(Dengizga qarab asta tiz cho‘kadi.)

Bolangni kechir,
Ayriliqda o‘lib ketsam, mendan rozi bo‘l.

(Yig‘laydi.)

Qani edi, nasib bo‘lib bag‘ringda o‘lsam,
Bu dunyodan hech bearmon ketgan bo‘lardim.
Go‘yo ona kuchog‘ida uxlagan bola –
Tuprog‘ingda erkalaniyotgan bo‘lardim.

(Sukut.)

Quyosh botib ketdi – kemam ko‘zdan yo‘qoldi,
Ana, ko‘kka birin-ketin chiqdi yulduzlar.
Yulduz-yulduz yoshlar to‘kib mening holimga,
Ko‘ngildagi faryodimga falak ham bo‘zlar.
Ey qorong‘u falak, endi sen bag‘ringni och,
Yerda mening makonim yo‘q, olib ket meni,
Kafan qilib botayotgan quyosh nuridan,
Yulduzlarning Vataniga dafn et meni.
Abadiyat makoniga meni olib ket,
Sog‘inch nomli yulduz bo‘lib suzib yurayin.
Insonlarga bewatanlik dardini so‘zlab,
Yuragimdek simob bo‘lib qalqib turayin.
Yulduzlardan yulduz bo‘lib ko‘rinsa zamin,
Mehr tilay va osoyish tilay har zamon.
Qayda ado bo‘lsa mening notavon jismim,
Ruhim aytar: ota yurtim, sen bo‘lgin omon! ”⁸³

⁸³Erkin Vohidov. Umrim daryosi. Saylanma. 3-jild. – Toshkent: Sharq, 2001. 214-215-betlar.

Anglashiladiki, bu monologni ifodali o‘qishdan avval, monolog kim tomonidan, qay vaqtda, qanday holatda aytilganini to‘liq tasavvur qilish lozim. Ifodali o‘qishga tayyorgarlik jarayonida Iskandarning ana shu vaziyatdagi holatini anglash, idrok etishga intilish kerak. Umuman olganda, har qanday badiiy asarni ifodali o‘qishga kirishgan ijrochida birozgina bo‘lsa ham, aktyorlik mahorati bo‘lishi zarur. Ifodali o‘qishda ijro eng muhim holat bo‘lishi bilan birga, eng murakkab jarayon hamdir. Masalan, muayyan bir nutq matnini yoki she’rni har kim o‘z iqtidori va qobiliyatidan kelib chiqib har xil o‘qishi, har xil ijro qilishi mumkin. Kimdir asar ruhini tushunib, qalban his qilib, mahorat bilan ijro qilsa, ikkinchi birov hech narsani tushunmasdan, shunchaki o‘qish kerak bo‘lgani uchungina, nihoyatda g‘aliz va g‘ashga tegadigan tarzda ijro qiladi. Ayniqsa, adabiy ta’lim jarayonining sifati va samaradorligini ta’minlash uchun o‘qituvchi o‘z mimik imkoniyatlarini o‘rganishi va takomillashtirishi lozim. L.A.Введенская va L.G.Pavlovalar bu borada quyidagilarni maslahat beradilar: qoshlar, lablar va peshona bilan nima ro‘y berayotganini bilish tavsiya etiladi. Agar qoshni qovoq qilib, peshonani ajin qilib yurishga odatlangan bo‘lsangiz, qovog‘ingizni, peshonani ochib yurishni o‘rganing. Mimikamiz ifodali bo‘lishi uchun oyna oldida bir necha emotsional ko‘rinishlarni tasvirlang (g‘amgin, xursand, baxtsiz, nafrat). Mimika o‘zgarayotganini va u kerakli emotsiya berayaptimi, yo‘qmi kuzating”.

Ifodali o‘qishda asarda ishtirok etuvchilarning xarakter xususiyatlari, ichki kechinmalarini og‘zaki ijroda aks ettirish uchun asarning umumiy ruhini his qilish bilan bir qatorda, qahramonlar holatiga kirish ham talab etiladi. Qahramonlar holatiga kirishda esa, ikki narsa juda muhimdir. Bulardan birinchisi – ovoz.

Ovoz – ifodali o‘qishning samaradorligini ta’minlovchi vositalardan biri. Asar mazmunidan kelib chiqqan holda, ovozning past, baland yoki o‘rtacha ohangda tovlanib turishi asar mohiyatini tushunish, ta’sirchanligini oshirish barobarida, eshituvchiga cheksiz zavq-shavq ham bag‘ishlaydi. Alisher Navoiyning yozishicha, Husayn Voiz Koshifiy mohir so‘z zargari sifatida shu qadar hurmatga sazovor bo‘lganki, buning asosiy sabablaridan biri – ovozining shiraliligi,

ohangi, ichki ruhiy holatni turli harakatlar bilan ifoda qila bilishi bo'lgan⁸⁴.

Ifodali o'qish jarayonida notiqning ovozi bilan bir qatorda, uning yuz ifodasi va xatti-harakatlari ham juda muhim ahamiyatga ega. Bu faoliyat ijrochidan chuqur bilim, fahm-farosat, qobiliyat va mahorat talab qiladi. Ayni jarayon o'zining muayyan sifat ko'rsatkichlariga ega bo'lib, kitobxonni fikrlar va tuyg'ular olamiga olib kiradi. Shuningdek, kitobxonning qanday hissiyotlarni boshdan kechirayotganini anglash va idrok etishiga ham imkon beradi.

Xulosa qilib aytganda, nutqning qanday chiqishi yoxud badiiy asarning qay darajada qabul qilinishi, avvalo, ijrochiga, uning mahoratiga, yanada aniqroq aytganda, so'zlar mazmuniga monand xatti-harakatlariga ham bog'liqdir.

MAVZUNI MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR:

1. Epik ijod namunalarini ifodali o'qish jarayonida qanday qoidalarga rioya qilinadi?

2. Lirik janrlar asosida marom (ritm) va ohang turishi, voiz nutqida ham marom va ohang ishtirokiga alohida e'tibor qaratilishini qanday tushunasiz?

3. Ritor tanlagan mavzuga qarab lirik janrlarga xos tez, sekin, yuqori, yoki past ohanglarning o'rin almashinib turishini misollar asosida izohlang.

4. She'riy vaznlarning yuzaga kelish sabablarini bilasizmi?

5. Barmoq vaznining o'ziga xosligini, uning qadimiyligini asoslang.

6. She'r vaznlariga xos marom, nutq materiali semantikasiga bevosita ta'sir etishini misollar asosida izohlang.

7. Dramatik asarda marom va ohangning yetakchilik kasb etishini qanday tushunasiz?

8. Dialog va monolog nutqning o'ziga xos xususiyatlarini izohlang.

9. "Ilhombaxsh" notiq mimikasi qanday xususiyatlarga ega bo'ladi?

10. Asar ruhini his qilish, qahramonlar holatiga kirishda ijrochining yuz ifodasi qanday ma'no kasb etadi?

⁸⁴ Alisher Navoiy. O'n besh tomlik. O'n ikkinchi tom. // Majolis un-nafois. - Toshkent: G'.G'ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti. 1966.

GLOSSARIY

Adabiyot– (arabcha - adab) “odob” soʻzidan olingan. Odob-axloq jamiyat maʼnaviyatining oʻzagi, inson kamoloti (insoniyligi)ning koʻrsatgichi sanaladi. Axloq – maʼnaviyatning amali, maʼnaviyat esa oʻzlikni anglash demakdir.

Adabiy taʼlim asoslari – adabiyot oʻqitishning maqsadi, vazifalari va mazmuni adabiy taʼlimning asosini tashkil etuvchi tushunchalardir.

Adabiy janr – (frans. genre –tur, jins) – adabiyot rivoji jarayonida yuzaga kelgan asarlarning tasvirlash yoʻllari, kompozision qurilishi, bayon usullari, badiiy vositalar, hayotiy hodisalarni qamrash koʻlami va miqyosiga koʻra koʻrinishlaridir.

Adabiy meyor – tilshunoslik boʻlimlarining maʼlum qonun qoidalar asosidagi shakli.

Alliteratsiya – (lot.littera-harf) nutqda tovushlarning bir-biriga ohangdosh boʻlish hodisasidir.

Amaliy maqsad - til imkoniyatlaridan mustaqil va erkin foydalanish, koʻnikma va malakalarni hosil qilishga qaratilgan maqsad.

Antiteza (gr.antitesis-qarama-qarshi qoʻyish) – tazod boʻlib, maʼno jihatidan bir-biriga qarama-qarshi boʻlgan soʻzlarni, tushunchalarni predmetlarda qoʻllab, taʼsirchan lavhalar yaratiladi.

Asar(arab. - iz, qoldiq) - 1) biror narsadan qolgan yoki undan darak beruvchi belgi; nishon, iz; 2) Muhammad (s.a.v.) dan qolgan barcha sunnatlar; 3) olim, yozuvchi, rassom, bastakor va boshqa ijodining maxsuli.

Assonans - badiiy nutqqa intonatsion butunlik, ohangdorlik va emotsional – ekspressivlik bagʻishlash maqsadida qoʻllaniladigan fonetik usullardan biri assonansdir.

Apostrofa (gr.apostrophe-ogʻish) ham stilistik vositalardandir. Unda jonsiz narsa va hodisaga xuddi jonliday, oʻzi yoʻq shaxsga xuddi borday murojat qilinadi.

Badiiylik –(arab. “bada”-), “yangilik kiritish, ijod qilish”) hayotni jonli va taʼsirli qilib tasvirlash, ifoda etilishidir.

Badiiy asar tahlili – tahlil adabiy asarning badiiy mantigʻiga sinishish maqsad qilib qoʻyilgan ilmiy izohdir. Badiiy tahlil adabiy asarning hayotiy va badiiy mantiqiy hamda estetik jozibasini anglashga yoʻnaltirilgan ilmiy faoliyatdir.

Badiiy til –badiiy asarning mazmunini royobga chiqaruvchi muhim vosita hisoblanadi. Badiiy til kitobxonga g'oyaviy va emosional ta'sir qilish vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Baholash – o'qituvchi o'quvchilar egallagan bilim va ko'nikmalarni baholashda har biriga xos xususiyatlarni hisobga oladi, ularda mustaqil fikrlash qobiliyatini o'stirishga e'tibor beradi.

Bayon – bayon yozma ishning bir turi bo'lib, o'quvchi tomonidan asar yoki undan olingan parcha mazmunining ifoda etilishidir.

Ballada– (gr.balare co'zidan fr. baler co'zi kelib chiqqan, ma'nosi 1) "tovushga taqlid qilish, masalan, ma'rash", 2) "raqs tushish") janridagi bosh hislat – kutilmagan syujet (voqea)ning kutilmagan final (xotima) bilan tugashiga, qahramon qalb kechinmalari va ruhiyatining dramatik izhoriga bag'ishlangan asardir; to'g'rirog'i, undagi bu ikki (epik va lirik) holat-davr va qalb dramasi kashfi birlashib, qalb faryodi izhoriga aylanganda ballada tug'iladi.

Bilish – o'quvchilar maktabda adabiyotni o'rganish bilan birga u haqdagi bilimga ham ega bo'libgina qolmay, adabiy-ma'naviy kamolotga ham erishib boradilar, ularda badiiy qobiliyat, estetik savodxonlik tarbiyalanadi.

Bilimlarni muammoli yo'l bilan bayon qilish metodi - qo'yilgan muammoning yechimini topish yo'lida o'quvchi mustaqil izlanadigan metod.

Bilimlarni tayyor holda bayon qilish metodi - ona tili darslarida keng qo'llanilib kelingan metodlardan bo'lib, o'rganilayotgan o'quv materialini o'qituvchi tomonidan tushuntiriladi.

Bo'g'in – bir nafas bilan aytiladigan so'z yoki so'zning bo'lagi bo'g'in deyiladi.

Varvarizm – (lot. varvarus - kelgindi) lar - badiiy asar yozilgan tilga yot bo'lgan, boshqa tillardan kirgan so'z, ibora, birikmalardir.

Geminatsiya – (lot. geminatsio – qo'sh undoshlik) badiiy nutqda keng qo'llaniladigan fonetik usullardan yana biri geminatsiyadir. "Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati"da mazkur hodisa «qo'sh undoshlik – aynan ikkita bir xil undoshli holatning yuzaga kelishi» sifatida izohlanadi.

Giperbola – (gr.hyperbole-mubolag'a) – mubolag'a(ar.-lof urish, bo'rttirish)da san'atkor tasvirlanayotgan shaxs, predmet, voqea-hodisalarni boshqalaridan ajratib ko'rsatish, diqqatini jalb qilish maqsadida nihoyatda bo'rttirib tasvirlaydi.

Gradatsiya (lot. gradatio – zinapoya, bosqichma bosqich kuchaytirish) Nutq parchalaridan biri ikkinchisining ma'nosini kuchaytirib borishdan iborat uslubiy jarayon.

Doston –(forscha-tojikcha. nazm yoki nasr bilan yozilgan hikoya, poema; epik asar; sarguzasht, kechmish voqealar) deb yuritiladi. U adabiyotimizdagi epos singari qadimiy va go'zal janrdir.

Drama –(yunon. drame-harakat) atamasi keng ma'noda – dramatik turni, tor ma'noda – drama janrini bildiradi. Drama, V.Belinskiy asoslaganidek, tragediya bilan komediya o'rtasidagi janrdir, u mash'um falokatni ham, yumoristik va satirik kulgini ham talab qilmaydi. Balki hayot hodisalarini yuqori darajali tarzda, jiddiy holatda tasvirlaydi.

Jargon yoki argo (frans. Jargon-buzilgan til)-ma'lum guruh kishilarigagina tushunarli bo'ladi.

Inversiya –(lot.Inversid – o'rin almashtirish)da ijodkor xohishi(g'oyasi)ga ko'ra ta'kidlamoqchi bo'lgan fikrni ta'sirchan qilmoq maqsadida grammatik qoidalardan chekinadi va kitobxonni aynan shu fikr (so'z)ga diqqatini tortadi

Intoq – nutq sohibi sifatida tasvirlash, insonlardek gapirtirish demak. Intoq bolalarga atalgan she'r va hikoyalarda, ertak va masallarda ko'p qo'llaniladi.

Insenirovka – (lot.inscaena-sahnalashtirish) pyesa shaklida yozilgan badiiy asarni (muallif yoki boshqa ijodkor tomonidan, yoki hamkorlikda yaratilgan) sahnada qo'yishga moslab qayta ishlashdir.

Intermediya – (lot.intermedius-ikki narsa oralig'ida) pyesa va operalarning pardalari oralig'ida tomoshabinni zeriktirmaslik maqsadida ularni kuldirish uchun hayotdagi ayrim nuqson va kamchiliklarni siqiq tarzda hajv(fars) qilishdir.

Intonatsiya – (lot. Intonate-qattiq talaffuz etish) – ohang – badiiy asar bilan birga tug'iladi. Uni ilg'ash – asardagi har bir so'z va gap asosida yotgan mazmunni to'g'ri anglash,uning ohangini his qilish demakdir.

Kinoya – til birligini uning haqiqiy ma'nosiga qarama-qarshi ma'noda, kesatiq, qochirim, piching bilan ishlatishdan iborat ko'chim.

Kitob– (arab. yozilgan, muqovalangan asar)1.Ma'lum matnli varaqlardan iborat, muqovalangan, hajmi 48 sahifadan kam bo'lmagan bosma (qadim qo'lyozma ham) asar.2.Umuman, ma'lum shaxs, voqea-hodisaga oid tugal, odatda nashr etishga (kitob bo'lishga) mo'ljallangan asar.

Kitobot–(arab. Yozuv; yozuvli lavha) eskicha -yozish, ko‘chirib yozish, yozuv.

Kitobxon – (fors. O‘quvchi, o‘qiydigan) Kitob o‘quvchi.

Kutubxona yoki axborot resurs markazi– kitoblar qo‘yilgan joy, xona. Zamonaviy texnika vositalari, axborotlar bilan ta‘minlangan, mutolaa qilish uchun barcha shart-sharoitlar yaratib berilgan dargoh.

Kitobxonlik – Kitobxonlik, birgalikda kitob o‘qish demak.

Komediya – (yunon.comos-“quvnoq kishilar”(olomon) va oide-qo‘shiq)da hayot voqea-hodisalari dramatik qahramonlarning kulgili fe‘l-atvorlari, xatti-harakatlarida voqe bo‘ladi.

Ko‘chim – «adabiy asarning badiiy qimmatini, ifodaliligini, ekspressivlikni kuchaytirish uchun bir narsaning nomini, belgisini ikkinchisiga ko‘chirish yoki so‘zlarning umuman ko‘chma ma’noda ishlatilishini» nazarda tutadi.

Latifa – (arab. “nozik, yoqimli, zarif”) xalqning o‘tkir mushohadasi asosiga qurilgan yoqimli va nozik kulguli eng kichik va nodir “hikoya” (“zarifa”, “ajiba”) sidir.

Masal – (arab. “namuna”) voqelikni allegorik (kinoyaviy) va simvolik (ramziy) obrazlar yordamida ifodalovchi, real turmush va odamlarning ko‘rinishlari, xarakter qirralarini kinoya, kesatish, kulgu, g‘azab kabi xususiyatlar vositasida ochuvchi, “qissadan hissa” (bevosita yoki bilvosita) chiqaruvchi epik janrdir.

Metafora – narsa-buyum, voqea va hodisalar o‘rtasidagi o‘zaro o‘xshashlikka asoslangan ma’no ko‘chishi.

Metonimiya– voqea-hodisa, narsa-buyumlar o‘rtasidagi o‘zaro yaqinlik va bog‘liqlik asosida ma’no ko‘chishi.

Melodrama – (yunon.melos-ohang, kuy, drama-harakat), dastavval, musiqali drama asari sifatida yuzaga kelgan va undagi qahramonlar kuy jo‘rligida so‘zlashganlar (Shu sababli hozir ham Italiyada melodrama opera ma’nosida qo‘llaniladi). Unga J.J.Russo “Pigmalion”(1762) asari bilan asos solgan.

Monodrama – (yunon. monos-bir, yakka, yolg‘iz, drama-xatti-harakat)-bir aktyor tomonidan ijro etiladigan dramatik asardir.Esxilga qadar bo‘lgan tragediyada bir aktyor maska va kiyimlarini o‘zgartirib, bir necha rollarni ijro etgan. Bu aktyorning bir roldan ikkinchi rolga o‘tguncha vaqt ichida qo‘shiq va musiqali tanaffus bo‘lgan.

Mubolag‘a va kichraytirish - Narsalarni, voqea va hodisalarni, his-tuyg‘ularni, belgi-xususiyatlarni o‘ta bo‘rttirib tasvirlash (ayrim adabiyotlarda giperbola deyiladi).

Mutolaa –(arab.diqqat bilan o‘qish, o‘rganish). Diqqat bilan o‘qish, o‘qib tushunib olish.

Novella – (ital. novella – yangilik) hikoyanng eng ixcham ko‘rinishi bo‘lib, xarakterning muayyan vaziyatdagi holati voqeaning keskin burilish nuqtasida, dinamik syujet, kuchli drammatizm, kutilmagan yechim asosida ko‘rsatish - novellaning eng xarakterli xususiyati sanaladi.

Notiqlik san‘ati – fikrni bayon etishda kishilarning ruhiyatiga ta’sir ko‘rsatib, ta’sirchan bayon etish.

Nutq madaniyati – fikrni bayon etishda til vositalaridan o‘rinli va maqsadli foydalanish usullari.

Nutqning to‘g‘riligi – leksik va grammatik vositalardan nutq jarayonida o‘rinli foydalanish usullari.

Nutqning ta’sirchanligi – nutq jarayonida tilning ifoda va tasvir vositalaridan foydalanish.

Nutqning ifodaliligi – nutq jarayonida maqol, matal, frazeologik birliklar va hikmatli so‘zlardan o‘rinli foydalanish usullari.

Obraz – (ruscha. “aks”) Borliqning (undagi narsa, hodisa va h.k.) badiiy asardagi aksi.

Parallelizm – (gr.parallelos-“yonma-yon boruvchi”) – ikki yoki undan ortiq hodisa, narsa, predmet kabilarni yonma-yon tasvirlash (zidlashtirish, qiyoslashtirish, muqoyasalashtirish) orqali-asardagi poetik fikr(g‘oya)ni konkretlashtirish, uning ta’sirchanligini kuchaytirish vositasi.

Psixologiya (gr. “psyuxe” - “ruh”, “logos” - fan) – ruhshunoslik fani miyaning obyektiv voqelikni aks ettirish jarayonidagi holatlarini o‘rganadi.

Psixologizm – badiiy asar voqeligini, mohiyatini tasavvur qilishimizga imkon beradi: mutolaa jarayonida hayot va uning voqealari turli-tuman taassurotlar, sezgilar orqali kitobxon ongiga, qalbiga ta’sir etadi, unda ma’lum fikrlar, tuyg‘ular silsilasini uyg‘otadi, ular o‘quvchi qalbini o‘ziga asir etib, tafakkurini shakllantiradi, ma’naviyatini boyitadi.

Povest– (ruscha so‘z, ma’nosi hikoya, rivoyat qilish)ning asosiy belgisi, unda hayotiy qamrovning romanga nisbatan torligi, hikoyaga

nisbatan kengligi; shunga muvofiq syujet va kompozitsiyaning ham romanga nisbatan soddaligi, hikoyaga nisbatan murakkabligi ko'zga tashlanadi.

Poema – (yun. poiema – ijod)da hayot va odamlar qalbi epik (voqea) va lirik (kechinma - tuyg'ular) tarzida kashf etiladi. Poemada epika va lirika birlashib, yaxlit liro-epik oqimni vujudga keltirib hayotiy voqea-hodisalarning va qahramon xarakteridagi kuchning ruhi (qalbi)ni ochadi, tahlil qiladi, hayajonli ifodalaydi.

Qissa –(arab. “voqeiy hodisa yoki afsonalar bayon qilingan epik asar; syujetning murakkabligi jihatidan romandan ko'ra soddaroq badiiy asar”) – eng qadimgi janrlardan biri bo'lib, unda, asosan ishqiy mazmun yetakchilik qiladi.

Rivoyat – (arab. og'zaki hikoya, bayon etish) hayotiy voqealarni hayotiy uydirmalar vositasida aks ettiruvchi janr.

Ritorika–(gr.rhetor-“notiq”) murojaat (ritorik nido, ritorik xitob, ritorik g'azab, ritorik undov va h.) – poetik figuralardan biri bo'lib, unda personajlarning quvonch, hayrat, nafrat, iltimos, buyruq kabi yuzlab hissyotlarining ko'tarinki, tantanali, kulgili, kesatqli, g'azabli (g'oyaning talabiga mos tarzidagi) ifodasidir.

Ritorik so'roq - poetik fikrni so'roq shaklida tasdiqlashdir, ya'ni so'roqning o'zida javob ham mujassamlashgan bo'ladi; faqat fikr yorqinlashib, terinlashib qirralarini ham oshkor etib – estetik ta'sirdorlikni yuzaga keltiradi.

Ritm– (gr.“teng o'lchovlilik”) borliqdagi barcha hodisa va holatlar tovlanishlarini ro'yobga chiqaruvchi, ularni izchillik bilan bir meyorda takrorlanishini ta'minlovchi asosdir.

Saj – (arab.bulbul, to'ti, qumri kabi qushlar ovozining uyg'unlashib kelishi) folklorning, asosan, nasriy janrlarida bir yoki bir necha gapdagi ayrim so'zlarning yo vaznda, yo qofiyada, yoxud har ikkalasida moslashuvi.

Syujet – (frans. predmet, “asosga qo'yilgan narsa”-) badiiy shaklning eng muhim elementlaridan biri bo'lib, badiiy asardagi bir-biriga uzviy bog'liqholda kechadigan, qahramonlarning xatti-harakatlaridan tarkib topuvchi voqealar tizimini anglatadi.

O'xshatish – ikki narsa yoki voqea-hodisa o'rtasidagi o'xshashlikka asoslanib, ularning biri orqali ikkinchisining belgisini, mohiyatini to'liqroq, konkretrroq, bo'rttiribroq ifodalash.

Gʻazal –(arab. “ayollarga sevgi va munosabat izhor qilish”) asosan ishq – muhabbatni kuylovchi, muhabbat kabi judayam qadimiy, doimo yangi boʻlgan lirik sheʼrdir.

Hikoya– (arab.maʼnosi: “1) biror narsaning ogʻzaki bayoni, tafsiloti; 2) nasriy yoʻl bilan yozilgan kichikroq badiiy asar.

Tragediya –(yun. tragos – echki (taka), ado - qoʻshiq)da asosan ilohiy kuchlar va mifologik qahramonlar oʻrtasidagi murosasiz kurashlar falsafasi, yuqori tabaqa vakillari (podshohlar, shahzodalar, qoʻmondonlar, dohiylar, yoʻlboshchilar, boshliqlar, yetakchilar)ning fojialari aks etgan.

Sheva soʻz – (mahalliy soʻzlar) muayyan bir xududda yashovchi kishilarga, ularning shevasiga xos boʻlgan, adabiy tilga mansub boʻlmagan soʻz va iboralardir

Evfoniya (ing. euphony – yaxshi ovoz), yaʼni ohangdosh va ohangdorligi asarda shunchalik zarurki, u tufayli ritm izchillashadi, poetik fikr latiflik (yoqimlilik) kasb etadi, hissiy taʼsirni kuchaytiradi.

Ekspozitsiya– (lat.bayon qilish, tushuntirish) voqealar boshlanishidan oldin keladigan tasvir - muqaddima. Ekspozitsiya voqealar sodir boʻladigan joyga aloqador muayyan manzara bilan ilk bor tanishtiradi, unda ishtirok etadigan qahramonlar haqida dastlabki maʼlumotlar beradi.

Ellipsis – (gr.ellepsis-tushurib qoldirish, yetishmaslik) – badiiy asarda qisqalikni, siqqlikni taʼminlovchi stilistik vositadir.

Emotsional gaplar – Soʻzlovchining oʻta xursandlik yoki oʻta xafalik holatlarini yoki qahramonning his-hayajonini, voqea-hodisaga emotsional munosabatini ifodalovchi gaplar emotsional gaplar hisoblanadi.

Epos– (gr. epos –coʻz, nutq, hikoya) voqelikni keng hikoya qilishga asoslangan adabiy asar turi.

Epifora – Sheʼriy asarning misralari oxirida tovushlar, soʻzlar, iboralarning takrorlanib kelishi hodisasidir.

Folklor – (ing.folk-xalq, lore-donolik) “Xalq donoligi”, “Xalq donishmandligi” kabi maʼnolarni anglatib, xalq ogʻzaki badiiy ijodi atamasi bilan yonma-yon qoʻllaniladi.

Falsafa (yunoncha “filio” (sevmok), “sofos” (donishmandlik) – “donishmandlikni sevish” fani insonning mohiyati haqidagi eng muhim bilimlarni, eng umumiy muammolarni oʻrganadi.

ASOSIY ADABIYOTLAR:

1. Mahmudov N. O'qituvchi nutqi madaniyati. –T.: O'zbekiston Milliy kutubxonasi, 2007.
2. To'xliyev B. Ifodali o'qish. –Toshkent: Bayoz, 2008.
3. Jumaniyozov R. Nutqi mahorat. -T.: Adolat nashriyoti, 2005.
4. Bekmirzayev N. Notiqlik san'ati asoslari. –T.: O'qituvchi, 2008.

QO'SHIMCHA ADABIYOTLAR:

4. Sh. Mirziyoyev. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. –T.: O'zbekiston, 2016.
5. Sh. Mirziyoyev. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. T.: O'zbekiston, 2017.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli Farmoni. –T.: O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017.6-son, 70-modda.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari" to'g'risida (Xalq so'zi 2017 yil, 21aprel).
8. Mirziyoyev Sh.M. Adabiyot va san'at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma'naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir (O'zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi ma'ruza) // O'zbekiston adabiyoti va san'ati, 2017 yil, 4 avgust.
9. "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida"gi PQ-3271-sonli Qaror. //Xalq so'zi, 2017 yil 13 sentabr.
10. Jabborov N. Ma'rifat nadir. –T.: Ma'naviyat, 2010.
11. Jumaniyozov R. Muomala madaniyati. – T: Ma'naviyat, 2016.
12. Jumaniyozov R. Dil – qulf, til – kalit. – T.: O'zbekiston NMIU, 2016.
12. Masharipova Z. Ifodali o'qish praktikumi. –T.: O'zbekiston Milliy kutubxonasi, 2011.
13. Karnegi D. Nutq so'zlash san'ati. –Toshkent: Adabiyot uchqunlari, 2018.
14. Yuldoshev K,. Yoniq so'z. –T.: Yangi asr avlodi, 2006.

15. Karimov N. XX asr adabiyoti manzaralari. –T.: O‘zbekiston, 2008.
16. Maxmudov N. Tilimizning tilla sandig‘i. –T.: G‘.Gulom nashriyoti, 2012.
17. Normatov U. Tafakkur yog‘dusi. –T.: Fikr-media, 2005.
18. Oripov Abdulla. 4 jildlik. –T.: G.Gulom nashriyoti, 2001.
19. Rasulov R., Xusanov N., Muydinov K., Nutq madaniyati va notiqlik san‘ati. –T.: 2006.
20. Rustamiy A. Adiblar odobidan adablar. –Toshkent: Ma‘naviyat, 2003.
21. Saidov U. Nutq madaniyati va notiqdik san‘ati. –Toshkent: Akademiya, 2007.
22. Tojiyev E. va b. O‘zbek nutqi madaniyati va uslubiyat asoslari. –T.: Iqtisodiyot, 2006.

Internet ma’lumotlari:

23. www.ziyo.net
24. www.uforum.uz
25. www.literature.uz

MUNDARIJA

Soʻz boshi	4
Kirish.“Mutolaa madaniyati” fanining predmeti	6
Mutolaa va voizlikning Sharq va Gʻarb madaniy tafakkurida tutgan oʻrni.....	21
Mutolaa madaniyati mazmuni	32
Mutolaa madaniyati va adabiyot munosabati.....	55
Ifodali oʻqishning maqsad va vazifalari. Ifodali oʻqish va notiqlik sanʼatining shakllanish tarixi.....	74
Ifodali oʻqishda nafas, ovoz va talaffuzning oʻrni.....	107
Ifodali oʻqish vositalari.....	121
Epik, lirik va dramatik asarlarda marom va ohang.....	139
Glossariy.....	166
Adabiyotlar.....	173

СОДЕРЖАНИЕ

Предисловие.....	4
Введение. Предмет “Культура чтения”.....	6
Роль чтения и ораторства в Восточной и Западной культурной мысли.....	21
Содержание культуры чтения	32
Взаимосвязь между культурой чтения и литературой... ..	55
Стили и задачи выразительного чтения. История становления искусства выразительного чтения и публичных выступлений... ..	74
Место дыхания, голоса и произношения в процессе выразительного чтения.....	107
Средства выразительного чтения	121
Ритм и мелодия в эпических, лирических и драматических произведениях.....	139
Глоссарий	166
Литературы	173

CONTENTS

Preface.....	4
Introduction. The subject of “Reading Culture”	6
The role of reading and rhetoring in Eastern and Western cultural thoughtfulness.....	21
The content of reading culture	32
The relationship between reading culture and literature.....	55
Goals and objectives of expressive reading. History of the formation of the art of expressive reading and public speaking	74
The importance of breath, voice and pronunciation in significant reading.....	107
Expressive Reading devices	121
Rhythm and melody in epic, lyrical and dramatic works.....	139
Glossary	166
Literatures.....	173

QAYDLAR UCHUN

[illegible]

[illegible]

S. JUMAYEVA
MUTOLAA MADANIYATI VA IFODALI O‘QISH
O‘QUV QO‘LLANMA

Muharrir: *Y.Ziyodov.*
Texnik muharrir: *SH.Rahmonov.*
Musahhih: *Y.Ziyodov.*
Sahifalovchi: *K. Temirova.*

Nashriyot litsenziyasi № 5858-775f-17d6-89d3-a021-1994-5946.
22.07.2020. Terishga 10.11.2021 yilda berildi. Bosishga 27.12.2021
yilda ruxsat etildi. Bichimi 60x84_{1/16}. Shartli bosma tabog‘i-15,51.
Ofset usulida chop etildi. Times New Roman garniturası. Ofset qog‘ozı.
Nashr bosma tabog‘i-10,2. 2021-shartnoma. 108-buyurtma. 100 nusxada.
180 bet. Erkin narxda.

«Nasaf nashriyot – matbaa ijodiy uyi» MCHJ, 180118.
Qarshi shahri, Mustaqillik shohko‘chasi, 22-uy.

«Nasaf nashriyot – matbaa ijodiy uyi», MCHJda chop etildi.
180118. Qarshi shahri, “O‘zbekiston ovozi” ko‘chasi, 33-uy